

SAHNA NUTQI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

2310



ISBN: 978-9910-616-03-7



9 789910 616037



SAHNA NUTQI MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

**“ZAMON POLIGRAF”
NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2025**

UDK: 686.851.24

KBK:56.14.1

“Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent.: “Zamon poligraf” nashriyoti 2025.–274-bet.

Mas’ul muharrir:

U.Ibragimova – “Sahna nutqi” kafedrasida dotsenti

Muharrirlar:

G.Xalikulova – san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

R.Qodirov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor v.b

M.Xodjimatoeva – professor

X.Djuldikarayeva – professor v.b

Taqrizchilar:

Sh.Yusupov – professor v.b., “San’at va madaniyat fidokori” ko‘krak
nishoni sohibi

O.Azizova – san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ma’ruza matnlarini yig‘uvchi va sahifalovchi: B.Jabborov – tayanch
doktorant

Mazkur to‘plam 2024-2025 yil O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Teatr san’ati fakulteti “Sahna nutqi” kafedrasida o‘tkazilgan республика ilmiy-amaliy конференцияси uchun tayyorlangan ma’ruzalar asosida yaratildi. To‘plamda sahna nutqi masalalari, muammo va yechimlari qalamga olindi. Shuningdek, sahna nutqi tarixini tizimli o‘rganishning dolzarbligi, aktyor mahorati va sahna nutqi fanlarining o‘zaro uyg‘unligi: nazariy va amaliy masalalari, teatr, kino, televideniye va radioda sahna nutqi, san’at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashda sahna nutqi metodikasidagi yangi izlanishlar kabi mavzular asosida maruzalar o‘rin olgan.

Sahna nutqi fanining kelajagi uchun xizmat qiladigan ushbu to‘plam kelgusida professor-o‘qituvchilarining hamda talabalarning faoliyatida, shuningdek aktyor va rejissorlar tarbiyalashda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

ISBN: 978-9910-616-03-7

© O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2025.

©“Zamon poligraf” nashriyoti 2025

SO‘ZBOSHI

*“Адабиёт, санъат ва маданият яшаса,
миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди”.*

*Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.*

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta’limning barcha bosqichlarida o‘zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o‘zbek tilida ravon o‘qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida uzoq yillardan buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Sahna nutqi” kafedrası professor-o‘qituvchilari bo‘lajak san’atkorlarning sahnaviy nutqini tarbiyalash barobarida madaniyatimizning, san’atimizning ko‘plab tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar yetkazib berishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ayniqsa, so‘zning qudratini ko‘rsatadigan sahna asarlarida ular mehnatining samarasi yaqqol seziladi.

Yosh avlodning ma’naviyati va ma’rifatini o‘stirish dolzarb masala bo‘lib yuzaga chiqmoqda. Shunday ekan, bunda so‘z bilan

ishlaydigan mutaxassislar har tomonlama kuchli ilmiy salohiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Zero, ko‘plab yaratilayotgan sahna asarlarining tilini, nutqini puxta ishlashda, ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida xalq bilan muloqot qilganda, davlat tadbirlaridagi badiiy chiqishlarda albatta, professional nutq eng zarur vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ijodkorlar oldiga katta vazifalarni qo‘yganlari bejizga emas. Ona tilini yanada yuksaltirish, o‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atini rivojlantirish, zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish kabi qator masalalar shular jumlasidandir.

Men yoshlarimizning buyuk san’atimiz va madaniyatimizga bo‘lgan mehr-muhabbatini yanada oshishini, bu yo‘lda tinimsiz izlanishini, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib ijod qilishini istayman. Ta’kidlash joizki, institutimizda tahsil olayotgan talabalarda sahna nutqi va uning eng muhim masalalari yuzasidan bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lish yuqorida aytganimizdek, professor-o‘qituvchilar salohiyati bilan bog‘liq. Shuni inobatga olgan holda institutimizda o‘tkazilayotgan “Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya juda muhim deb hisoblayman va konferensiya ishtirokchilariga muvaffaqiyatlar tilayman.

***Nodirbek Sayfullayev,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori, professor.***

I SHO‘BA. SAHNA NUTQI TARIXINI TIZIMLI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI

Ergasheva Zilola

UzSIAC “Uzbek and world philology” department lecturer

LINGUISTIC FEATURES OF IDIOMS IN DEVELOPING ORAL SPEECH OF ART AND CULTURE STUDENTS

Abstract. *Idioms offer us an insight into language that goes beyond basic communication: they combine culture and history and create words that often work as a type of code or understanding for those that exist within a certain community. Learning idiomatic expressions gives language learners a nuanced understanding of the language, and there is often more than what meets the eye. This article has as main purpose to share the importance of the usage of idioms in order to improve students' communicative skill. By learning and using idioms the learners are able to increase and improve their com-municative skill.*

Key words: *idioms, meaning, communicative skill, conversation, integration, learning process, concept, practice.*

Annotatsiya. *Idiomalar oddiy muloqotdan tashqarida bo‘lgan lison haqida tasavvur beradi: ular madaniyat va tarixni birlashtiradi, ular qandaydir kod sifatida ishlaydi yoki ma‘lum bir jamiyatda mavjud bo‘ladi. Idiomatik iboralarni o‘rganish til o‘rganayotganlarga uni yaxshiroq tushunishlariga imkon beradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi talabalarning muloqot ko‘nikmasini yaxshilash uchun idiomalardan foydalanish muhimligini ta‘kidlashdan iborat. Idiomalarni o‘rganish va ulardan foydalanish talabalarga o‘z muloqot ko‘nikmalarini yaxshilash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *idiomalar, ma‘no, muloqot ko‘nikmasi, suhbat, integratsiya, ta‘lim jarayoni, nuqtai nazar, amaliyot.*

Аннотация. Идиомы дают нам представление о языке, выходящего за рамки простого общения: они объединяют культуру и историю, и создают слова, которые часто работают как некий код или понимание для тех, кто существует в определенном сообществе. Изучение идиоматических выражений помогает изучающим язык лучше понять его нюансы, и зачастую это не просто то, что кажется на первый взгляд. Основная цель этой статьи - рассказать о важности использования идиом для улучшения коммуникативных навыков студентов. Изучая и используя некоторые идиомы, студенты смогут повысить и улучшить свой коммуникативный навык.

Ключевые слова: идиомы, значение, коммуникативный навык, разговор, интеграция, процесс обучения, консенсус, практика.

In our daily lives, we often come across different English idioms and phrases which we frequently use during our conversations. These phrases and idioms make our conversation even more interesting. Different phrases and idioms about art will give learners different ways of expressing themselves and will make them sound like confident and fluent English speakers. Idioms and phrases may seem to be complicated at first, but they can be a lot more enjoyable to learn. Language learners may find them most often in spoken or written conversations. Idioms and phrases can help everyone improve conversational skills. The correct usage shows regional speakers that listeners understand the social meaning and connection behind the idioms or phrases. Using idioms or at least understanding expressions with art can help people feel more comfortable and confident with conversational skills the more they practice them during English speaking time.

The integration of idioms has a very important attention in the teaching and learning process of English, especially as a form to

implement effective techniques to incorporate idioms in the classroom. Idioms in and outside the classroom are widely believed to help teachers and students promote an innovative environment of communication. However, the integration of idioms in the teaching and learning process may be difficult or ineffective for some learners or teachers because it is not relevant or necessary for carrying out educational goals. Furthermore, from teachers' perspectives, with a variety of activities based on idioms can help to facilitate needs and challenge students' learning process. The type of activities and how they are constructed in the classroom is found as one of the most important aspects that help to the success of using idioms in and outside the classroom particularly, to enrich students' stage speech. The use of idioms has a great influence in learning process of a foreign language, because it could be one of the ways to give students better conditions to improve communicative skill in the daily context. Moreover, the common use of idioms in daily speech for English speakers has brought a necessity in the teaching field to implement the use of this tool in and outside the classroom in order to help students be competitive, increase their vocabulary and the informal way to speak in English. English is a language particularly rich in idioms - those modes of expression peculiar to a language (or dialect) which frequently defy logical and grammatical rules. Without idioms English would lose much of its variety and humor both in speech and writing. The background and etymological origins of most idioms is at best obscure. This is the reason why a study of differences between the idioms of American and British English is somewhat difficult. But it also makes the cases, where background, etymology and history are known, even more interesting. Some idioms of the "worldwide English" have first been seen in the works of writers like Shakespeare, Sir Walter Scott, Lewis Carroll or even in the paperbacks of contemporary novelists. An example of Shakespearian quotation can be found in the following sentence: "As a social worker, you certainly see the seamy side of life." Art terms,

technical terms, legal terms, military slang and even nautical expressions have found their way to the everyday use of English language. Based on the above statements, it is very important to know that native speakers of a language use idioms all the time. Students are often embarrassed and frustrated if they cannot understand the idioms a person is using. A strong knowledge of idioms will help students be better speakers. The high number of idioms and their high frequency in discourse make them an important aspect of vocabulary. Finally, since idiomatic expressions are so frequently encountered in both spoken and written discourse, this issue requires special attention in language programs what the purpose of help ing students improve their communicative skill.

In the English course, there are several components such as: grammar, reading, speaking, listening and writing through the use of idioms. At the beginning of the course the students may not know how to understand and use idioms correctly in their process of learning English as foreign language. Also, sometimes they are not aware of the importance and advantages of idioms. The learners do not know the implications and importance they face without knowing the use of specific idioms. Thus an English teacher has to lead the students to become competitive learners. Most of the time students do not have the opportunity to learn idioms into the syllabus and the other may own knowledge of some idioms in case if they have travelled abroad. Furthermore, the learners may give wrong meaning to idioms. In order to solve this situation, some workshops should be designed to help students to learn and apply idioms in English into their daily speech and improve their communicative skill.

The teaching process should be based on guiding students in the use of specific idioms into dialogues and daily conversation in order to improve the communicative skill. For this reason, it is necessary to take into account the following concepts: The definition of idiom, its structure, and the communicative skill. There are

different definitions about idioms. Let's analyze some of them. According to Fowler, an idiom is a phrase where the words together have a meaning that is different from the dictionary definitions of the individual words, which can make idioms hard for ESL (English as a second language) students and learners to understand. An idiom is a combination of words that has a meaning that is different from the meanings of the individual words themselves. It can have a literal meaning in one situation and a different idiomatic meaning in another situation. It is a phrase which does not always follow the normal rules of meaning and grammar.

For instance, "To sit on the fence" can literally mean that one is sitting on a fence "I sat on the fence and watched the game". However, the idiomatic meaning of "to sit on the fence" is that one is not making a clear choice regarding some issue. The politician sat on the fence and would not give his opinion about the tax issue. Many idioms are similar to expressions in other languages and can be easy for a learner to understand. Other idioms come from ancient phrases which have changed over time. For example "To hold one's horses" means to stop and wait patiently for someone or something. It comes from a time when people rode horses and would have to hold their horses while waiting for someone or something "Hold your horses," I said when my friend started to leave the store. Other idioms come from such things as sports that are common in the United Kingdom or the United States and may require some special cultural knowledge to easily understand them. "To cover all of one's bases" means to thoroughly prepare for or deal with a situation. It comes from the American game of baseball where one must cover or protect the bases. I tried to cover all of my bases when I went to the job interview.

Most idioms are unique and fixed in their grammatical structure. The expression to sit on the fence cannot become to sit on a fence or to sit on the fences. However, there are many changes that can be made to an idiom. Some of these changes result in a change in the

grammatical structure that would generally be considered to be wrong. To be broken literally means that something is broken. The lamp is broken so I cannot easily read my book. To be broke is grammatically incorrect but it has the idiomatic meaning of to have no money. I am broke and I cannot go to a movie tonight. There can also be changes in nouns, pronouns or in the verb tenses. I sat on the fence and did not give my opinion. Many people are sitting on the fence and do not want to give their opinion. Adjectives and adverbs can also be added to an idiomatic phrase. The politician has been sitting squarely in the middle of the fence since the election. It is for these reasons that it is sometimes difficult to isolate the actual idiomatic expression and then find it in a dictionary of idioms.

We hope these art idioms and phrases have helped you learn different expressions of art. These art idioms have inferences not only to the situations related to art but also to the situations related to common life. The use of phrases and idioms about art will help you in making students' conversation more interesting and catchy. It is necessary for teachers and students to deal with idioms in a suitable environment, where issues such as idiom definition or teaching methodology are solved; in this way, the teaching learning process of English as well as students and teachers will receive advantages related to the development of communicative skill.

REFERENCES

1. Fowler, H. *Dictionary of Modern English Usage*. (without source). Gillett, A. 2004.
2. *The Idiom book 1010 idioms*. (without source). Nunan, D. 2003
3. <http://www.usingenglish.com/reference/idioms>.

TIL VA ADABIYOT TARAQQIYOTI – NUTQ MADANIYATI TARAQQIYOTI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining o‘zbek adabiyoti shakllanishi va rivoji davomida mashhur adiblar va olimlarning izlanishlari tufayli taraqqiy etish jarayonlari haqida so‘z yuritildi. Tilning taraqqiyoti adabiyot taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlandi.*

Kalit so‘zlar: *jarayon, tarix, ona, bosh bo‘g‘in, iymon-e’tiqod, kelajak, ulkan, toshbitik.*

Аннотация. *В данной статье речь ведется о процессах развития узбекского языка в связи с изысканиями писателей и ученых знаменитых ученых и писателей узбекской литературы. Отмечается, развитие литературы тесно связано с развитием родного языка.*

Ключевые слова: *процесс, история, мать, главный слог, совесть, будущее, широкий, каменный надпись.*

Abstract. *This article discusses the development of the Uzbek language in relation to the research of renowned Uzbek literary scholars and scientists. It is noted that the development of literature is closely linked to the development of the native language.*

Keywords: *process, history, mother, main syllable, conscience, future, broad, stone inscription.*

Prezidentimiz ona tilimiz haqida quyidagilarni ta’kidlagan edilar: “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir”. Su ma’noda o‘zbek xalqi qadimgi davrlarda yashagan turkiy xalqlarning bir bo‘g‘ini hisoblangan. O‘zbek tili ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan va xalqimiz

tarixiy taraqqiyoti yo‘lida qanday tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham ana shu jarayonlardan o‘tib keldi.

O‘zbek tili eng avvalo xalq og‘zaki ijodida vujudga keldi. Onalar allasi xalq og‘zaki ijodining bosh bo‘g‘ini va kishilik hayotiy taraqqiyotining eng avvali hisoblanadi. Shu sababli onalar allasi orqali ona tili go‘dakning qulog‘iga kirib uning ongiga singib boraveradi. Natijada kishi ulg‘aygan sayin ona tili haqidagi tuyg‘u tobora mustahkamlanib iymon-e‘tiqodiga sodiq kishigina o‘zbek tilimizni e‘zozlaydi, asrab-avaylaydi, hozirgi davrimizga qanday yetib kelgan bo‘lsa tilimizga hiyonat qilmay kelajak avlodga yetkazib beradi.

Qadimdan turkiy til fidoyilari tufayli tilimiz toshbitiklarda o‘z aksini topdi. Xususan, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida qadimgi turkiy tilda o‘zlarining qimmatli pand-nasihatlarini o‘qib-o‘rganib kelinmoqda. Bular dastlabki turkiy til sohiblarining tilimizga bo‘lgan e‘zozlaridan qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi.

Prezidentimizning nutqida shunday so‘zlar keltiriladi: “Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar, Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan”. Shu tufayli Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Al Xorazmiy kabi buyuk olimu fuzalolar avlodlarga bebaho ma‘naviy va ilmiy meros qoldirdilar. Garchi ularning asarlari o‘sha davrlar taomiliga ko‘ra arab tilida yaratilgan bo‘lsada, ular turkiy til sohiblari tomonidan yaratilganligi cheksiz faxr-g‘urur bag‘shilaydi. Negaki ularning asarlari butun jahonda o‘qib o‘rganilyapti, oliy o‘quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilyapti. Yuqorida nomlari keltirilgan turkiy olimlarning turli sohalardagi faoliyati tufayli jahonda matematika, fizika, geometriya, astronimiya, meditsina, mexanika fanlari rivojlanib, hozirgi kunlargacha takomillashgan holda yetib keldi.

Vatanparvar, elparvar ajdodlarimiz o‘z yurti, ona tilini himoya qilib zarur bo‘lganda shu yo‘lda o‘z jonini ham ayamaganlar. Shu

ma'noda Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir: "O'tmishda o'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, dinu diyonatimizdan judo qilishga urindilar, ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum". Darhaqiqat, yurtimizning qadim tarixida ma'lum va mashhur bo'lgan elparvar, ozodlikparvar To'maris va Shiroq haqida afsonalar yuradi. Ular ham qadimgi turkiy tilda muloqot qilishgan va ish yuritishgan. Xususan To'maris momo o'z tilida qonxo'r bosqinchi Kirni qonga to'yg'azishga ont ichadi. Bu qasamini o'z xalqi, o'z tili haqqi ado etadi. O'z ona tilida bu ona yurtiga rahna solgan har qanday bosqinchi dushmanni Kirning taqdiri kutishini va ana shunday fojiaiy ahvolga tushishini e'lon qiladi. Shiroq ham o'z ona tilida yurtiga bostirib kelgan bosqinchilardan qasos olishga ont ichadi. Oddiy cho'pon, lekin aqli raso inson sifatida o'z ona tilida bergan ontini bajaradi. Bir o'zi dushmanning butun askarlarini yengganini ona tilida ma'lum qiladi. Ona tilidagi kalomi bilan halok bo'ladi.

Ana shu afsonaviy ajdodlarimizning ona tilida ichgan qasamini keyingi davrlarda yashagan buyuk kishilar davom ettirdilar. Xususan, buyuk sarkarda Amir Temur o'z yurti, o'z tilini saqlab qolish uchun ulug'vor ishlarni amalga oshirdi. O'z tilida ulug'vor bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish yuzasidan farmoyishlar berdi. O'z tili, o'z yurtini yanada qudratli qilish maqsadida ulkan imperiyaga asos soldi va tarqoq turkiy xalqlarni tili va dilini birlashtirdi.

Dastlabki o'rta asrlardayoq turkiy tilda ilmiy va badiiy, diniy asarlar vujudga keldi. Xususan, o'lkamizda birinchi bo'lib Maxmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otut turk" asarini yaratdi. Og'ir mehnatlar evaziga lug'atshunos olim turkiy tilning naqadar boyligi, rang-barangligini ko'rsatib qo'ydi va ilmiy jihatdan asosladi. Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida turkiy tilda ilmning naqadar qudratli kuch ekanligini isbotladi va xalqni, yosh avlodni ilm olishga va unga sodiq bo'lishga chorladi. Bilim kishining o'ziga va uning

avlodlariga ham saodat keltirishi, tilini burro, o'zini dono qilishini ta'kidladi. Ahmad Yugnakiy o'zining turkiy tilda yozilgan "Hibbatul haqoyiq" asarida ham tarixiy tilimizning naqadar tashbehlarga boyligini namoyon qildi. Xazrat Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" asarida Islom dini arkonlarini turkiy tilda badiiy jihatdan talqin etdi. Dunyoning o'tkinchiligi, berilgan qisqa sinov vaqtida ko'p savob ishlarni amalga oshirish kerakligi badiiy ifodalab berildi.

Turkiy tilni ulug'lash navbati Alisher Navoiygacha 14-asrda yashab o'tgan shoirlar Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Durbek kabi shoirlar zimmasiga tushdi. Ular o'z ash'orlarida, qasidalarida turkiy til ham forsiy tildan qolishmaydigan adabiyot tili ekanligini ko'rsatib berdilar. Turkiy til nozik qochirimlarga, tag ma'nolarga boy badiiy til ekanligiga ishora qildilar va bu fikrni o'z asarlari bilan amalda isbotladilar. Ular o'z ijodi bilan buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy davri ijodiyotiga zamin yaratdilar. Shuning uchun ham Navoiy "Majolis un-nafois" asarida ana shu shoirlarning hayoti va ijodiga batafsil to'xtaladi va turkiy tilda yozilgan asarlariga yuksak baho beradi.

O'zbek tili va, ayniqsa, o'zbek adabiy tilining shakllanishi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bilan o'zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko'rsatdi. Navoiy o'z ijodiy faoliyati davomida "Sab'ati abhur" ("Yeti dengiz") nomli lug'atshunoslikka oid asarini yozib tilimizni lug'aviy jihatdan yanada boyitdi. Shunga ko'ra Navoiy o'zbek adabiy tiliga asos solib, uni amalda nihoyatda boyitgan tilshunos sifatida tarixga kirdi.

Tilimizning keyingi davrlardagi ravnaqi shoir, shoh, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bog'liq bo'ldi. Boburning tili hozirgi tilimizga yanada yaqinlashdi. Bobur o'z asarlarida

qo‘llagan tashbihlari, badiiy unsurlari bilan tilimizni yanada boyitdi, tilimizga yangi so‘zlar olib kirdi.

XVIII – XIX asrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlarham o‘z ijodlari bilan o‘zbek tilining yanada boyishiga xizmat qildilar, o‘zbek tilidagi so‘zlarning keng imkoniyatini ochib berdilar. Ayniqsa bu paytlarda adabiyotga yangi janrlarni kirib kelishi, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli o‘zbek tiliga anchagina so‘zlar o‘zlashdi va tilimiz anchagina boyidi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek tili tarixi jadidlar ijodi bilan bog‘liq. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek tilida o‘sha davrgacha mavjud bo‘lmagan drama janrida asar yozdi. Bu bilan o‘zbek tilida nasriy janrdagi asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Yana bir e‘tiborli tomoni shundaki, adib o‘zining ushbu asari bilan tilimizni sahnada jaranglashiga erishdi. Shu asnoda Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasiga asos solib XX asr boshlarida o‘zbek madaniyatida yangi voqelikka asos soldi. Nashr ishlarini tashkil etib, o‘zbek publitsistikasini boshlab berdi.

Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, o‘zbek milliy she‘riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o‘nlab sohalarning oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Fitrat ona tilini mukammal egallashida onasining hizmati katta bo‘ldi. Shu sababli butun umri davomida ona tili rivojiga katta hissa qo‘shdi. O‘zbek adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib o‘zbek tilida “Abulfayzxon” fojia sahna asarini yozdi. 1918-yili Toshkentda tashkil etilgan, Turkistonda til, adabiyot, san‘at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullandi. 1921-yili mart oyida Fitratning bevosita ishtirokida Buxoro jumhuriyatida turk(o‘zbek)tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Umuman olganda Fitrat o‘zbek tili rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy o‘zbek tilini nihoyatda qadrladi. Uning imkoniyatlari ulkan, so‘zlarga boy, badiiy tasvirlari

keng ekanligini o‘zining epik asarlarida ko‘rsatib qo‘ydi. Uning romanlari va hikoyalarining tili shirali, sermazmun, qochirimlarga va milliy unsurlarga boy ekanligidan o‘zbek kitobxonlarining bir necha avlodlari ularni hamon sevib o‘qib kelmoqda. A. Qodiriy o‘z tarjimalari bilan ham o‘zbek tili badiiy ifodaviy tasvirda boshqa tillardan qolishmasligini isbotladi. U milliy tilini o‘z millatidek e‘zozladi, qadrladi.

Taniqli yozuvchi va tarjimon Abdulhamid Cho‘lpon haqida gap ketganda uning o‘zbek tili bilimdoni ekanligi ta’kidlanadi. Bu holatni uning ham nazm, ham nasr asarlarida kuzatish mumkin. U o‘zbek tilidagi publitsistika rivojiga alohida hissa qo‘shdi va ona tilining matbuotdagi keng imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima asarlari uning ijodida salmoqli o‘rin egalladi. O‘zbek tilining tarjima jarayonidagi imkoniyatlarini shu yo‘sinda namoyon bo‘ldi. O‘zbek tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan adiblardan biri G‘ofur G‘ulom hisoblanadi. U O‘zining da’vatkor she’rlari bilan o‘zbek tiliga o‘zgacha ruh bag‘ishladi. Asarlaridagi sifatlash, jonlashtirishlari bilan ba’zi so‘zlarning ma’no nozikliklarini ochib berdi. Hamid Olimjon Oybekni “Oybek prozada shoiru, poeziyada prozaikdir”, degan edi. O‘zining ana shunday mahorati bilan ona tilimizni sezilarli boyishiga va sayqallanishiga xizmat qildi. Abdulla Qahhor lo‘nda, qisqa tasvirlari bilan o‘zbek tilidagi so‘zlar serma’no ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. O‘z asarlarida o‘zbek tilidagi so‘zlarni shamolga uchirmaslik, ularga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishga chaqirdi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan o‘zbek tilining nazariy asoslari o‘rganilib, tilimizning mavqei ilmiy jihatdan mustahkamlana boshladi. Bu xayrli ishga yetuk tilshunos olimlar Faxri Kamol, Ulug‘ Tursunov, Zokir Ma’rufov, Tursun Ibragimov, Tesha Salimov, Said Usmonov, G‘ani Abdurahmonov, Fattoh Abdullayev, Sobirjon Ibrohimov, Otaqo‘zi Azizov, Mazluma Asqarova, Ayub G‘ulomov, Viktor Vasilevich Reshetov, Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov, Iristoy Qo‘chqortoyev, Karim Nazarov, Shamsiddin Shukurov,

Yormat Tojiyev, Nizomiddin Mahmudov kabilar o‘zlarining ulkan xissalarini qo‘shdilar. Ular o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi, stilistikasi sohalarini alohida-alohida tadqiq etdilar. Tadqiqotlar asosida monografiyalar yaratish bilan birga o‘zbek tilidan maktablar, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yozdilar. Ulardan hozirgi kunimizgacha o‘quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilib kelinmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida yuqoridagi olimlar o‘zlari yaratgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari asosida dars berib. Bo‘lajak o‘zbek tili mutaxassislarini tayyorlashga katta hissa qo‘shdilar. Shu bilan yoshlarda ona tilimizga bo‘lgan ulkan muhabbat uyg‘otdilar. Ularning shogirdlari hozirgi paytda yetakchi olimlardan bo‘lib, o‘z navbatida ular ham o‘zbek tili bo‘yicha mutaxassislar tayyorlab dastlabki tilshunos olimlarning an‘analarini davom ettirmoqda.

Ko‘rinadiki, XX asr o‘zbek tilining yuksak taraqqiyot davri bo‘lib qoldi. Tilimiz ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘sdi va mustahkamlandi. Lekin o‘tgan asrda shunday davrlar ham bo‘ldiki, o‘zbek tiliga mensimay, kamsitib munosatda bo‘lindi. Shunga qaramay, yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday to‘siqlarga qaramasdan milliy adabiyotimiz tufayli milliy tilimiz ham uzviy ravishda taraqqiy etdi.

Foydalanilgan dabiyyotlar

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbek tilining Davlat tili sifati nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.* – Toshkent. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2019-yil oktabr.
2. *Hozirgi zamon o‘zbek tili.* – Toshkent: Fan, 1957.
3. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili.* – Toshkent: Fan, 1966.
4. *Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
5. *O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom.* – Toshkent: Fan, 1975.

Jabborov Bobirjon

*O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrası o‘qituvchisi,
1-kurs tayanch doktoranti*

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI: KAMTARLIKDAN MO‘JIZAGACHA

***“Qo‘g‘irchoq teatri – teatr tarixi yaratilishida hal qilinishi
zarur bo‘lgan muhim masalalardan biridir” (A. Beletskiy)***

Annotatsiya. Maqolada Ye.Speranskiyning “Qo‘g‘irchoq teatri aktyori” asari asosida qo‘g‘irchoq teatrining san‘ati, tarixiy ildizlari va aktyorlik kasbining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Maqola qo‘g‘irchoq teatrida ijodiy yondashuv, aktyorning psixologik holati va sahnadagi kamtarlik hamda professional fazilatlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, qo‘g‘irchoq teatrining jamiyatlardagi o‘rni va dramaturgiya bilan solishtirilganda farqlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatr, aktyorlik san‘ati, ijodiy yondashuv, psixologik pauzalar, san‘at tarixi, sahna san‘ati, dramatik teatr, professional fazilatlar

Аннотация: В данной статье на основе произведения Е. Сперанского «Актёр театра кукол» рассматриваются искусство кукольного театра, его исторические корни и особенности профессии актёра. Статья раскрывает творческий подход в кукольном театре, психологическое состояние актёра, скромность и профессиональные качества на сцене. Также обсуждается место кукольного театра в обществе и его отличия от драматического театра.

Ключевые слова: кукольный театр, актёрское мастерство, творческий подход, психологические паузы, история искусства, сценическое искусство, драматический театр, профессиональные качества

Abstract: This article analyzes the art of puppet theater, its historical roots, and the unique aspects of the actor’s profession

based on Ye. Speranskiy's work "The Puppet Theater Actor." The article highlights the creative approach in puppet theater, the psychological state of the actor, humility, and professional qualities on stage. It also discusses the role of puppet theater in society and its differences compared to dramatic theater.

Keywords: *puppet theater, acting art, creative approach, psychological pauses, art history, stage art, dramatic theater, professional qualities*

Kirish. Qo'g'irchoq teatri — insoniyatning eng qadimiy va noyob san'at turlaridan biri bo'lib, uning tarixi ming yillarga borib taqaladi. Ushbu san'at shakli nafaqat tomoshabinlarni o'zining o'ziga xos ko'rinishlari bilan hayratda qoldiradi, balki aktyorlarning jismoniy va ruhiy mehnati, murakkab texnik va badiiy jarayonlarga asoslangan noyob ijodiy faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Qo'g'irchoq teatrining boshqa teatr turlaridan asosiy farqi — sahna ortida yashirinib, turli qo'g'irchoqlarni harakatga keltiruvchi aktyorning roli va san'atkorlik mahoratidadir.

Qo'g'irchoq dramaturgiyasini o'rgangan ilk tadqiqotchi — fransuz olimi Ernest Maindron bo'lgan. Uning 1900-yilda Parijda chop etilgan "Marionetkalar va Ginyol" nomli asari shu sohadagi kam sonli tadqiqotlarga yo'l ochdi. Bu ish Sharl Manenning "Yevropa marionetkalari tarixi" asarining mantiqiy davomi bo'ldi. Agar Sh. Manen asosan tarixiy-etnografik kontekstga urg'u bergan bo'lsa, E. Mendron pesalar va mualliflar tahliliga alohida e'tibor qaratdi.

Yevropa qo'g'irchoq teatri tarixiga oid muhim tadqiqotlardan yana biri — Pietro Ferrigni (Yorik) qalamiga mansub "Burattino tarixi" (rus nashrlarida "Marionetka tarixi" deb yuritiladi). Ferrigni shunday yozadi: "Agar men qo'g'irchoqlar tomonidan ijro etilgan barcha asarlarni sanab chiqishga urinsam, bu tentaklik bo'lar edi! Faqat qo'g'irchoq teatri zamon ruhini bunchalik aniqlikda aks ettira oladi. Bu teatr parodiya, satira, improvizatsiya va siyosiy kinoyalar

orqali jamiyatni ko'zgudek aks ettiradi. Iso Masihdan to Belzevulgacha, Viktor Emmanueldan Garibaldigacha, Janna D'arkdan Monika Krakovskayagacha — hamma bu sahnaga chiqqan!" Bu fikrlar qo'g'irchoq teatri san'atini qadimda ham jamiyat uchun qiziqarli hamda e'tiborga molik tur ekanligini ko'rsatadi.

Qo'g'irchoq teatrining ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Antik yunon madaniyatida, masalan, Aristotel qo'g'irchoq teatriga e'tibor qaratgan va inson hayotini marionetkalar hayotiga qiyoslagan. Ye. Speranskiyning so'zlariga ko'ra, qadimgi yunonlarda qo'g'irchoq teatriga xos o'rin bo'lgan, u hatto Suqrotning ziyofatlarida balet o'rnida qo'g'irchoq spektakllari tanlanganini tarixiy manbalardan ko'rish mumkin. Bu fakt qo'g'irchoq teatrining qadimiy davrlardan boshlab madaniy va badiiy muhimligini tasdiqlaydi.

O'rta asrlarda esa qo'g'irchoq teatrining roli yanada oshgan. Diniy mavzularni yoritishda, Injil va xushxabarlarni ifodalashda Cherkov qo'g'irchoqlardan faol foydalanishga kirishgan. Bu davrda qo'g'irchoq san'ati nafaqat madaniy, balki diniy-ma'rifiy vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Iezuit Mariontonio Lupi tomonidan qo'g'irchoq san'ati bo'yicha olib borilgan ilk tadqiqotlar ham o'sha davrning san'atga bo'lgan yondashuvini aks ettiradi.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrining tarixiy ildizlari, uning ijodiy jarayonlari, shuningdek, aktyor kasbining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarurati oshib bormoqda. Ye. Speranskiyning "Aktyor teatr kukol" asaridagi fikrlar qo'g'irchoq teatr san'atining murakkab va boy madaniy merosini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, qo'g'irchoq teatrining qadimiy ildizlari uning bugungi zamon san'atidagi o'rnini va rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Uning madaniy va diniy ta'siri bilan bir qatorda, aktyor va tomoshabin o'rtasidagi noyob o'zaro aloqa va ijodiy jarayonlarni chuqur o'rganish talab etiladi.

Qo'g'irchoq teatr aktyori boshqa teatr san'atkorlaridan tubdan farq qiladi. U sahna ortida yashirinib, o'zining jismoniy ifodasini emas, balki qo'g'irchoqni jonlantiradi. Shu sababli, uning ijodi bir tomondan ko'rinmas, boshqa tomondan esa juda murakkab va talabchan san'atdir. Ye. Speranskiy bu holatni "shirma ortida uzoq vaqt qolish" deb ta'riflaydi, u aktyorni o'ziga xos kamtarlikka o'rgatadi va tomoshabin bilan to'g'ridan-to'g'ri yuzma-yuz kelish imkonini cheklaydi.

Qo'g'irchoq aktyori ruhiy jihatdan o'ziga xos "vahiylarga to'la" bo'lishi lozim — ya'ni, u jonsiz narsalarda tiriklik va jonlilikni ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Bu tasavvur va xayolning o'zgacha yo'nalishidir, u bolalikdagi tasavvurlarni eslatadi, bunda oddiy buyumlar jonli va harakatga to'la bo'lib ko'rinadi. Masalan, K. Chukovskiy, A. Pushkin, S. Marshak, A. Obidjon, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla, H. Olimjonning she'rlari kabi, qo'g'irchoq aktyorining ijodida ham bunday poetik fantaziya uzoq umr ko'radi.

Qo'g'irchoq teatrida ishlatiladigan material — qo'g'irchoqlar va boshqa sahna asboblari — mo'jizaviy element sifatida namoyon bo'ladi. Bu san'atda umumlashtirish va allegoriyalarning o'rni katta bo'lib, ularning yordamida murakkab falsafiy yoki ijtimoiy mavzularni ham yengil va tushunarli shaklda ifodalash mumkin. Shu bilan birga, qo'g'irchoq teatri mo'jizalari aktyorning o'yinida, uning qo'g'irchoqni jonlantirishdagi mahoratida mujassam bo'ladi.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatri nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham ahamiyatli madaniy fenomen hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va yangi dramaturgik uslublar qo'g'irchoq teatrining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, aktyorlarning kasbiy malakasi va ijodiy yondashuvi ham yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos jihatlari — sahna ortidagi maxfiylik, aktyorning jismoniy harakatlarini qo'g'irchoqqa tarjima qilishdagi noziklik va murakkablik — bu san'at shaklini noyob va qimmatli qiladi. Zamonaviy qo'g'irchoq aktyorlari nafaqat texnik

mahoratga, balki chuqur psixologik tushuncha va tasavvurni ham talab qiladigan yangi darajadagi kasbiy yondashuvni rivojlantirishlari lozim.

Dramatik teatr aktyori sahnada o'zining butun borligini ko'rsatadi: nafaqat ruhiy holatini, balki jismoniy tabiatini ham ochiq ifodalaydi. U o'z ifodasiga to'liq bag'ishlanadi, o'zini ko'rsatishda hech qanday chegaralar qo'ymaydi. Bu esa tomoshabinga aktyorning ichki dunyosini to'liq anglash imkonini beradi.

Biroq, qo'g'irchoq aktyori esa o'zini yashirgan holda, qo'g'irchoq orqali hissiyot va fikrlarni etkazadi. Uning jismoniy harakatlari cheklangan va nozikroq bo'lib, ko'proq imo-ishora va subtil ifodalar orqali ma'no yaratadi. Qo'g'irchoq aktyori o'z san'atida yanada chuqur va simbolik yondashuvni talab qiladi, chunki u o'zini emas, balki qo'g'irchoqni jonlantiradi.

Shuning uchun ham, qo'g'irchoq teatrida aktyorning san'atga yondashuvi ko'proq kamtarlik, sezgirlik va puxta o'ylanganlikni talab qiladi. U o'zini ko'rsatishdan ko'ra, qo'g'irchoq orqali tomoshabin qalbiga yetib borishni afzal ko'radi.

Xulosa va tavsiyalar Ye. Speranskiyning fikricha, qo'g'irchoq teatr aktyorining san'atga bo'lgan munosabati va kasbiy fazilatlari teatr san'atining o'ziga xos va murakkab qirralarini ochib beradi. Bu san'at turi faqat texnik mahorat emas, balki chuqur ruhiy va tasavvuriy kuch talab qiladi. Zamonaviy qo'g'irchoq teatrining rivojlanishi uchun aktyorlarning o'ziga xos yondashuvi va ijodiy malakalarini oshirish muhimdir. Shu bilan birga, an'anaviy uslublarni hurmat qilish va yangi innovatsiyalarni uyg'unlashtirish san'atning yanada boy va chuqur bo'lishiga xizmat qiladi. Qo'g'irchoq teatriga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni kengaytirish orqali bu san'at turining imkoniyatlarini yanada rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, qo'g'irchoq teatri nafaqat madaniy meros sifatida saqlanib qoladi, balki yangi avlod uchun ham o'zining qiziqarli va dolzarbligini yo'qotmaydi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Speranskiy, E. (1960). *Aktyor teatr kukol*. Moskva: Iskusstvo.
2. Белетский А. *Старинный театр в России*. М.: Т-во «В. В. Думнов, насл. бр. Салаевых», 1923. С. 5.
3. Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – С. 79-85.
4. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар*. – 2012.
5. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – С. 116-119.
6. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 119-129.
7. Jabborov B. I. O. G. L. Qo ‘g ‘irchoq teatrida sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – С. 193-200.
8. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – С. 20-23.
9. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O ‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 286-291.
10. Toxirov O. MUSTAQIL TA’LIM MASHG ‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – С. 421-426.
11. Xodjimatoва M. et al. TEATR SAN’ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 186-194.

YETTI GO'ZALNING BIRI-RA'NO

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy o'z "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni bo'lmish "Sab'ai sayyor" asari, O'zbekiston davlat san'at muzeyida rassom Chingiz Axmarov tomonidan yaqratilgan asarlar, ijodkor tomonidan raqqosalarga bo'lgan hurmat va e'tibor, "Yetti go'zal" raqs ijorosi, uning tarixi, Mukarrama Turg'unboyeva, Ra'no Nizamova ijodi va uning "Bahor" davlat raqs ansambli faoliyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijod, asar, rassom, xoreograf, tarix, chizma, raqqosa, ansambl

Аннотация. В статье рассматриваются произведение Алишера Навои «Сабай сайёр», четвёртая поэма его цикла «Хамса», работы художника Чингиза Ахмарова в Государственном музее искусств Узбекистана, уважение и внимание художника к тансорам, тансевальный спектакл «Сем красавиц», его история, творчество Мукаррамы Тургунбаевой, Рано Низамовой и деятельность её государственного тансевального ансамбля «Бахор».

Ключевые слова: произведение, творческое произведение, художник, хореограф, история, рисунок, тансор, ансамбль

Abstract. This article examines Alisher Navoi's "Sabai Sayor," the fourth poem in his "Khamisa" cycle, the artist Chingiz Akhmarov's works in the State Museum of Arts of Uzbekistan, the artist's respect and attention to dancers, the dance performance "Seven Beauties" and its history, the work of Mukarrama Turgunbaeva, Rano Nizamova, and the activities of her state dance ensemble "Bakhor."

Keywords: work, creative work, artist, choreographer, history, drawing, dancer, ensemble

Eron shohlaridan bo‘lgan Bahrom binni Yazdijurdning hayoti va faoliyatiga murojaat etishni lozim topdi. Ajam mamlakati tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda bu hukmdorning taxtga chiqishi bilan bog‘liq ajoyib hodisalar, uning adolatli siyosati, qiziqarli hayot tarzi, “Havarnaq” deb atalgan muhtasham qasr qurdirishi, ov qilishga bo‘lgan ishtiyoqi, Diloromi changi nomli sozanda va xonanda qiz bilan munosabatlari, shuningdek, halokati tafsilotlari atroflicha bayon qilinadi. Alisher Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarida ham shoh Bahrom faoliyati ancha keng aks ettirilgan. Shoir jahon tarixidan munosib joy egallagan ushbu hukmdor haqida qalam surishga kirishar ekan, o‘z salaflariga qaraganda boshqacharoq g‘oyaviy-badiiy niyatni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi, ya’ni dostonida shoh Bahromning taxt egallashi bilan bog‘liq voqealardan boshlab o‘limiga qadar yuz bergan barcha hodisalarni to‘la tasvirlash yo‘lini tanlamay, uning Dilorom bilan munosabatinigina bayon qilish va u voqe‘likni shoh va uning kanizi o‘rtasidagi yuksak, pokiza va samimiy muhabbat tarixiga aylantirishni, asardan o‘rin oladigan yetti hikoyani esa bevosita asosiy mavzu bilan uzviy bog‘liq holda bayon etishni ma’qul deb bildi. [1, B.15]

O‘zbekiston davlat san’at muzeyida rassom Chingiz Axmarovning “O‘zbekcha raqs” deb nomlangan Xorazm, Buxoro, Farg‘ona maktablariga mansub bo‘lgan uch raqqosa osig‘liq turadi. Miniatyura san’ati va badiiy keramikadagi ramzlar uyg‘unligining eng go‘zal namunasi sifatida yetuk rassomning chinni laganlarga ishlagan “Yetti go‘zal” asarini misol keltirish mumkin.

Rassom Chingiz Abdurahmonovich Ahmarov 1950-yillardan ko‘p qirrali ijodkor sifatida ko‘zga tashlandi. Uning 1952-yilda Mukarrama Turg‘unboyeva, 1965-yilda Halima Nosirova, 1968-yilda “Yosh Navoiy” teatr spektakllari va kinofilmlarga, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasiga, Hamza teatri, “Ulug‘bek yulduzi”, “Ikki dil dostoni” filmlariga chizgilar, kitob bezaklari, maishiy lavhalardan 1971-yilda “Buxorocho raqs”,

“Xorazmcha raqs”, “Xush kelibsiz” rasmlar, amaliy san’at buyumlardan chinni laganlar uchun chizgilar ham yaratdi.



1980-1990-yillarda Toshkent metropolitenining “Alisher Navoiy” bekati, Amaliy san’at muzeyi binosi devorlariga ishlagan asarlari ham jozibalidir. Uning yaratgan bir-biridan nodir asarlari O‘zbekiston san’at muzeyida, Amaliy san’at muzeyida, Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida, Qo‘qon adabiyot muzeyida va boshqa muzeylarda bugungi kunda saqlanmoqda. [2, B.20]

Ana shu dunyoga mashhur “Yetti go‘zal” “Aloqabank” tomonidan chiqarilgan qog‘shma nishonli kartalarning eksklyuziv dizayni ham taniqli rassom Chingiz Ahmarovning Farg‘ona raqsi”, “Xorazm raqsi”, “Xalima Nosirova, “Nodira portreti”, “Tamaraxonim”, “Buxoro raqsi” kabi rasmlar parchalari asosida yaratildi.

Chingiz Ahmarov og‘zining badiiy asarlari bilan milliy madaniyatimizni boyitgan zamonaviy og‘zbek sanatining yetuk ijodkorlaridan biridir.

O‘zining yuksak mahorati, qizg‘in hayoti bilan san’at tarixida yorqin iz qoldirgan afsonaviy siymolardan biri Mukarrama Turg‘unboyevadir. “Bahor” davlat raqs ansamblining tashkilotchisi, mohir raqqosa, mehribon ustoz, qalbi daryo inson ansamblini tashkil etibgina qolmay, unga 20 yildan ortiq davr mobaynida rahbarlik qildi, bor mehrini, qalb ko‘rini, umrini baxshida etdi. Jahon san’atida

mashhur siymolar o'z emas. Biroq maktab yaratib ketgan san'atkorlar barmoq bilan sanarlidir. Mukarrama Turg'unboyeva-o'zbek raqs san'atida o'zining maktabini yarata olgan sara san'atkorlardan biridir. "U yaratgan va asos solgan maktabning xususiyati shundan iborat ediki, - deb yozadi san'atshunoslik fanlari doktori Muhsin Qodirov, - u bir vaqtning o'zida raqs san'atining uchta sohasi bo'yicha ish olib bordi. Birinchisi-raqs ijrochiligi, ikkinchisi-yangi raqs yaratish, uchinchisi-yosh raqqoslarni tarbiyalab voyaga yetkazish edi. Mukarrama Turg'unboyevaning "Bahor" davlat raqs ansambli dasturlarida ko'p yillar davomida ijro etib kelingan raqslarini uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Biri xalq orasida keng yoyilgan oddiy o'yinlar negizida yaratilgan raqslar "Andijon polkasi", "Namanganning olmasi", "Besh qarsak", "Toshkent piyolasi", "Samarqand bahori" bo'lsa, ikkinchisi, mumtoz o'zbek raqslarini ommaviy va zamonaviy asosida qayta tiklashga e'tibor qaratdi. Chunonchi, u o'z qizlari bilan "Katta o'yin", "Zang", "Rog", "Soqinoma", kabi raqslarga yangi hayot bag'ishladi. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidan ilhomlanib yaratgan "Yetti go'zal" raqsi ham o'zbek mumtoz raqs san'atiga mansubdir. U nafaqat o'zbek milliy raqslarini, balki jahon raqs san'ati namunalarini sahnaga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi".

O'zbek raqs san'ati fidoiy ijodkori Ra'no Hoshimovna Nizomova Qo'qon shahrida 1935-yilning 25-dekabrida tavallud topgan. O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovar bo'lgan raqqosa, baletmeyster, pedagogdir. Toshkent xoreografiya bilim yurti, Toshkent madaniyat institutini tugatgan. Navoiy teatrida, "Bahor" davlat raqs ansamblida yetakchi raqqosa keyinchalikda repetitor-baletmeyster va badiiy rahbar o'rinbosari lavozimida o'z faoliyatini olib borgan. "Nargiz" bolalar ashula va raqs ansamblining tashkilotchisi, badiiy rahbari va baletmeysteri hamdir. Raqqosa, pedagog sifatida 1980-yildan faoliyatini olib borayotgan Toshkent madaniyat institutining xoreografiya bo'limida o'qituvchi va 1992 yildan professorgacha ishlar olib borgan ijodkordir. "Pomircha raqs,

“Oqqush ko‘li”, “Uyqudagi go‘zal”, “Yetti go‘zal”, “Esmeralda”, “Jizel” va boshqa spektakllarida balet partiyalarini ijro etgan. Nizomovaning ijodi serqirra bo‘lib, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm uslubidagi o‘zbek mumtoz, xalq zamonaviy raqslarini, qardosh va xorijiy xalqlar raqsini bir maromda mahorat bilan ijro etgan. Uning repertuaridan “Bahor” davlat raqs ansamblida “Pilla”, “Jonon”, “Rohat”, “Tanavor”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Asta qiyolab o‘tdi”, “O‘yna Ra‘no”, “Buxorocha raqs”, “Tog‘li Badaxshon raqsi”, “Zavqim kelur”, “Sho‘x qiz”, “O‘ynasin” kabi, hamda afg‘on, hind, pokiston, polyak va boshqa xalq raqslari o‘rin olgan. Baletmeyster sifatida “Lolalar”, “Yoshlik vals”, “Soqiynomai Bayot”, “Dilxiroj”, “O‘zbekiston qizlari”, “Duxtari zebo” va ko‘plab raqslarni sahnalashtirgan. Avstriya, Chexoslovakiya, Indoneziya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Kanada, Misr mamlakatlarida ijodiy safarlarda bo‘lgan. [3, B.2]

Urush yillari qizaloqning quvonchli hayot damlarini chetlab o‘tmaydi. Otasi Qurbonov Xoshim 2-jahon urushida vafot etadi. Onasi Qurbonova Jo‘raxon aya 1942-yilda hayotdan ko‘z yumadi. Ota-ona mehriga to‘yib ulgurmagan Ra‘no 7 yoshidayoq yetimlik nima ekanligini xis qiladi. 1941-yildan 1954-yilga qadar Qo‘qon va Toshkentagi bolalar uyida tarbiyalanadi. Bolalar uyiga Ra‘no tezda ko‘nikib ketadi. O‘qish jarayonida ustozlari va dugonalari bilan kichik tadbirlar sahnalashtira boshlaydi.

1948-yilda Respublika miqyosidagi “Bolalar olimpiadasida” raqs yo‘nalishi bo‘yicha faol ishtirok etib xoreografiya bilim yurtiga qabul qilinadi. 1951-yilda Moskva shahrida O‘zbekiston san‘ati va adabiyoti dekadasida qatnashib, “Kichik oqqushlar” raqsini maromiga yetkazib ijro etadi va “Mehnat a‘lochisi” medali bilan taqdirlanadi. 1954-yilda Ra‘no Nizamova xoreografiya bilim yurtini muvofaqiyatli tugatadi va shu yildan Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrining balet truppasida o‘z mehnat faoliyatini boshlaydi. Teatrda ishlash jarayonida turli tuman rollarni ijro etadi. Ko‘zgan ko‘ringan Ra‘no Nizamova o‘zbek raqsining asoschisi Mukarrama Turg‘unboeva etiboriga tushadi va ustozning

taklifi bilan “Bahor” davlat raqs ansambliga raqqosa sifatida ishga qabul qilinadi.

Ra’no Nizamova o‘zbek raqs san’ati kamolotida muhim o‘rin tutgan ijodkor sifatida uning go‘zal raqs san’ati sohasidagi ulkan mehnati 1964-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” 1974-yilda “O‘zbekiston xalq artisti” 1984-yilda “Xalq ta’lim a’lochisi” unvonlari bilan munosib mukofotlandi.

Ra’no Nizamova 197-yilda Shayxontoxur tumani pionerlar uyiga ishga o‘tib, “Nargiza” nomli qo‘shiq va raqs ansamblini tashkil qildi. Bu ansambl ko‘p yillar mobaynida o‘zlarining turli kontsert dasturlari bilan tomoshabinlar qalbidan joy olib ularga manzur bo‘ldi. Ansambl “San’at bayrami” tanlovining sovrinli o‘riniga erishdi, bir nechcha marotaba zangori ekran orqali chiqish qildi. “Artekda” va Amerika Qo‘shma Shtatlarida gastrol safarida bo‘lib katta xurmat va olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Pedagogik faoliyati davomida Ra’no Nizamova talabalarga juda qattiq qo‘l edi. Madaniyat institutida dotsentlik ilmiy unvoniga, keyinchalik 1992-yili “Xoreografiya” kafedrasida professori sifatida samarali faoliyat ko‘rsatib keldi.

Mashhur raqqosa, pedagog Ra’no Nizamova 2013-yil 10-aprel kuni 78 yoshida olamni tark etdi. Uning ijodidagi raqslar, talaba-yoshlarga bergan saboqlar bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Alisher Navoiy. Sab’ai Sayyor (dostonining ixcham nasriy bayoni). Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2009*
2. *mrdisiteadministrator. Bitiruvchilar klubi, April 2, 2019*
3. *E.Yusupov. Barcha go‘zallik bir san’atda. Ra’no nizamova va raqs. “Oriental Art and Culture”, Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1/March 2022*
4. *Q.Sagatov M.Muxamedova. “O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari”. “Navruz”, T., 2017*
5. *У.Мухамедова “Роль женщин в хореографическом искусстве”. “SANAT”, ВШПУСК №4, 01/10/2011/*

Muxamedova O'g'iloy
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori

MILLIY RAQS SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA AYOL SAN'ATKORLARNING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek professional ayollar raqsining shakllanishi, raqs ijorosi, uning tarixi, fidoiy ustozlar, berilgan qurbonlar, raqs san'atida ayollarning o'rni, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova kabi raqqosalar ijodi, ajoyib raqqosa va o'ychan o'qituvchilar, ayollar ansambli tarkibida frontda berilgan konsertlar, xoreografiyaning nazariy jihatlarini jiddiy o'rganishlar, yaratilgan raqslar, "Bahor" davlat raqs ansambli, shuningdek, ba'zi ustozlarda san'atkorlar faoliyati haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijodkor, ayol, xoreograf, tarix, raqqosa, ustoz, nazariy, front, konsert, ansambl*

Аннотация. *В статье рассматриваются становление узбекского профессионального женского танса, тансёвальное мастерство, его история, самоотверженные учителя, принесенные жертвы, роль женщин в тансёвальном искусстве, творчество таких тансоуиц, как Тамараханым, Мукаррама Тургунбаева, Розия Каримова, замечательных тансоуиц и вдумчивых педагогов, концерты, данные на фронте в составе женского ансамбля, серьёзное изучение теоретических аспектов хореографии, созданные тансы, деятельность государственного тансёвального ансамбля «Бахор», а также некоторые артисты, находившиеся под его руководством.*

Ключевые слова: *создатель, женщина, хореограф, история, тансоуица, педагог, теоретический, фронт, концерт, ансамбль*

Abstract. *This article examines the development of Uzbek professional women's dance, dance mastery, its history, dedicated*

teachers, sacrifices, the role of women in dance, the work of dancers such as Tamarahanim, Mukarrama Turgunbaeva, and Roziya Karimova, remarkable dancers and thoughtful teachers, concerts given at the front as part of a women's ensemble, a serious study of the theoretical aspects of choreography, the dances created, the activities of the state dance ensemble "Bakhor," as well as some of the artists under its direction.

Keywords: *creator, woman, choreographer, history, dancer, teacher, theoretical, front, concert, ensemble*

1920-yillarda, o'zbek professional ayollar raqsining shakllangan yillarida ijrochilardan chinakam jasorat talab etilgan edi. Raqs ozodlikka, yorqin, baxtli kelajak orzusini tasdiqlash uchun qurollanishga da'vat edi. O'z ozodligi uchun kurashda ko'plab ayollar qurbon bo'lishdi. Ular orasida sahnada paranjisiz, yuzlari ochiq holda raqsga tushgani uchun jon fido qilgan Nurxon, To'paxon, Halima ham bor edi. Ularning merosini davom ettirib, biz o'zbek raqs san'atining zamirida turgan Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova, Mariya Kuznetsova, Ma'suma Qoriyeva, Roziya Karimovalar xotirasini hurmat qilamiz. Asli arman bo'lgan Tamaraxonim ham o'zbek raqs harakati a'zosi. Uning ustozlari orasida Muhiddin qori Yoqubov, doirchi usta Olim Komilov, Yusupjon qiziq Shakarjonov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Xo'ji Siddiq Islomov kabi taniqli shaxslar bor edi. Butun dunyo raqslarini ijro etgan Tamaraxonim ham mohir xoreografga aylandi. U 1932 yilda ustози usta Olim bilan birgalikda O'zbekistonda o'tkaziladigan xalq amaliy san'ati olimpiadasiga katta guruh va yakkaxon raqslar dasturini tayyorladi. Eng diqqatga sazovor asar qadimiy ritmlarga moslashtirilgan "Ipak qurti" edi. Bu eng mashhur o'zbek raqslaridan biriga aylanib, Tamaraxon va uning iqtidorli shogirdlari Mukarrama Turg'unboyeva, Galiya Izmailova, Xalima Komilovalar tufayli yurtimiz chegaralaridan tashqarida ham shuhrat qozondi. Raqsda qo'llaniladigan imo-ishoralar yordamida

ipak qurti pillasini yig'ishtirib olishdan tortib, tayyor matogacha bo'lgan ko'p mehnat talab qiladigan jarayonni ochib beradi. Raqqoslarning harakatlari ichki musiqiylik va ekspressiv plastika bilan sug'orilib, ularning ijodi bilan bog'liq fikr va tajribalarni aks ettiradi.

1932 yilda Tamaraxonim xoreograflar tayyorlash, musiqa va raqs san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston xalq artisti unvoni bilan taqdirlandi. 1935-yilda Tamaraxonim va usta Olim Komilov 1-London xalqaro xalq raqslari va musiqa san'ati festivalida ishtirok etganliklari uchun Oltin medal bilan taqdirlandilar. Tomoshabinlar Tamaraxonimni "Sharq durdonasi" deb atashgan. Uning keng repertuari boshqa xalqlarning raqslari va qo'shiqlarini ham qamrab oldi. 1956-yilda Tamaraxonim 50 yoshga to'lishi munosabati bilan raqs san'ati rivojiga qo'shgan katta hissasi uchun xalq artisti unvoni bilan taqdirlandi. Tamaraxonim va uning ustosi usta Olim Komilov tomonidan tayyorlangan "Doira darsi" darsligining nashr etilishi respublikada muhim voqea bo'ldi. Unda doira-tabur jo'rligida bajariladigan asosiy raqs harakatlarini namoyish qiluvchi ko'plab xoreografik materiallar mavjud. "Farg'ona raqs maktabi"ning asoschisi taniqli Mukarrama Turg'unboyeva edi. Muhiddin qori Yoqubovning qo'shiq kuylashini eshitib, Tamaraxonimning "Dilxiroj" spektaklini ko'rib, raqsga mehr qo'ydi va teatrdagi ishlashga qaror qildi. Dastlab Muhiddin qori Yoqubov tavsiyasiga ko'ra Mukarrama Turg'unboyeva Samarqand davlat musiqali drama teatrining zaxira truppasida ishlagan. U o'sha yillardagi qiyinchiliklarni shunday ta'riflaydi: "Samarqandga kelib, aktrisa bo'lganimizda, birinchi haftalarda juda och edik, maoshimiz oz edi, hali sarf-xarajat va tejashni o'rganmagan edik, birinchi kunlarda hamma narsani sarflab, keyin non va nordon sut bilan kun kechirardik". Ammo uni qo'rqitadigan narsa ochlik emas edi. "Bularning barchasiga oson chidadim, - deb hikoya qiladi Mukarrama Turg'unboyeva, - lekin qo'rquv meni tark etmadi. O'zimiz yig'ib o'tirgan otxonadagi kontsertni eslayman. Yomg'ir

yogʻayotgan edi, tomidan suv oqayotgan edi, tomoshabinlar orasida bor-yoʻgʻi oʻn kishi bor edi! Lekin biz toʻliq konsert berdik. Ertasi kuni tomoshabinlar koʻproq boʻlishini bilardik. Oʻshanda ham Nurxon oʻlib ketishimdan har kuni qoʻrqardim. uning rafiqasi Begimxon meni asrab oldi va asta-sekin tinchlandim, oʻsha yillarning cheksiz tarangligi butun umrim davomida xotiramda qoldi, men xursand boʻldim, hatto yelkalarim ham tiklandi. Oʻtgan asrning 30-yillarida Mukarrama Turgʻunboyeva ning “Qizil karvon” pantomimasidagi “Paxta terish”, “Shahid” baletidagi “Burqani yechish” raqslari, “Gulsara” musiqali dramasidagi “Gulsariy” raqslari ayollarga vahiy, erk daʼvati sifatida qabul qilindi. Mukarrama Turgʻunboyeva ijro etgan qahramonlar, oʻsha yillardagi raqslar oʻzbek ayollari uchun ibrat, ideal edi. Uning ijrosi bilan kinoda saqlanib qolgan “Tanovar” raqsi chuqur millatchilik ruhida. “Mening “Tanovar”im, – dedi Mukarrama, “Konsert nomeridagi “Oʻlayotgan oqqush” sahnasini koʻrganimning ertasigayoq qalbimda tugʻildi. Bu menga butun bir ajoyib spektakldek tuyuldi va hozir ham koʻrinadi. Taassurot shu qadar kuchli, shu qadar hayratlanarli ediki, men tun boʻyi uxlamay, bir necha kun shu bilan yashadim. Imo-ishora monologida raqqosa ijodiga xos fazilatlar ochib beriladi. [1,



13]

“Tanovar”da Mukarrama Turgʻunboyeva frontdan oʻgʻillari, otalari, erlaridan xabar kutayotgan oʻzbek ayollari koʻzlaridagi xavotirni imo-ishora va nigohlar yordamida ifodalay oldi. Mashhur rus rassomi I.M.Moskvin uning raqsini koʻrib: “Tanovar” soʻzsiz qoʻshiq. Isteʼdod imo-ishora orqali namoyon boʻladi”. 1957-yilda

Mukarrama Turgʻunboyeva “Bahor” ansambli tashkil qildi. U Oʻzbekistonning yetakchi baletmeysteri Isoxor Oqilov bilan birga Toshkent xoreografiya bilim yurtini bitirib, Estrada teatri, Navoiy nomidagi opera va balet teatrida ishlagan qizlarni birlashtirdi. Guruh koʻplab milliy va xalqaro tanlovlarning sovrindori boʻldi. 1960-

yildan “Bahor” ansambli O‘zbekiston davlat raqs ansambli hisoblanadi. Mukarrama Turg‘unboyeva o‘zbek raqsini takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qildi. U nafaqat yangi kompozitsiyalar yaratdi, balki o‘zbek xoreografiyasiga yangiliklar kiritdi. Sahna ko‘plab ommaviy raqslarni ko‘rdi. Mukarrama Turg‘unboyeva yaratgan kompozitsiyalarda xalqning do‘stligi, turmush tarzi, kundalik mehnati namoyon bo‘ladi. “Yetti go‘zal” she‘ri, “Paxta” syuitasi va boshqalar shular jumlasidandir. “Bahor” ansambli qizlari “Paxta”ni shu qadar mahorat bilan ijro etishdiki, raqs o‘zbek sahna san‘ati timsoliga aylandi. Bu roldagi “Mukarrama” raqsi rivojlangan qo‘l raqsi bo‘lib, urug‘dan kurtaklar qanday o‘sib chiqqani, gul qanday ochilgani, g‘o‘zaning nozik tolalarini himoya qilgan holda qanday yopilganini obrazli tasvirlaydi. “Farg‘ona raqsidagi ko‘plab qo‘l harakatlari oddiy kundalik, ish bilan bog‘liq imo-ishoralardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, raqqosalar ularni “umumlashtirib”, imo-ishora uchun badiiy timsol topdilar.” Har qanday farg‘ona raqsidagi qo‘llarning asl harakatlarini-yumshoq qo‘l “jingalaklari” va “jingalaklari”ni eslang. Bu harakatga diqqat bilan qarang, uning elementlariga bo‘linadi, shunda tushunasiz: u aynan paxta terimi davridagi mehnat harakatidan tug‘ilgan”, deb yozadi Mukarrama Turg‘unboyeva o‘z kundaligida. Xalq qo‘shiqlari va raqlari sahnada yangicha kuch va jo‘shqinlik bilan yangradi. Xoreografik san‘at fondi esa bugungi kunda “Ipak qurti”, “Paxta”, “Bayet”, “Rohat”, “Katta uyin”, “Namangan olmalari”, “Farg‘ona ruboiylari” nomli ommaviy raqlari hamda “Havaskor”, “Qo‘g‘irchoq”, “Roxat”, “Farg‘ona”, “Tanova” kabi yakkaxon raqlaridir. tomoshabinlar tomonidan sevilgan. [2, 40]

“Bahor” ansamblidan keyin “O‘zbekiston”, “Tanovar”, “Lazgi”, “Zarafshon” ansambllari paydo bo‘ldi. M.Turg‘unboyeva ni endilikda nafaqat sharq raqsi va raqs ritmlari plastikasining buyuk biluvchisi, balki o‘zbek raqsi rivojiga fidoyilik ko‘rsatgan zo‘r rassom, xoreograf, ustoz sifatida ham aytish mumkin. Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining davomchisi va shogirdi

Roziya Karimova o'zbek xoreografiya san'ati rivojiga katta hissa qo'shdi. O'zbek raqs san'atida Roziya Karimova raqqosa, xoreograf, o'qituvchi, olim sifatida tanilgan. U Qozon shahrida tug'ilgan. U juda erta ota-onasidan ayrilib, Marg'ilon shahridagi mehribonlik uyida tarbiyalangan. Raqs san'atiga bo'lgan muhabbat uni Toshkentga kelgan Mukarrama Turg'unboeva bilan tanishtirdi. 1930-yillarda musiqali dramatik studiyada tahsil oldi. Muhiddin qori Yoqubov rahbarligidagi Samarqand teatrida ishladi va teatr tahsilini tugatgach, shu yerda qoldi. Karimova lirik raqslarni ijro etib, dramatik rollarni ijro etgan, jumladan, "O'rtoqlar" spektaklida Anorxon, "Gulsara" dramasida Asal, "Arshin mal alan"da Osiyo. Karimova Toshkent musiqali teatri va Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida ko'plab raqs nomerlarini yaratgan. "Farhod va Shirin", "Leyli va Majnun", "Qor bo'roni", "Gulsara" dramalariga kiritilgan yakkaxon raqslarini ijro etgan. Ayollar ansambli tarkibida Karimova Shimoli-g'arbiy frontda konsertlar berdi. Ajoyib raqqosa va o'ychan o'qituvchi, u xoreografiyaning nazariy jihatlarini jiddiy o'rgandi. [3, 130]

1932-yilda Karimova O'zbekiston davlat xoreografiya bilim yurtida dars berdi. Keyinchalik u o'zbek raqs san'ati bo'yicha ilmiy ishini Hamza nomidagi san'atshunoslik instituti, hozirgi O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutida ilmiy xodim sifatida davom ettirdi. 1960-yilda Roziya Karimova o'zbek xalq o'yinlarining asosiy tamoyillari, harakatlari, ritmlarini tizimlashtirish va ilmiy umumlashtirish bilan shug'ullangan. O'zbek xalq o'yinlarining uchta maktabi bor: Farg'ona, Xorazm, Buxoro. Ularning har birida raqqosaning holati katta ahamiyatga ega, bu xoreografik nazariyada "tana holati", "mushak kuchlarining yo'nalishi" deb ataladi. Har bir maktabning o'ziga xos kiyimlari ham bor. Roziya Karimova ushbu raqs uslubi ustalarining boy tajribasiga tayangan holda "Farg'ona raqsi" (1973), "Xorazm raqsi" (1975), "Buxoro raqsi" (1977) o'quv qo'llanmalarini, "Bahor ansambli raqslari", "Doira zarblari", "O'zbekiston raqslari", "Ma'ruzachilik"

kitoblarini tayyorladi. Bernard Karieva, Ra'no Nizomova, Ibrohim Yusupov, Dilafruz Jabborova, Shokir Ahmedov, Dilbar Abdullaeva, Karima Uzoqova, Sivilya Tanguriyeva, Qodir Mo'minovlar Roziya Karimovani o'z ustozlari, deb biladi. Mustaqillik yillarida Rozziya Karimovaga san'at fanlari doktori faxriy unvoni berildi.

Bugun Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimovaning ko'plab izdoshlari raqs san'ati rivojiga hissa qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. Avdeyeva. *“O'zbek milliy raqsi tarixidan”*. *“O'zbekraqs” milliy raqs birlashmasi*. T.:2001
2. L. Avdeyeva. *“O'zbekiston raqs san'ati”*. Badiiy adabiyot nashriyoti. T.:1960
3. Л. Авдеева. *«Из истории узбекской национальной хореографии»*. *“O'zbekraqs” milliy raqs birlashmasi*. T.: 1999
4. L. Avdeyeva. *“Mukarrama Turg'unboyevaning raqsi”*. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 1989
5. Q.Sagatov M.Muxamedova. *“O'zbekiston madaniyati va san'ati fidoyilari”*. *“Navruz”*, T., 2017

Ташкенбаев Пулат

*Государственная академия хореографии Узбекистана,
кандидат искусствоведения, доцент*

МАГИЯ ЭСТРАДНОГО СЛОВА

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы зарождения и развития разговорного жанра в мировом эстрадном искусстве, специфики искусства конференса. Разговорный жанр во всём своём многообразии является именно тем жанром, который определяет художественную специфику эстрадного искусства.

Ключевые слова: эстрада, жанр, мюзик-холл, варьете, кафе-шантан, кабаре, концерт, представление, импровизация, актёр.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon estrada san'atida og'zaki so'z janrining kelib chiqishi va rivojlanishi, konferans san'atining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Og'zaki so'z janri o'zining xilma-xilligi bilan estrada san'atining badiiy o'ziga xosligini belgilaydigan janrdir.

Kalit so'zlar: estrada, janr, music-hall, varete, kafe-shantan, kabare, konsert, spektakl, improvizatsiya, aktyor.

Annptation. This article examines the origins and development of the spoken word genre in global variety art and the specifics of compere art. The spoken word genre, in all its diversity, is the genre that defines the artistic specificity of variety art.

Keywords: variety, genre, music hall, variety show, cafe chantant, cabaret, concert, performance, improvisation, actor.

Разговорный жанр во всём своём многообразии является именно тем жанром, который определяет художественную специфику эстрадного искусства. В чём же заключаются его особенности?

Разговорный жанр основывается на соединении литературного материала с актерским искусством. Многообразие разговорного жанра достаточно велико: это исполнение рассказа, лирического монолога, фельетона, интермедии, стихотворения, басни, эпиграммы, анекдота и т.д. Это может быть и селостный спектакль, сыгранный одним или несколькими исполнителями. При этом разговорный жанр имеет свои поджанры. Например, исполняемый рассказ может быть героико-романтическим, патриотическим, бытовым драматическим, бытовым юмористическим, лирико-поэтическим, публицистическим и т.д.

Эстрадный концерт, как правило, складывается из номеров разных жанров – музыкальных, вокальных, танцевальных, оригинальных и т.д. Объединит эти номера в селостную программу – в этом заключается основная задача конферансье.

Конферансье (в переводе с французского – докладчик) — эстрадный артист, объявляющий концертные номера и выступающий в промежутках между ними. Искусство конферанса требует от исполнителя остроумия, таланта импровизации, умения разговаривать с аудиторией. Конферанс – один из ведущих жанров эстрадного искусства. Соответственно, конферансье – один из главных персонажей эстрадного концерта, занимающий в ней центральное место. [1, 37]

Именно конферансье с первого до последнего выхода своими злободневными шутками, остроумными репликами, веселыми интермедиями, монологами, репризами объединяет не связанные между собой разножанровые номера концерта в селостное представление. От конферансье в первую очередь зависит темп - ритм программы, определяющий вес ход концерта и в значительной степени влияющий на его успех.

Конферансье – полноправный хозяин концерта, доброжелательный, распорядительный, гостеприимный. Его девиз – всё для зрителя, всё для актера. Важнейший элемент

конферанса – прямое общение с аудиторией, стремление с момента появления конферансье перед занавесом установит контакт со зрительным залом, войти в доверие к зрителю-партнеру.

Искусство импровизации – важнейший дар в творчестве конферансье. Он должен уметь откликаться на «злобу дня», то есть по ходу своего выступления вставляют в текст реплики о тех или иных событиях, фактах, явлениях, которые в данный момент представляют всеобщий интерес. Вместе с тем, для конферансье не чужда и местная тематика. Приехав с концертом в тот или иной город, «артист в своих выступлениях высмеивает в сатирической форме местные негативные явления». [4, 52]

Талант импровизации помогает конферансье выйти из любой затруднительной ситуации – например, заполнит затянувшуюся по той или иной причине паузу между номерами.

Конферансье не только встречает и провожает артиста, объявляя его выход, но и предоставляет зрителю исчерпывающую информацию о нем и его номере, особо подчеркивает его художественные достоинства.

В соединении с музыкой под эгидой разговорного жанра существует еще куплет, музыкальный фельетон, песня-речитатив и другие словесно-музыкальные номера, не требующие для их исполнения вокальных данных.

Сцены из драматических спектаклей, перенесенные на концертную эстраду, также могут быть отнесены к разговорному жанру. Конечно же, при трансформации отрывка из спектакля в театрально-концертный номер, он претерпевает некоторые изменения – отрывок исполняется без общения с партнерами, без декораций, при минимуме реквизита. Однако смысловая сторона произведения всегда выступает на первый план.

Искусство конферанса зародилось во Франции, где в начале XIX века получили развитие так называемые ярмарочные театры и балаганы. Рассчитанные на широкие народные массы,

они обильно насыщали пьесы злободневными шутками и куплетами, которые вскоре приобрели самостоятельное значение и стали исполняться с эстрады.

Многочисленные кафе, расположенные, главным образом, в индустриальных и портовых городах Франции, начиная еще с середины 18 века, стали развлекать своих клиентов музыкой и песнями. Такие кафе получили название кафе-шантанов - песенных кафе (от французского слова «шансон» - песня). Посетителями таких кафе были рабочие, ремесленники, моряки, мелкие бизнесмены. В Париже пользовались известностью такие кафе-шантаны, как «Консерт Беранже», «Кабачок», «Мокко», «Кафе Муз» и т.д. «Интерьеры подобных кафе были довольно скромными, но во многих из них уже сооружались подмости для выступлений». [2, 49]

Начиная с 1850-х годов, мелкие кафе-шантаны стали постепенно вытесняться ресторанами - более масштабными зрелищными предприятиями, получившими название кафе-консертов (сокращенно их называли кафконсами). Здес были улучшены условия для выступлений артистов и музыкантов, значительно увеличилась вместимость зала. В кафконсах звучала танцевальная музыка, играли оркестры, выступали певсы, куплетисты, тансоры, фокусники, жонглеры и другие исполнители.

Кафе-консерты постепенно превратились в место для досуга состоятельных слоев общества - банкиров, бизнесменов, торговцев и т.д. Появились такие заведения, как «Эльдорадо», «Альказар», «Амбассадор», впоследствии ставшие мюзик-холлами и варьете - соединением ресторана с первоклассной эстрадной программой.

В 1869 году в Париже открывается варьете «Фоли Бержер», а в 1889 году - всемирно знаменитое варьете «Мулен Руж». Программы, которые исполнялись на подмостках варьете, получили название ревю (в переводе с французского - панорама,

обозрение). Успех варьете оказался велик и вскоре варьете появляются и в других странах - в Германии, Дании, Бельгии, России и т.д. [3, 110]

Во Франции появилась и новая форма эстрады, которая получила название кабаре (в переводе с французского - кабачок, трактир). Появление кабаре связано с именем французского артиста

Родольфо Сали, который в 1881 году открыл в районе Монмартра

в Париже небольшой артистический кабачок «Ша нуар» («Черный кот») как «своеобразный литературно-художественный клуб». [1, 63]

Содержанием вечеров в «Ша нуар» были творческие выступления, полемика, дискуссии. Вскоре такие кабаре получают широкое распространение. Вначале это были кафе, которые посещали поэты, художники, музыканты, театральные актеры. Здес поэты читали свои стихи, актеры разыгрывали сатирические сценки, написанные молодыми драматургами. Художники демонстрировали свои новые картины, которые тут же обсуждались, а иногда продавались с аукциона. Постепенно в таких кабаре стала появляться публика, которая приглашалась в качестве платных зрителей.

Едва ли не главную роль в кабаре играли конферансье. Искусство конферанса сформировалось во Франции в 70-80-е годы 19 века, когда большой успех имели литературные вечера. Собиравшаяся на них публика требовала яркости и занимательности в самой подаче литературных произведений. Выступавшие лекторы-конферансье, идя навстречу этим требованиям, включали в свои выступления веселые истории, шутки, разговоры с аудиторией.

Появившись в кабаре, конферансье объявляли публике выступавших исполнителей, разъясняли программу и занимали

зрителей в паузах между номерами. Также затевали с посетителями диспуты, по большей части юмористического характера. Продавая с аукциона картины и скульптуры, они охотно прибегали к шуткам, нередко имевшим злободневный характер.

По примеру Франции, кабаре как театры малых форм появляются и в других странах. В процессе исторического развития кабаре по своей тематической и жанровой направленности стало подразделяться на «художественное, поэтическое, сатирическое и политическое». [3, 116]

Художественное кабаре является, по сути, клубом творческой интеллигенции, где репертуар формируется соответствующим образом. В центре внимания здесь находятся эстетические явления, пародируются стили, направления, конкретные художественные произведения. Художественное кабаре затрагивает и социальные вопросы современной жизни, но они как бы преломляются через призму интересов профессионального искусства.

Поэтическое кабаре - это одна из разновидностей художественного кабаре, своеобразный поэтический клуб. Здесь поэты читают свои стихи, беседуют с собравшейся публикой.

Сатирическое кабаре стремится в острой сатирической форме осветить негативные явления жизни, главным образом, морально-нравственные вопросы.

И, наконец, кабаре политическое являлось и является острым оружием в борьбе за социальную справедливость. Оно стремится осветить важнейшие проблемы международной жизни, такие, как терроризм, религиозный фундаментализм, наркомания и т.д.

В отличие от концертной эстрады, кабаре широко использует театральные компоненты, такие, как занавес, рампа, декоративное оформление сцены и зала.

Кабаре, мюзик-холлы, варьете как форма соединения ресторана с эстрадной программой действуют сегодня во многих странах. Их основу составляют выступления певцов и

музыкантов, артистов разговорного жанра, тансевальные и сирковые номера.

В России первые профессиональные конференсье появились в 1910-х годах. В репертуаре узбекской эстрады разговорный жанр занимает особое место. Первые узбекские конференсье - Юсупджан кизик Шакарджанов, Миршахид Миракилов, Ходжисиддик Исламов, являвшиеся мастерами импровизации, широко использовали в своих выступлениях художественные приемы традиционного театра масхарабозов и кизикчи – народных комедиантов, а также аскиабозов - острословов. Во второй половине XX века их традиции продолжили Г.Таджи-Аглаев, М.Мусаева, Э.Кариякубова, А.Алиходжаев, В.Лапин, У.Сиддилов, С.Тагирова, Р.Исмагилов, Их репертуар в большинстве своем состоял из тематических произведений, созданных индивидуально для каждого исполнителя.

В эстрадных концертах с комедийными сценками и монологами, насыщенными искрометным юмором и импровизацией, выступали известные мастера театра и кино Хасан Юлдашев, Эргаш Каримов, Бахтияр Ихтияров, Хусан Шарипов. В наши дни их традиции успешно продолжает молодое поколение артистов разговорного жанра.

Таким образом, конференсье выступает выразителем мыслей и чувств публики, отвечая ее духовным запросам, как художественным содержанием конференса, так и современной манерой сценического поведения.

Использованной литературы

1.Клитин С. *Эстрада. Проблемы теории, истории и методики.* – М.: РАТИ, 2018.

2.Ардов В. *Разговорные жанры эстрады и сирка.* – М.: Искусство, 1990.

3.Шароев И. *Режиссура эстрады и массовых представлений.* – М.: Вагриус, 2007

4.Грин М. *Публисист на эстраде.* – М.: Эксмо, 2015.

“ART HAUSE HAMSA” TEATR STUDIYASIDA PREMERA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada joriy yilning 26-sentabr kuni rejissyor Sayfiddin Meliyev badiiy rahbarligidagi Art Hause Hamsa teatr studiyasida bo‘lib o‘tgan yangi spektakl premerasi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *spektakl, mistika, teatr studiya, premera, eksperiment, rejissyor, iblis.*

Аннотация. *В этой статье рассказывается о премьере нового спектакля, которая состоялась 26 сентября текущего года в студии театра Art Hause Hamsa под художественным руководством режиссера Сайфиддина Мелиева.*

Ключевые слова: *спектакль, мистика, театральная студия, премьера, эксперимент, режиссёр, дьявол.*

Abstract. *This article discusses the premiere of a new play that took place at the Art House Hamsa theater studio under the artistic direction of director Sayfiddin Meliyev on September 26 of this year.*

Keywords: *performance, mysticism, theater studio, premiere, experiment, director, devil.*

Zamonaviy teatr san'ati inson ruhiyati, ijtimoiy ong va estetik didning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Har bir yangi spektakl premerasi — bu nafaqat sahna san'atining navbatdagi mahsuli, balki jamiyat hayotidagi ma'naviy voqelikni, davr ruhini, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi badiiy hodisadir. Premera tomoshabinga yangi g'oya, yangi estetik qarash, yangi teatr shakllari orqali ta'sir o'tkazadi. Shu bois har bir spektaklning ilk namoyishi — teatr jamoasining ijodiy izlanishlari, rejissyorlik

tafakkuri, aktyorlik mahorati va sahna bezaklari uyg'unligining sinov maydonidir.

Joriy yilning 26-sentabr kuni rejissyor Sayfiddin Meliyev badiiy rahbarligidagi Art Hause Hamsa teatr studiyasida yangi spektakl premerasi bo'lib o'tdi. Spektakl I.B.Zinger qalamiga mansub ushbu asar mistika janrida sahnalashtirilgan bo'lib, spektakl rejissyori Sayfiddin Meliyev. Spektaklda bosh rollarni Xurshida Arabshoyeva, O'lmas Urayev, Ilmira Rahimjonova hamda Aziza Nuriddinova ishtirok etishgan. "Taq-taq-taq, eshigingni och, qizaloq!" nomli ushbu spektakl noodatiy sahna dekoratsiyasi, aktyorlar ijrosining jonliligi hamda sahnalashtirishdagi eksperimental yondashuv bilan boshqa repertuarlardan farq qiladi.

Ushbu namoyish hususida teatrshunos Fozil Farxod shunday fikrlarni yozib qoldiradi. "Art House Hamsa" — Sayfiddin Meliyev ijodiy ustaxonasiga borsam, spektakl ko'rganday bo'laman. O'sha soatlarda yashay boshlayman, tanam, ruhim katarsis bo'ladi. Kulaman, yig'layman.

Kecha yozuvchi Ayzek Bashevis Zingerning "Taq-taq-taq, eshigingni och, qizaloq!" asari asosida sahnalashtirilgan sahna asarini ko'rdik. Tasanno!

4 aktyordan iborat asarni bir soatdan ortiq mijja qoqmay tomosha qildik, his etdik. Xurshida Arabshoyeva, O'lmas O'rayev, Aziza Nuriddinova, Ilmira Rahimjonova — hammalari o'z rolini yurakdan ijro qildi. Ular ijro etmadi, o'sha lahzalarda yashadi. Ko'zlari aytar edi buni.

Bosh qahramon — ayolning uyi to'r bilan o'ralgan. Bu to'r ayol qalbiga o'ragan qobiq edi go'yo. Ayolning eri esa ishxonasidagi yong'inda yonib ketgan. Uni yaxshi ko'radigan savdogar esa bu qalbga, bu uyga kirishga jazm qila olmaydi, natijada iblis qiyofasiga kirib unga yaqinlashadi. To'rga gullar iladi. Ayol iblisni sevib qoladi. Ayol iblis (va o'lgan eri) tavsiyasiga ko'ra, savdogarga turmushga chiqadi. Ammo savdogar bu ko'ngilni zabt eta olmaydi. Oxirida haqiqatni aytadi, iblis ekanini xotiniga aytadi. Buni bilgan ayol o'sha

yerda jon beradi. Tomosha shu yerda tugaydi. Ammo tomoshabinda shu nuqtadan boshlab savollar paydo bo‘la boshlaydi.

Asarda ortiqga biror gap-so‘z yo‘q. Musiqalar maromida qo‘yildi. O‘lmas O‘rayev fransuzcha “Mon amour” — “Sevgilim” qo‘shig‘ini muhabbat bilan kuyladi. Kuyini gitarada chaldi. Savdogar esa ayolga bu qo‘shiqni ijro etmaydi, pul topish bilan andarmon bo‘ladi. Yozuvchi bu asari bilan erkaklarni ogohlikka chorlaydi, ayolni yolg‘iz qoldirib bo‘lmasligini bot-bot uqtiradi. Yolg‘iz ayolning do‘sti iblis bo‘ladi, o‘lim yo‘q, faqat sevgi bor, sevgi yo‘q joyda esa o‘lim bor, deydi. Ijodkorlar xuddi "erlar, suyuklingizning yuragini tezroq taqillating, yo‘qsa, bu qalbdan iblis joy oladi", deganday bo‘ladi. Ijodiy jamoa, hammasi uchun rahmat sizlarga! Hammangizga!”- deb o‘zining tomoshadan olgan tassurotlari bilan bo‘lishadi.

Isaak Bashevis Zinger ushbu asar orqali — insonning ruhiy yolg‘izligi, ishq va ishonchga chanqoqligi, hamda haqiqat bilan xayol o‘rtasidagi kurashni tasvirlagan desak bo‘ladi. Insondagi yolg‘izlik va ruhiy bo‘shliq asardagi bosh qahramon Toybele — eri g‘oyib bo‘lib ketgan, diniy qonunlar sababli boshqa erkak bilan turmush qura olmaydigan ayol obrazi yaqqol ochib berilgan. Uning hayoti ich-ichidan yolg‘izlik, iztirob va muhabbatga ehtiyoj bilan to‘lgan. Bu ruhiy bo‘shliq uning hayotida “iblis”ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi — aslida bu iblis insoniy hislarning ramzidir. Har davrda avj olgan ishq va aldov o‘rtasidagi ziddiyatning fojiali oqibati asarda aks ettiriladi.

Alxonon obqari esa — oddiy, lekin samimiy inson, lekin u Toybelega oshiq bo‘la turib, o‘z hislarini bildirishga jur‘at etolmaydi. Shu sababli u o‘zini iblis sifatida tanishtirib, ayolga yaqinlashadi. Bu orqali Zinger inson muhabbati ba‘zan haqiqatdan ko‘ra illyuziyaga tayanishini, ya’ni odam sevgi uchun hatto yolg‘onni ham qabul qilishini ko‘rsatadi.

Asarning yana bir muhim g‘oyasi insonlardagi haqiqat va xayol o‘rtasidagi kurashni tasvirlanganida. Toybele iblisga ishonadi,

chunki bu unga hayot mazmunini qaytaradi. Lekin haqiqat fosh bo'lgach, bu "mo'jiza"ning orqasida oddiy inson turgani ayon bo'ladi. Asar o'quvchiga: "Ba'zan biz haqiqatdan qochib, afsonaga ishonamiz, chunki afsona ko'nglimizni ovutadi" degan falsafiy fikrni beradi.

Asarda insonning tana va ruh o'rtasidagi muvozanat masalasi ham ochilgan.

Toybele uchun iblis bilan bo'lgan aloqalar nafaqat jismoniy, balki ruhiy ozodlik ramzidir. Zinger bu orqali diniy cheklovlar bilan inson tabiati o'rtasidagi ichki ziddiyatni yoritadi.

Asarning asosiy g'oyasi: Inson baxt, muhabbat va ishonchga chanqoq mavjudotdir. Ba'zan u bu tuyg'ularni hatto yolg'on, xayol yoki "iblis" orqali bo'lsa ham topmoqchi bo'ladi. Ammo chin erkinlik — faqat haqiqatni tan olish va samimiy tuyg'ularda yashaydi.

Asar mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, Zinger inson tabiatining murakkabligi, muhabbat va ishonchning qudrati, shuningdek, haqiqatga intilish va ruhiy ozodlik masalalarini chuqur falsafiy asosda yoritadi. "Toybele va uning iblislari" insonni o'z vijdoni bilan yuzlashtiruvchi, ilohiy va dunyoviy tuyg'ular o'rtasidagi nozik chegarani ochib beruvchi badiiy-falsafiy asar sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa o'rnida, rejissyor Sayfiddin Meliyev tomonidan "Toybele va uning iblislari" asari asosida yaratilgan "Taq-taq-taq, eshigingni och, qizaloq!" eksperimental spektakli inson ruhiyatining ziddiyatli holatlarini sahna vositalari orqali chuqur ifoda etishga yo'naltira olgan. Asarda mavjud bo'lgan mistik, erotik va falsafiy qatlamlar rejissorlik talqini orqali yangi badiiy shaklda qayta ochilgan. Eksperimental yondashuv aktyorlar plastikasining erkinligi, yorug'lik va tovush effektlarining ramziy ishlatilishi, shuningdek, sahna makonining psixologik ma'noda kengaytirilishi bilan ifodalanadi. Spektaklning markazida insonning ichki olami, uning muhabbat, vijdon, yolg'izlik va ishonch o'rtasidagi kurashi

turadi. Toybele va Alxonon obrazlari orqali haqiqat va illyuziya, ruhiy ehtiyoj va ijtimoiy cheklovlar to‘qnashuvi sahna tili bilan ochib beriladi. Natijada tomoshabin mistik voqealardan ko‘ra inson qalbidagi ziddiyatlarga guvoh bo‘ladi. Eksperimental shakldagi sahnalashtirish klassik dramatik chegaralardan chiqib, Zinger asarining falsafiy mohiyatini zamonaviy teatr estetikasi bilan uyg‘unlashtirgan. Shu jihatdan, “Taq-taq-taq, eshigingni och, qizaloq!” spektakli nafaqat psixologik-drama janrining yangi talqini, balki Art Hause Hamsa teatr studiyasining inson ruhiyatini tahlil etishdagi imkoniyatlarini kengaytiruvchi badiiy tajriba sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov, B. *XX asr jahon adabiyotida mistik va psixologik talqinlar.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015.
2. Karimova, N. *Zamonaviy teatrda eksperimental shakllarning o‘rni.* – *O‘zbekiston san’atshunosligi jurnali*, №3, 2019.
3. To‘xtaboyev, M. *Drama tahlili asoslari.* – Toshkent: *O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti*, 2020.
4. Bobirjon Islombek O‘G‘Li Jabborov. "Qo‘g‘irchoq teatrida sahna nutqining o‘ziga xos xususiyatlari" *Science and Education*, vol. 5, no. 9, 2024, pp. 193-200.

MEHRIBON USTOZ EDI

Annotasiya. *Maqola O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor, mehribon ustoz Abdurahim Sayfiddinovning xotirasiga bag'ishlanadi. A. Sayfiddinovning ko'p yillik sahna nutqi va aktyorlik mahorati kafedralaridagi pedagogik faoliyati, ilmiy va ijodiy izlanishlariga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar. *Teatr, aktyorlik san'ati, rejissyorlik, spektakl, sahna nutqi, televideniye, radio, professor Abdurahim Sayfiddinov.*

Аннотация. *Статья посвящена памяти Заслуженного работника культуры Узбекистана, профессора, доброго наставника Абдурахима Сайфиддинова. Особое внимание уделяется его многолетней педагогической деятельности на кафедрах сценической речи и актёрского мастерства, а также его научным и творческим изисканиям.*

Ключевие слова. *Театр, актёрское искусство, режиссура, спектакль, сценическая реч, телевидение, радио, профессор Абдурахим Сайфиддинов.*

Abstract. *The article is dedicated to the memory of Abdurahim Sayfiddinov, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, professor, and caring mentor. Special attention is given to his many years of pedagogical work in the departments of stage speech and acting, as well as to his scientific and creative research.*

Keywords. *Theatre, acting, directing, performance, stage speech, television, radio, Professor Abdurahim Sayfiddinov.*

O'zbekistonda teatr mutaxasislarini yetkazish sohasida boy maktab yaratilgan. Bu soha rivojiga muhim hissa qo'shgan ustozlardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor Abdurahmon Sayfiddinov edi. Uni hamkasb do'stlari va shogirdlari oddiygina qilib Rahima aka deb atardilar.

Bundan qiriq yil avval men Xamza nomli akademik drama teatridan (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) O'zbekiston davlat san'at institutiga o'qituvchi sifatida kelib o'z faoliyatimni shu ustoz bilan bir kursda boshlaganligimdan doim faxrlanib yuraman. Rahim akaning o'z kasbiga bo'lgan e'tiqodi, o'ziga ham, talabalariga ham g'oyatda talabchanlik bilan munosabatda bo'lishi biz yosh o'qituvchilr uchun namuna edi.

Teatr pedagogikasi aktyorlik kasbidan farqli o'laroq murakkab jarayon ekanligini aynan Rahim aka darslari orqali his qila boshlaganman. Rahim aka Dastlab domla 1944 yili Yosh tomoshabinlar teatriga qo'shimcha ijodiy kuch sifatida aktyor bo'lib ishga kirgan. Spektaklda rollar ijro etish bilan birga teatr studiyasida taxsil olgan. San'at haqidagi ilk bilimlarni Javod Obidov, Ibrohim Ahmedov kabi taniqli va mohir rejissyorlardan olgan edi. 1947 yili teatrning tavsiyasi bilan Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutining aktyorlik bo'limiga o'qishga keladi. Institutni tugatgach, 1952 yildan shu oliy dargohda avval sahna nutqi, keyin aktyorlik mahorati bo'yicha dars bera boshlaydi. Aktyorlik kasbiy ta'limi bo'yicha atoqli teatr arbobi, rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev bilan bir kursda hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Aynan T.Xo'jayevning ta'siri uning teatr pedagogi sifatida shakillanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Talabalarning bitirish chog'ida ishlaydigan diplom spektakllar bo'lg'usi sahna ijodkorlarining individual ijodiy qiyofalarini ochishga qaratilgan ijodiy ish hisoblanadi. Shu ma'noda ustoz T.Xo'jayev bilan birga yaratilgan bir qator diplom spektakllar A.Sayfiddinov faoliyatida chuqur iz qoldirgan. Xususan, Nikolay Ostrovskiyning "Sepsiz qiz", Anton Pavlovich Chexovning "Vanya tog'a", Fridrix Shillerning "Makr va muhabbat" diplom spektakllari ustidagi ijodiy ishlar A.Sayfiddinovda talabalar layoqatini ochish usullarini o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etdi. Ustoz teatrning kuchini yanada chuqurroq angladi. Teatrning kuchini shoirlar, dramaturglar, aktyorlar, rejissyorlar, mashshoqlar, texnik xodimlar,

libos ustalarining ijodiy ishida deb bildi va bular bir butun jamoa sifatidagi san'atkorlar ekanini targ'ib qildi. "Teatr san'ati san'atning boshqa turlaridan bir yo'la foydalangani bilan baribir aktyorsiz jonsiz bir narsadir. Faqat aktyorgina harakati hamda ijodiy tasavvuri bilan unga hayot baxsh etadi, tomoshabinni hayajonlantirib, uni orqasidan ergashtiradi va o'zi yashayotgan voqelikka olib kiradi. Shuning uchun ham tomoshabin teatrga rassom tomonidan matoga chizilgan yoki sahnaning o'zida bino etilgan hashamatli qasrlar, fusunkor bog'lar, ko'rkam, kelishgan uylar, ajoyib tabiat manzaralarini, elektrotexnik tomonidan shularning barchasiga tegishli jilo berilishini yoki mohir tikuvchining qo'lidan chiqqan xushbichim kiyim-kechaklarni ko'rgani bormaydi. Asosan, aktyorlar ijodi orqali hayotda bo'lib o'tgan, bo'layotgan hamda bo'lishi mumkin voqealarning qanday jonlantirilganligini va voqealar ichida harakat qiluvchi obrazlar siymosini ko'rish, ulardan ma'naviy oziq va estetik zavq olish, hordiq chiqarish uchun boradi" [1. B.3-4.]. Bu iqtiboslarni keltirib, balki domla shuning uchun ham o'z hayotini aktyor tarbiyalashga bag'ishlagandir, degan fikrlar xayoldan o'tadi.

Rahim aka sahna uchun yozilgan asarlarni yaxshi tarjimoni ham edi. Tarjimada ham ilmiy uslubiy, ham badiiy jihatlariga katta e'tibor berar edi. Bo'lg'usi aktyorlar bilan ishlashda ham ana shu jihatlarining uyg'unligiga alohida e'tibor berar edi. Dars jarayonlarida faqat aktyorlik mahorati emas, san'atni tilshunoslik, adabiyotshunoslik bilan bog'lagan tarzda olib borar edi. Shu ma'noda o'nga yaqin asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib diplom spektakliga aylantirdi. Ular orasida Nozim Hikmatning "Unitilgan odam" asari ayniqsa mashhur edi. Bu asar Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali teatrida ham qo'yildi. Rejissyor Mahkam Muhammedov bilan hamorlikda ishlagan damlari ham bo'lgan [2]. T.Jumagulovning "Qasos" asari ham Rahim aka tomonidan tarjima qilinib, Buxoro va Xorazm viloyati teatrlarida, Yusuf Azimzodaning "Nasriddinning sarguzashtlari" asari esa

Hamza nomli akademik drama teatrida (hozirgi milliy teatr), shuningdek, Andijon, Buxoro, Xorazm teatrlarida sahnalashtirildi.

A.Sayfiddinov sahna nutqi sohasida ham e'tiborli tadqiqotchilik ishlarini olib bordi. U kishi qoldirgan ilmiy ishlar to'plamlarida, jurnallarda, gazetalarda nashr etildi. "Og'zaki nutqning ifoda usullari", "Aruz sistemasida yozilgan she'riy matn ustida ishlash", "O'zbek badiiy o'qish tarixidan lavhalar" kabi ilmiy maqolalari, "Adabiy asar va ijrochilik mahorati" nomli o'quv qo'llanma, Sahna nutqi xrestomatiyasi kabi o'quv adabiyotlari haligacha o'qituvchilar va talabalarga qimmatli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. A.Sayfiddinov o'z darslarini o'zbek teatri amaliyoti bilan bog'liq holda olib bordi. Atoqli rejissyorlar Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonovlarning so'z ustida ishlash usullarini, ularning mashhur spektakllarini tahlil qilib yoritib bordi. Og'zaki nutqda mantiqiy tahlil, nutq, sukut (pauza) intonasion rango-ranglik kabi muammolar olimning 1966 yil nashr etilgan "O'zbek sahna nutqi masalalari" nomli to'plamida chuqur tahlil etiladi. O'zbek mumtoz she'rlari, ayniqsa g'azal janrida yozilgan she'rlarni badiiy o'qish, ijro etish muammosi dolzarb ekani ta'kidlanadi. A.Sayfiddinov bu sohada bilimini kengaytirish maqsadida Nizomiy nomidagi pedagogika institutida ham tahsil olganini alohida ta'kidlash lozim. Maqsud Shayxzoda bilan yaqin muloqatda bo'lib, dramaturgiyaning qonun-qoidalarini ham mukammal o'rgangan.

1980 yili "Fan" nashriyotida uning "Adabiy asar va ijrochilik mahorati" nomli kitobining chop etilishi aktyorlik mahorati hamda sahna nutqi bo'yicha dars beruvchi pedagoglarga metodik va ilmiy ko'mak bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nazariy va amaliy qiymatiga ko'ra mazkur o'quv adabiyoti aktyorlarga hamda rejissyorlarga professional dars berishda chuqur bilimga ega bo'lishga o'rgatdi. Ushbu kitobda birinchi bor o'zbek teatri va teatr pedagogikasining spektal tayyorlashda, shuningdek, aktyor tarbiyasi jarayonida badiiy so'zni o'zlashtirish hamda sahnada gavdalantirish borasida to'plangan tajribalar va nutq san'ati sohasida erishilgan

muvaffaqiyatlar chuqur tahlil etib berildi. Ushbu adabiyot bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. A.Sayfiddinov uz kitobida shunday yozgan edi: "So'z bilan hatti-harakat, avvalo, so'zning tabiatiga bog'liq... Dramatik aktyor oldida avtor tomonidan yaratilgan yozma nutqni og'zaki nutqqa aylantirish vazifasi turadi. Shuning uchun ham Stanislavskiy sahna nutqini aktyorlik san'atidagi eng murakkab masalalardan biri ekanini e'tirof etgani holda, organik ijod qonuniyatlarini izlashda unga alohida e'tibor bilan qaragan" [3. B.5]. Darhaqiqat, domlanning so'zga va nutqqa bo'lgan talabchanligi o'ta kuchli bo'lgan. Chunki, teatrlarda ba'zi aktyorlarning so'z bilan xatti-harakat qilishi borasidagi muammolar talaygina edi.

Mohir ustoz radio va televideniye bilan ham doimiy aloqada bo'lib kelgan chog'larida orttirgan tarjibalarini ilmiy asarlarida aks ettirdi. Adabiy-badiiy eshittirishlarda badiiy asarlarni mahorat bilan o'qib, sohir ovozi bilan radio tinglovchilari e'tiborini qozona oldi. Bu bilan televideniye va radio rejissyorligi ta'lim yo'nalishida tahsil oladigan talabalarga ham dars bera oldi. Ularga mikrafon oldida ishlashda nimalarga ahamiyat berish kerakligi borasida samarali saboq berib keldi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, professor A.Sayfiddinov aktyorni shunchaki ijrochi emas, balki yirik ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash yo'llarini izladi. O'zbekiston halq artistlari Shirin Azizova, To'g'on Rejemetov, Dilbar Ismoilova, Murod Rajabov, Afzal Rafiqov, Tohir Saidov singari ko'plab teatr ijodkorlari aynan Abdurahmon Sayfuddinovning shogirdlari hisoblanadi. A.Sayfiddinov talabalariga mehribon, ularga otalardek munosabatda bo'ldi. Umrining oxirgi damlarigacha san'at institutining Teatr san'ati fakultetida talabalarga aktyorlik mahorati, sahna nutqi fanlarining nazariy darslarini o'tib keldi. Yosh pedagoglarga esa fanning sir-asrorlarini o'rganishda maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsati keldi. O'zbek san'atining yirik namoyondasi Abdurahim Sayfiddinov xotirasi shu taxlit o'zbek teatri tarixida muhrlanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfiddinov A. *Adabiy asar va ijrochilik mahorati*. – Toshkent: “Fan”, 1980.
2. *Eslatma: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Mahkam Muhammedov ko‘p yillar O‘zbekiston televideniyesida faoliyat ko‘rsatish bilan birga O.Xo‘jayev nomli Sirdaryo viloyat teatri va Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida bosh rejissyor vazifasida ishlagan.*
3. Sayfiddinov A. *Adabiy asar va ijrochilik mahorati*. – Toshkent: “Fan”, 1980

Xushvaqtov Eldor

O‘zDSMI “Musiqali tetar san’ati” kafedrasi dotsent v.b

O‘ZBEK KINEMATOGRAFIYASINING SHAKLLANISHIDA TEATR AKTYORLARINING HISSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada *O‘zbekiston madaniyatida teatr va kino san’ati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ijodiy hamkorlik masalalari, ayniqsa aktyorlik mahorat nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Maqolada milliy madaniy merosimizda ushbu ikki san’at turi o‘rtasidagi munosabatlar uzoq tarixiy ildizlarga egaligi hamda sahna aktyorlarining kino sohasiga kirib kelishiga bo‘lgan yetarlicha e’tiborni yoritishga urinilgan.*

Kalit so‘zlar: teatr, kino, aktyor, fenomen, rod, sintez, ijro, adabiy meros, kinematograf, obraz.

Аннотация. В данной статье исследуются взаимосвязи и творческое сотрудничество театра и кино в культуре Узбекистана в контексте актерского искусства. Отмечается, что связи двух искусств имеют глубокий корень в культурном наследии Узбекистана и особое внимание уделяется вступлению театрального актера в кино.

Ключевые слова: театр, кино, актер, феномен, роль, синтез, игра, литературное наследие, кинематограф, образ.

Annotatcion: *The article examines the relationship and creative cooperation of theater and cinema in the culture of Uzbekistan in the context of acting. It is noted that the links between the two arts are deeply rooted in the cultural heritage of Uzbekistan and special attention is paid to the entry of a theatrical actor into cinema.*

Key words: *theater, cinema, actor, phenomenon, role, synthesis, play, literary heritage, cinematograph, image*

Aktyorlar ishtirokida yaratilgan filmlar tarixida fransuz rejissyori Jorj Melesning ijodi muhim o‘rin tutadi. U Lyumer aka-ukalarning dastlabki kinonamoyishlarini tomosha qilgandan so‘ng, sahna aktyorlarini filmlarga jalb qilish orqali badiiy mazmunga ega syujetlarni shakllantirish mumkinligini angladi. Syujetli filmlardagi zamonaviy hayot, tarixiy voqealar yoki fantastik voqeliklar aktyorlarning mahoratli o‘yini orqali ekranda namoyon bo‘la boshladi.

Milliy kino san’atining shakllanishida teatr aktyorlarining ijodiy salohiyati muhim omil bo‘ldi. 1924 yil noyabr oyida Mannon Uyg‘ur tashabbusi va faoliyati natijasida Moskva shahrida O‘zbek drama studiyasi tashkil etildi. Toshkentdan yo‘l olgan O‘zbek davlat namunaviy truppasi a‘zolari ushbu studiyada ilk bor teatr nazariyasi va amaliy tajribasi bilan yaqindan tanishdilar. M.Uyg‘ur, YE.Bobojonov, A.Hidoyatov, X.Siddiq, M.Muhammedov kabi namunali san’atkorlar safiga keyinchalik Toshkentdan T.Saidazimova, S.Eshonto‘rayeva, Z.Hidoyatova, Buxorodan L.Nazrullayev, X.Latipov, S.Tabibullayev, SH.Qayumov, Qo‘qondan B.Ermatov va Andijondan I.Karimov kabi iste’dodli yoshlar ham qo‘shildi. Ular oliy darajadagi aktyorlik mahoratlari bilan milliy teatr va kino sohasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shdilar. Studiyada ta’lim bergan ustozlar – R.Simonov, M.Tolchanov, V.Kansel, L.Sverdlin va O.Basov kabi pedagoglar bo‘lib, ushbu muassasa YE.V.Vaxtangov tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. U yerda tahsil olgan aktyorlar uchun bu ulkan tajriba maktabi vazifasini o‘tadi. Bir yil o‘tgach, ya’ni 1925 yilda bir guruh yosh teatr va kino

namoyondalari Ozarbayjonning Boku shahrida joylashgan Davlat teatr texnikumiga o‘qishga yuborildi. O‘qishni yakunlab qaytgan bitiruvchilar Gogolning “Revizor”i va K.Gossining “Malikai Turandot” asarlarini sahnalashtirdilar. Ushbu spektakllarda aktyorlar o‘zbek an’anaviy og‘zaki san’ati va yevropacha teatr uslubini uyg‘unlashtirgan holda, milliy sahna san’ati uchun o‘ziga xos yo‘nalishni shakllantirdilar.

1927 yili O‘zbekistonning ijodkor yoshlaridan bir guruhi markaziy o‘quv dargohlariga bilim olish uchun yuborildi. Keyinchalik, ulardan shakllangan ijodiy jamoa (Y. A‘zamov, S. Iskandarov, M. Rahimov, R. Pirmuhammedov, A. Umarov) “O‘zbekfilm” kinostudiyasida rejissyor va aktyor sifatida faoliyat yuritdi. O‘tgan asrning 1920-yillar o‘rtalarida dastlabki o‘zbek aktyorlari — S. Xo‘jayev, Q. Yormatov, R. Ahmedov va R. Pirmuhammedov “Ravot shoqollari” filmida ishtirok etdilar. Studiya xodimlarining ko‘pchiligi 1937 yildan kino sohasiga jalb qilindi. Teatr sahnalarida to‘plangan tajriba hamda Moskva va Boku shaharlarida ta‘lim olgan aktyorlar mahalliy an’anaviy tomosha san’ati bilan uyg‘unlashib, yangi aktyorlik maktabining vujudga kelishini ta‘minladi.

O‘zbek milliy aktyorlik san’atining shakllanishida va uning milliy xususiyatlarini namoyon etishda xalq an‘analari va folklor muhim o‘rin tutadi. 1937 yilda "Kleam" filmi orqali o‘zbek kinosida ovozli davr boshlanganidan so‘ng, dastlabki qadamlar tabiiy ravishda folklorga murojaat bilan qo‘yildi. Shu davrda ekranda milliy ruhdagi ilk ovozli filmlardan biri — “Nasriddin Buxoroda” (1943) va undan so‘ng “Nasriddin sarguzashtlari” (1946) yaratildi.

"Nasriddin Buxoroda" filmi o‘zbek va rus kinoijodkorlari o‘rtasidagi hamkorlik natijasida yuzaga keldi. Taniqli rus rejissyori Y. Protozanov bu filmni suratga olishda o‘zbek rejissyori N. G‘aniyev bilan hamkorlikda ish olib bordi. Film suratga olingan davrda Toshkentdagi “Rodina” kinoteatrining katta zali vaqtincha kino namoyishidan to‘xtatilib, pavilion sifatida kinoijodkorlarga

xizmat qildi. Shu yerda Sharq bozori sahnasi uchun dekorasiya qurildi, relslar oʻrnatilib, kamera «telejka» ga oʻrnatilgan holda harakatlantirildi. Filmdagi diqqatga sazovor sahnalardan biri — R. Pirmuhammedov ijro etgan “Qoʻli egri” Koʻsa personajining bozorda aylanib yurishi va yoʻl-yoʻlakay nonvoydan issiq kulcha oʻgʻirlab, qoʻyniga solib olishi aks ettirilgan. Filmda R. Pirmuhammedovdan tashqari, M. Miroqilov, A. Tolipov, SH. Mirzakarimova, A. Ismatov kabi taniqli teatr aktyorlari ham ishtirok etdi. Aktyorlar ijrosiga xos umumiylik — bu komediyaviy ruh, pantomima va yorqin mimika edi. R. Pirmuhammedov bundan avval ham “Ravot shoqollari”, “Chodra”, “Yopiq vagon” kabi filmlarda (1926–1927) ishtirok etgan. U 1927 yilda Moskvaga oʻqishga yuborilgan. Moskva shahridagi Spiridonovka koʻchasida joylashgan 17-uyda u mashhur pedagog L. Sverdlin (oʻziga nisbatan yosh boʻlsa ham) sahna harakati va aktyorlik mahoratlarini oʻrgandi. Qizigʻi, oradan 15 yil oʻtib, ular “Nasriddin Buxoroda” filmining suratga olish maydonida yana uchrashdilar.

Komediya janrida suratga olingan “Nasriddin Buxoroda” filmida bosh qahramon – Nasriddin obrazini rus teatr aktyori L. Sverdlin jonlantirdi. U Moskvadagi Oʻzbek drama studiyasida tahsil olgan yosh Oʻzbekistonliklar uchun sahna mahoratidan dars bergan tajribali pedagoglardan biri edi. Sverdlin oʻz xotiralarida: “Men eshak minishni oʻrgandim. Keyinroq qoʻshiq aytish, oʻynash, bu yerdagi odamlarning qanday muloqotda boʻlishi, qanday kiyinishi, xatti-harakatlari bilan yaqindan tanishdim. Rejissyor ‘Mashgʻulotlarni toʻxtating, suratga olish kechikib ketyapti! -deb qattiq eʼtiroz bildirganida ham men oʻrganishda davom etdim. Niyatim shunday ijro etish ediki, oʻzbeklar meni oʻzlaridan biri deb qabul qilsinlar.” — deya taʼkidlagan. Uning rolga jiddiy yondashuvi, masʼuliyat hissi va izlanishlari tufayli Nasriddin timsoli ekranda nafaqat hazilomuz, balki xalq ozodligi uchun kurashuvchan, elparvar, jasur shaxs sifatida namoyon boʻldi. Sverdlin Nasriddin obrazini teran psixologik mazmun bilan boyitib, uni faqat qahramon

emas, balki o‘z zamonasining adolat so‘zlovchisi sifatida gavdalantirdi.

Filmning ekran yuzini ko‘rishi bir qator omillarga bog‘liq edi. Ijodiy guruhning asosiy qismi rus mutaxassislaridan iborat bo‘lgani sabab, filmning yaratilishi va namoyishi ancha oson kechdi. Chunki o‘sha davrda milliy qadriyat va an‘analarga asoslangan kinoasarni tasvirga olish va ekranga chiqarish uchun markazdan ruxsat olish katta muammo edi. “Nasriddin Buxoroda” filmi ortidan “Nasriddin sarguzashtlari”ni suratga olish ham rejalashtirilgan bo‘lsa-da, ikkinchi film ishi belgilangan vaqtdan uch yil kechikib amalga oshirildi.

Filmga bosh rejissyor sifatida yuborilgan rus kinematografining asoschilaridan biri — Yakov Aleksandrovich Protozanov o‘zbek aktyorlik maktabi bilan yetarli tanish emas edi. Shu bois, u asosiy rollarni o‘z vatandoshlariga ishonib topshirdi. Ilk reja bo‘yicha Buxoro amiri rolini — Shtralx, Nasriddinni — Sverdlin, sudxo‘rni — Abdulov, Husayn Husnullani — Mixozle ijro etishi mo‘ljallangan edi. Nasriddin obrazini kim ijro etishi borasida tortishuvlar bo‘ldi — Sverdlinmi yoki Jarovmi? Protozanov so‘nggi qarorni shunday izohlaydi: “Sverdlin bo‘ladi, iloj yo‘q. Jarovni kutib turolmayman. U hozir Olmaotada,” — deb ta’kidlagan. Bu so‘zlar film uchun aktyor tanlashdagi qiyinchiliklardan dalolat berardi. L. Sverdlinning Nasriddin roliga tasdiqlanishi va uning tayyorgarlik jarayoni jiddiy izlanishlar bilan kechdi. U bu rol uchun nafaqat jismoniy, balki ma’naviy-ruhiy jihatdan ham tayyorgarlik ko‘rdi. X.Akbarovning tahlillari va Respublika Markaziy arxiv fondidagi hujjatlar bu jarayonlarni aniq tasvirlab beradi.

Y.Protozanov L.Sverdlinni “Nasriddin Buxoroda” filmida bosh qahramon — Nasriddin roliga tasdiqlar ekan, unga shunday murojaat qilgan: “Men Sharqni yaxshi bilmayman. Shu bois filmimizda sizning ishtirokingiz zarur. Axir siz bir necha yil O‘zbekistonda yashagansiz, o‘zbek xalqining urf-odatlari bilan tanishsiz. Bundan tashqari, Moskvadagi O‘zbek studiyasida dars bergansiz”, — deb

yozadi X.Akbarov o'z tadqiqotlarida. Bu so'zlar Respublika Markaziy Arxiv fondidagi hujjatlarda ham qayd etilgan .

Sverdlinning ushbu rol uchun tanlanishi tasodifiy emas edi. U Nasriddinni — O'rta Osiyo og'zaki ijodida Xo'ja Nasriddin, Mulla Nasriddin, Nasriddin Afandi nomlari bilan tanilgan, xalq uchun ozodlik va adolat timsoli bo'lgan afsonaviy qahramon sifatida gavdalantirdi. Uning ijrosidagi Nasriddin — xalq dardini anglaydigan, hakimona va hazilomuz, bir paytning o'zida jasur va ezgulikka da'vat etuvchi shaxs sifatida tasvirlandi.

Nasriddinning mifologik va folklor timsoli keyingi yillarda bir qator aktyorlar tomonidan turlicha talqin etildi. Jumladan: Lev Sverdlin — "Nasriddin Buxoroda" (1943), Razzoq Hamroyev — "Nasriddin sarguzashtlari" (1946), Gurgun Tonunsi — "Nasriddin Xo'jandda" (1959), Bashir Safar o'g'li — "Nasriddinning o'n ikki qabri" (1966), Sokrat Abdukodirov — "Nasriddinning birinchi muhabbati" (1977), Ramz Chxikvadze — "Xo'ja Nasriddinning qaytishi" (1989) filmlarida turlicha qiyofalarda namoyon bo'ldi. Bitta qahramon — Nasriddin, biroq har bir aktyor uning tabiati, xarakteri va ruhini o'z uslubi va individual ijodiy yondashuvi asosida talqin qildi.

"Nasriddin Buxoroda" filmi o'zbek adabiy-folklor an'alariga murojaat etilgan ilk ovozli badiiy film sifatida tarixda o'rin egalladi. 1943 yilda L. Solovyov "Nasriddin Buxoroda" nomli romanini yaratgandan so'ng, unga asosan kompozitorlar B.Arapov, M.Ashrafiy va A.Kozlovskiy musiqalari asosida Xarkovda komedik opera sahnalashtirildi. Mazkur spektakl bilan truppa Buxoro, Termiz, Farg'ona, Ashxobod va Olma-ota shaharlariga gastrol safarlari uyushtirdi. Keyinroq suratga olingan filmda aynan shu spektakldagi musiqiy elementlardan samarali foydalanildi, bu esa ekran asariga milliy kolorit va xalqona ruh bag'ishladi.

Asar davomida teatr aktyori va pedagog Sverdlinning ijrosida tabiiylikka erishishga urinish qanchalik murakkab kechgani, xususan yirik planda namoyon bo'lgan sahnalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aktyor ayrim hollarda pantomima va mimikalarga ortiqcha e'tibor qaratib, rolni ko'proq tashqi harakatlar orqali ifodalashga moyil bo'lgan. U Nasriddinning hazilomuz kayfiyati, ustaligi, zirakligi va xalqona chapaniligini ko'rsatish maqsadida yuz, tananing harakatlari, boshni o'ngdan chapga tez-tez chayqash kabi ortiqcha xatti-harakatlarga yo'l qo'ygan.

Bu harakatlar tomoshabin tomonidan jasoratli ijodiy yechimdan ko'ra, tabiiylikdan chetlashish, haddan tashqari teatrlashtirish sifatida qabul qilingan. Aktyor tomonidan milliy mentalitet, milliy qadriyatlar va xalq ruhi bilan yetarlicha bog'lanish ko'zga tashlanmadi. Milliy qahramon obrazini to'la teranlikda ifodalash uchun aktyordan nafaqat texnik mahorat, balki xalq dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy ongi bilan uzviy aloqa talab etiladi. Bu haqda taniqli rejissyor va teatr nazariyachisi M.O.Knebel shunday deydi: "Aksariyat ruhiy-fiziologik hissiyotlar qahramonning o'tmishida yashiringan bo'ladi. Agar aktyor buni to'g'ri topa olsa — u murakkab obrazlarni ham oddiy ifoda orqali to'liq ocha oladi. Bu esa aktyorning haqiqiy yutug'i sanaladi".

Filmning prologi — Nasriddin tomonidan "Yorim ketaman, deydi" degan xalq qo'shig'ini xirgoyi qilish bilan boshlanadi. Shu element keyinroq "Nasriddin sarguzashtlari" (1946) filmida ham takrorlandi. Rejissyorning topshirig'iga ko'ra, Sverdlin va Razzoq Hamroyev eshak minib, bir qo'shiqni kuylash orqali birinchi plandan ortga, so'ng yana oldinga yaqinlashtirish orqali tomoshabinga qahramonni yaqindan tanitishni maqsad qilgan. Biroq aynan shu epizodda aktyorlarning rolga nisbatan individual yondashuvlari o'rtasidagi farq yaqqol ko'rindi: Sverdlin uchun bu folklor qo'shig'i sirtidan kelgan material bo'lgan bo'lsa, Razzoq Hamroyev uni hissiyot bilan, xalqona ruhda ijro etdi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, folklorga tayanilgan kinoobrazda aktyor milliy qadriyatlarni teran anglashga va xalq og'zaki ijodi elementlarini his etishga qodir bo'lishi lozim. Andrey Tarkovskiy bu xususda shunday yozadi: "Ba'zan suratga olish maydonchasida rejissyorning yondoshuvi

aktyorga to‘siq bo‘lishi mumkin. Chunki rejissyor rolni parchalarga bo‘lib beradi, ammo uning xarakteri, ichki mohiyatini aktyorning o‘zi kashf qilishi kerak" [7.5.3]. Aynan shu individual izlanish va xarakterni qismlarda topa olish qobiliyati — aktyor mahoratining chinakam ko‘rsatkichi hisoblanadi. “Nasriddin sarguzashtlari” filmi ham shunga o‘xshash teatr uslubidan to‘liq xalos bo‘la olmadi. U Ikkinchi jahon urushi yillarida, ya’ni og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda suratga olingan. Film xalq orasidagi o‘g‘irlik, to‘yib-ishlamaslik, ta‘magirlik, ko‘p xotinlilik va yolg‘onchilik kabi illatlarga qarshi kurashuvchi oddiy inson — Nasriddin obrazi orqali ijtimoiy tanqidni ko‘tardi. Asar 1946 yil 7 aprel kuni Moskvada premera qilindi. Shu yillarda “sovuq urush” boshlanib, dunyo kinoindustriyasi tanazzulga uchragan bir vaqtda, o‘zbek kinosi endigina shakllanayotgan, sahna aktyorlari kino maydoniga o‘tayotgan palla edi. Toshkent kinostudiyasidagi ijodiy jamoa — rejissyor N. G‘aniyev, ssenariy mualliflari L. Solovyov va V. Vitkovich, operatorlar D. Demuskiy va M. Krasnyanskiylar hamkorligida milliy kinoning rivoji uchun yana folklor asosidagi syujetga murojaat qilindi. N. G‘aniyevning qat’iy va fidokorona mehnati tufayli film suratga olish ishlari ikki yilga kechiksa-da, baribir amalga oshirildi. Markaz tomonidan “hozir butun dunyoda motam — xalq dostonini suratga olishning hojati bormi?” kabi tanqidlarga qaramay, G‘aniyev orqaga chekinmadi va milliy kino maktabi uchun muhim ijodiy yutuqni ta’minladi.

R.Hamroyevning ijrosidagi samimiyat, yonib turgan katta ko‘zlari nafaqat insonning ichki dunyosini, balki najot farishtasiga o‘xshash ezilgan xalqning og‘rig‘ini namoyon etdi. Uning Nasriddini o‘g‘irlik va nohaqlikka qarshi kurashuvchi, xalqning eng yaxshi do‘sti sifatida jonlandi. Qahramon o‘zbek xalqining ochiq yurakli, bilimdon, shukronalik bilan yashayotgan ma’naviy qahramoniga aylandi.

Umuman olganda, “Nasriddin sarguzashtlari” filmidagi aktyorlar ijrosi milliy xarakter va milliy ruhni mukammal aks ettirdi. Har bir aktyor o‘z roliga benazir yondashuvi bilan filmning umumiy

g'oyasini yoritishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ular milliy san'atimizdagi an'analarni saqlab qolish va yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o'ynadi.

Xulosa o'rnida O'zbek kinematografiyasining rivojlanishida teatr aktyorlarining hissasi katta ahamiyatga ega. Teatrda mahoratli ijro va xalqimiz an'anaviy san'atini o'zlashtirgan aktyorlar kino san'atiga yangicha hayot berdi. Ular milliy madaniyatni va milliy obrazlarni kino ekrani orqali keng ommaga yetkazishda muhim vazifani bajardi. Shu bilan birga, teatr va kino san'atining uyg'unligi, ijodiy almashinuv va sintez milliy kinematografiyamizda o'zbek aktyorlik maktabining shakllanishiga va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Milliy kinoning tarixiy rivojlanishida teatr aktyorlari ijodiy faolliklari va mahoratlari mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Bu jarayon milliy kino san'atidagi o'ziga xoslik va milliylikni saqlash, rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sverchnikov A. *Masterstvo rejissyora. "TITIS" studentam, uchebnik. Ulan Ude ul. Dmitrova, 2005.*
2. Xushvaqtoev E. *Zamonaviy ssenografiya maishiy janr ifodasi // Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – №. 21. – C. 93-97.*
3. Grigoreva K. *Raxim Pirmuhammedov // Kino. -1967. - №2. -S. 4,5*
4. Turdiyev A. *Mirshoxid Mirokilov // Mushtum. -1967. -№17.-B. 8.*
6. Akbarov H. *Meni o'zbeklar o'zbek deya qabul kikalar (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -2007.*
7. Akbarov H. *Xo'ja Nasriddin Shayxontoxurda. -Toshkent, 2018. -106.*

ОСОБЕННОСТИ СЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ТЕАТРЕ КУКОЛ

(Проблемы и их решение)

Аннотация. В статье рассматриваются особенности сценической речи актёра в театре кукол, её функциональные и технические аспекты, связанные со спецификой одушевления неживой материи. Автор подчёркивает, что сценическая речь в театре кукол выходит за рамки обычных актёрских задач, поскольку актёр лишён возможности использовать мимику и жест, а основное выразительное средство — голос — проходит через материальную преграду ширмы.

Ключевые слова: сценическая речь, театр кукол, актёр-кукольник, выразительность, голос, движение, кукловодство, пластика, дыхательная техника.

Annotatsiya. Maqolada qo'g'irchoq teatrida aktyorning sahna nutqiga xos xususiyatlari, jonsiz predmetni jonlantirish jarayoni bilan bog'liq funksional va texnik omillar ilmiy tahlil etiladi. Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining an'anaviy aktyorlik vazifalaridan tashqari, o'ziga xos ifodaviy tizimlari mavjud. Chunki, bu jarayonda aktyor mimika va imo-ishoralardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, uning asosiy ifoda vositasi bo'lgan ovoz esa aktyorni yashirib turgan shirma orqali tomoshabinga yetkaziladi.

Kalit so'zlar: sahna nutqi, qo'g'irchoq teatri, aktyor-qo'g'irchoqboz, ifodaviylik, ovoz, harakat, qo'g'irchoqni boshqarish, plastika, nafas texnikasi.

Abstract. The article explores the specific features of stage speech in puppet theater, focusing on its expressive, technical, and pedagogical aspects. The author emphasizes that the actor in puppet

theater, deprived of facial expression and gesture, must rely entirely on the voice as the main expressive tool, overcoming the physical barrier of the screen.

Keywords: *stage speech, puppet theater, puppeteer-actor, expressiveness, voice, movement, puppet manipulation, plasticity, breathing technique.*

Как известно, сценическая речь – это профессиональное средство выразительности актёра, включающее чёткое произношение, эмоциональную выразительность, правильную технику дыхания и контроль над голосом для убедительного донесения образа персонажа или идеи до зрителя. Она является одним из ключевых элементов актёрского мастерства. Но, если мы остановимся на проблемах сценической речи в театре кукол, она будет тесно связана со спецификой именно этого вида театрального искусства, где происходит одушевление неживой природы куклы. Так, например, представим, что драматический актер зашел за ширму. Он сразу лишается своего жеста, мимики, непосредственного общения с партнером, зрителями и, по существу, остается только голос. Драматический актер участвует в создании сценического образа всем своим существом, в орбиту образа втягивается не только психика, но и физическая природа актера, все его тело живет в характерности образа.

Кукольная специфика видоизменяет актерское амплуа, попадая за ширму, актер обретает как бы «вторую жизнь» и такие физические свойства, как рост, возраст, фигура теряют свою ограничительную значимость. Сохраняя голос, актер преодолевает свой возраст и может играть девочек и мальчиков, девушек и юношей, преодолевая физические недостатки, сохранив в себе внутреннюю молодость, творческую энергию и темперамент.

В театре марионеток часто используют практику актера чтеца и кукловода, но этот прием крайне обедняет специфику кукольного искусства, лишая кукольника, произносящего текст роли управляет жестом куклы, спонтанного характера игры с куклой.

Работать за ширмой театра кукол трудно: к чисто творческому моменту примешивается еще и некоторое физическое усилие. Такие усилия не делает актер драматического театра. Если говорить о верховых куклах (перчаточные, тростевые, плоскостные, мимирующие, механические куклы и т.д.) то положение актера за ширмой таково: спина выгнута, голова откинута назад, руки подняты вверх. От этой напряженной позы в необычном положении оказываются и голосовые связки и весь речевой аппарат актера. Есть еще одна особенность в положении актера за ширмой: он отгорожен ею от зрителя, его голос встречает преграду. Помимо этого, актер-кукольник играет с гораздо более «расщепленным сознанием» чем драматический актер: он должен следить за куклой, корректировать ее движения, для того чтобы при всех этих условиях голос актера доходил до зрителя и в то же время сливался с куклой. Актеру необходимо прорваться душой, мыслью, голосом сквозь всю материальную часть спектакля – сквозь ширму, неживую природу куклы – к зрителю. Здесь требуется, так сказать «добавочное усилие», которое должно учитываться в процессе обучения студентов технике речи. Здесь необходима практика и особое чутье.

Помимо общих актерских задач в сферу его внимания входит много добавочных объектов, которых не знает актер драматического театра. Это и техника управления куклы (трости, рычаги, ваги, штоки и т.д.). Элементарные законы кукловождения: «уровень» куклы, «завышение» или «занижение», «хождение боком» и т.д. Круг внимания куклы – кукла-партнер, кукольные предметы и т.д.

Внешний, пластический образ куклы, кукольный жест. Актер-кукольник сосредотачивает свое внимание на своей кукле и кукле партнера, все его темперамент, все актерские помыслы идут у него как бы через руку, «под током». И слово проходит через его руку, потому что каждая его фраза ложится на то или иное действие куклы. Слияние актерской речи с внешним пластическим образом куклы – это еще один признак мастерства в искусстве театра кукол. Голос и речь в театре кукол имеет гораздо большее значение, чем в драматическом театре. Стоя за ширмой, кукольник невидим зрителю, звучит только его голос. И лишь при помощи голоса, в сочетании с пластическим сочетанием куклы, он может доносить до зрителя свои актерские помыслы. Слово является единственным носителем актерской эмоции, идущей к зрителю непосредственно от актера. Но для того чтобы слово, а следовательно и голос актера не шли мимо куклы, его речь должна быть похожа на кукольный жест, сочетаться с ее движением. Слово должно точно попадать в неживую природу куклы – это одно из основных условий ее «оживления», «одушевления» наряде ширмы. Каждая фраза, произнесенная куклой, должна опираться на ее жест или движение. Слово-жест подразумевает эмоциональную основу для изобразительного жеста куклы, а слово-движение – чисто мизансценическое, селеустремленное движение куклы, ради перемены положения куклы наряде ширмы. С этими мизансценическими движениями актер-кукольник старается увязать свою речь, чтобы она не шла мимо куклы. Говоря о непрерывном действии куклы, надо отметить небольшие аксенты, которые связаны обычно с ударными слогами слов или смысловыми ударениями фраз. Аксенты – это легкие движения головы или тела, особенно при отсутствии артикулирующего рта у куклы. Но, если кукла имеет открывающийся рот, то аксенты заменяются синхронизированной с кукольным жестом актерской речью. Но куклы с замкнутым ртом имеют свою

прелест — они будят актерскую фантазию, обогащают разнообразие изобразительных жестов, в отличие от излишней артикуляции кукольных ртов, которые при неосторожном использовании актеров могут утомит зрителей и быть нарочито назойливыми. Почти каждое слово в театре кукол проявляется в действии куклы, и, таким образом, рол раскладывается на слова-жесты, слова-движения и аксенты. Эти навыки позволяют актеру овладет техникой кукловождения, управляют пластическим образом куклы.

В процессе обучения в театральном институте актеры кафедры театра кукол должны имет возможность овладеват разными системами кукол. Так как из вышесказанного, сценическая реч становится неотъемлемой частью кукловождения, когда слово-жест, слово-движение и аксенты связаны со спецификой кукольных видов, систем, конструкций и механики. Когда ширма, маска, чадра и т.д. становится материальной преградой для актерского голоса, когда неудобная поза тела создает трудности для речевого аппарата актера, необходима особая практика правильного дыхания, преодоления и посылка голоса в зрительный зал. Необходимо обращат внимание актера-кукольника на особенности сочетания сценической речи актера с работающими ртами куклы. А также на развитие фантазии изобразительного жеста и слова в случае с куклами с замкнутыми ртами. Важно отметить и тот факт, что кукла, обращаяс к кукле-партнеру, должна размышлять о сказанном «через зрителя», то есть, отрывая свой взгляд от партнера, поворачиват голову к зрителю.

Искусство кукол синтезирует собой нечто среднее между драматическим театром, балетом и пантомимой. Видимо, поэтому этот театр смело вторгается на территории смежных видов: оперы, балета, мюзикла, оперетты и добивается немалых успехов на этом экспериментальном поприще. Невольно начинаеш понимать, какая колоссальная энергия у куклы, какие

сильные эмоции она может вызвать, какое эстетическое наслаждение можно получить от неживой природы, если правильно поставленная сценическая речь, соответствующая законам движения, жеста и аксентов куклы помогает актеру выразит настоящие человеческие чувства и страсти!

Использованная литература

1. Qodirov M. *O'zbek xalq tomosha san'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. Образцов С. *Моя профессия*. – Москва: Искусство, 1981.
3. Королев М. *Искусство театра кукол*. – Ленинград: Искусство, 1973.

Yunusova Dilbar

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist*

“BAHOR” ANSAMBLI FAOLIYATINING YANGI SAHIFALARI

Annotasiya. Ushbu maqolada mukarrama turgunboeva nomidagi raqs dastasi “Bahor” ansamblining ijodiy faoliyati, yurtimiz dovrug'ini jahonga tanitgan ijodiy jamoa haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu ansamblni qayta tiklanishi ijodiy an'anani yoshlarga yetkazish, milliy raqs san'atidagi o'rni va ma'naviy tarbiyasi muallif tomonidan e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: xoreografiya, ansambl, baletmeyster, raqs, postanovka, gastrol, professional

Аннотация. В данной статье рассматривается творческая деятельность танцевального коллектива имени Мукаррамы Тургунбаевой — ансамбля «Бахор», прославившего нашу страну на международной арене. Автор освещает вопросы возрождения ансамбля, передачи творческих традиций молодому поколению, а также его значительную роль в развитии

национального танцевального искусства и духовно-нравственном воспитании.

Ключевые слова: хореография, ансамбль, балетмейстер, танес, постановка, гастроли, профессионализм.

Annotation. This article examines the creative activity of the *Mukarrama Turgunbaeva Dance Ensemble "Bahor,"* a renowned artistic group that has brought international recognition to our country. The author highlights the ensemble's revival, its role in transmitting creative traditions to the younger generation, and its contribution to the development of national dance art and moral education.

Keywords: choreography, ensemble, ballet master, dance, staging, tour, professionalism.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng san'at va madaniyatning barcha sohalarida, xususan, milliy raqs va xoreografiya san'atida, muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrining murakkab sharoitiga qaramay, davlatimiz tomonidan raqs san'atini rivojlantirish va targ'ib etish, qadimiy an'analarni davom ettirish, yosh ijodkorlarni qo'llab - qo'vvatlash va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2020-yil 4-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorga imzo chekdi.

Mazkur Qarorda ta'kidlanganidek, xalqimizning ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan raqs san'atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san'atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o'zi talab etmoqda.

2020-yil 4-fevral kuni milliy raqs san'atiga oid yana bir hujjat - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ham qabul qilindi.

Qarorga ko'p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan milliy raqs san'atining xalqimiz ma'naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va an'analарimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu esa ushbu san'atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo'nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Qarorda ta'kidlanganidek, nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham mashhur bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" ansambli o'zining qariyb 30 yillik faoliyati davomida o'zbek milliy raqs san'ati rivojida o'chmas iz qoldirdi. Biroq mustaqillikning dastlabki yillarida "Bahor" ansamblining ijodiy faoliyati to'xtab qoldi.

Shularning barchasini hisobga olgan holda milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish, shuningdek, o'zbek raqs san'atining "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini yanada oshirish va keng targ'ib etish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli" tashkil etildi.

Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

O'zbekistonda raqs san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an'analarni, mohir baletmeysterlar, balet artistlari merosini tiklash;

milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi"ni yaratish;

xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

raqs va xoreografiya san'ati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishda ishtirok etish, iste'dodli yosh baletmeysterlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish;

milliy raqs va xoreografiya san'ati sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning natijalari asosida zamonaviy raqs kompozitsiyalarini sahnalashtirish;

milliy raqs san'atini mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish maqsadida Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining milliy hamda jahon xalqlari raqslaridan iborat dasturlari asosidagi gastrol-konsert faoliyatini yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, mazkur Qaror "Bahor" ansambli tarixida yangi davrni boshlab berdi.

Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli milliy raqs san'atimizning asosi va ansambllar gultoji hisoblanadi. Uning asoschisi, dunyoga mashhur o'zbek san'ati ustasi raqqosa, baletmeyster, pedagog M.Turg'unboyeva hisoblanib, 1955-yil qo'l ostida yig'ilgan 12-nafar Toshkent davlat xoreografiya bilim yurti qizlaridan, o'z raqs jamoasini yaratdi. 1957-yilda esa ushbu guruh asosida "Bahor" ansabmlini tuzadi. Ushbu yilda ansambl jahon yoshlari va talabalari festivalining oltin medalini qo'lga

kiritishadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay 1960-yilga kelib ansamblga “Bahor” davlat raqs ansambli nomi berildi.

Ansambl raqqosalarining mahoratini oshirish, yangi raqs va xoreografik dasturlarini yaratish, badiiy saviyani hamisha baland saqlash, gastrol safarlarini yuqori darajada o‘tkazish, o‘zbek raqs merosini o‘rganish hamda jahon xalqlari raqslarini sahnalashtirish kabi masalalarni yaxshilash ustida, umrining oxiriga qadar ishladi.

Ansambl uchun 15 ta konsert dasturi tuzdi. “Bahor”, “Ufori sanam”, “Qo‘g‘irchoq”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Munajat”, “O‘zbek valsi”, “Gulnoz”, “Aylanma”, “Beshqarsak”, “G‘ayratli qiz”, “Yetti go‘zal”, “Toshkent piyolasi”, “Shabadalar”, “Alyor”, “Bayot”, “Zang”, “Sho‘x qiz”, “Xorazmcha”, “Paxta”, “Katta o‘yin”, “Uchrashuv”, “Lazgi”, “Dildor”, “Dilbar” kabi umumiy, yakkaxon va duet raqslar yaratildi. Ayniqsa ansambl repertuaridagi yosh raqqosalar tomonidan ijro etilgan, “Pilla”, “Gulsara”, “Bahor” shuningdek M.Turg‘unboyeva ijrosidagi “Tanovor”, “Andijon polkasi” raqslari chet el tomoshabinlari hayratiga va o‘zbek milliy raqs san’atining tanilishiga turtki bo‘ldi.

Ansambl repertuari muntazam ravishda yangi raqsalar bilan boyitilib, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xorazm kabi hududlarni raqslari sahnalashtirildi. Shunindek, ansambl jahon xalqlari raqslari jumladan: Hind, Pokiston, Birma, Yaponiya, Korea, Arab, Turk, Afg‘on, Kuba, Vengriya, Vetnam, Chexiya raqslarini ham o‘z dasturiga kiritdi. Yillar davomida boyib borgan ansambl repertuari 200 dan ortiq yakka va ommaviy raqslarga ega bo‘ldi.

Ansambl dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘ldi. Shu jumladan, Xitoy, Hindiston, Kavkaz davlatlari, Marokash, Jazoir, Pokiston, Afg‘oniston, Arab mamlakatlari, Janubiy Korea, Yaponiya, Liviya, Malaziya, Tunis, Rossiya mamlakatlarida gastrol safarlarida bo‘ldi. Ansambl rivojida badiiy rahbarlarning o‘rni yuqori bo‘ldi. Misol uchun: M.Turg‘unboyeva davrida (1957-1979) o‘zbek raqsi sahnaviy ko‘rinishi yaratilib, yetakchi sahna artistlari yetishib

chiqdi. Qunduz Mirkarimova (1979-1988) rahbarlik davrida esa ansambl repertuari yanada boyib, raqslar yangi talqinda ijro etila boshladi. Ravshanoy Sharipova (1988-1990) rahbarlik yillari oz bo'lishiga qaramay ansambl hayotini rang-barang bo'yoqlarga to'ldirdi. Ma'mura Ergasheva (1990) ansamblning tubdan yangiliklar bilan rivojlanishiga, dunyo kezishiga, xalq orasida "Bahor" ansamblining o'rnini yuqori cho'qqilarga olib chiqishga sababchi bo'ldi.

Ansamblida musiqa rahbari sifatida Baxtiyor Aliyev 1965-yildan boshlab faoliyat yurutib, ansambl tashkilotchilaridan biri bo'ldi. Shuningdek ansamblning dastlabki ijodkorlaridan Z.Rahmatullayeva, D.Kerimova, N.Atamanova, T.Yunusova, A.To'laganova, D.Abdullayeva, N.Bashirova, E.Rasulxo'jayeva, K.Rahmatullayeva, N.Alimboyeva kabi raqqosalar, B.Aliyev, R.Hamdamov, E.Karimov, Q.Dadayev, R.Akbarbekov, O.Rizayev, S.To'xtasinov, B.Xoliqov, K.Nosirov, K.Komilov singari sozandalar hamda O.Matyoqubov kabilarni misol keltirsak bo'ladi.

"Bahor" ansamblining qayta tiklanishi raqs ahli uchun olamshumul voqea bo'ldi. Bu voqea nafaqat o'zbek, balki xorijlik o'zbek san'ati muxlislari tomonidan ham katta xursandchilik bilan kutib olindi.

Ansambl tiklanganiga 5-yil bo'lgan bo'lsa, shu qisqa vaqt mobaynida "Bahor" davlat raqs ansambli Fransiya, Italiya, Turkiya, Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va boshqa kyp lab mamlakatlarda ytkazilgan ijodiy tanlovlar "O'zbekiston madaniyati kunlari"da muvaffaqiyatli ishtirok etdi. 200 dan ortiq raqslarning 30 foizini qayta tiklashga muvofiq bo'ldi.

Ansambl ichki muhiti insonni tarbiyalovchi va ruhiyatiga iliqlik baxsh etuvchi raqslar va ohanglardan iborat bo'lib, o'zining ko'p muxlislari ega. Ustoz san'atkor asos solgan maktabni davom ettirish, asl san'atni tiklashda jahon uzra targ'ib etishda biz raqs ustalaridan mehnat va san'atga bo'lgan sodiqlik talab etiladi. O'ylaymanki, ustozlar maktabini asrlar osha targ'ib etishimiz va

dunyoga mashhur ansamblni o'zligicha saqlagan holda yosh avlodga qoldirishimiz, dunyoga yana keng namoyon qilishimiz zarur deb hisoblayman. Bu yo'lda esa albatta davlatimiz rahnamosi tomonidan yaratilayotgan barcha imkoniyatlar bizga keng yo'l ochib berishiga hech qanday shak-shubhasiz ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Avdeyeva L.A. O'zbek milliy raqs san'ati tarixidan. – T.: 2001.*
2. *Sagatov K., Muxamedova M. O'zbekiston madaniyati va san'ati fidoyilari. – T.: Navruz, 2019.*
3. *SH.Xudoynazarova. O'zbek xoreografiya san'ati namunalari. – T.: Fan ziyosi, 2023.*

II SHO‘BA. AKTYORLIK MAHORATI VA SAHNA NUTQI FANLARINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI: NAZARIY VA AMALIY MASALALARI, MUOMMOLARI, YECHIMLARI

Bakhieva Biybinaz

Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat instituti

Nókis filiali

“Aktyor sheberligi” kafedrası assistent oqıtıwshısı

SAXNA SÓZI PÁNINE MEDICINALÍQ KÓZQARAS

Annotatsiya. *Maqalada saxna sózi pánine medicinalıq qatnastıń zárúrligi tiykarlap berilgen. Sóylew apparatınıń anatomiyası, fonataciya fiziologiyası, dawıs gıgienası, fonataciyalıq mashqalalar hám olardıń aldın alıwda foniatriyalıq qatnaslardıń ornı jarıtılğan. Aktyorlar, baslawshılar, oqıtıwshılar sıyaqlı dawıs penen isleytuğın kásip iyeleri ushın saxna sózi tek ǵana kórkem óner emes, al medicinalıq jaǵday - salamat dawıs apparatına súyenedi. Sonıń ushın saxna sózi tálimi medicinalıq teoriyalar hám ámeliyatlar menen bayıtılıwı zárúr.*

Gilt sózler: *Saxna sózi, dawıs salamatlıǵı, fonaciya, dawıs gıgienası, foniatriya, sóylew fiziologiyası.*

Аннотация. *В статье обоснована необходимость медицинского подхода к сценической речи. Освещены анатомия речевого аппарата, физиология фонации, гигиена голоса, проблемы фонации и роль фониатрических подходов в их профилактике. Для профессионалов, работающих со звуком, таких как актеры, ведущие и учителя, сценическая речь - это не только искусство, но и медицинское состояние - здоровый голосовой аппарат. Поэтому обучение сценической речи должно быть обогащено медицинскими теориями и практикой.*

Ключевые слова: *Сценическая речь, Здоровье голоса, Фонация, Гигиена голоса, Фониатрия, Физиология речи.*

Annotation. *The article substantiates the necessity of a medical approach to the science of stage speech. The anatomy of the speech apparatus, the physiology of phonation, voice hygiene, phonation problems, and the role of phonetic approaches in their prevention are highlighted. For professionals working with sound, such as actors, presenters, and teachers, stage speech relies not only on art but also on a medical condition - a healthy vocal apparatus. Therefore, the teaching of stage speech should be enriched with medical theories and practices.*

Key words: *Stage speech, voice health, phonation, vocal hygiene, phoniatics, speech physiology.*

Saxna sózi - bul aktyordin túsindirme quralı, saxnadağı tásirshénligi hám obrazga jan beriwdegi tiykargı quralı esaplanadı. Biraq, saxna sózin jaratıwda tek ǵana kórkem óner yáki til ilimi emes, al insan organizminiń fiziologiyası, ásirese, dem aliw, ses payda etiw hám rezonans beriw procesleriniń medicinalıq tárepleri áhmiyetli orin tutadı.¹

Sóylew apparati tómendegi buwınlardan ibarat:

- Energiya deregi - ókpe hám diafragma, hawa aǵımın támiyinleydi;
- Fonasiyalıq sistema - jutqınshaq hám ondağı dawıs baylamları;
- Artikulyaciyalıq organlar - til, tis, tańlay, erinler;
- Rezonator sistema - awız boslıǵı, murin jolları hám bas boslıqları.

Fonaciya, yagniy ses payda bolıwı, dawıs baylanıslarınıń terbeliwi arqalı júz beredi. Bul process bulshıq etler, nervler hám hawa basımı arqalı basqarıladı.²

Saxna sózinde eń kóp ushırasatuǵın medicinalıq mashqalalar: disfoniya - dawıstıń gúńgirt shıǵıwı, afoniy - dawıstıń tolıq joǵalıwı,

¹ Orlova, G. N. (2007). *Foniatryia dlya aktyorov i prepodavateley*. Sankt-Peterburg: Piter.

² Yudina, I. A. (1999). *Gigiena golosa u pedagogov i artistov*. Moskva: Meditsina.

fonasteniya - dawıs sharshawı, kúshsiz ses, laringit - jutqınshaq isiniwi, dawıs baylamı túyinsheleri - nadurıs júkleniw aqıbetinde payda boladı.³

Saxna sózi menen shuǵıllanıwshılar ushın dawıs salamatlıǵı birinshi orında turadı. Tómenдеgi gıgienalıq qaǵıydalarǵa ámel qılıw júdá zárúr esaplanadı:⁴

Hár kúni dawıs hám dem aliw shinigiwları (máselen diafragmal dem aliw);

Shınıǵıwdan aldın tayarlıq shınıǵıwları - artikulyaciyalıq shınıǵıwlar;

Suwiq, shańlı, qurǵaq orınlardan saqlanıw;

Kóp suw ishiw - dawıs bayamların igallap turadı;

Dawıs bálentligin normada saqlaw.

Fonaciya menen baylanıslı kásip iyeleri (aktyor, baslawshı, pedagog, qosıqshı) jılına keminde bir márte fonetikalıq kórikten ótiwi zárúr. Hár qanday ersi dawıs ózgerisi biypárwa qaldırılmawı kerek.

Saxnada sóylew tek fiziologiyalıq emes, al psixologiyalıq process. Stress, saxna qorqıwı, auditoriya aldındaǵı qáweter: dem alıwdı qısqartadı, diafragmanı qısadı, dawıs shırayın tómenletedi.

Psixologiyalıq teńsalmaqlılıqtı saqlaw - meditaciya, vizualizaciya, tayarlıq texnikaları arqalı saxna aldında trevoǵanı azaytıw paydalı.⁵

Zamanagóy saxna sózi tárbiyasında tómenдеgi járdemler keń qollanıwı kerek:

Sóylew anatomiyası hám fiziologiyası tiykarların úyretiw;

Fonaciya hám diafragmal dem aliw texnikaları menen tanıstırıw;

Foniatorlar menen birge islesiw - ámeliy seminarlar shólkemlestiriw;

Dawıs gıienası boyınsha óz aldına shınıǵıwlar ótkeriw;

³ Komissarjevsky, V. (1983). *Osnovy scenicheskoy rechi*. Moskva: Iskustvo.

⁴ Jamolova, Z. (2023). *Sahna nutqida ovoz salomatligi muammolari va yechimlari*. Ilm va Amaliyot.

⁵ Orlova, G. N. (2007). *Foniatrriya dlya aktyorov i prepodavateley*. Sankt-Peterburg: Piter.

Hár bir student hám aktyordın dawıs analizi tiykarında individual dawıs rejimin dúziw.

Bunday integraciya tek ǵana kásiplik salamatlıqtı saqlap qalmaq, al aktyordın kásiplik ómirin uzaytadı.

Aktyor saxnalıq shıǵarmada avtordın sózin janlandırıwı, kórkemlik jaqtan jetiliskeń formada analiz etiwı kerek. Atqarıwshılıq ónerin dóretiw waqtında, sóylew organları, yaǵnıy dem hám dawıstıń xızmeti kúshli.⁶

Seslerdiń tuwrı aytılwı tiykarında sóylew organlarınıń norması bilinedi. Eger sóylew organlarınıń birewinde kemshilik bolsa, onda ol joqarı dárejedegi kórkem-óner shıǵarmasın jaratıwǵa tosqınlıq etedi. Sonlıqtan da, atqarıwshılıq ónerin iyelemekshi bolǵan hár bir adam óziniń sóylew organları, olardıń dúzilisi, belsendiligi hám bolıwı múmkin kemshiliklerdi biliwi kerek.

Adam sóylegende sóylew organlarınıń háreketi eki jaǵdayda, belgilengen sestı aytıwı artikulyaciya, ses aytııp bolǵannan keyin sóylew aǵzalarınıń ornına qaytıwı rekursiya menen baylanıslı. Ásirese óziniń iskerliginde janlı sóz benen baylanıslı adamlar buǵan ayırıqsha itibar beriwı zárúr. Sonıń ushın sóylew organlarınıń anatomiyasın úyrengeń durıs boladı.

Saxna sóylewi tek sóz óneri emes, al insan fiziologiyası hám salamatlıǵı menen tıǵız baylanıslı ilim tarawı bolıp esaplanadı. Fonacion mexanizmlerdi tereń túsiniw, medicinalıq gigiena qaǵıydalarına ámel etiw, ruwxıy hám fizikalıq salamatlıqtı qorǵaw arqalı aktyordın dawıs potencialı uzaq múddetke saqlanıwı múmkin.

Sonıń ushın saxna sózi úyretiletuǵın hár bir oqıw ornında medicinalıq-foniatriyalıq bilimlerde engiziw, dawıs salamatlıǵın saqlawdı úyretiw – júdá áhmietli esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Jamolova, Z. (2023). *Sahna nutqida ovoz salomatligi muammolari va yechimlari. Ilm va Amaliyot.*

⁶ “Saxna sózi” Maryash Ismailova Xojambergenovna – Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2018. 18 b.

2. Komissarjevsky, V. (1983). *Osnovy scenicheskoy rechi*. Moskva: Iskusstvo.
3. Orlova, G. N. (2007). *Foniatriya dlya aktyorov i prepodavateley*. Sankt-Peterburg: Piter.
4. Yudina, I. A. (1999). *Gigiena golosa u pedagogov i artistov*. Moskva: Meditsina.
5. “Saxna sózi” Maryash Ismailova Xojambergenovna – Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2018. 18 b.
6. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti (2022). *Sahna nutqi va ovoz gigiyenasi kurs materiallari*. Toshkent.

Djumanov Isoqtoy

O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasining professor v.b

ESTRADA AKTYORINI TARBIYALASHDA MURAKKAB SO‘Z BIRIKMALARI VA SO‘ZAMOLLIK MAHORATI

Annotatsiya. Maqolada keyingi yillarda estrada aktyorligi tarbiyasida tadbiq qilinayotgan so‘z birikmalari va ularning mohiyati, vazifalari haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar. Estrada aktyorligi, so‘z birikmalari, tarbiya, tadbiq qilish, mohiyat, vazifa, aktyorlik mahorati, ijodiy jarayon, ta’lim, sahnaviy nutq

Аннотация. В данной статье рассматриваются словосочетания, применяемые в последнее время в воспитании эстрадного актёрского мастерства, а также раскрывается их сущность и функции.

Ключевые слова. Эстрадное актёрское мастерство, словосочетания, воспитание, применение, сущность, функция, актёрское мастерство, творческий процесс, образование, сценическая реч.

Annatsion. *This article examines the Word combinations recently applied in the training of stage acting, discussing their essence and functions.*

Keywords. *Stage acting, Word combinations, training, application, essence, function, acting skills, creative process, education, stage speech.*

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom etdirib yangi bosqichga ko‘taramiz»

asarida shunday deydi – Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy- texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq» O‘zbek sahna san’atida o‘zining yorqin va betakror ijro istedodiga ega bo‘lgan «Estrada aktyorligi tarbiyasida murakkab so‘z birikmalari va so‘zamollik maxorati» haqida fikr yuritar ekanmiz, bugungi kunda estrada aktyorligi ijrochiliga oshib boryotgan talab hamda ehtiyoj sabab, innovatsion izlanishlarga bo‘lgan vazifalarimizdandir.

Ko‘p ming sonli muxlislariga ega taniqli so‘z ustalari, estrada aktyorlarining ijodiy yo‘liga taxliliy nazar solamiz ekanmiz estrada aktyorining nutqiy texnik jihatlari va so‘zamollik maxoratini shakllantirish va takomillashtirishda murakkab so‘z birikmalari, murakkablashtirilgan tez aytishva saj’larning til boyligini oshiruvchi tilning ravon va burroligini mukammallashtiruvchi tilni charxlovchi ma’nba ekanligini his etamiz.

Buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy o‘zining Farhod va Shirni dostonida shunday deydi: “Afsona so‘zlovchi biyron shoir butun maxoratini ishga solib, pokiza so‘zlarga o‘zgacha ko‘rku tarovat baxsh etadi. Odamda tog‘liklar hamisha sopqon otadi, tentaklar esa behuda gap ham sotadi. Darvoqe ilonning nishi ajdarga kor qilmaydi, it hurgani bilan karvon yo‘lida davom etaveradi. Aqlli odam telba so‘zlariga quloq tutib o‘zini behuda tashvishga

qo‘ymaydi. Eshitgan so‘zlaringni ko‘nglinga olmagin, laqma kabi hiylaga aldanib qolmagin”

Murakkab so‘z birikmalari, tez aytishlar va saj’lar tanlash jarayoni diqqat talab, sinchkov va zukkolik bilan yondoshishni taqozo etadigan jarayon. Estrada aktyorligi ta’lim yo‘nalishida talabalar tomonidan o‘zlashtirilayotgan so‘zlar qurilmasida mantiqining kuchliligi, tasvirlarining mukammalligi va pishiqligi, voqealarning qiziqarliligi, ifodaning ta’sirchan insoniy qadriyatlarga monandligi ustida ishlash jarayonlarida quyidagi muammolar bilan yuzma yuz bo‘lamiz.

1-muammo: Talabalar xotiraning sustligi sabab ifodaviy ravonlikka asos bo‘ladigan murakkab so‘z birikmalari tez aytishlar va saj’larning mazmundorligi, tarbiyaviy ta’sirchanligi, har bir ijrochi va tinglovchining dardu dunyosiga ta’sir kuchi, ijrochining tasavvuri, munosabati, irodasini uyg‘ota olish hususiyati va boshqa jihatlarining zaifligi.

2-muammo: Murakkablashtirilgan davomli so‘zlar birikmasi bo‘lg‘asi estrada aktyorining so‘z boyligini oshirishi, xotirasini mustahkamlashi, o‘ziga hos munosabatda jonli va betakror ta’sirli ifodani hamda talaffuzda mukammallikni mustahkamlashiga qaramay uni o‘zlashtirishga bo‘lgan imkoniyatlarning yetarli emasligi.

3-muammo: Murakkab so‘z birikmalari ustida ishlash jarayonlari ko‘p vaqt diqqat e’tibor, qunt iroda, ko‘p vaqt talab qilishi bois talabalarda buni mustaqil va ustoz bilan o‘zlashtirish uchun ajratilgan vaqtning yetarli emasligi.

4-muammo: Xalqimizga O‘zbekiston radiosi va televideniyasi hamda katta tomosha saroylarida hayotning turli illatlarini o‘tkir yumoristik hikoyalar, monologlar orqali ijod qiluvchi estrada aktyorlari tarbiyasi muammosi.

O‘qituvchilar tomonidan tavsiya qilinadigan murakkablashtirilgan tez aytishlar, saj’lar, yumoristik hikoyalar hamda estrada sahnalarida ijro qilinadigan hayotdagi turli salbiy

xolatlarni xajv orqali tarbiyalovchi monologlar ijrosi baro sodda tasviriy yoki voqeali matnlarni o'zlashtirish tobora ko'p vaqt va takrorlash talab qiladigan muammoga aylanmoqda.

Biz bu muammolarning yechimi sifatida mashq uchun tuzilgan matnlarda talabalarni faol xarakterga chorlovchi, shiddatli nutqiy tizimlar talabida tuzilgan ayrim ishlanmalar ustida ishlashnin o'rinli deb bilamiz. Bunday ishlanmalar kafedrada azaldan yaratilgan va tadbiq etilgan. O'z o'rnida professor Lola Xo'jayeva, Sotimxon Inomxo'jayev, Roziya Usmonova, Mahkam Isroilov, Olga Suzdalseva, Zuhra Olimjonova, Irina Grinberg, Nadejda Nikiforova, Vladimir Iogelsen kabi tajribali yetakchi ustozlar tomonidan e'tirof etilgan.

Masalan tavsiya etilayotgan quyidagi matnga e'tibor qaratsak, professional estrada aktyorlari uchun ham trening sifatida ishlatiladigan nutqiy ravonlik, dinamik shiddat, talaffuz to'laqlonligini takomillashtiruvchi ma'nba bo'la olishi nazarda tutilgan:

Talaba: Yuragimda bordir cho'g', bundan qaddim go'yo tog', yaratayin so'zdan bog', turfa so'zlar ekayin, maqsadimga yetayin, umidlarim bir olam, men hech kimdan emas kam charchoq bilmay ishlayman, izlanishdan tinmayman, bosh tortishni bilmayman, yuklayvering ko'plab mashq, mashqdan olay kuch zavqni, agar bunda bosh tortsam, tanqidga bo'lay nishon, so'zim rost do'stim ishon, tasavvurim tiniqdir, talaffuzim top toza, ifodada andoza, ovozimning jarangi uzoqlarda ovoza, u tlog'larda aks sado, jaranglayda mustahkam so'zlar jonli chinakam, hech aktyordaan emas kam.

Biz institut auditoriyalar yaratilgan bunday matnlar ayrim faol talabalar tomonidan mukammal o'zlashtirilgan xolda talabalarning sevimli repertuari sifatida radio, televideniya, xarbiy qismlar askarlari oldida va boshqa turli tadbirlarda davomli ijro etilganni hamda tajribali boshlovchi va suxandonlar tomonidan diqqat va qiziqish bilan tinglanganini kuzatdik. Yaqinda bundan besh yilcha

oldin “Estarada aktyoligini” bitirgan Qashqadaryolik sobiq talaba Shaxzod Ma’rufov bilan uchrashib qoldik. U “Ko‘rishganimiz yaxshi bo‘ldi ustoz biz yaqinda Turkiston saroyida ijodiy kecha uyushtirishga xarakatni boshladik unda albatta sizning biz uchun yaratgan va tavsiya qilgan murakkab birikmali matnlaringiz bilan boshlashni rejalashtirdik bu matn mana besh yildirki bizni turli tadbirlarda yuzimizni yorug‘ qilib muxlislarimizning e’tiroflariga sabab bo‘lmoqda”- dedi. Biz baxor oyida viloyatlarga borib maxorat darslari o‘tkazganimizda Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligini bitirgan sobiq talabalarimiz ham o‘zlarining pedagogik faoliyatlarida keng tadbiriq qilayotganlarini o‘z o‘rnida bu murakkab birikmalar bo‘lg‘usi aktyorlar tilida aniqlik ravonlik, faol ichki xarakat munosabatning shakllanishida ijobiy natijalani berayotganini ko‘rdik. Albatta bugungi kun talabalarga tavsiya qilinayotgan vazifalar, ishlanmalar, o‘zining mazmuni betakrorligi bilan manzur bo‘la olmasa, zo‘rma-zo‘rakilik, sun‘iylik to‘laqonli talqin hamda ijro mahoratiga halal berishi aniq. Bunday tuzilmali ishlanmalar talabalar aro baxsli munozara muloqot savol javob tariqasida ham tavsiya etilishi o‘zining samarali natijalarini berib kelmoqda.

Masalan: Tatal tuzsang toza tuz! Tatalni toza tuzmaganning tili muz, uning talaffuzi go‘yo barglari to‘kilgan hazon kuz, og‘zida go‘yo tuqqiz hovuch tuz, Toza tuzgan tatalingni tutilmasdan tezlikni oshirib, tasavvurni toshirib, diqqatni jamlab, turfa tovush birikmalarida ko‘pirib, tilni toza tirillatolmay, tizillatolmay, g‘irillatolmay, izillatolmay, chizillatolmay, pisillatolmay, sharillatolmay, zirillatolmay, murakkablashtiradigan, mukammallashtiradigan, takomillashtiradigan, tuzilmalar tuzolmay, va uni yuksak darajada ming bir marta takrorlab tilni olmosday o‘tkir, bulbulday burro, ravon, ta’sirli talaffuz qilolmay, xunob bo‘lib, tomirlari tirishib, labi lunji burishib, tovushlari qorishib qolsa talaffuzing botqoqmi, yo qozonga qopqoqmi, tutab turgan o‘choqmi, yoki pista po‘choqmi bundan so‘zing bo‘shstopmi dedi bir burro baxshi.

2-talaba: Tatalni toza tuzmaganning tili muz bo'lsa uning talaffuzi barglari hazon kuz bo'lsa, og'zida go'y tuqqiz hovuch tuz bo'lsa, Toza tuzgan tutalingni tutallarni tutilmasdan tezlikni oshirib, tasavvurni toshirib, diqqatni jamlab, turfa tovush birikmalarida ko'pirib, tilni toza tirillatolmay, tizillatolmay, g'irillatolmay, izillatolmay, chizillatolmay, pisillatolmay, sharillatolmay, zirillatolmay, murakkablashtiradigan, mukammallashtiradigan, takomillashtiradigan tuzilmalar tuzolmay, va uni yuksak darajada ming bir marta takrorlab tilni olmosday o'tkir, bulbulday burro, ravon, ta'sirli talaffuz qilolmay, xunob bo'lib, tomirlari tirishib, labi lunji burishib, tovushlari qorishib qolsa talaffuzing botqoqmi, yo qozonga qopqoqmi, tutab turgan o'choqmi, yoki pista po'choqmi bundan so'zing bo'shtopmi, bungdan iching titroqmi so'zlaring puf kepakmi, chang tuprog'u kesakmi, ichi chirik terakmi, shunday hissiz yurakmi, bu sahnaga kerakmi dedi yana bir dono boxshi.

3-talaba: Tatalni toza tuzmaganning tili muz bo'lsa uning talaffuzi barglari hazon kuz bo'lsa, og'zida go'y tuqqiz hovuch tuz bo'lsa, Toza tuzgan tutalingni tutallarni tutilmasdan tezlikni oshirib, tasavvurni toshirib, diqqatni jamlab, turfa tovush birikmalarida ko'pirib, tilni toza tirillatolmay, tizillatolmay, g'irillatolmay, izillatolmay, chizillatolmay, pisillatolmay, sharillatolmay, zirillatolmay, murakkablashtiradigan mukammallashtiradigan takomillashtiradigan tuzilmalar tuzolmay, va uni yuksak darajada ming bir marta takrorlab tilni olmosday o'tkir, bulbulday burro, ravon, ta'sirli talaffuz qilolmay, xunob bo'lib, tomirlari tirishib, labi lunji burishib, tovushlari qorishib qolsa talaffuzing botqoqmi, yo qozonga qopqoqmi, tutab turgan o'choqmi, yoki pista po'choqmi bundan so'zing bo'shtopmi, bungdan iching titroqmi so'zlaring puf kepakmi, chang tuprog'u kesakmi, ichi chirik terakmi, shunday hissiz yurakmi, bu sahnaga kerakmi degan savolga tili burro o'zi talantli baxshi shunday deb javob brdi: Sahnaga bu kerakmas, hissiz yurak yurakmas, so'zlarim puf kepakmas, chang tuprog'u kesakmas, so'zim sira bo'shtobmas. Sira pista po'choqmas, tutab turgan

o'choqmas, qazonga ham qopqoqmas, talaffuzim botqoqmas, tilimdagi muz emas, to'qqiz hovuch tuzi yo'q uravermang aka do'q.

Ma'lumki izlanishlar natijasida yaratilgan murakkablashtirilgan matnlar ta'sirli, talabalarda faol o'zlashtirishga bo'lgan intilish, iroda chanqoqlik, kuchli hohish uyg'ota olish kerak bo'ladi. Mashqlarni o'zlashtirishda majburiylik yaxshi natija bermasligini bilamiz. Shunda matnlarni topib tanlay olishi katta kuch va hohish, qunt bilan o'rganishi kabi vazifalarga yo'l ochadi. Nutq texnikasi, mantiq, so'z bilan ishlashning hamma jarayonlarida ham talabada so'zga, ta'sirchan betakror so'zga doimiy mehr, chanqoqlik uyg'otish zarur. Talaba so'zning eng noyob, bebaho ijod ma'nasi ekanligini his etishlari, qadrlay olishi, so'zga, hassos so'zga chechan bo'lishi va buning ijodkorlik barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujudi, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari kerak. Shu o'rinda to'laqonlita'sirchan nutqni takomillashtiruvchi yana bir murakkablashtirilgan tez aytishga e'tibor qaratamiz:

Ko'rinib turibdiki bunday murakkablashtirilgan davomli so'zlar birikmasi bo'lg'usi estrada aktyorining so'z boyligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi o'ziga hos munosabatda jonli va betakror ta'sirli ifodani jonlantiradi, talaffuzda mukammallikni mustahkamlaydi. Bu yerda matn to'rtta talaba doirasida tuzilgan bo'lsada uni qismlarga ajratib o'n to'rtta yoki guruxda nechta talaba bo'lsa bo'lib tavsiya etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zining shonli 80 yillik faoliyat yo'lini bosib o'tgan, dastlab Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti, keyinchalik Mannon Uyg'ur nomidagi O'zbekiston davlat san'at instituti bugungi kunda esa ta'lim yo'nalishlari yanada kengaygan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti respublika san'at va madaniyatning ko'p qirrali yo'nalishlarida malakali iste'dot sohiblarini tarbiyalab professional mutahassislar darajasidagi kadrlar yetishtirib berayotganligi barobarida «Estrada aktyorligi» ta'lim yo'nalishi alohida nufuzga va o'ziga xos ijodiy jarayonlarni jamlagan yo'nalish sifatida o'zining ilk shakllanish yo'lidan

bugungi maxoratli estrada aktyorlarini taqdim qilgan ta'lim yo'nalishiga aylandi. Bu yo'lda barcha ijodiy jarayonlar o'zining yaratuvchilik kabi buyuk qudratli kuchini namoyon etib kelayotganligi, ijro maxorati o'z zamonining ruhi, dardu, dunyosi, muammolarini aks ettirib kelayotganligi, so'zning teran ma'nolik hususiyati ijrochidan qanchalik ko'p vazifalarning muammoli yechimlarini aks etdirib kelayotganli mubolog'a emas.

Estrada aktyorligi san'atida so'z o'z zamonasi, davri muhitini o'zida singdirgan o'zi yashayotgan jamiyatni hamma tomonlama teran anglagan, uning yutuqlaridan chin insoniy qalb bilan quvona oladigan, fahrlanib ardoqlab, olqishlay oladigan vatanparvar so'z ustasi bo'lishni taqozo etadi.

Estradada so'z san'atining hayotbaxsh ifoda tizimlarining jarangi, tarannum etilishi shu zamin istiqlolning oyoqqa turayotgan bugungi kunida qo'yilishi va e'tirof etilishi, ilmiy nazariy, amaliy asoslarda chuqur yoritilishiga nechog'lik atroflicha harakat qilmaylik, uning ochilmagan jihatlarini yana ko'proq anglanish lozimligini his etaveramiz. Insoniyatga eng taxdidli xatar bo'lib havf solayotgan notinchlik, turli mojarolar, tabiatdagi global muammolar, xatarli voqealar, yurt va halq taqdiriga yovuz yot qarashlari bilan insoniyatni bezovta qilayotgan terror, korrupitsiya, mafiya, ahloqiy tubanlik, yoshlarning yot ta'sirlarga chalg'ib qolishi va boshqa ko'plab g'ayrinsoniy, g'ayrioddiy vaziyatlarning davomli kulfatlariga qarshi so'z o'zining qudratli munosabatlarini namoyon qilishi krak. O'z kelajagi tinchlik va osoyishtaligi, bahtini ko'zlagan har bir inson, har bir millat, har bir xalq, har bir ijodkor ijrochidan o'zi yashayotgan muhit ruhini teran anglashini, ogohlikni hamda bor vujudi anglashni anglatishni yuklaydi. Estrada aktyori aqli, tafakkuri, qalbi bilan buyuk yaratuvchilikning madh etuvchi, instiqlol mafkurasi, milliy g'oyalar bilan dunyoqarashi shakllangan ijod mezoniga ahamiyat qaratishi, hayoti tarzini, umrining mazmuni, e'tiqodi va sadoqati timsoliga aylanish kerak. Estrada aktyorligi san'atida ijodkorning yetuk malakasiga ijro mahoratiga ega bo'lishligi uchun ham uning borliqqa bo'lgan aniq va faol

munosabati, qarashi hamda uni ifoda qila olish salohiyati bilan bog'liq. Nutq texnikasi, mantiq, so'z bilan ishlashning hamma jarayonlarida ham bo'lg'uchi estrada aktyorida so'zga, ta'sirchan betakror so'zga doimiy mehr, chanqoqlik uyg'otish zarur. Talaba so'zning eng noyob, bebaho ijod ma'nbasi ekanligini his etishlari, qadrlay olishi, so'zga, hassos so'zga chechan bo'lishi va buning ijodkorlik barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujudi, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari kerak. So'zga mehri, tashnaligi bo'lmagan talaba so'z orqali o'z tomoshabinlari-ning ishonchi, hayrihohligi, diqqatini zabt etishi qiyin kechadi. So'z san'ati jamiyat taraqqiyotining hamma pog'onalarida go'zallikning, barkamollikning komillikning yetakchi sababkorlaridan biri bo'lib kelgan. Halqimiz, millatimizning tafakkur-mafkurasi, ma'naviyati, dunyoqarashi ehtimol ikki o't orasida murakkab jarayonlar, hayot-mamot uchun tanlanish, o'zgarish, yuksalish jarayonida ekan, ijodiy faoliyat tarzimizda zamon ruhi aks etishi lozim. Vatanparvarlik tuyg'usining insoniy munosabatlarda aslicha aks etishi har qanday jamiyatning rivojlanishi, gullab yashnashida yetakchi ma'nba, kuch bo'lib kelgan. Davlatimiz rahbari bu tuyg'uga juda katta e'tibor bilan qarab, har bir sohada buning nechog'lik muhimligini e'tirof etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev «*Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etdirib yangi bosqichga ko'taramiz*» » 1. 168 bet) Toshkent «O'zbekiston; 2017.
2. Alisher Navoiy «*Farxod va Shirin. "Yangi asr avlodi"*» Toshkent 2025.
3. Abdug'ofir Rasulov «*Betakror o'zlik*» Toshkent «Mumtoz so'z: 2009.
4. Omonilla Madayev, Tojixon Sobitova *Xalq og'zaki poetk ijodi "Sharq" nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati* Toshkent- 2003.

MUSIQALI KOMEDIYADA NUTQIY XARAKTER YARATISH

Annotasiya. *Sahna nutqi aktyorlik mahoratining ajralmas qismi, teatr san'atining asosiy ifoda vositasi sanaladi. Mazkur maqolada tragik musiqali komediyadagi nutqiy xarakter yaratish masalalari, aktyorlar ijrosi haqida so'z boradi. "O'lding aziz bo'lding" sahna asarining tahlili keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sahna, teatr, aktyor, ijro, spektakl, san'at, rejissyor, musiqa, ariya, nutqiy xarakter, mahorat, qahramon, komediya, tragediya.*

Аннотация. *Сценическая речь является неотъемлемой частью театрального искусства и основным средством выражения актерского мастерства. В статье рассматриваются вопросы создания речевого образа и игры актеров в трагической музыкальной комедии. Широко освещен анализ спектакля (Ўлдинг азиз бўлдинг).*

Ключевые слова: *сцена, театр, актер, спектакль, пьеса, искусство, режиссер, музыка, ария, речевой образ, мастерство, герой, комедия, трагедия.*

Annotation: *Stage speech is an integral part of acting skills and serves as one of the main means of expression in theatrical art. This article discusses the issues of creating a speech character in a tragic musical comedy and analyzes the actors' performances. A detailed analysis of the stage production "O'lding aziz bo'lding" is presented.*

Keywords: *stage, theater, actor, performance, play, art, director, music, aria, speech character, mastery, hero, comedy, tragedy.*

Sahna nutqi aktyorlik mahoratining ajralmas qismi va teatr san'atining asosiy ifoda vositasi sanalar ekan, u doimo san'atkorning diqqat markazida bo'lishi, ijro jarayonining eng muhim obyekti sifatida ijodiy izlanishlar silsilasining barcha chig'iriqlarida o'tishi lozim.

2000 yilda Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrida rejissyor Bahodir Nazarov dramaturg Xoliq Xursandov va kompozitor F.Olimov bilan birgalikda "O'lding aziz bo'lding" komediyasini sahnalashtiradi.

"Inson xarakterini ifodalashda qahramonning ichki dunyosiga kirib borilmasa, na ishonarli obraz va na milliy qahramon dunyoga keladi. Hozirgi kunda sahna asarlari mavzusining siyqalashib ketishi haqida ham ochiq aytish kerak. Ba'zan dramaturglarimiz hayotiy muvozanatni ko'rsatish o'rniga sxematik hayotni taqdim etadilar. Qahramonlar nutqi masalasida ham o'ylab ko'rish kerak. Nutq qahramon xarakterini ifodalovchi vosita. Ba'zi vaqtlarda aynan nutq dabdala, yuzaki bo'lib qolmoqda. Jonli tildan yiroq, inson xususiyatini ochishdagi sun'iylik, balandparvoz gaplar zamonaviy qahramon mohiyatiga to'g'ri kelmaydi." [1. B.162.], deb yozadi S.Qodirova.

Rejissyor bu asarni sahnalashtirishdan maqsadi bugungi kunda jamiyatda, oilada sodir bo'layotgan noxush holatlarni oldini olish, shuningdek nafs balosiga yo'liqib, o'zida insoniylikni yo'qotgan va tuban illatlar girdobiga kirgan insonlarning oxir oqibatda qanday fojeali holatlarga yuz tutishini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Spektaklning mavzusi inson atrofdagilarni borida qadrlash haqida. Hammaga ham o'lgach aziz bo'lish nasib etavermaydi. Chunki oila yangi ekilgan chinor bo'lsa, uni qanday parvarish qilish otaning zimmasidagi mas'uliyatdir. Farzandga berilgan tarbiyaga qarab natija topishi muqarrar ekanligi spektaklning oliy g'oyasi va yechimiga aylandi.

B.Nazarov spektakllaridagi asosiy motivlarni, o'lmas mavzu va g'oyalarni ustalik bilan tanlay oladi. Spektakllarida syujetlarni

ixcham va mazmunli shaklda sahnaga olib chiqadi. B.Nazarovning yutug‘i o‘zbek xalqi, mentaliteti, oddiy insonlar yashash sharoiti, ularning muammolarini yaxshi bilgani holda sahna asarlari qo‘yadi. Xususan, ayni “O‘lding aziz bo‘lding” spektaklida ham qahramon oddiy o‘zbek kishisi, uning tushib qolgan vaziyati ham siz-u bizga begona emas. B.Nazarov ko‘p yillik tajribasiga tayanib, kuchli aktyorlar jamoasini tuzishga kirishadi. Spektaklni sahnalashtirish jarayonida Bahodir Nazarov ijodiy jamoa imkoniyatlarini o‘rganib chiqadi. Xususan, Mavlon cholni Nasriddin Rustamov, Avaz cholni Tursunboy Pirjonov, Odina kampirni Malika Qayumova, Sultonni Turg‘un Beknazarov, Dostonni Umid Shodmonov, Bo‘stonni Otabek Xaqberdiyev, vakilni Dilmurod Uzoqovga topshiradi. Aktyorlar ijrosidagi o‘ziga xoslik mazkur spektaklni qimmatini yanada oshirgan.

Spektakl voqeasiga ko‘ra, Mavlon ota yaqinlari bilan hazillashib, farzandlariga o‘zining o‘limi haqidagi yolg‘on telegrammani jo‘natadi. Anchadan buyon yo‘qlamayotgan farzandlarini bemehr deb o‘ylagan ota uchun bolalarining hissiyotlarini ko‘rish qiziq edi. “Agar o‘lsam, meni aziz qilisharmikan?”, degan maqsadda g‘alati hazilni o‘ylab topadi. Biroq “...farzandlarim oqibatsiz, ular mening o‘lganimni eshitib ham kelishmasa kerak”, deya ikkilanadi. Chunki xabar yetib borishi bilan farzandlari ota hovliga yetib keladi. Sabab, oqibatsiz farzandlarning maqsadi meros bo‘ladi.

Spektakl davomida voqeani do‘sti Mavlon chol – Nasriddin Rustamovga so‘zlab berish sahnasi Avaz chol – Tursunboy Pirjonovdan katta mahorat, ya’ni sezdirib qo‘ymaslikni talab etadi. Bu esa spektakldagi asosiy qahramonlardan birining qiziqarli xatti-harakatlar tizimi bilan boyitishiga asos bo‘ladi. Shu o‘rinda, ayni ko‘rinish ham spektaklning tomoshaviyligini oshirgan. Aktyor T.Pirjonov obrazining nutqi ustida alohida ishlaganini ta’kidlash lozim. Berilgan shart sharoitda aktyor voqeaga bo‘lgan munosabatini nutqiy tasnifda ochib beradi. Misol uchun bu uslubni Lutfixonim Sarimsoqova, Xamza Umarov, Razzoq Hamrayev,

Farogʻat Rahmatova, Zaynab Sadriyeva, Farziddin Fayozov, Fayzulla Axmedov, Rahim Pirmuhammedovda kuzatish mumkin edi. Bunda nutq ustida ishlaganda albatta tinish belgilarining oʻrni bor. Sababi, diologlar bilan ishlayotganda urgʻu oladigan soʻzlar munosabatda aniq ifodalanishi kerak boʻladi. Shunda soʻroq gaplar, undov gaplar, fikrni oxirgi nuqtaga yetkazish, soʻzni soʻzga bogʻlash, fikrni toʻxtatmasdan yana bir ikkinchi fikrga oʻtish katta ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonlarni puxta egallagan aktyor oʻz rolini tomoshabinga aniq va loʻnda qilib yetkazishga muvaffaq boʻladi. Bunday jarayonlar sahna nutqi fanining badiiy oʻqish boʻlimida koʻproq oʻzlashtiriladi. Bu esa saviyali, uquvli va aqlli aktyorni tarbiyalashda muhim rol oʻynaydi.

Mavlon cholning farzandlari Sulton, Doston, Boʻston, Gulistonlar ham yorqin xarakter, bir-biriga oʻxshamagan vaziyat va shart-sharoit egalari sifatida boyitilgan. Ular buguni va kelajagi haqida partituralar aniqlashtirilgan holda, birinchi planga chiqarilgan. Ayni epizodda asarning tragik-komediya janriga mansub xususiyatlari ochilgan va oʻz isbotini topgan. Bunga oʻgʻli Doston – Umid Shodmonovning marsiyachi ayol bilan boʻlib oʻtgan suhbatning kiritilishi, Sulton Mavlonovich – Turgʻun Beknazarovning qoʻngʻirogʻi asosida yuborilgan vakil obrazining boyitilishi, yangi ijroviy talqinning topilishi, uning til va nutq jihatdan oʻziga xos topilmalarini misol keltirish mumkin.

Avaz chol: maʼrakang tadbir boʻlib ketdi, joʻra. Bekor oʻlib qolding-da, ey... Agar oʻlmaganingda-chi, mana bu tadbirlarni koʻrib, yuraging yorilib oʻlardi. Astagʻfirulloh, astagʻfirulloh..

Avaz chol: anavi bitta “chala”ni yuborishibdi. YO tovba, gapiga zoʻrgʻa tushunasan.

Ayna mana shu sahnada ikki doʻstning diologi boʻlaklarga boʻlinib, ishlanganini koʻrish mumkin. Tomoshabin Avaz chol qahramonini oddiy va samimiy koʻradi. Uning soʻzlari sodda, tabiiyligi sababli ularda kulgi uygʻotadi. Mavlon chol Nasriddin Rustamov talqinida ikki xil xarakter, ikki xatti-harakat yarata olgan.

U soʻzlarni yamlab yubormaydi. Ochiq ohanglar orqali tomoshabinga yetib boradi.

Asardagi fojiaiy holatlar esa farzandlar oʻrtasida boʻlib oʻtadigan otasi haqidagi suhbat orqali ochib berilgan. Ular shunday boʻlishi kerak edi, degan haqiqat bilan yashagani bois ota oʻlimini oddiy hol sifatida qabul qiladi. Katta oʻgʻil Sulton – Turgʻun Beknazarov otasining dafn marosimini koʻngildagidek oʻtkazish maqsadida vakil xizmatidan foydalanmoqchi boʻladi. Sahnada, taʼziyaxonada otasidan ayrilgan oʻgʻil emas, katta tashkilotning rahbari sifatida harakat qiladi. Oʻz shaʼniga mos ravishda koʻmish marosimini tadbirga, tantanaga aylantirishga intiladi.

Oʻrtancha oʻgʻli Doston – Umid Shodmonov esa ota oʻlimiga achinish oʻrniga, dafn marosimiga marsiyachi ayolni taklif etishi uning otasi oʻlimini spektakl tomoshasiga aylantirmoqchi boʻlayotganini koʻrsatib beradi. Ustiga ustak u odamlar va mahalla-koʻy koʻrishi uchun xoʻjakoʻrsinga ish qilayotgani ham yaqqol koʻzga tashlanadi.

Kichik oʻgʻil, chala shoir Boʻston – Otabek Xaqberdiyev esa “...otam meni uylantirmay u dunyoga ketishga nima haqqi bor edi”, deya oʻlgan otaga daʼvo qiladi. Bu oʻz burchini unutgan nobakor oʻgʻillarni cholning yolgʻiz qizi Guliston – Mehri Bekjonovagina ayblay oladi. Akalarining bemehrligi, beeʼtiborligi, yelkasidagi vazifa, masʼuliyatdan qochib shaharning yengil-yelpi hayotiga koʻnikib qolgan, bir soʻz bilan aytganda, nomard oʻgʻillarning yuzlarini ochib tashlaydi. Bu koʻrinishda farzandlarning noahilligi, hudbinligi, aslida kim ekanligini unutgan munofiqona munosabatlari orqali rejissyor markaziy voqealar rivojini hal etadi. Urush-janjallarga chiqib, farzandlar bir-birlari bilan yoqa boʻgʻishish darajasiga yetganida barcha voqealarni kuzatib, gap-soʻzlarni eshitib yotgan “Marhum” chiday olmay, ularning diydorlariga chiqadi.

Otaning tirik ekani hech qaysi farzandni xursand qilmagan sahna esa spektaklning kulminasion nuqtasi edi. “Otajon, Xudoga

shukur, tirik ekansiz”, deyish o‘rniga uni bu yaramas ishi uchun ayblab, ta’na-dashnom qilar ekan, “...bundan ko‘ra o‘lganingiz yaxshi edi”, deyishdan ham toymagan farzandlar haqidagi mazkur spektakl o‘sha davrda teatrning tashrif qog‘oziga aylangan.

Spektaklda o‘lgach aziz bo‘lish hammaga ham nasib etavermasligi, o‘lgandan so‘ng aziz bo‘lish uchun tirikligida mehr-oqibat ko‘rsatish zarurligini tushuntiriladi. Inson bolasi yosh nihol bo‘lib, u mehr bilan olib borilgan tarbiya tufayligina kelajakda rohat va farog‘at manbaiga aylanishini afsus bilan tan oladi. Xalqda “...yaxshi farzand gullagan bog‘u rog‘dir, yomon farzand ko‘ngildagi qora dog‘dir”, degan maqol bor. Dramaturg Xoliq Xursandov, rejissyor Bahodir Nazarov ayni asar orqali shu haqda eslatib qo‘ymoqchi bo‘ladi.

“Teatr san’atining markazida asar g‘oyasini xatti-harakatda ifodalaydigan, sahnaning sultoni aktyor turadi. Ajoyib pyesani, mahoratli rejissyor sahnalashtirsa ham, ijro sust bo‘lsa, badiiy yahlitlikka erishib bo‘lmaydi. Sababi, spektaklning ta’sir kuchi ham, rejissyorlik topilmasi ham, avvalo, aktyor mahorati tufayli yechimga ega bo‘ladi”. [3.B.117.]

Muallif va rejissyorning mavzu tanlashdagi oliy maqsadi va g‘oyasi bir-biriga mos tushishi spektakl muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi. Demak, “O‘lding, aziz bo‘lding” spektaklini sahnalashtiruvchi oliy maqsad farzand tarbiyasiga to‘g‘ri yondoshish haqida bo‘lib, uning oliy g‘oyasi insonlarga o‘zaro mehrli bo‘lish kerakligini uqtiradi. Ko‘rinib turibdiki, Mavlon cholning hayotida aynan shu mehr yetishmaydi. Buning sababi noto‘g‘ri tarbiya ekanligini esa u spektakl yakunida tushunib yetadi.

Asardagi oliy g‘oyaning sahnaviy badiiy yechimini topish uchun rassom Ahmadjon O‘rinov ham katta mehnat qilgan. Rassom ijodiy guruhga spektakl ssenografiyasini ramziy, daraxtlar timsolida yaratish taklifini kiritadi. Chindan ham sahnada har xil yosh, turli shakldagi daraxtlarni ko‘rish mumkin. Sahnaning o‘ng tarafida

chinor, u qing'ir-qiyshiq o'sgan. Yillar sinoviga bardosh beraverib uning tanasida kovaklar hosil bo'lgan. Shunga qaramay hovliga soya solish niyatida shox-shabballari sahnaning markaziga qarab chizilgan. Bu Mavlon chol, u barpo etgan oila va ular yashagan hayot tarzining bir timsolidir. Chinorning qig'ir-qiyshiqliqi Mavlon cholning xato va kamchiliklari, undagi kovaklar esa farzand tarbiyasida yo'l qo'ygan bo'shliqni anglatadi. Sahnaning to'rt chetida qad ko'targan to'rt daraxt Mavlon cholning farzandlari timsoli bo'lib, ularni sahnada paydo bo'ladigan beshik ramziy rishta bilan bog'lab turadi. To'rt farzand katta bo'lgan beshik ota hovlisi timsolida o'ziga bog'lab turadi.

Inson qadriyatlari, ma'naviy olamining ulug' kashfiyotlaridan biri, milliyligimizning faxri bo'lgan beshik bugun YUNESKO tomonidan xalqimizning bashariyatning rivojlanishida qo'shgan yangiligi, buyuk kashfiyoti sifatida tan olinganligi ayni haqiqat. Dunyo xalqlari beshikni mo'jiza deya e'tirof etayotgan bir paytda Mavlon cholning o'g'illari ham unga har xil bo'xton va yolg'onlarni yog'dirib, o'z qadriyatlarini unutgan va undan voz kechgan.

Spektakl finalida chol bu rishtani o'z qo'li bilan uzib tashlaydi. Chunki farzandlari qadriyatlarga qo'shib ota-onasidan ham kechganligini tushunib yetadi. Sahnada paydo bo'lgan beshikni quchoqlab yig'lar ekan, o'tgan umriga achinib, afsuslanib, o'z umrini sarhisob qilib, bema'no, bemaqsad o'tgan, o'z qadriyatidan voz kechgan farzanlarning otasiga aylanib qolganligiga chiday olmay jon beradi.

Spektaklning bosh voqeasi sifatida beshikning tobutga aylanganligi va uning yonida ayoli Odina va do'sti Avazning bosh egib turganini ko'ramiz. Bundan esa otaning so'nggi manzilga kuzatish marosimi farzandlar ishtirokisiz o'tganini tushunish mumkin. Rassom bu sahnaviy yechim orqali rejissyorning bemehrlikni ochib beradi. Rassom ijodiy jamoaning fikru

mulohazalarini sahna ssenografiyasi orqali muvofiqlashtirib berishga erishdi deyish mumkin.

Mavlon chol obrazini Nasriddin Rustamov mohirona ijro etgan. N.Rustamov talqinida Mavlon chol to'laqonli badiiy yaxlit tarzda sahnaga ko'chdi. Aktyor spektakldagi vaziyatni his etishga, undagi noqulay holatlardan ham tabiiylik bilan chiqib, har bir ko'rinishni hayotiy gavdalantirishga intiladi. Ammo asardagi tragik vaziyatlarning emosional talqinida xuddi o'zini ayayotganday ko'rinadi.

Malika Qayumova ijrosidagi Odina kampir esa na eri, na bolalari tomon bo'la olmay arosatda qolgan bir munisadir. U sahnada ikki o't orasida qovrilib yurgan, ammo o'z burchini, o'z vazifalarini sidqidildan, a'lo darajada uddalagan vafodor ayol sifatida namoyon bo'ladi. Aktrisa o'zining keng diapozonli ovozi, kuchli emosional holatlarga tusha olish qobiliyatidan unumli foydalanayotgani shundoqqina ko'rinib turadi.

Sahnada so'zning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan ko'ra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish nechog'li ahamiyatli ekanligini his qilgan aktyor sahnaviy ta'sirchan nutq masalasiga eng ustivor jihatlardan biri, "so'z-sahna san'atining qon tomiri" ekanligiga amal qilib yondashadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist T.Beknazarov so'z ustida ishlash jarayonida asar g'oyaviy mazmunini, voqea-hodisalar rivojidagi mantiqiy izchillikni, personajining xarakterini ochishda, uning yukini oydinlashtirib, badiiy asar matnini o'rganib, o'zlashtirgan. Matndagi har bir so'zning nima uchun aytilayotganini, muayyan so'z zamirida yashirin fikrlarni topib urg'u berib, har bir jumlaning yoki tugallangan bo'lakning tag ma'nosi va maqsadini aniq belgilashiga ahamiyat qaratgan. Aktyor T.Beknazarov so'z ustida ishlashda badiiy so'z mukammalligiga erishgan deyish mumkin. U sahnada pauzalarda fikrlaydi.

Aktyor matn bilan ishlashda sahna nutqining talablarini bajarmasa, ijroda notabiiylik vujudga keladi. Bundan tashqari,

matnda dialog nutqni o‘stirish, badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tizimini o‘rganish, umuman yozuvchining hayotga bo‘lgan munosabatini aktyor anglashi kerak.

Aktyor matn bilan ishlashda sahna nutqining talablarini bajarmasa, ijroda notabiiylik vujudga keladi. Bundan tashqari, matnda dialog nutqni o‘stirish, badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tizimini o‘rganish, umuman yozuvchining hayotga bo‘lgan munosabatini aktyor anglashi kerak. O.Xaqberdiyevning nutqida musiqiylik bor. U ariyalar kuylaganda ovozidagi shira, yoqimli ijro tomoshabinni beixtiyor o‘ziga maftun qilib qo‘yadi.

Dilmurod Uzoqov talqinida vakil obrazi ijrochining mahorati tufayli yorqinlik kasb etgan. Aktyor kichkina, deyarli yuksiz personajiga o‘ziga xos xarakter topa olgan. Natijada uning qahramoni ham voqealar rivojining asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanib qoladi. Aktyor vakilning yurish-turishi, xatti-harakatlari, fe‘l-atvorini yanada boyitadi. Aktyorning nutqiga ham o‘ziga xos yondashadi. YA’ni o‘zbek tilini buzib gapirish orqali qahramonning kimligi va qanday ekanligi haqida tomoshabinlarga ma’lumot beradi. Ayniqsa, aktyorning ijodiy topilmasi, uning qahramonni yumorga boy tarzda talqin etganligidir. Shu boisdan ham bu ijroni spektaklning yutuqlaridan biri deya e’tirof etsa arziydi.

Aktyor bilan suxbat jarayonida D.Uzoqov so‘zga alohida ahamiyat berishini ta’kidlab: “Men asarni olganimdan keyin, albatta uni ustida alohida e’tibor bilan ishlayman. Sababi, chunki sizni sahnada ijro paytida tomoshabin birinchi so‘zni tug‘ilish jarayonidan boshlab yo qabul qiladi yoki qabul qilmaydi. So‘zni shunchaki yodlab olmayman, men matnni tahlil qilib chiqaman. O‘zim topilmalar topishga harakat qilaman. Bu pyesada obrazimning so‘zi yigirma foiz, qolgan sakson foizini o‘zim topganman” [4.] deydi.

Sahna nutqi mutaxassisi, O‘zbekiston xalq artisti, professor Nazira Aliyeva “San’at – mening hayotim” monografiyasida shunday ta’kidlaydi: “O‘sha paytlarda to so‘z to‘la – to‘kis

o‘zlashtirilmaguncha sirayam mezansenaga o‘tilmas edi. Chunki mezansenaga chiqqanda, aktyor ko‘proq o‘z xarakatlari, ularni aniq bir maqsadga, obrazning mohiyatini asarning g‘oyasini to‘g‘ri ochishga yo‘naltirish haqida o‘ylaydi, xullas, so‘z va uning tub mohiyati nutqning sermazmun va jozibadorligi haqida o‘ylashga vaqti va imkoniyati qolmaydi” [5.B.194].

Bahodir Nazarov rejissyor sifatida aktyorlar bilan asar ustida ishlaganda ravon nutqda gapirishiga chorlab, ularni tragikomediya janrida charhlab asarni muvaffaqiyatli topshiradi. Spektakl oradan yigirma yildan ortiqroq davr o‘tgan bo‘lishiga qaramay bugungi kunda ham teatr repertuaridan o‘rin olib kelmoqda. Boisi u bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Farzandlarni to‘g‘ri tarbiyalash, ular orasidagi mehr-oqibatni yuksaltirish har bir ota-onaning vazifasi ekanligini, agar bu borada ozgina xatoga yo‘l qo‘yilsa ham bu kichik e‘tiborsizlik kelajakda katta fojealarga sabab bo‘lishini tomoshabinlarga bot-bot eslatib turadi. Axir hamma zamonlarda bo‘lgani kabi hozir ham bunday muammolar hayotimizda uchrab turibdi. Demak, spektakl ularni ogohlikka chaqirishi va yuzlariga oyna tutishda davom etmog‘i shart.

Spektakl sahnaga olib chiqilgach mutaxassislar tomonidan asar ayni kundagi muammolarni aks ettirayotgani, unda ko‘tarilgan g‘oya bugungi kun uchun g‘oyat dolzarbligi ta’kidlanadi.

Muhokamada bir pardali pyesaning janri ham mavhum, muallif “hazil” deya belgilagan asarning ayrim personajlari (vakil, ona, uning farzandlari Sulton, Doston, Bo‘ston, Guliston) asar yakuniga qadar yechimini topmagani badiiy kengash a‘zolarini e‘tirozlariga sabab bo‘ldi. Spektakl sahnaga olib chiqilgach mutaxassislar tomonidan asar ayni kundagi muammolarni aks ettirayotgani, unda ko‘tarilgan g‘oya bugungi kun uchun g‘oyat dolzarbligi ta’kidlanadi.

“O‘lding, aziz bo‘lding” spektakli tragikomediya janri talablariga to‘liq mos keladi. Shu bilan birga, voqealar tizimi, ularning yechimi, tartibi va ketma-ketligi haqidagi ilk taxminlarini ham bayon etadi. Spektakl rejissyor va dramaturgning

qariyb bir oylik ijodiy hamkorlikdagi ishlarining in'ikosidir. Ular bir oy davomida sahnada repetisiyalarda birgalikda, hamfikrlikda ishladi.

Xulosa o'rnida sahnada qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalari so'z, jest, harakat, grim va libosdir. Bu vositalar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, aktyor ijrosida so'z va harakat uyg'unligi chuqur o'rganiladigan dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage* //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.
2. IBRAGIMOVA U. *TARIXIY SHAXS OBRAZINI YARATISHDA TIL VA NUTQNING AHAMIYATI* //Journal of Culture and Art. – 2024. – T. 2. – №. 2. – S. 53-59.
3. Ibragimova U. *JONLI SO'ZNING SAHNAVIY IFODAVIYLIGI* //MEJDUNARODNIY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA. – 2019. – №. 5.
4. Ibragimova U. *O'ZBEK MUSIQALI DRAMALARIDA SAHNA NUTQI MASALALARINING TALQIN ETILISHI* //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 1. – S. 428-435.
5. Qodirova S. *Teatrda hayot aksi.* – Toshkent: San'at, 2011. – 162-bet
6. Qodirova S. *Komediya san'ati tarixi.* – Toshkent: San'at, 2008. 176-bet
7. M.Umarov. *Mannon Uyg'ur estetikasi.* –Toshkent: Musiqa. 2007. 117 bet.
8. D.Uzoqov bilan bo'lgan suxbatdan. 2024 yil.O'zDSMI binosi.
9. Aliyeva N. *San'at-mening hayotim.* – Toshkent: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1978. - 194-bet
10. Qodirova S. *Bir asar talqini*// Teatr, 2001 yil, 4-son. 4-bet.

SIRLI QUDUQNING SIRINI OCHGAN SPEKTAKL

Annotasiya. Bu maqolada Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan D.Darushovaning "Sirli quduq" spektaklining yutuq va kamchiliklari haqida so'z bo'ladi.

Kalit so'zlar: teatr, dramaturg, aktyor, rejissyor, spektakl, ijodkor, repertuar, dekorasiya.

Аннотация. В этой статье рассказывается о достижениях и недостатках спектакля Д.Дарушовой "Таинственный колодец", поставленного Каракалпакском государственном театре юного зрителя.

Ключевые слова: драматург, театр, актёр, режиссёр, спектакль, создатель, репертуар, декорация.

Annotation. This article discusses the achievements and shortcomings of D. Darushova's play "The Mysterious Well," staged by the Karakalpak State Youth Theatre.

Keywords: theater, playwright, actor, director, play, creator, repertoire, decoration.

Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrning repertuarida bolalar uchun yaratilgan spektakllar anchagina. Ular o'zlarining janri, mavzusi va g'oyalari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Lekin bu galgi spektakl o'zining sahnalashtirilish shakli va rejissyor yechimining yaqqol ko'zga tashlanishi bilan avvalgilaridan o'zgacharoq. Muallif D.Darushova qalamiga mansub «Sirli quduq» ertak spektaklining permyerasi nafaqat bolajonlar, balki katta yoshdagi tomoshabinlarning ham e'tiborini qozona oldi.

Spektaklni sahnalashtirgan rejissyor R.Piyazovanning bolalar spektaklini sahnalashtirishida tajribasi ancha. Uning uzoq yillar avval qo'g'irchoq teatrida aktrisa bo'lib ishlagani, bolalar bilan til

topishishida, ularga qanday spektakllar yoqishini tushunib yetishida va bugungi kunda mana shunday janrdagi spektakllarni sahnalashtirishida qo‘l kelsa kerak. Shu sababli ham R.Piyazova sahnalashtirgan spektakllar teatr repertuarida uzoq yillar yashab qoladi. Ulardan «Erkaboyning nayranglari», «Polizlar majlisi», «O‘nggimdagi tushim» spektakllari bugungi kunga qadar yosh tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda.

«Sirli quduq» o‘z nomi bilan tomoshabinni spektaklni ko‘rishga ishtiyoq uyg‘otadi. Parda ko‘tarilishi bilan bosh qahramonlar Safar bilan Dilbarni sahnada ko‘rmaymiz. Aksincha, ular tomoshabinlar zalidan chiqib keladi. Maktabdan qaytayogan ikki sinfdosh yo‘lida avval e‘tibor bermagan sirli quduqga duch keladi. Bolalar ehtiyotsizlik qilib quduq ichiga tushib ketadi. Sirli quduq esa ularni yer qa‘riga eltib quyadi. Yerdan anchagina pastlab ketgan bolalarni turli hil sarguzashtlar qarshi oladi.

Biz odatda yer ostida jon saqlovchi qurt-qumursqalaru, qo‘ng‘iz, sichqon va chayonlarning qanday kun kechirishiga, ularning nima bilan mashg‘ul bo‘lishlariga qiziqmaymiz. Mazkur spektaklda esa tomoshabinlar mana shu jarayonlarning guvohi bo‘lishadi. Dastlab chayonlarga yo‘liqqan bolalar, ulardan juda qo‘rqishadi. Lekin, birozdan so‘ng, ularning bekordan-bekor ziyon yetkazmasligini, aksincha, ularning davolovchi xususiyatga ega ekanligidan xabordor bo‘lishadi. Sichqonlar bilan to‘qnash kelganida esa, ularning yovuz niyatlarini tushunib yetib, ularga qarshi turadi. YA’ni, sichqonlar bolalarga va tomoshabinlarga qarata atrof-muhitni ifloslashda davom etishini, bu hol ularga qo‘l kelishlarini aytib, bolalarga daraxtlarning tubini qirqishni buyuradi. Qo‘ng‘iz va Qumursqaning ko‘magi sabab bolalar sichqondan qutilishadi va ifloslangan atrofni yig‘ishtirishga tushadi. Bir paytlar o‘zini ag‘darib, qayta turishga imkon bermagan Safarni Qo‘ng‘iz darrov tanib, uni jazolamoqchi bo‘ladi. Lekin, Qumursqa yana oraga tushib, ularni yarashtirib quyadi. Voqealar so‘nggida yer osti jonzotlari Safar bilan Dilbarni yer ustiga kuzatib quyishadi.

Biz yashayotgan ulkamizning tozaligini ta'minlashga va atrof-muhitni ifloslanishdan asrashga hissa qo'shishga har birimizni da'vat qilguvchi g'oya spektaklning asosiy g'oyasi va maqsadi sanaladi. Shuningdek, yer osti jonzotlarining bizga noma'lum xususiyatlarini tomoshabinlarga tanishtiradi.

Teatr san'atida musiqaning o'rni beqiyosdir. Spektaklning ta'sir darajasini oshirda ko'mak bo'ladigan unsurlardan biri musiqadir. Ayniqsa, bolalar spektaklida musiqaning ahamiyat katta. «Sirli quduq» spektaklida ham musiqa va aktyorlar ijro qilgan qo'shiqlar mavzu g'oyasi bilan birlashib, qalblarga tezroq yetib keldi. Teatr rassomi S.Davletov yaratgan sahna bezagi juda chiroyli va noodatiy chiqqani sababli tomoshabinni sahnadagi yer osti dunyosi ekanligiga ishontira oldi, desak mubolag'a etmagan bo'lamiz. Bolajonlarni, hattoki kattalarni ham birdek hayratda qoldira olgan bu sahna liboslaridir. Qahramonlar uchun maxsus tikilgan liboslar va ularning grimida hech qanday kamchilik yoki ortiqchalikni ko'rmaymiz. Teatr dizayneri M.Toremuratova yaratgan eskizlar sahnada jonlarnar ekan, tomoshabinning qiziqishini yanada orttirishga xizmat qildi.

Rejissyor aktyorlarga rol taqsimlashda to'g'ri yo'l tutganini ko'rishimiz mumkin. Masalan chayon obrazini yaratgan aktrisa G.Japarovaning aktyorlik mahoratini tilga olib o'tish o'rinli. G.Japarovaning uzoq yillik tajribasi uning bu safargi Chayon rolini ham maromiga yetkazib o'ynashiga asos bo'lgan bo'lsa ajab emas. Birinchi Ko'rsichqon rolidagi B.Japarovning ham o'z rolini juda yaxshi ijro qilganini uning dublyori R.Tlemisovning ijrosiga taqqoslab bilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, spektakl to'liq badiiy yaxlitlikga erisha oldi. Aktyorlar mahoratidan tortib, dekorasiya, kostyumlar, grim, musiqa, xoreografiya, to'g'ri quyilgan chiroqlar, rejissyor yechimidagi o'ziga xoslik yaqqol ko'zga tashlanadi. Rejissyor R.Piyazova muallif ko'zlagan maqsad va olg'a surgan g'oyasini tomoshabinga to'la-to'kis yetkaza olgan. Spektakl tomoshabinlarda

atrof-muhit tozaligiga befarq bo‘lmaslikni va yer osti jonzotlariga ozor bermaslikni o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ansatbayev N. *Teatr va aktyor, darslik*. 2020.
2. “Sirli quduq” pyesasining asl nusxasi.
3. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*. – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
4. Xalikulova G. E. *Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar*. – 2012.
5. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Uchrediteli: Premier publishing sro*. – №. 2. – S. 116-119.
6. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture*. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
7. Jabborov B. I. O. G. L. *Qo‘g‘irchoq teatrida sahna nutqining o‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education*. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
8. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts*. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.
9. Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.
10. Toxirov O. *MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture*. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.
11. Xodjimatoeva M. et al. *TEATR SAN’ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

YAKKA DARS – SIFATLI TA'LIMGA ERISHISH OMILI

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”[1.]

Annotatsiya. Ushbu maqolada *san’at* va madaniyat sohasining “Teatr *san’ati*” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga “Sahna nutqi” fanidan yakka dars mashg‘ulotlari asosida ta’lim berishning ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Yakka dars mashg‘ulotlarining xususiyatlari, talabalarning mutaxassis bo‘lib shakllanishidagi tutgan o‘rni maqola mazmunida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. *Teatr, sahna nutqi, ta’lim, individual yondashuv, yakka dars, soha, san’at, madaniyat, ustoz-shogird.*

Аннотация. В данной статье рассматривается значение индивидуальных занятий по предмету «Сценическая речь» для студентов, обучающихся по направлению «Театральное искусство» в сфере искусства и культуры. В содержании статьи раскрываются особенности индивидуальных уроков и их роль в процессе профессионального становления студентов.

Ключевые слова: театр, сценическая речь, образование, индивидуальный подход, индивидуальное занятие, сфера, искусство, культура, наставник-ученик.

Annotation. This article discusses the importance of individual lessons in the subject “Stage Speech” for students studying in the field of “Theatrical Art” within the sphere of art and culture. The content of the article highlights the characteristics of individual lessons and their role in the professional development of students.

Keywords: theater, stage speech, education, individual approach, individual lesson, field, art, culture, mentor-student.

Teatr san'ati ta'limiga asos solingan yillardan buyon "Sahna nutqi" dars mashg'ulotlarida talabalarning layoqati, intellektual salohiyati, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun yakka dars mashg'ulotlari olib boriladi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuniga [2.] muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida va Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt meyorlarida ham yakka dars mashg'ulotlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

O'quv mashg'ulotlari odatda, ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, yakka dars va mustaqil ta'lim kabi shakllarda olib boriladi. Bularning barida o'qituvchining talabalarga o'ziga xos yondashuvi, pedagogik ta'sirini va talabalarda ixtisosligi bo'yicha yetarlicha bilim va malakalarni o'rgatishni maqsad qiladi. Ayniqsa, yakka dars mashg'ulotlari talabalarning individual layoqatini, qobiliyatini, salohiyatini ochishda va soha bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida asosiy metodik yo'l sifatida qarab kelingan. Yakka dars deganda jamoa, guruhdan tashqarida olib boriladigan o'qituvchining talaba bilan yakka shug'ullanishi tushuniladi. Yakka tartibda talabalar bilan ishlash yillar davomida o'zining samarali natijalarini taqdim qilgan, shu bois har bir davrda yakka dars mashg'ulotlariga talab va ehtiyoj yuqori bo'lgan.

Ta'lim tizimida yakka dars mashg'ulotlarining keng masshtabda ommalashib borayotganligi sabab talabalar bilan yakka shug'ullanishning zamonaviy metodlari ishlab chiqilmoqda. Bu ta'lim shaklining xususiyatlari haqida: "talaba ta'lim jarayoni, grafik holati kabilarni individual tanlab, mavzuni o'zlashtirishda bosqichma-bosqich to'liq mustaqillikka o'tib boradi. O'qituvchi esa bu jarayonda talabaga maslahatchi sifatida qatnashib, uni yo'naltirib turadi. Talabaga shaxsiy manfaatlari, o'quv faoliyatining xususiyatlari, ta'lim olish usullari, o'quv materialini o'zlashtirish, o'quv faoliyati turlarini hisobga olgan holda tanlash imkoniyati beriladi. Individual ta'lim trayektoriyasini tuzishda eng muhimi ham

shu, avvalo, talabaning imkoniyati, qobiliyati, istiqbollari, natijaga erishish uchun bajarmoqchi bo'lgan say-harakatlarini baholashdan iborat" [3.] – degan fikrlarni ilgari surishmoqda.

San'at va madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, shu bilan birgalikda bu sohalarni o'rganishni maqsad qilgan qiziquvchilar borki, "ustoz-shogird" tizimi asosida o'z kasbiy faoliyatini o'rganib borishadi. San'atning barcha turlarida ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, shogirdlar ustozlarining yonlarida yurib, o'rgatgan tavsiyalarini va ko'nikmalarini o'zlashtirib, soha bo'yicha tajriba orttirib boradi. Ustozning shogirdiga kasbning sir-sinoatlarini o'rgatish jarayoni ham yakka mashg'ulotlardan biri bo'lib, shogirdning ustози o'rgatgan saboqlarini amalda qo'llashi va shu soha bo'yicha katta yutuqlarga erishishida ustozning har bir shogirdiga individual yondashuv asosida bergan ta'lim-tarbiyasining mahsulidir. Ustoz-shogirdlik tizimida, qolaversa, yakka mashg'ulotlar asosida tahsil olgan shogirdlar nafaqat kasbning sir-sinoatlarini, balki yuksak madaniyat, axloq, ma'naviy tarbiyani o'zida jamlagan holda tarbiya topadi. Bu sinalgan uslub. Shu bois ham, jamoat orasida ahloqi, ma'naviyati va ijodiy mahsulining go'zalligiga qoyil qolgan kishilar "ustoz ko'rgan shogirdda..." deb e'tirof etib, ustoziga minnatdorchilik bildiradi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Teatr san'ati", "Tv, radio va televideniye san'ati", "Xalq ijodiyoti" fakultetining deyarli barcha ta'lim yo'nalishlarida ustoz-shogirdlik an'anasi asosida yakka dars mashg'ulotlari maqsadli yo'lga qo'yilgan. "Teatr san'ati" fakultetining aktyorlik va rejissyorlik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ham "Sahna nutqi"idan 3 yil davomida yakka dars mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanib, ustozlaridan kasbiy bilimlarni o'zlashtirib boradi.

Yakka dars mashg'ulotlarida talabalar tanlangan she'riy, nasriy va dramatik asarlarning tahlili va talqini ustida haftalab, oylab ish olib boradi. Tahlil jarayonida asarni adabiy tur va janrlarga ajratib

chiqadi, kompozision va syujet qurilmalarini aniqlab, mantiqiy tahlil asosida ijroda muhim bo'lgan jihatlarni belgilab oladi. Bu kabi tahlillar uzoq vaqtni oladi, shu bois ustozlar talabalarga asarni o'rganishda muhim bo'lgan ijro qonuniyatlarini aniqlashda maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatib boradi. Talaba bilan birgalikda adabiy asarning tahlilini aniqlashtiradi. Bu jarayonlarining barchasi o'qituvchining talaba bilan yakka ishlashida ko'rinadi. Ijro qonuniyatlarining tahlilidan so'ng talaba o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida amaliy jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshira boshlaydi.

Tasavvur qilish, his qilish, baholash, munosabat bildirish kabi omilar asosida tasavvurida jonlangan voqelikni hikoyalash jarayoni boshlanadi. Birinchi urinishning o'zidayoq kutilgan ijroga erishilmagan va buning imkoni ham yo'q. Qayta-qayta urinishlar, ijroda haqiqat tuyg'usini topishga bo'lgan harakatlar, asar ijrosining samimiyligi va haqqoniyligini yaratishga bo'lgan intilishlar oliy kechinma san'atining yorqin namunasining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ijro borasidagi urinishlarni doimo o'qituvchi kuzatib, talabaning yutuq va kamchiliklarini muhokama qilib tushuntirib o'tadi. Talaba aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda ijrosini yangi topilmalar bilan boyitib borishga intiladi.

Yakka darslarning afzalligi shundaki, o'qituvchi talaba bilan hammaslak, fikran do'st bo'lib ishlaydi. Bu esa talabaning sahnada erkin, fikri teran bo'lishida yordam beradi. Yakka darslar asosida nazariy bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan talaba jamoat oldida fikr siqqligi, hayajon, o'z qobig'iga bekinib olish kabi noqulay holatlardan xolos bo'lgan holda, sahnada yorqin asar ijrosini taqdim qiladi. Chunki yakka darslar va amaliy mashg'ulotlarda talaba ijodiy siqqlikdan holi bo'lish texnikalarini o'zlashtirib bo'lgan hisoblanadi. Shu bois bo'lsa kerak, talabalar yakka dars mashg'ulotlarini katta qiziqish bilan olib boradi, ustozidan mahorat sirlarini qunt bilan o'rganadi.

Bugungi kunda yakka shug‘ullanishga talab va istaklar ortib borishiga qaramay yakka darslarni qisqartirish yoxud ayrim guruhlardan olib tashlashga urinishlar bo‘lmoqda. Oliy ta’lim va innovasion vazirlik tomonidan tasdiqlangan o‘quv rejalarda yakka darslar to‘liq va o‘z o‘rnida ko‘rsatilgan, lekin ichki muammolar, yakka darslarga bo‘lgan sovuqqon munosabatlar sabab, yakka darslar qisqarib ketishiga xavf tug‘ilmoqda. Hamma talabalarning yakka darslardan unumli foydalanish maqsadida 45 minutdan, ya’ni bir akademik soatdan vaqt ajratilganki, talaba shu vaqt davomida o‘qituvchi bilan she’riy, nasriy va dramatik asari ustida ishlab, kutilgan natijaga erishish uchun me’riy vaqt ishlab chiqilgan. Bu albatta to‘g‘ri yechim bo‘lgan, lekin shu soatlarning qisqarishi yoxud talabalardan olib tashlanishi esa talabaning mutaxassislik bilimlarni o‘zlashtirishida to‘sqinliklarni keltirib chiqaradi. Bir akademik soat oralig‘iga talabalarni sig‘dirish uchun 2/1, 4/1 qilish jarayoni haqida qayta-qayta gapirilmoqda, ya’ni 45 minutda ikkita talaba, to‘rtta talaba bilan ishlash jarayoniga o‘tishga urinishlar kuzatilmoqda. Bu degani o‘qituvchining va talabaning fikrlari tarqoqlashishiga, bo‘linishiga va albatta ijro to‘laqonligiga erishishda vaqt yetishmovchiligiga olib keladi. Natijada yarim chala asarning paydo bo‘lish holatlari kuzatiladi. Yakka dars mashg‘ulotlarining qisqarishi va ayrim guruhlardan olib tashlanishi esa zamonaviy o‘qitish tizimining yemirilishiga va ta’lim sifatining tushib ketishiga olib keladi.

Bugun yurtboshimiz o‘qituvchi-murabbiylar oldiga juda katta maqsadlar qo‘ygan, Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida yelkama-yelka turib, ilimli, bilimli, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ochiq va sifatli ta’lim mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omildir. Shu bois deydi prezident SH.M.Mirziyoyev: “men Yangi O‘zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman.

Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni prezident sifatida o'z burchim, deb hisoblayman" [4. B-236], - degan so'zlaridan ham shuni anglash mumkinki, sifatli ta'lim mamlakat miqyosidagi dolzarb masaladir.

Oliy ta'lim va innovasion vazirlik tomonidan sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchilar va talabalarga juda keng imkoniyatlar berilgan. O'qituvchi va talabalarning o'z kasbiy faoliyatini yuksaltirish, soha bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishish yo'lida qilingan say-harakatlari hatto rag'batlantirishi, e'tirof etilishi aytib o'tiladi. Bu kabi ishlarga faqat yakka mashg'ulotlar tizimining to'g'ri ishlaganidagina erishiladi.

Qolaversa, yakka darslarga, ya'ni individual ta'lim shakliga davlat va xususiy ta'lim maskanlarida talab va takliflar ortib bormoqda. Bu ta'lim shaklining sifati va natijasini anglagan tashkilotlar ota-onalarga farzandi individual ta'lim asosida o'qishi va mutaxassislikni professional darajada o'zlashtirishini aytib, ularning ishonchini va mehrini qozonishmoqda. San'at va madaniyat ta'lim yo'nalishlarida avvaldan bu ta'lim shakli muvaffaqiyatli ishlab, jamiyat uchun muhim bo'lgan kadrlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ota-onalar ham farzandlari tajribali ustozlardan malakali bilim va tarbiya olayotganidan, ustozlarini yuksak ehtirom bilan hurmat qilayotganidan doimo minnatdor bo'lib kelishgan. Nega endi, an'anaga aylanib ulgurgan, san'at va madaniyat sohasining o'ziga xosligini ifoda etuvchi yakka shug'ullanish imkoniyatidan talabalar bebahra qolishi kerak.

Ma'lumimgizkim, oxirgi 9-10 yilliklar oralig'ida ta'lim sohasida tushkun kayfiyat, sifatli ta'limning susayishi kabi holatlar ko'zga tashlangan, endilikda mamlakatni taraqqiyotga eltuvchi faqat sifatli ta'lim ekanligini barcha birdek tushunib yetmoqda. Mamlakat rahbarining ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi yuksak maqsadlarini har bir soha kishisi shior qilib olishi va shu maqsad sari intilishini muqaddas burch sifatida anglamoq lozim, negaki

yurtboshimiz: “Men doimo ta’lim, ta’lim, muallim, muallim, deb ta’kidlashim bejiz emas. Chunki ta’limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta’limdir”, - deydi Shavkat Mirziyoyev. – Agar 3 ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo’lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo’shganiga guvoh bo’lamiz. Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo ilm-ma’rifat, ma’naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug’ zotlarning avlodimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo’lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an’analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda. Men ishonaman, biz bu tarixiy yo’lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan o’rnimiz, o’z oldimizga qo’yayotgan juda ulkan maqsad va marralarimiz ham aynan shuni taqozo etmoqda”, - deydi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyev [5.].

Yurtboshimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilish, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlash, ayniqsa kambag‘allikni qisqartirish borasida ham ta’limning o’rni va ahamiyatini anglagan holda yoshlarni bilimli va kasb-hunarli qilish borasida bir qancha tashabbuslarni ilgari surib, ochiq va sifatli ta’lim uchun juda katta miqdorda ta’limga investisiyalar ajratib, soha rivoji uchun fidoyilik ko’rsatmoqda.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ham Prezidentimiz ilgari surgan g‘oyalarga ergashib, sohada ochiq va sifatli ta’limni tashkil etish, malakali va tajribali professor-o‘qituvchilarni jalb qilgan holda talabalarga mutaxassislik bo‘yicha professional ta’lim berish jarayonlarini maqsadli tashkil etgan. Misol uchun, professor-o‘qituvchilarning darsga tayyorgarlik holati, ya’ni tarqatma o‘quv materiallari, elektron o‘quv dasturlar va video mashg‘ulotlar, shuningdek tegishli kompyuter dasturlaridan foydalangan holda taqdimot slaydlari, o‘qitish dasturlarini

tayyorlash, baholash jarayonida odil va shaffoflik, talabalarning mavzularni o'zlashtirishi va qoldirilgan darslarni korrupsion holatlarga yo'l qo'ymasdan olib borilishi, professor-o'qituvchilar va talabalarning kasbiy faoliyati bo'yicha xalqaro oliy ta'lim maskanlarida malaka oshirib kelishlari, o'z ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish yo'lida fidoyilarcha ishlayotgan professor-o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlanishi bu borada qilinayotgan ishlarning samarasidir.

“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” [4. B-24], - degan fikrlar bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining shoriga aylangan. Va eng katta qashshoqlik bo'lgan bilimsizlikka qarshi kurash har jabhada o'z aksini ko'rsatmoqda. Oliygo'hnining eng asosiy vazifasi ham yangi avlodni bilimli, ma'rifatli, ilm-fan va o'z ixtisosligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustahkam egallagan layoqatli yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilgan. Bu maqsadga erishishning yagona yo'li sifatli ta'limdir, sifatli ta'limni esa san'at va madaniyat institutining o'ziga xosligini belgilaydigan yakka dars va individual shug'ullanish tashkil etadi. Shunday ekan, an'anaviy o'qitish tizimi asosida rivoj topib, zamonaviy ta'lim shakliga aylanib ulgurgan yakka dars mashg'ulotlarining obro'si va o'rnini saqlab qolish har birimizning maqsad-muddaomizga aylanishi kerak.

“Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim” [6.] – degan prezidentimizning yuksak g'oyasida ta'limning har bir sohasi qamrab olganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston davlat san'at institutining “Sahna nutqi”

kafedrasi ham Uchinchi Renesans poydevorini barpo etishda jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan Shukur Burxon, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Lutfixonim Sarimsaqova, Abror Hidoyatov, Nabi Rahimov, Shohida Maxzumova, G'ani A'zamov, Toshxo'ja Xo'jayev, Obid Yunusov, Razzoq Hamroyev, Yayra Abdullayeva, To'ti Yusupova, Rixsi Ibrahimova, Xojiakbar Nurmatov, Yoqub Ahmedov, Erkin Komilov, Yodgor Sa'dullayev, Gulchehra Jamilova kabi yana bir qancha el suygan san'atkorlarni, badiiy so'z mahoratining yorqin namoyondalarini tarbiyalab berishni maqsad qilgan. Bu yo'lda esa ustozlarimiz tinimsiz mehnat olib borishmoqda. Mamlakat rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yoshlarni tarbiyalash va ularga munosib ta'lim-tarbiya berishga kafedramizning har bir ustozi ma'nan tayyordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.*
2. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'rida"gi O'RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.*
3. *O'sarov J. Individual ta'lim mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi. <https://cspu.uz/yangilik/individual-talim-mustaqil-fikrli-yoshlar-safini-kengaytiradi>.*
4. *Mirziyoyev SH. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 236.*
5. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2024.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020.*

7. Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
8. Xalikulova G. E. Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar. – 2012.
9. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Uchrediteli: Premier publishing sro. – №. 2. – S. 116-119.
10. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
11. Jabborov B. I. O. G. L. Qo ‘g ‘irchoq teatrida sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
12. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.
13. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O ‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.
14. Toxirov O. MUSTAQIL TA’LIM MASHG ‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.
15. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN’ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 186-194.

Maxmudova Xamida

*O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası professor
O'zbekistonda xizmat ko'rstgan yoshlar murabbiysi,*

AKTYORLIK SAN'ATIDA SO'Z XATTI-HARAKATI

Annotasiya. Maqolada aktyorlik san'atida nutqning beqiyos ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Sahna nutqining psixofizik jarayoni ekanligi, sahnaviy xatti-harakatga bo'ysinishi va harakatning ifodaviy yorqinligida sahna nutqi qonunlari va texnik ko'nikmalarning o'zlashtirishning qanchalik muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: matn; so'z osti ma'nosi; tasavvur; ma'no ohangi; talaffuz; nutq texnikasi; ovoz, nafas; so'z xarakati; so'z ta'sirchanligi.

Аннотация. Статья посвящена значению сценической речи в искусстве актёра. Словесное действие психофизический процесс, подчинённый сценическому действию. Выразительность действия актёра во многом зависит от освоения законов и техники сценической речи.

Ключевые слова: текст; подтекст; интонация; видения; воображение; техника; смысл; выразительность.

Annotation. The article discusses the incomparable importance of speech in the art of acting. It emphasizes that stage speech is a psychophysical process, subordinated to stage action, and that mastering the laws and technical skills of stage speech plays a crucial role in ensuring the expressive vividness of performance.

Keywords: text; subtext; imagination; intonation of meaning; pronunciation; speech technique; voice; breathing; word movement; expressiveness of speech.

Aktyorning eng ta'sirchan qurollaridan biri uning ovozi va nutqidir. K.S.Stanislavskiy va uning izdoshlari so'z harakatiga katta

e'tibor berishgan. Betxoven asarlarini uchta notada o'ynab bo'lmaydi. Shekspir, Molyer asarlarini sahnalashtirishda mehnatning to'rtidan uch qismi so'z ustida ishlashga ketganidek, o'zbek mumtoz dramaturglar: Shayxzoda, I.Sulton, Uyg'un, Alisher Navoi asarlarini tomoshabinga yetkazishlikda so'zning o'rnini beqiyosdir. Afsuski, etyud ustida ishlash jarayonining o'ziga hos kamchiliklari ham mavjuddir. Tabiiylikka erishish, hayotiy xaqiqatni izlash niqobi ostida bugungi sahnamizda adabiy normalarga rioya qilmaydigan, ifodasiz, sodda, oddiy nutq ustivorlik qilmoqda. Sahna nutqiga, uning teatrga hos bo'lgan ta'sir kuchi shunchaki o'tkinchi gap emas. Asar ustidagi etyud ko'rinishiga ega jismoniy harakatlarni topish yo'lida izlanishlar olib borayotgan rejissyor, muallif tomonidan berilgan so'zlarga o'tish jarayonida sahna nutqining boy imkoniyatlari, uning badiiy ifodaviyligini mutlaqo unitib qo'ymasligi kerak.

Aytganimizdek, dramatik teatr san'atida sahnaviy xatti-harakatni tomoshabinga yetkazib, ifodalab beruvchi eng asosiy vosita – bu so'zdir. Nemirovich-Danchenko "So'z – ijod toji" - deb, bekorga aytmagan. Aktyorlik san'atining nazariyasi so'zga o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshadi. U so'zni ta'sir vosita, yoki "so'z xatti-harakati" sifatida o'rganadi. Bu nazariya aktyorlik san'atining o'ziga hosligi, uning talablariga tayanadi. Inson ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli vosita sifatida so'z, obraz yaratish jarayonida mantiqiy xatti-xarakatga asoslangan aktyor ijodida katta ahamiyatga ega. *"So'z xatti-harakati" aktyorning barcha xatti-harakatlaridan eng muhimi va eng ta'sirchan harakatdir.* Aktyor partnyor ongiga so'z orqali qanchalik ustalik bilan ta'sir etsa, tomoshabin ham shunchalik ta'sirlanadi. Aktyorlik san'atida so'z qudrati bebahodir. *Aktyor so'z orqali partnyor tasavvuriga ta'sir qiladi, uning ichki ko'zgusida zarur manzarani hosil qilishga intiladi.* Partnyorning "Qulog'i uchun emas, ko'zi uchun" xarakat

qilmoq zarur, deydi K.S.Stanislavskiy.⁷ Demakki, o‘z tassavuridagi fikr - manzaralarini partnyorning tasavvuriga singdirishga harakat qilmoq zarur.

Harakat - irodaviy amaldir. Harakat - jismoniy, so‘z orqali hamda fikriy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda kechadi.

So‘zlash, gapirish – xarakat qilish demakdir. O‘z tasavvurimizni boshqalarga singdirish maqsadi harakatimizni faollashtiradi. Boshqalar sizning tasavvuringizdagi manzarani ko‘rishadimi, yo‘qmi buning ahamiyati siz uchun muhim emas. Bu tabiat va ongosti kuchlarga bog‘liq. Siz uchun maqsadingizga erishish, partnyor tasavvuriga ta’sir etish xohishi, istagi bo‘lsa bas. xohish, istak esa xatti-harakatni qo‘zg‘atadi.

“Tomoshabin oldiga safsata qilib chiqib ketish va *so‘z orqali ta’sir* qilib harakat qilish bu butunlay boshqa - boshqa narsalardir. Birinchi vaziyatda bu “artistlik” qilish, ikkinchi vaziyatda inson sifatida jonli ijro etish demakdir”.⁸⁹

So‘z orqali bo‘ladigan harakatning uchta sharti bor:

1. *So‘z osti ma’nosini aniqlab, ohangini ma’noga qarab topish.*
2. *Tasavvur qilish – birlamchidir.*
3. *So‘z harakatining uchinchi sharti - nutq texnikasi.*

So‘zni bevosita ohang bilan o‘qish, o‘rganish, yod olish tavsiya etilmaydi. Faqat tasavvurdagi timsolning munosabati, harakati, maqsad va sabablarga asoslanib so‘zning tub ma’nosini yetkazish mumkin. Berilgan jihatlar orqali tafakkur qilish lozim. Inson ovozing ohangraboligi, go‘zalligi va ta’sirchanligi, so‘z va fikrni qalbdan qalbga baqiriq-chaqiriqsiz, tabiiy ovozda yetkazishga ham bog‘liq.

Aktyor o‘z so‘zlariga qanchalik tashqi ohang bermasin, qanchalik o‘z hissiyotlarini qo‘zg‘atishga harakat qilmasin,

⁷ Станиславский К.С. Моя жизнь в искусстве. – М., 1933 т.3. – С.92-93

⁸ Станиславский К.С. Моя жизнь в искусстве. М., 1933 год. Т.3

qanchalik ularni o‘z boshidan “kechirishga” urinmasin, agarda o‘z tasavvurida gapirayotgan narsasini ko‘rmasa “so‘z orqali harakat”ga erisha olmaydi. So‘zga atayin ohang berish, sun‘iylikka, deklamasiyaga olib kelishi hammaga ayon. Shu bilan birga, aktyor o‘z ovozinig ohang imkoniyatlarini boyitmasa, ulardan foydalanishni bilmasa, so‘z harakati mantig‘ining murakkab hollarida kerak bo‘ladigan yorqin va ifodaviy nutqni egallashi mumkin emas. Shu bois u o‘z nutqining ohangdorligiga e‘tibor qaratishga majbur.

Tashqi quruq ohanglardan holis bo‘lish uchun aktyor ovoz ohangini *harakatning* ta’sir kuchiga aylantirishi lozim.

Aktyorlar xunarga aylantirgan bu kabi illatlarga qarshi kurash teskari holatga ham olib kelgan va olib kelmoqda. Sahna nutqining ohangdorligi, aniq va ravonligiga e‘tiborsizlik natijasida so‘z o‘z ta’sir kuchini yo‘qotmoqda, sahnadagi so‘z harakatlari mujmal bo‘lib, asar ma’nosiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. K.S.Stanislavskiy aktyorlardan hamisha purma’no ta’sirchan xatti - harakatlarni talab qilib kelgan, shu jumladan nutqning ohangraboliligiga ham katta e‘tibor qaratgan. Ammo u, to‘g‘ridan-to‘g‘ri quruq ohang ustida ishlashni inkor etgan. Ohanglar maqsad va vazifalardan kelib chiqib, na faqat yorqin bo‘lishi, ular jonli, harakatga bo‘ysungan bo‘lishi darkor.

Agarda inson o‘z maqsadiga yetishish jarayonida jon kuydirsa, gapirayotgan so‘zlarga befarq bo‘lmasa va bu so‘zlar qalbini larzaga solsa uning nutqi ham ta’sirchan, ovozi esa ohanglarga boy bo‘ladi. O‘z taassurotlarni yorqin ifodalab bermoqchi bo‘lgan inson ovozinig butun ko‘lamidan (diapazonidan) foydalanishga harakat qiladi. Na faqat ohanglarning turli ranglaridan, qarama-qarshi ranglardan ham foydalanish nutqning ifodaviyligani boyitadi.

Tasavvurdagi manzaralar (videniye) - birlamchidir. Aktyor qo‘liga olgan rol matnida pyesa ishtirokchisi tasavvurining natijasi berilgan, tasavvurdagi manzaralar esa matn ortida qolib ketgan bo‘ladi. Agarda aktyor matnni sinchiklab o‘rganish, so‘z osti

ma'nolarni ochish orqali, shu tasavvurdagi manzaralarni tiklamasa, agarda uning har galgi ijrosida, har bir so'zida bu manzaralar tasavvurida tiklanmasa, bunday aktyor so'z orqali partnyor va tomoshabinlarga ta'sir etolmaydi.

So'z orqali munosabatga kirishish jarayonida tasavvurning o'rni asosiy ahamiyatga egadir. Rol, yodlash orqali emas tasavvur qilish orqali o'zlashtiriladi. *Tasavvurning mumkin qadar yorqinlashtirilishi, berilgan shart-sharoitni keskinlashtirilishi aktyor ifodaviyligining belgisidir.* Ijodkor qobiliyatining darajasini uning tasavvur va hayolot salohiyati belgilaydi. Ijodiy salohiyat esa ta'sirchanlikka, tasavvurning qudratiga bog'liq. Odatda, ko'z o'ngimda ko'rganimni - gapiryapman harakatlari bir-biriga mos tushadi. Ba'zan ko'rganim bilan gapirganim bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Bir narsani ko'ryapman, boshqa narsani gapiryapman. O'zaro munosabat vaqtida hamsuhbatning tasavvurini uyg'otish kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytiladigan bo'lsa hamsuhbatning qulog'iga emas, «ko'ziga», tasavvuriga, hayolotiga ta'sir o'tkazish zarur. Rol ustidagi ishning dastlabki bosqichida, qahramonning qiyofasi hali tasavvurimizdan uzoqroq bo'lgani boisidan, qahramon va o'zimizga yaqin bo'lgan berilgan shart-sharoitlarga murojaat etganimiz maqsadga muvofiqdir. Bunda, etyud orqali berilgan shart-sharoitlarni asta- sekinlik bilan o'zlashtirish, boyitish va tasavvurni uyg'otish nazarda tutilmoqda. Albatta qahramonga xos bo'lgan tasavvur manzalarini birdan uyg'otish anchayin mushkuldir.

Nutq texnikasi. Tomoshabin va eshituvchi ***so'z orqali*** sahnada sodir bo'layotgan jarayonning ***ma'nosini*** anglab boradi.

Timsol - obraz ifodaviyligini yaratish jarayonida nutq texnikasi katta ahamiyatga ega. U sahna nutqining asosiy omillaridan biridir. K.S. Stanislavskiy, obraz ichki dunyosini yorqin va aniq ifoda etilishida timsolga mos ovoz va nutqidan foydalanishga katta e'tibor bergan. "Kechinma" maktab aktyori faqat ovoz va nutq texnikasini egallagandagina o'zida bo'lib o'tayotgan obraz kechinmalarini ifodalab berishi mumkin. Agarda aktyorning ovozi o'ziga

bo'ysunmasa, imkoniyatlari past bo'lsa, nutqi ravon bo'lmasa, diksiya va orfoepik normalardan uzoq bo'lsa aktyor ijrosida shakl va mazmun bir-biriga zid keladi va "kechinma san'atning" mohiyati buziladi.

Nutqida kamchilik bor bo'lgan aktyor partnyor ongiga ta'sir etish jarayonida muammolarga duch bo'ladi, chunki so'z orqali ifoda etiladigan fikr va taassurotlarini yetkazib berishga qiynaladi. So'z talaffuzining buzilishi mazmunga putur yetkazadi. Aktyorda nutq nuqsonlari bo'lmasada so'zning undosh tovushlarni yamlab, unlilarni qisqartirib gapirsa, talaffuzi aniq bo'lmasa, demak u, birinchidan, gapirgan gapi nima haqida ekanligini tasavvur qilmayotganligi yoki so'zlar nima maqsadda gapirilayotganligini bilmasligi haqida dalolat beradi. Ikkinchidan, u nutq texnikasi eallamagan bo'ladi. Shunga o'xshash barcha vaziyatlarda aktyor o'z tasavvuridagi manzaralarini so'z orqali ifodalab berishga ojizlik qiladi.

So'z ta'sirining kuchi o'ta muhimligini anglagan holda barcha teatr bilim yurtlarida "Sahna nutqi" faniga yakka tarzda o'qitish uchun soatlar ajratilgan. Bu darslarda bo'lajak aktyor va rejissyorlarni so'z harakati va uning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan yuksak texnikani egallash vazifasi qo'yilgan. Ammo shunga qaramasdan sahna nutqining bugungi ahvoli aytarli yaxshi emas. Bu holat ham obyektiv, ham subyektiv sabablarga bog'liq. Obyektiv sabablar: tabiiyki, teatr o'z taraqqiyotida estetik qarashlarini zamon talablariga mos o'zgartirib borishga majburdir. Kinematograf, televideniye ta'siri ostida tomoshabinlarning qabul qilish talabi, didi o'zgargan va teatr balandparvozlik, deklamasiya, teatrlilikdan voz kechib, tabiiylikka, hayotiy haqiqatga, naturalizmga intila boshladi. Bu sahna nutqiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Lekin, ikkilamchi san'at deb yuritiladigan rejissura va aktyorlik san'atida aniq qonun va qoidalarsiz, ichki tushuncha va sezgilarga tayanib ijod qilish "mumkin" degan fikr yursa /chunki bu san'atlar

dramaturgiyaga asoslangan va tayyor soʻzni qalqon qilib olishlari mumkin/, *“Sahna nutqi” fani maʼlum muqim qoida va konunlarga boʻysunadi.* Nafas va ovoz qoʻyish, talaffuz - diksiya, orfoepik normalar haqida tasavvurga ega boʻlish kamlik qiladi, ular haqida aniq bilim va koʻnikmalarni egallash, tajriba ortirish muhimdir. Mutahassis boʻlmasdan turib ham nutq haqida fikr yuritish mumkin. Ovoz bormi yoʻqmi, nutqi ravonmi yoʻqmi, talaffuzi toʻgʻrimi yoʻqmi bularni hamma sezishi mumkin. Ammo nutqning nozik tomonlarini faqat mutahassis aniqlashi mumkin. Aktyorning nafasi toʻgʻri qoʻyilganligi, ovozning qaytargichlarga yoʻnaltirilganligi, jarangdorligi, qoʻlami kengligi; maqsad, xatti - harakat, tasavvurga boʻysundirilgan ohanglarining rang-barangligi; matn ustida ishlash koʻnikmalari bormi yoʻqmi va h.k. bularga faqat mutahassis javob berishi mumkin. Boʻlgʻuvsi rejissyor va aktyorlar “Sahna nutqi”ning bunday murakkab sohalarini tajribali pedagog - mutahassis boshchiligida jiddiy oʻzlashtirishlari lozim.

“Aktyor soʻzning haykaltaroshi boʻlishi kerak” - deydi K.S. Stanislavskiy.¹⁰

P.Yershov oʻzining “Soʻz va soʻzsiz harakat mantigʻi” (Logika slovesnix i besslovesnix deystviy) kitobida gap tuzish mantigʻiga katta eʼtibor qaratgan. “Gap tuzishning ichki psixik tomoni borliqni uzuq-yuluq, tasodifiy bogʻliq qismlarga boʻlib emas, shu borliqning oʻzaro bogʻliq jihatlarini jamlagan holda yaxlit koʻraolishlik bilan bogʻliq. Gap yasashning (lepka frazi) tashqi fizik tomoni uning aniq va ravshan ifodalanishi, ohangida esa uning grammatik hamda maʼnoviy qurilmasi aks etmogʻi lozim.”¹¹

Soʻz harakatining bu ikkala tomoni bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir. Agarda aktyor ichki koʻzgu bilan gapirayotgan gapining nima haqida ekanligini anglasa, maʼno va magʻzini chaqib, nimani va nima uchun gapirayotganini bilsa, u bu haqda atayin oʻylab oʻtirmaydi, gap oʻz-oʻzidan oʻz shakl - shamoyilini topadi. Va uning

¹⁰ К.С. Станиславский. Собр. Соч.: в 8-ми тт. - М., 1954-1961

¹¹ Ершов П. Логика словесных и бессловесных действий. Т.

aksi, agarda aktyor gap tuzish qoidalarini bilsa, ma'nosini ochishga harakat qilsa bu o'z navbatida aktyorning tasavvurini qo'zg'atishga yordam beradi.

Birinchidan, gapni turli tarzda yasash, tuzish uning ma'nosiga aniqlik kiritadi, boyitadi va ichki ko'zgu sathidagi tasvirni yorqinlashtiradi.

Ikkinchidan, har bir gapni turlicha ifodalab berish orqali gapga turli ma'no, hatto aks ma'no tusini ham berish mumkin.

Uchinchidan, gapni tuzish va uning ohangini to'g'ri ifodalab berish so'zosti ma'noni ochib berishga bog'liq".¹²

Aktyorning vaqt va makon birligida topgan moslamalari uning qobiliyati haqida dalolat beradi. Bu tamoyil so'z harakati va nutqning ohang boyligiga ham taaluqli. Partnyor ongiga haqiqiy ta'sir etmoqchi inson hech qachon uzoq vaqt davomida bir xil ohangdan, (monoton) usuldan foydalanmaydi.

Ohang boyligiga erishish uchun aktyor, *birinchidan* - tasavvurni takomillashtirish, boyitish zarur. Gapirayotgan gapi ostida turgan *tasvirni ichki ko'zgusida yorqin, timsoliy tarzda ko'rishi kerak. Ikkinchidan* - so'z va gapning aniq va ravon yetkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi va *uchinchidan* - so'z harakati *uslubiyatidan mohirona foydalanishi zarur.* Tomoshabin voqealar oqimini so'z orqali anglab yetadi. So'zning aniq va ravon yetib kelmasligi, be'tasirligi, yamlanib, chaynalib gapirish - birinchi navbatda tomoshabinga, qolaversa muallif va aktyor o'z kasbiga nisbatan hurmatsizlik belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov J., Mahmudova H. *Rejissura asoslari*. T.: 2008.
2. Zufarov U. *Sahna talqini va tahlil*. T.: 2007.
3. Usmonov R. *Rejissura*. T.: 1997.
4. Zaxidova N. *Tashxodja Xodjayev*. - T.: *Izd. Lit. i Is-vo*, 1980

¹² П.Ершов «Логика словесных и бессловесных действий», т. I

5. Stanislavskiy K. *Sobr. soch. V 8tt. T.: 2-3.*
6. Stanislavskiy K. *Moya jizn v iskusstve. – M.: 1933.*
7. Yershov P. *Logika slovesnix i besslovesnix deystviy. T.: 1 str. 4*
8. *Metod K.S.Stanislavskogo i fiziologiya emosi. M.: 1962*
9. Vigotskiy L. *Psixologiya tvorchestva. M.: 1965.*

Qobilov Xabibullo

UzDSMI “Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası dotsenti

TARIXIY ASARLAR DISKURSIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING AKS ETISHI: QIYOSIY- GERMENEVTIK TAHLIL

Annatotsiya. *Ushbu maqola barcha talabalarga dasturi amal bo‘ladigan, barcha talabalar uchun maktab bo‘lmish klassik asarlarni ular tarbiyasidagi o‘rni. Asarlar zamonlar osha umuminsoniy qadriyatlarini talabalarga yetkazish ko‘tarilgan.*

Kalit so‘zlar: *Insoniyat, mahsul, qadriyat, muruvvat, spektakl, g‘oya, estet*

Аннотация. *В этой статье основное внимание уделяется роли классических произведений в их воспитании, которое является школой для всех студентов, и программа распространяется на всех учеников.*

Ключевые слова: *человечность, продукт, сенность, изящество, перформанс, идея, эстетика.*

Annotation. *In this state the main attention is paid to the role of classical proizvedeniy in ix vospitaniy, kotoroe yavlyaetsya shkoley for all students, and the program rasprostranyaetsya on all students.*

Key words: *humanity, product, value, grace, performance, idea, aesthetics.*

Insoniyatning hozirgi zamonaviy taraqqiyot darajasiga erishishi bevosita fundamental sotsial-axloqiy tushunchalar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu tushunchalar primitiv jamiyatdan ongli, sotsial

evolyutsiya bosqichiga o'tishni ta'minlagan asosiy determinantlar hisoblanadi. Masalan, shaxsni yirtqich hayvonlardan himoya qilish uchun qurol ixtiro qilinishi yoki masofaviy aloqani yengillashtirish maqsadida g'ildirakning kashf etilishi kabi texnologik yutuqlar negizida chuqur axloqiy motivatsiya yotadi. Bu kabi progressiv vaziyatlar, birinchi navbatda, mehr-shafqat, muruvvat (altruizm), insoniylik (gumanizm) va vijdon kabi universal tuyg'ular ta'sirida yuzaga keladi. Shundan kelib chiqib, bu tuyg'ular umuminsoniy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi, chunki ular ijodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishni rag'batlantiruvchi asosiy katalizatorlar hisoblanadi.

Demakki, bu tuyg'ular umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy shaxslar hayotida aks etishi, ulardan bizga meros bo'lib kelayotganini tarixiy asarlar mutolaasi mobaynida bilib olamiz. Bu qadriyatlarga mufassal to'xtab o'tilgan "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" kitobida umumbashariy qadriyatlar haqida shunday fikrlar bor: "Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumquli yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, ta'bir joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda". Umumbashariy qadriyatlar ichida eng yuqori martabada albatta muhabbat tuyg'usi turadi. Alisher Navoiyning "Layli va

Majnun” dostoni asosida Xurshid va Sobir Abdulla insenirovkasi bilan xuddi shu nom ostida sahna yuzini ko‘rgan mazkur spektakl, bir so‘z bilan aytganda, mavzuyimizga yorqin misol bo‘la oladi.

Bu spektakl Navoiy tavalludi arafasida Muqimiy nomidagi musiqali teatrda Mirza Azizov rejissyorligida namoyish etildi. Manbalarga ko‘ra, xuddi mana shu afsona syujeti asosida yozma adabiyotning birgina o‘zida bir yuz yigirmaga yaqin asarlar yozilgan. Bu syujetning o‘lmas voqeiyiligiga sabab qilib ham aynan umuminsoniy qadriyatlarni ko‘rsatishimiz mumkin. Hazrat Navoiyning o‘zi bu dostonini nomai dard deb ataydi. Asardagi asosiy o‘rinlarni qayg‘u-iztirob ranglari tashkil etadi. Klassitsizmga doir aksar asarlar singari bu doston ham sinkretik xususiyatga ega. Unda epos, lirika va dramaga xos xususiyatlar uyg‘unlashgan. Asar syujeti, kompozitsion tizimi, obrazlari va uslubida ayni adabiy turlarga bevosita taalluqli bo‘lgan jihatlar yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek romanchiligining ilk namunasi va o‘zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biri bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani asosida dastlab ikki qismdan iborat, so‘ng qisqartirishlar natijasida bir qismga aylantirilgan film suratga olingan, teatrlarda sahnalashtirilgan. Bu asarning ham g‘oyasi, mavzusi umuminsoniyat tuyg‘ulari bilan bevosita bog‘liqlikni yuzaga keltirgan. Asar syujetidagi ayriliq motivi oshiq va ma’shuqaning so‘ngsiz iztiroblari, ijtimoiy-maishiy turmush fojiasi sifatida beriladi. Ular o‘rtasidagi pokiza muhabbat asosida bunyod bo‘lgan nikoh rishtalari, oila qo‘rg‘onini buzishga chog‘langan kuch va qahramonlar o‘rtasidagi kurash mobaynida biz qalamga olgan umumbashariy qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. Masalan, asar bosh qahramoni Otabekka xos bo‘lgan jozib fazilatlarni biz voqealarning ilk qismidanoq anglashimiz mumkin. Otabek Marg‘ilondagi dongdor karvonsaroyga qo‘ngan. Uni otasi Yusufbek hojining marg‘ilonlik do‘sti Ziyo shohichining o‘g‘li Rahmat bilan Homid yo‘qlab kelishadi. Odatdagi salom-alik, hol so‘rashlar orasida syujet sahnasida Hasanali paydo bo‘ladi. Otabek undan dastlab hol

so‘raydi, so‘ng ba‘zi yumushlar buyuradi. “– Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka? Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi: – Qulimiz”. Inson farosatining, ko‘ngil nozikligini qalban his qilishning, mehr-shafqatning yorqin namunasi bo‘lgan mazkur holatni hech bir e‘tirozsiz umuminsoniy qadriyatlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin.

Mana shunday tarixiy asarlardan yana biri Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Shayxzoda mazkur asarida bosh qahramonni Temur maqbarasiga murojaat ettiradi, bobosining ruhidan uni ilhomlantiradi, mushkul davr va zulmatli sharoitdan azob chekkan ulug‘ insonning Temur ruhiga sajda qilishini, undan maslahat so‘rashini muallif asoslaydi. O‘ziga xos bu manzara bosh qahramonning ikki jihatini yorqin namoyon qiladi. Birinchidan, Ulug‘bekning ma‘naviy barkamolligini ko‘rsatib bersa, ikkinchidan ruhiy fojiasini ochib berishga harakat qiladi. Shayxzoda bu yerda o‘rinli epizodni qo‘llab, syujetga jiddiy turtki berishi bilan birga bosh qahramonning tub mohiyatini, undagi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalab berishga muvaffaq bo‘lgan.

Shunga o‘xshash hodisa Abdulla Oripovning “Sohibqiron” pesasida ham juda original shakl kasb etadi va asarga alohida g‘oyaviy-estetik yuk bag‘ishlaydi. Bu manzaraning o‘ziga xosligi shundaki, unda bosh qahramon ruhlar bilan bevosita muloqotda bo‘ladi va ular bilan jiddiy bahslashadi, ulardan yo‘l-yo‘riq so‘rashi bilan birga, o‘zining haqligini isbotlash uchun keskin munozaraga kirishadi. Bu bilan o‘z shijoatini, xalqparvarligini, adolatli ekanligini namoyon qiladi. So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy o‘z asarlaridan birida tarixni o‘rganishdan maqsad, tarixda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va tarixda erishilgan muvaffaqiyatlardan o‘rnak olishdir, degan fikrni aytib o‘tadi. Tarixiy asarlardan ham tomoshabinlar o‘rnak olishi uchun aktyorlar personajning umuminsoniy qadriyatlarini yaqqolroq namoyon qilib berishi masalaning muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djon Benedikt. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” (K.S.Stanislavskiy)- 2-qism. Routledge .2008
2. Hamida Mahmudova: “Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili” – “Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent - 2015 yil
3. Uzoq Jo‘raqulov: “Nazariy poetika masalalari” – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015

Ramz Qodirov

*O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrası professori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsaf doktori (PhD)*

TALABA-AKTYORLARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA ARUZ TALQINI

Annotatsiya. Maqola talaba-aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirishda aruz talqini va ijro qonuniyatlariga bag‘ishlanadi. Ijro jarayonida ro‘y beradigan jarayon, qonuniyatlarning talaba mahoratini charxlashdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Aruz vaznining talqiniga oid qator takliflar va adabiyotlar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: talaba-aktyor, sahna nutqi, aruz vazni, talqin, sahna, ijro qonuniyati, kasbiy mahorat, ritm, g‘azal, barmoq vazni, asar matni, qofiya, o‘lchov.

Аннотация. Статья посвяще на интерпретасии аруза и законам исполнительского искусства в формировании профессионального мастерства студентов-актёров. Обсуждаются просессы, происходящие во время спектакля, рол законов в совершенствовании мастерства студентов. Рекомендован ряд предложений и литературы по интерпретасии аруза.

Ключевые слова: студент-актёр, сценическая речь, ритм, интерпретасия, сена, правила исполнения, профессиональное

мастерство, ритм, газель, аппликатура, текст произведения, рифма, метр.

Annotation. *The article is devoted to the interpretation of aruz and the laws of performance in the formation of the professional skills of student actors. The process that occurs during the performance, the role of laws in sharpening the skills of students are discussed. A number of proposals and literature on the interpretation of aruz are recommended.*

Key words: *student-actor, stage speech, rhythm, interpretation, stage, performance rules, professional skills, rhythm, ghazal, fingering, text of the work, rhyme, meter.*

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi xalq manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Yurt taraqqiyotining asosiy drayverlari sifatida ko‘rilayotgan ilg‘or yosh avlod vakillari o‘zlarining kreativ g‘oyalari, tashabbuslari bilan islohotlar maydoniga dadil qadam qo‘ymoqdalar. Mana shunday sog‘lom avlodni shakllantirishda, mamlakat imidjini ko‘tarish yo‘lida sidqidildan mehnat qilayotgan pedagoglarning o‘rni beqiyos. Yangi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori ta’lim sohasida ham keng ko‘lamli yangilanishlar olib borilmoqda. Ularning natijasini oliy o‘quv yurtlari, ayniqsa, ijodiy yo‘nalishdagi oliygohlar misolida ko‘rish mumkin. Ta’lim berish va o‘qitishning yangi uslublari, metod va metodologiyalari, darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari kundan kunga zamonaviylashib, jahon standartlari darajasida yaratilmoqda. Asosiy maqsad yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida, ajdodlar va ular qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meroslarni qadrlash, sog‘lom fikrlash, keng dunyoqarash, teran tafakkur sohibi qilib yetishtirish. Bu yo‘lda “Hamsa”, “Qobusnoma”, “Shohnoma” kabi mumtoz adabiyotlar, durdona asarlar dasturul amal vazifasini o‘taydi. Mumtoz adabiyot namunalarini sahnaviy talqin, ijro orqali keng ommaga, jamoatchilikka yetkazuvlarning ko‘pchiligini O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tayyorlayotgan kadrlar tashkil etadi. Ijro

san'atining turlarida, madaniyat maskanlarida yurt ravnaqiga xizmat qiluvchi kadrlarni ayni shu institut tayyorlaydi. Bo'lajak san'atkorlar, madaniyat xodimlarini tayyorlashda "Sahna nutqi" kafedrası va "Sahna nutqi" fanining muhim o'rni bor. Boisi, talaba-aktyor va rejissyorlar o'quv jarayoning 4-5-semestrlarida aynan Mumtoz adabiyot namunalarining ijrosi ustida ishlash bo'yicha mashg'ulotlar, nazariy bilimlarga ega bo'lishadi. Unda aruz vazni yetakchilik qiladi.

VIII asrda yashab ijod qilgan arab adabiyotshunos, musiqashunos olimi Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan "Aruz" she'riy o'lchov tizimi qariyb bir ming uch yuz yildan beri arab, forsiy va turkiy adabiyotlarning asosiy she'riy mezoni sifatida qo'llanib keladi. Uning bunchalik keng ko'lami, umrboqiyligi aruzga xos latif musiqiylik, ohanglar rang-barangligi, hayot voqeligi va insoniy hissiyotlarning serjiloligi misralar vositasida ta'sirchan jozibador ifodalash imkoniyatlarining benihoyaligi bilan belgilanadi¹³.

Aruz azni 1950-60-yillargacha she'riyatimizning asosiy yo'nalishi hisoblangan. Barmoq vazni kirib kelgach, aruzning mavqeyi biroz sustlashdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, tabiiy holda uning ijrosi, targ'iboti ham sustlashib bordi. Bugungi kunda kafedra mutaxassislari tomonidan aruzdagi boy meros, uning ijodkorlari faoliyati sodda va tushunarli, lo'nda tarzda o'qitiladi. Sababi, bugungi kun talabasi bundan juda uzoqlashib ketdi. Shuning uchun ham o'zbek aruzining boy merosi hazrat Mir Alisher Navoiyga borib taqalishi, undan oldin ham, undan keyin ham aruz bo'lganligi, ammo aynan Navoiy ijodining mahsuli eng yuksak darajada bo'lganini e'tirof etib kelinadi.

Alisher Navoiyning asarlari, ularning tahlili va talqinini talaba-aktyorlarga singdirishda filolog olimlar, mutaxassislar yordamida olib boriladi. Bu an'ana kafedrada so'nggi yillarda olib borilayotgan

¹³ Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. 1998. 10-bet (224 b.)

yangiliklardan hisoblanadi. Negaki, har bir aruz namunasining ijrosi turli yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalarning faqat o‘z yo‘nalishiga mos tarzda talqin etilishi maqsad qilingan. Chunki sahnada ijrochi yoki qahramon holati, obraz xarakteri kabi jihatlar aruz talqinining turlicha ijrosiga sabab bo‘ladi. Teatr sahnasidagi rol, obraz eshituvchiga yoki tomoshabinga yetib borishi uchun ta’sirchan va jonli tarzda ifodalanadi. Talqin etuvchi tomonidan aruz namunasining g‘oyasi, muhiti, hissiyoti tomoshabinga yetib bormasa, ta’sirlantirmasa unda sahnaviy qonuniyat buzilgan hisoblanadi. Ijroda noaniqlik, g‘alizlik kuzatilgan bo‘ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni nazariy jihatdan mustahkamlash uchun qator adabiyotlar, aruzga oid ma’lumotlar mavjud. Masalan, Dilnavoz Yusupovanning “Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika qoidolari¹⁴” darsligi, Ziyaviddinova va Xujanovalarning hammualliflikda yaratgan “Aruz ilmi¹⁵” darsligi, Go‘zal Xoliqulovanning “Sahna nutqi (Mumtoz asarlar ustida ishlash)¹⁶” qo‘llanmasi talaba-aktyor uchun eng kerakli va eng asosiysi nisbatan sodda, tushunarli tilda bayon etilgan adabiyotlardan hisoblanadi.

Talaba-aktyorlar obrazdagi o‘y-fikr, xayol, kechinma, tuyg‘ular orqali tomoshabinni o‘ziga hamdard, hamfikrga aylantirish uchun ijro qonuniyatlaridan foydalanadi. Tomoshabinni “hol”ga solish, “holat”ga tushirish orqali maqsadni ifodalash ijrochidan bir qator rioya etish kerak bo‘lgan jarayon va qonuniyatlarni talab qiladi. Aruz she’riy vazni ijrosida texnika, ifodali o‘qish, matnni tahlil etish yo‘llarini o‘rganish ijrochidan nazariy-amaliy bilimlarni puxta egallashni taqazo etadi. Bunda aruz namunasining matni, undagi bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligi, rukmlar soni, ruknlardagi bo‘g‘inlar soni, ularning tartibi, takrorlanishi, misralar tizimida to‘g‘ri saqlanishi, bahrlar qamrovida teng takrorlanish qoidalarini o‘zlashtirish muhim hisoblanadi. Demak, maqolaning mazmun-

¹⁴ Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: “Ta’lim-media” nashriyoti, 2019. (184 b.)

¹⁵ Ziyaviddinova M., Xudjanova D. Aruz ilmi. – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019. (128 b.)

¹⁶ Xoliqulova G. Sahna nutqi (Mumtoz asarlar ustida ishlash). – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2025. (176 b.)

mohiyatini aruz o'qish emas, uni ijro etish, talqin etish haqida gap boradi.

Avvalo, talaba-aktyor material tanlashda sara asarlarga murojaat etish lozim. Bunda pedagog-ustoz bilan maslahatlashib, yirik allomalarimiz, adiblarimiz asarlari tanladi. Asarda umuminsoniy g'oyalar, ruhiyatni oziqlantiruvchi jihatlar mavjud bo'lishi shart. Muallifning ijodi, u yozgan asarning mazmuni bilan tanishib chiqqach, tahlilga yo'l ochiladi. Asar matni chuqur tahlilga tortiladi. Pedagog bilan birga, lug'atlar yordamida ishga kirishiladi. Asar so'zlarini to'g'ri talaffuz etish, tovush, bo'g'in, so'z, ibora, jumla, gap, matn tartibida ularning orfografik holatdan orfoepik holatga ko'chirish amalga oshiriladi. Har bir so'zning ma'nosi lug'at asosida izohlanadi, sharhlanadi. So'ng, nutq zvenolariga bo'lib chiqiladi. Yaxlitlikka erishilgach, uni qayta hikoyalash boshlanadi.

Aruz texnikasi tahlil etilgach, talqinga, ya'ni ijroga e'tibor qaratiladi. Teatr san'atining ifoda vositalari asosan eshitish va ko'rishga yo'naltirilgan. Shu bois, aruz matni ijrochi nutqi orqali so'zda ifodalanar ekan, ma'lum ma'noni tomoshabinga yetkazadi. Bunda har bir so'zning ma'nosi muhim hisoblanadi. So'zdagi tubma'noni yetkazishda imo-ishoralar, ayniqsa qo'l harakati, muloqot qilish yoki fikrni ta'kidlash uchun foydalanish harakatini anglatadi. Imo-ishoralar og'zaki bo'lmagan muloqot shakli bo'lib, og'zaki so'zlarga qo'shimcha ravishda his-tuyg'ularni, niyatlarni yoki urg'uni yetkazishi mumkin. Odamlar ko'pincha og'zaki muloqotni kuchaytirish yoki so'zlarni aniqroq ifodalash uchun ongsiz ravishda imo-ishoralardan foydalanadilar. Turli madaniyatlarda imo-ishoralar bilan bog'liq o'ziga xos imo-ishoralar va ma'nolar bo'lishi mumkin, bu imo-ishoralarni talqin qilishda madaniy kontekstni hisobga olish muhimdir. Imo-ishoralar muloqot uchun kuchli vosita bo'lib, odamlarga ma'no va his-tuyg'ularni tushunarli yetkazishga imkon beradi. Misol uchun, aruz matnida yolg'izlik haqida gap ketsa, ijrochi qo'llarini bukib, ko'krakka bosadi. Matnda yo'qotish, izlash, topish kabi so'zlar bo'lsa, tabiiyki,

sahnada shunga mos harakatlar va imo-ishoralar talab qilinadi. Aruzda imo-ishora juda muhim, chunki tomoshabinga nafaqat soʻz, balki his ham oʻtishi zarur.

Aruz ijrosida soʻzlarning yurakdan chiqib yurakka kirib borishi toʻlaqonli ijro deyiladi. Buning uchun aruz ijrosida tovush va ohang, tembr va ovoz balandligi, pauza, mimika, talaffuz va ritm kabi jihatlar ham muhim rol oʻynaydi. Aruz matnida sevgi, muhabbat kuylansa, ijrochining imo-ishorasi mayin va sokin, soʻzlarni ifodalashda ovozi quvnoq ohang kasb etishi kerak. Zarur holda pauzadan foydalanib, tomoshabinga sevgi xotiralarini jonlantirishga imkon berish kerak boʻladi. Bu jihatlarining barchasi aruz ijro qonuniyatlari deyiladi.

Talaba-aktyor ijroda gʻazaldagi holatni taʼsirchan ifodalash uchun quyidagilarga ahamiyat qaratishi lozim:

1. Aruzning aniq ritmik tuzulishini saqlagan holda ijrochi oʻz ovoz imkoniyatlarini samimiyroq, taʼsirliroq, his-xayajonga boy qilib, past-baland ohangda tembrni oʻzgartirib ishlatishi mumkin;

2. Ovozning uzunligi va qisqaligi sahnada ijrochi tomonidan oʻzgartirilishi mumkin. Masalan, madd (uzun) va qasr (qisqa) harflar taʼkidi orqali taʼsirchan ifodaga erishish mumkin;

3. Gʻazal ruhiyatini toʻlaqonli yetkazish, gavdalantirish uchun talaba-aktyorning holi, holatiga qarab qay darajada oʻzalshtirganini anglash mumkin. Shuning uchun sahnaviy holat muhim hisoblanadi.

4. Aruzning ritmik tuzilishini oʻzgartirish mumkin. Bunda ijrochi gʻazalning ifodasida sekin va tez suratlardan erkin holda foydalansa boʻladi. Sharti, aruzning asl mazmuniga putur yetkazmaslik kerak. Qofiya va vazn saqlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, aruz ijro qilish texnikasida garchi aruzning umumiy qoidalari saqlanib qolinsa-da, aktyorning nutqiy mahorati bilan ritm va pauza, ovoz va mimika, imo-ishoralar orqali matnni ifodalash uslubi oʻzgarishi mumkin. Biroq, aruzning aosiy tuzilishi va maʼnosiga zarar yetkazmaslik kerak. Aruz – mumtoz

adabiyot arab alifbosi yoki arab alifbosiga asoslangan yozuvda bitilgan. Ularning qoidalari bizning kirill yoki lotin alifbosida o‘zgarishlarga yuz tutadi. Bu jihatlar ham ijrochi tomonidan o‘ta sinchkovlik bilan o‘rganilishi kerak bo‘lgan jarayondir.

Foydalangan adabiyotlar

1. *Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati.* – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. 1998. 10-bet (224 b.);
2. *Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.* – Toshkent: “Ta’lim-media” nashriyoti, 2019. (184 b.);
3. *Ziyaviddinova M., Xudjanova D. Aruz ilmi.* – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019. (128 b.)
4. *Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.
5. *Халикулова Г. Э. Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.
6. *YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro.* – №. 2. – C. 116-119.
7. *Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.
8. *Jabborov B. I. O. G. L. Qo‘g‘irchoq teatrda sahna nutqining o‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education.* – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.
9. *Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts.* – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

10. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

11. Toxirov O. MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

12. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN’ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

Shodmonova Munira

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

*“O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., dotsenti*

NUTQ MADANIYATI VA TIL MEYORLARI MUVOZANATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr globallashuv sharoitida nutq madaniyati va til meyorlari o‘rtasidagi muvozanat masalalari ko‘rib chiqildi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi hamda tezkorlik bilan rivojlanayotgan axborot asrida nutqimizda yuzaga kelayotgan til buzilishlari tahlil qilindi. Nutq madaniyatining ahamiyati va til meyorlari saqlanishi va rivojlanishi uchun taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, til meyorlari, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, til taraqqiyoti

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы баланса между культурой речи и нормами языка в условиях XXI века. Проанализированы нарушения языка в связи с развитием информационных технологий, расширением социальных сетей и

влиянием глобальных языков. Подчёркнута значимость культуры речи и меры по сохранению языковых норм.

Ключевые слова: культура речи, языковые нормы, коммуникация, социальные сети, развитие языка.

Annotation. This article examines the balance between speech culture and language norms in the 21st century. It analyzes language disruptions caused by the development of information technologies, the expansion of social networks, and the influence of global languages. The importance of speech culture and measures for preserving language norms are highlighted.

Keywords: speech culture, language norms, communication, social networks, language development

Bugungi axborot va texnologiyalar shiddat bilan kirib kelayotgan bir davrda inson hayotining deyarli barcha jabhalarida keskin o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va kommunikatsiya vositalari odamlarning muloqot shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon til meyorlari buzilishiga olib kelmoqda, shu bilan birga nutq madaniyati tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Xususan, til va nutq madaniyatida ham yangicha yondashuvlar, talqinlar va shakllar paydo bo'ldi.

Nutq madaniyati va til meyorlari — har doim bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar. Nutq madaniyati insonning fikrini aniq, tushunarli, adabiy til meyorlariga mos ifoda eta olish san'atidir. Til meyorlari esa nutqning sifatini, tilning barqarorligini ta'minlovchi meyoriy qoidalar to'plami. XXI asr sharoitida ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelgan erkin va tezkor muloqot shakllari, tilning rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatmoqda. [3, 45]. Xususan, tilning globallasuvi, ayniqsa ingliz tilining keng ta'siri, o'zbek tilining leksik va grammatik qoidalarida o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonlarni inkor etish qiyin, ammo til meyorlarini saqlash ham muhim ahamiyatga ega [2]. Ayniqsa yoshlar orasida muloqot jarayonida nutqdagi soddalashtirishlar, aralashmalar keng

tarqalmoqda. Masalan, "salom" oʻrniga "slm", "qani" oʻrniga "q" kabi, his belgilar (emoji), inglizcha atamalar bilan toʻldirilgan jumlar: "smartfon", "internet", "startap" kabi. Bu holat koʻpincha texnologiyalarning oʻzbek tilidagi interfeysda kam qoʻllanishi, xorijiy til (ayniqsa ingliz tilining) taʼsiri, ijtimoiy tarmoqlardagi erkinlik va nazoratsizlik bilan izohlanadi. Bunday usullar tezkor muloqot uchun qulay boʻlishi bilan birga, til meyorlarining buzilishiga olib kelmoqda [3, 67].

Maktablarda oʻqituvchilar oʻrtasida ham notoʻgʻri soʻzlar, jargon soʻzlar koʻpaymoqda. Misol uchun, "darsga kirmoq" oʻrniga "darsga join qilmoq" yoki "sinfdoshlar bilan chat qilish" kabi iboralar keng tarqalmoqda. Bu holat oʻquvchilarning til madaniyati rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi [4, 50].

Maʼlumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda boʻlgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim oʻzgarishlar yuz berdi. Oʻzbek tilining xalqaro miqyosda obroʻsi oshdi. "Davlat tili haqida"gi Qonun ona tilimizning bor goʻzalligi va jozibasini toʻla namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lugʻatlar, darslik va oʻquv qoʻllanmalari, koʻplab monografiyalar chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod soʻz va soʻz birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qoʻllaniladigan soʻzlarni oʻz ichiga olgan besh jildlik "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlari hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "Oʻzbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5850-son hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" PF-6084-son Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining til va yozuvimiz toʻgʻrisidagi oʻndan ortiq

qarorlarining qabul qilinishi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish uni rivojlantirish, takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan say-harakatlar o‘z mevasini berishni boshladi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Afsus, mazkur ijobiy harakatlar bilan birga dilni siyoh qiladigan, tilimiz ravnaqiga to‘siq bo‘lishi, soya solishi, milliy urf-odatlarimiz, o‘zligimiz, tafakkurimizga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan holatlar ham har qadamda yetarlicha, hatto ortig‘i bilan topiladi. Jumladan, poytaxtimiz, viloyatlar markazlarini qo‘yaveraylik, hattoki uzoq tuman markazlarida ham ko‘chalarimiz, tashkilot, bozor, tijorat va notijorat tashkilotlarimiz, tadbirkorlik muassasalarimiz, xo‘jalik birlashmalaridagi nomlanishlar, e’lonlar, shiorlar, peshtoqlardagi har xil ajnabiy yozuvlar har birimizning dilimizni og‘ritishi, chuqur o‘yga solishi ham bor gap. Masalan: o‘zbek tilida muqobil so‘z shakliga ega bo‘lsa-da, lekin boshqa tillarda ifodalanib, hammaning sabr kosasini to‘ldirgan “мы открылись”, “ксерокопия”, “мини маркет”, “супер маркет”, “car wash”, “бургер”, “fast food”, “welcome”, “добро пожаловать”, “парковки”, “стоянка”, “эвакуация”, “сити”, “салон”, “секурити”, “модератор”, “тьютор”, “кофе брейк”, “авто школа”, “еда с собой”, “кофе с собой”, “возми собой”, “оформления”, “напитки”, “почемучка”, “отдел продаж”, “оптом маркет”, “golden house”, “style”, “оригинал”, “hotel”, “hostel”, “тонировка”, “мега скидка” kabi so‘zlarni istagancha keltirish mumkin [5, 177]. Aslida, yuqorida sanab o‘tilgan so‘zlarning o‘zbek tilida biz oldindan qo‘llab kelgan muqobil so‘z shakllari nafaqat ziyolilarga, hattoki maktab ta’limidan so‘ng hech qayerda o‘qimagan insonlarga ham tushunarlidir. Nimagadir biz o‘zimiz bilib-bilmay shu kabi ajnabiy so‘zlarni ongimizga singdiryapmiz. Bu tilimiz sofliğiga putur yetkazayotgan omil sifatida o‘ta xavfli hisoblanadi. Eng achinarlisi, shu peshtoqlardagi yozuvlarni ham, e’lon-u shiorlarni ham o‘zimiz yozyapmiz, o‘zimiz peshtoqlarga osyapmiz, o‘zimiz teskari targ‘ib qilyapmiz. Hech kim chetdan kelib bizni shunga majburlagani ham, buyurgani ham yo‘q.

Xo'sh, qachon tilimiz qadriga yetamiz? Qachon tilimiz bilan faxrlanamiz? O'zbek tilining boshqa tillardan qanday kamchiligi bor? Bugungu kunda amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarning asosiy targ'ibotchisi bo'lgan Ommaviy axborot vositalarining yetakchisi va asosiysi bo'lgan televideniya-dagi, ayniqsa, nodavlat kanallardagi ko'rsatuvlarning nomlanishi, ba'zi suxandon-boshlovchilarning o'zbek tiliga bo'lgan munosabatlari dilni xira qiladi. Jumladan, "Топспинг", "М-НБЮС", "МТВ-шоу", "TV SALE", "Sketch shou", "Хит парад", "Mostbet", "Jackpot", "Anons", "Хор-shop", "Telemagazin", "Cover Up", "Реал Хит", "Superliga", "Offside" kabi ajnabiy ro'yhatni, ming afsuski, bemaol davom ettirish mumkin.

Xuddi shuningdek, tilimizning og'zaki muomala shakli ham maqtangudek emas. Og'zaki nutqimizni turli xil ajnabiy so'zlar, varvarizmlar, bir qarashda anglash qiyin bo'lgan o'ta qo'pol qisqartmalar, jargonlarsiz bayon qila olmaslik holatlari ko'p uchramoqda. Bu kabi holatlar tilimizga e'tiborli bo'lgan har qanday insonni ham chuqur o'yg'a solishi aniq. Axir ona tilimizning aybi nimada? Ajdodlarimizni allalagan, farzandlarimizga ta'lim-tarbiya bergan, boy tariximiz, moddiy va ma'naviy merosimiz, dinimiz, e'tiqodimiz haqida eng ishonarli ma'lumotlarni kelajakka opichlab o'tkazib kelayotgan tilimizga ehtirom shumi? Nahotki, joylarda shu masalalarni risoladagidek amalga oshirish qiyin bo'lsa. Zero, adibimiz Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek: "Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u yo'q!" Shu o'rinda dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. YUNESKOning ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo'qolib bormoqda. Ba'zi tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahrdir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili

davlat tili maqomiga ega bo'lgan, bugungi kunda og'zaki va yozma shakllari mavjud, grammatikasi shakllangan, dunyo bo'yicha 50 million atrofida inson iste'molida bo'lgan yirik, boy til hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi, foydalanishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tani tashkil qiladi, xolos. O'zbek tilimizning mana shu 250 ta tilning tarkibida ekanligi quvonarli hol, albatta.

Dunyo miqyosida global taraqqiyotning ta'siri, fan-texnika rivoji, ijtimoiy hayot sur'atining o'sishi, ijtimoiy tarmoqlar faollashuvi natijasida har qanday tilda ham u yoki bu o'zgarishlar kuzatilishi tabiiy hol. Tilga kirib kelayotgan o'ta faol so'zlar, ayniqsa, ba'zi xalqaro atamalarni inkor qilib bo'lmaydi. Faqat bu so'zlarning ifoda ma'nosiga ko'ra ehtiyotkorlik bilan iste'molga kiritish, so'zlarning tilimizda mavjud bo'lgan ma'nodoshlariga almashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, parol-(im,o'ron), heshteg- (tanitma, xosbelgi), skrinshot-(qaydlavha,ekranlavha), masterklas-(mahorat darsi), QR kod-(yo'naltirma, yoki tezkor javob kodi, xos kod), shtandart-(tug', ramziy tug', sanjoq, andaza) tyutor-(tarbiyachi), sayt-(sahifa), onlayn-(to'g'ridan to'g'ri uchrashuv, aloqa), oflayn-(yuzma-yuz uchrashuv), vebinar-(tarmoq orqali mashg'ulot, yoki tarmoqda mashg'ulot), frilanser-(shartnoma asosida ishlovchi mutaxassis, yollanma), chellenj- (chorlov, da'vatli tashviqot, chaqiriq, ommalashuv), fleshmob-(tezkor ommaviy targ'ibot), dayjest-(qisqa izoh), startup-(tashabbus, yangi loyiha, yoki yangi qadam), xostel-(kichik mehmonxona, mehmon uyi), kouch-(maxsus murabbiy, xos murabbiy), trening-(o'quv mashg'uloti), yuzer-(foydalanuvchi), rezyume-(ma'lumotnoma), messenger-(aloqa tarmog'i), login-(eslatma), fake-(soxta), keshbek-(ulush), admin- (tarmoq boshqaruv nazoratchisi), chat-(tarmoq yozishmasi), prank-(kutilmagan hazil), layfhack-(ayyorona yechim), lichka-(shaxsiy sahifa), motivatsiya-(ruhlantirish), reglament-(mosqoida) va boshqalar.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza, bugungi kunda og‘zaki va yozma shakli, qolaversa, grammatikasi ma‘lum ma’noda shakllangan ona tilimiz AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Qozog‘iston va shu kabi bir qator rivojlangan davlatlarning 60 ga yaqin oliy ta‘lim muassasalarida, 100 dan ortiq maktablarida qiziqish bilan o‘rganilayotgan bir paytda, biz yurtimizda ko‘plab nomlashlarni ingliz yoki rus tillarida nomlab, farzandlarimizni yoppasiga rus maktablariga berishimizni jiddiy o‘ylash vaqti kelmadimikan? Shularsiz ham bizda xohlagan chet tillarni o‘rganish uchun sharoitlar muhayyo-ku? Zero, prezidentimiz ta’kidlanganlaridek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”. Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan ana shunday bebaho ona tilimizni har birimiz asrab-avaylashga harakat qilaylik.

Shu o‘rinda “O‘zbek tilini saqlab qolish uchun nimalar qilish kerak?” degan savolning paydo bo‘lishi tabiiy. Ona tilimiz taqdirida ham e’tibor qilinmasa yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor. Harorld F.Shiffmanning aytishicha: “Til milliy o‘zlikni belgilovchi kuchli omil, milliy merosni o‘zida saqlaguvchi vositadir. Til grammatikasi, lug‘at tarkibi, uslublariga yuzaki yondashish, til qashshoqligi va uning boyitib borilmagani, milliy adabiyotni o‘rganuvchilar sonining kamayishi uning tanazzulga yuz tutishini bildiradi” [6]. YUNESKOning “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi tillar xaritasi” (Atlas of the World’s Languages in Danger)ga ko‘ra hozirda 2500 ta til yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Ulardan 230tasi allaqachon o‘lik tilga aylanib bo‘ldi. Bu jarayonlarni tadqiq etayotgan mutaxassislar tomonidan yo‘qolib ketgan va yo‘qolib borayotgan noyob tillar bilan shug‘ullanuvchi relikto lingvistika yoki retro lingvistika, sun’iy tillar ustida tadqiqot olib boruvchi interlingvistika, bobo tillar qurilishini o‘rganuvchi komparalingvistika va qadimiy tillarni tadchqiq etuvchi arxeolingvistika kabi yangi yo‘nalishlarni ochish takliflari berilmoqda. 1994-yili “Yo‘qolib borayotgan tillarning Qizil kitobi”

(Red Book of Endangered Languages), Yo‘qolib borayotgan dunyo tillarining interaktiv xaritasi” (Interactive Atlas of the World’s Languages in Danger) yaratildi. Ushbu hujjatlarda barchaning, xususan, til qonunchiligi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning, jamoatchilikning e’tiborini yo‘qolib borayotgan tillarga qaratish, lisoniy rang-baranglikni saqlab qolish nazarda tutilgan. Atlasda tilning saqlanish darajasiga quyidagi til guruhlari berilgan bo‘lib [7, 153], ularni hisobga olish biz – o‘zbek tili sohiblari uchun nihoyatda zarur.

1. Xavfsiz tillar (safe) – avlodlar tomonidan qo‘llanib kelingan va ular o‘rtasida uzilishlar bo‘lmagan, hozirda ham davom etayotgan tillar: ingliz, arab, rus, tatar, tojik, qozoq va h.k. Ular orasida o‘zbek tilining ham borligi quvonarli hol.

2. Zaif tillar (vulnerable) – ko‘pchilik bolalar gapirsa ham qo‘llanish doirasi cheklangan tillar: chuvash, tuva, yoqut, belorus, osetin kabi. Mazkur tillardan faqat uyda foydalanishadi, ularning yo‘qolib ketish xavfi kuchli.

3. Yo‘qolib ketish xavfi bor bo‘lgan tillar (definitely endangered) – hozirda qo‘llanayotgan, lekin bolalar o‘z ona tillarida ta’lim olmayotgan buryat, komi, mari, qolmiq kabi tillar.

4. Yo‘qolayotgan tillar (endangered languages) – aholisi shu tilda deyarli gaplashmay qo‘ygan tillar. Ular mazkur tillarda so‘zlashuvchilar ozchilikni tashkil etgani bois, o‘zlari yashayotgan davlatlardagi hukmron til ta’sirida qolgan va o‘z ona tillarini unutgan til sohiblari. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Komondor, Chukotka, Aleut orollarida va AQShning Alyaskasi 500 dan ortiq aleut xalqiga mansub insonlar yashaydi. 2022-yil sentabr oyida 86 yoshli aleut tilini biladigan eng so‘nggi vakil tillar – G.Yakovlevning vafot etishi bilan aleut tilida gaplashuvchi odam qolmadi. Tofalar, evenk tillarini ham shunday taqdir kutib turibdi.

5. O‘lik tillar – jonli muloqotda foydalanmaydigan, faqat yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan, sun’iy tartibga solinadigan tillar. Bu

ro‘yxatga ubix, yugagir, eng qizig‘i, farg‘ona qipchoqlari tili kiritilgan.

6. Tiklanadigan tillar – butunlay yo‘q bo‘lib ketgan, bironta ham so‘zlashuvchisi qolmagan tillar. Dunyo tajribasida ehtiyojga qarab bunday tillarni tiklash mumkin. Masalan, ivrit (ibroniy) tili o‘lik til sanalar edi. Isroilda va dunyoning turli joylarida yashovchi 9 million yahudiylar harakati bilan u Isroil davlatining rasmiy tiliga aylandi.

Demak, “xavfli ro‘yxatlar”ga kirib qolmaslik uchun biz astoydil harakat qilishimiz kerak. Shuningdek, quyidagi vazifalarni zudlik bilan bajarishimiz zarur.

1. Globallashuv sharoitiga moslashish, tilimizni taraqqiy ettirish uchun munosib yo‘l topish. Tilimizni axborot kommunikatsion texnologiyalari makoniga olib kirish. Hali dunyo o‘zbeklarning soni haqida ham aniq tasavvurga ega emas. Axborot texnologiyalari bilan bog‘liq manbalarni tahlildan o‘tkazib, to‘g‘rilab qo‘ymaganmiz, boshqalardan ham real hisob-kitob qilishlarini talab qilmaganmiz. Shu bois, internet manbalarida xalqimizning nufuzi har xil bayon etiladi. Masalan, xalqimiz nufuzi <https://ru.wikipedia.org>. saytida 20 million 51 ming [8], <https://ru.wikinews.org>.da 21-25 million [8], <https://en.wikipedia.org>.da 44 million [10], <https://bigenc.ru-linguistics>.da 31 million [11], <https://ru.wikipedia.org>.da 48 million 600 ming [12] deb ko‘rsatilgan. Saytlar minglab odamlarga adashsa, kechirish mumkin, biroq gap millionlab aholi haqida ketganida, o‘ylab qolasan kishi [7, 155].

2. Ilm-fan, texnikani rivojlantirish. Buning uchun biz o‘zbek tilining mashinaviy tilini yaratishimiz, shevalardagi bor boyligimizni yig‘ib, saralab, ulardan eng ma‘qullarini adabiy tilimizga kiritishimiz, chetdan kirib kelayotgan har bir so‘z, iborada o‘ta ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz, ilm-fan, texnika tilini “o‘zbekchalashtirishimiz”, mikroelektronika, neyroxirurgiya, nanofizika, gen injeneriyasi kabi tor sohalarda ham o‘zbek tiliga yo‘l ochishimiz kerak.

3. Tillar uchrashganda, kontakt holatlarida to'g'ri yo'lni aniqlash. Avvallari chetdan so'z olishimiz asosan rus tili hisobiga bo'lgan bo'lsa, bugun dunyoning barcha tillaridan, ayniqsa, ingliz tilidan ko'p so'z o'zlashtiryapmiz. Ilm-fan, texnika yutuqlari orqasida kirib kelayotgan so'zlarni e'tirozsiz qabul qilish yoki kalkalab olish.

7. Ommaviy axborot vositalarida, radio-televideniya targ'ib qilish. Har qanday ko'rsatuv yoki eshittirish ostida ona tili mazmuni yotadi. Shevada gapirish, murojaat qilish, so'z ishlatishdagi e'tiborsizliklarga barham berish zarur.

8. Kompyuter texnologiyalari. Ma'lumotlarga ko'ra, internetda ingliz tilidagi maqolalarning adadi 5 milliondan ortiq ekan. Undan keyingi o'rinni 1,5-1 millionta maqola bilan nemis, rus, yapon tillari egallar ekan. Mana, ingliz tilining ommalashib, dunyoga yoyilib ketgani sabablaridan biri qayerda ekan! Holbuki, madaniy meros, adabiyot, adabiyot, san'at borasida o'zbek xalqi dunyoning eng oldingi xalqlaridan biri bo'lgan. Mana shunday ulkan meros bilan dunyoga chiqadigan bo'lsak, bu eng katta yutuqlarimizdan biri bo'ladi. Buning uchun kompyuter lingvistikasini rivojlantirishimiz, o'zbek tilining korpusini yaratishimiz, til borasida topgan-tutganimizni saytlarga joylashimiz kerak bo'ladi.

O'zbek tilining meyoriy asoslari rasmiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi orqali targ'ib etiladi. Shu bilan birga, bloggerlar va kontent yaratuvchilarning tili ko'plab auditoriyalar tomonidan ko'rilgani uchun ularning nutq madaniyati yuksak darajada bo'lishi talab etiladi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot tarqatuvchi, balki madaniyatni shakllantiruvchi omilga aylangan.

XXI asr texnologiyalar asri bo'lsa-da, madaniyat, xususan nutq madaniyati har doim insoniyat taraqqiyotining mezonini bo'lib qolaveradi. Shuning uchun til va nutq madaniyatiga bo'lgan munosabat strategik darajadagi masala sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo 'rayev, A. (2020). Zamonaviy kommunikatsiyada til meyorlarining buzilishi va uning oqibatlari. *Filologiya masalalari*, (3), 45-51. <https://tilvaadabiyot.uz/articles/2020/03/jurayev-zamonaviy-kommunikatsiya>
2. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511486999>
3. ¹ Yusupova, D. (2021). Ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyati va uning ijtimoiy ta'siri. **O'zbek tili va adabiyoti**, (2), 67–72. <https://uza.uz/posts/yusupova-ijtimoiy-tarmoqlarda-til-madaniyati>
4. Jo 'rayev, A. (2020). Zamonaviy kommunikatsiyada til meyorlarining buzilishi va uning oqibatlari. *Filologiya masalalari*, (3), 45-51. <https://tilvaadabiyot.uz/articles/2020/03/jurayev-zamonaviy-kommunikatsiya>
5. Boboyorov O'. *Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar*. // Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2022. 173-179-b.
6. Harold F. Schiffman. *Linguistic culture and language policy*. – London. 1996.
7. Sobirov A. *Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar*. // Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2022. 153-160-b.

BADIIY ASARNING SAHNALASHTIRILISHIDA LINGVOTRANSFORMASION JARAYONLAR TADQIQI

Annotasiya. Transformasiologiya – keng va tor ma'noda tushunish mumkin bo'lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo'llanilayotgan termiin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo'ldi va moddalarning tarkibiy o'zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo'llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o'zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish maqsadida qo'llana boshlandi. Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolayevich o'zining "Evolyusiya pridatochnogo predlojeniya i razniye vidi transformasii glavnogo i pridatochnogo predlojeniy v russkom yazike" nomli dissertasion tadqiqotida qo'llagan. Maqolada Usmon Azimning "Tong otgan taraflarda" dostonining sahnalashtirilishida frazeologik birliklarning lingvotransformasiyaga uchrash jarayoni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Transformasiologiya, lingvotransformasion jarayonlar, sahna asari.

Аннотация. Трансформациология — термин, который можно понимать как в широком, так и в узком смысле, и который активно используется в современных научных областях. Этот термин впервые появился в химии и использовался для изучения процессов, посредством которых вещества претерпевают структурные изменения. Позднее его стали использовать в других областях науки для изучения причин фундаментальных и частичных изменений. Впервые в языкознании его использовал профессор Кримского государственного педагогического института Виктор Николаевич Мигирин в своем диссертационном исследовании «Эволюция придаточного предложения и различные типы трансформации главного и

придаточного предложений в русском языке». В статье рассматривается процесс языковой трансформации фразеологических единиц в инсценировке эпической поэмы Усмана Азима «В краю рассвета».

Ключевые слова. Трансформасиология, просессы лингвистических трансформаций, сценическое творчество.

Annotatsion. *Transformatiology is a term that can be understood in a broad and narrow sense and is actively used in modern scientific fields. This term was first used in chemistry and was used to study the processes of structural changes in substances. Later, it began to be used in other scientific fields to study the causes of radical and partial changes. For the first time in linguistics, Professor Migirin Viktor Nikolaevich of the Crimean State Pedagogical Institute used it in his dissertation research entitled "Evolution of the subordinate clause and various types of transformation of the main and subordinate clauses in the Russian language". The article discusses the process of linguistic transformation of phraseological units in the staging of Usman Azim's epic poem "In the Lands of Dawn".*

Keywords. *Transformatiology, linguistic transformation processes, stage work.*

Lingvotransformasion jarayonlar – bu til birliklarining turli kontekstlarda o'zgarishi, yangicha shakllanishi yoki adaptasiya qilinishi jarayonlaridir. Bu jarayonda so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar semantik, fonetik, morfologik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformasiyaga uchraydi.

Lingvotransformasiya tushunchasi - Lingvistika va transformatsiya so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan zamonaviy tilshunoslikdagi faol terminlardan hisoblanadi. Keyingi o'n yillikdagi tadqiqotlar ichida kognitiv tilshunoslik bilan bog'liq atamalar tizimi shakllandi. Matn tadqiqida ham qiziq terminalogik tizm paydo bo'ldi va hali leksikografik jihatdan o'z yechimini topmadi. Masalan: matnning turli shakllarida namoyon bo'lishida

undagi statik birliklar muayyan o'zgarishlarga yuz tutadi ayniqsa badiiy asarning sahnalashtirilishida yoki ekranlashtirilishida bu hodisa aniq ko'zga tashlanadi. Buning turli maqsadlari bor alabtt. Birgina dramatik asarning sahnaga ko'chirilishida kuzatilgan holatlar bu borada qilinishi kerak bo'lgan ko'p ishlar borligini ko'rsatadi. Masalan: til birliklarining o'zgarishi qanday maqsadlarda amalga oshishiga ko'ra alohida tasnif qilinadi qaysi til birliklarida kuzatilishiga ko'ra alohida tasniflanishi kerak. Bundan tashqari qay tarzda amalga oshishiga ko'ra alohida tamoyillar ishlab chiqarilishi kerak. Bundan tashqari uslubga xos alomatlarning kuzatilishi ham alohida tasnifni talab qiladi.

Ma'lummki, lingvistikada "transformasiya" deganda til birliklarining bir shakldan boshqa shaklga aylanishi tushuniladi. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko'ra ro'y beradi: har bir tilning rivojlanishi – yangi so'zlar paydo bo'lishi, eskisining o'zgarishi tilshunoslikdagi transformatsiya termini ostida o'rganiladi. Tarjima jarayonlari – bir tildan ikkinchi tilga o'girilgandagi o'zgarishlar. Tarjima sohasida ham transformatsiya jarayonlari kuzatiladi.

Kino, teatr, adabiyotdagi adaptasiya – nutqni tomoshabinga tushunarli va ta'sirchan qilish. Badiiy asarning sahnaga ko'chirilishida nutqiy adaptatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Statik matinning dinamik matnga aylanishida so'zning fonetik qobig'i muayyan o'zgarishlarga yuz tutadi. Tilshunoslikning til va nutq birligini o'rganuvchi lingvoprogramatika sohasi ayni shu masalani tadqiq qilishi zarur. Chunki nutqiy aktlarda tilning muayyan maqsadga xoslanishi nazarda tutiladi. Umumiy olganda tildagi har bir so'z kod hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik ushbu terminni turli tadqiqotlar orqali faollashtirdi. Aslida tilshunoslikning barcha sohalarida bu termin o'rganilishi kerak. Xo'sh lingvotransformatsion jarayonlarida kod tushunchasi qanday anglashiladi? Bunda o'zgartirilgan matndagi muayyan kodning sahna asaridagi o'zgarishi yoki tushib qolishining sabablari o'rganish orqali izohlash mumkin, Anashu o'zgartirilgan yoki tushirilgan birlik lingvotransformasion

kod hisoblanadi. Masalan matnda mavjud bo'lmagan **“bolaginam”** so'zining sahnada ijro etilgan asarda kuzatilishi bu lingvotransformasion kod hisoblanadi. Chunki bu lingvotransformasion kod sahnada nima sababdan ijro etildi? Uni kim qo'shdi? Nega qo'shdi? Shuni aniqlash orqali lingvotransformasion kodning funksiyasi ochiq lanadi izohlanadi. Endi badiiy asarda mavjud bo'lgan muayyan birlikning sahnada ijro etilmasligi ham ma'lum bir lingvotransformasion kod hisoblanadi. Ijrodagi implitsitlik tadqiqi ham kod tushunchasining mohiyatini ochib beradi. Muayyan birlik nega tushirildi? Nega tomoshabin nigohidan yashirib qo'yildi? kabi savollarga javob berish orqali implitsit kod tushunchasi izohlanadi. Eksplitsit kod tushunchasi ham borki odatda ma'nosi oshkora ifodalangan birliklar uchun ishlatiladi. Lingvofonetik jihatdan eksplitsit kod talqini birmuncha murakkab. Sahnaga olib chiqilayotgan asarda muayyan birliklar asar bilan bir xil bo'lsa ham obraz darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'ladi. Masalan: Dezdemonna antrofonema orqali murojaat Abror Hidoyatov ijrosida obraz darajasiga kotarilgan va undan keyingi barcha ijrochilar unga taqlid qilishga harakat qilganlar.

Lingvotransformasion jarayon tilning sotsiolingvistik tadqiqida ham kuzatiladi. Ma'lumki jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarda milliy tilning muayyan o'zgarishlarga yuz tutishi kuzatiladi. Ayniqsa shevalarda adabiy tilga xos ayrim so'zlar fonetik transformatsiyaga uchraydi. Oltmish – olmish tarzida, ona- ena tarzida, bobo – bovo tarzida, foiz – poiz shaklida va h.k o'zgarishlar kuzatiladi. Bundan tashqari etnik qatlamlarda ham milliy adabiy tilga xos birliklarning transformatsiyasi kuzatiladi. Shahar so'zi shaar, Somsa - sambo'sa, Aka – oka, SHo'rva – sho'rbo va boshqalar. Muayyan etnos tildagi ko'ringan birliklar etnolingvistik qatlam hisoblanadi. Tilning sotsiolingvistik xususiyatlari – turli ijtimoiy qatlamlarda tilning o'zgarishi

Tilshunoslikdagi lingvotransformasion jarayonlarning ma'lum bir turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1- Leksik-semantik transformasiyalar. Bunga sinonimiya, antonimiya va ko‘chim bilan bog‘liq o‘zgarishlar kiradi.

Sinonimik transformatsiyada bir so‘zning o‘rniga uning sinonimi qo‘llanilishi tushuniladi. masalan, "inson" so‘zi o‘rniga "odam", "kishi" ishlatilishi kabi.

Ko‘chimga asoslangan lingvotransformasion jarayon bunda Metaforik va metonimik o‘zgarishlar nazarda tutiladi.

Morfologik va sintaksik transformasiyalar. Bunda so‘zlarning morfologik shakllarining o‘zgarishi (masalan, yurish → yuribdi)

Gap tuzilishidagi o‘zgarishlar (masalan, passivdan aktivga o‘tish) Bunda murakkab yoki nisbatan talaffuzda qiyin jumalarning ixchamlashtirilishi. Partselyatsiya “Bu yil yozning issiq kelishi dehqonlarga qiyin bo‘ldi” jumlasida sahnada “Buyil issiq keldi, dehqonlarga xo‘p qiyin bo‘ldi” tarzida bo‘laklarga ajratilib talaffuz qilinadi, natijada ifoda osonlashadi tasirchan bo‘ladi.

Pragmatik transformatsiya. So‘ngi davr tilshunosligida pragmatika yo‘nalishida juda ko‘p ishlar bajarildi. Ko‘proq nutq aktlari doirasida tadqiqotlar olib borildi. transformasion jarayon ham nutq aktlarida yaqqol namoyon bo‘ladi masalan “Bu ham ona ” gapi pragmatik jihatdan bir necha ma’nolarni ifodalaydi

- 1- Hurmatga loyiq
- 2- Hurmatga loyiq emas
- 3- Kinoya va boshqalar

Stilistik transformasiya jarayonlar - bunda uslub talabi bilan yuz beradigan jarayonlar tushuniladi. Emosional va ekspressiv o‘zgarishlar – sahnalashtirilgan asarlarda dialoglarni jonli qilish; Fonetik adaptasiya – ba’zi talaffuz o‘zgarishlari Xalqona nutq elementlari bilan rasmiy til orasidagi o‘tish

Sahnalashtirilgan tarixiy asarlarda lingvotransformatsion jarayonlar.

Teatr sahnasida asar tilidagi tarixiy so‘zlar tomoshabinlarga mos holatga keltiriladi. til tomoshabinlarga moslashadi. Masalan: Tarixiy

dramalarda eski soʻzlar oʻrnini zamonaviy soʻzlar egallashi jumlar soddalashtirilishi ixchamlashtirilishi mumkin.

Tarjimalarda maʼnoga eʼtibor qaratilib, soʻzma-soʻz emas, mazmunga yoʻnaltirilgan tarzda oʻzgartirilishi ham shu jarayonda oʻrganiladi

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Lingvotransformasion jarayonlar – tilning dinamik rivojlanishini koʻrsatadigan muhim fenomendir. Sahnalashtirilgan asarlarda esa bu jarayonlar tomoshabinga taʼsirchan va tushunarli matn taqdim etish uchun qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky, N.A. *Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, – 1958. – pp: 124–158.*
2. Montserrat Martínez Vázquez M. *Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.*
3. Apresyan Y.D. *Idei i metodi sovremennoy strukturnoy lingvistiki (kratkiy ocherk) / Y.D. Apresyan. M.: Prosvesheniye, 1966. 305s.*
4. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.*
5. Xalikulova G. E. *Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar. – 2012.*
6. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Uchrediteli: Premier publishing sro. – №. 2. – S. 116-119.*
7. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.*

8. Jabborov B. I. O. G. L. *Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlari* //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
9. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage* //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.
10. Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O'RNI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.
11. Toxirov O. *MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI* //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.
12. Xodjimatrova M. et al. *TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

III SHO‘BA. TEATR, KINO, TELEVIDENIYE VA RADIODA SAHNA NUTQI: DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Abdreyimov Manas

*ÓZMKÓMÍ NF “Texnogen kórkem óneri” kafedrası baslıđı,
docent*

SES REJISSYORI HÁM AKTYOR BIRGE ISLEWINDE DUBLYAJ KÓRKEM ÓNERI TÚRLERI

Annotatsiya. *Bul maqala dublyaj kórkem ónerininń túrleri haqqında sóz baradı. Búgúngi kúnde Ózbekstan aymađında kórkem dóretiwshiliktiń dublyaj salasındađı anıq teoriyalıq mađlıwmatlar kórsetiledi.*

Gilt sózler: *aktyor, qosıqshı, atqarıwshı, miksher pultleri, Film, dublyaj, mikrafon, kinematografiY.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются виды искусства дубляжа. В настоящее время на территории Узбекистана представлена конкретная теоретическая информация в области художественного дубляжа.*

Ключевые слова: *актер, певес, исполнитель, пультаы микшера, фильм, дубляж, микрофон, кинематография.*

Annotation: *This article discusses the types of dubbing art. Today, in the territory of Uzbekistan, specific theoretical information in the field of dubbing of artistic creativity is presented.*

Keywords: *actor, singer, performer, mixer consoles, film, dubbing, microphone, cinematography.*

Teatr aktyori saxnađa shıđıp rol oynaydı hám sol jerde tamashagóy menen menen baylanısıp ózi atqarıp atırđan qáharman jađdayına (rolge) kire alıwı bir qansha jeńil keshedi. Bıraq dublyaj aktyori bolsa saxnađa shıqpastan dawıs arqalı mikrafon aldına rol oynaydı. Bul dublyaj aktyorınan úlken uqıp talap qıladı.

“Dublyajdın óz tili bar. Haqıyqıy professional dublyaj tarawı qániygeleriniń de óz dialekti bar. Dublyaj aktyorı dublyaj tilin qalay túsinedi? 70 payız kórkem ádebiyatqa baylanıslı tilge 30 payız xalıq tilin aralastırǵan halda dublyaj tili kelip shıǵadı”¹⁷.

Házirgi kúnde dublyaj kórkem óneriniń bir neshe túrleri bar. Tolıq sinxron dublyaj, yarım sinxron dublyaj, kadr artınan dawıslastırıw hám subtitr dublyajlari bolıp tabıladı olar: **Sinxron dublyaj**. Dublyaj kórkem óneriniń bul túri kino ekanomikasında júda qımbat turǵanlıǵı sebepli bunday dublyaj júda kem ámelge asırıladı. Qımbatlıǵınıń sebebi shet el kinofilminiń kadrları, shawqımlı dawıs bólegi, muzıkalıq dawıs bólegi hám sóylew dawıs bólimlerin bólek bólek alınadı. Alınǵan filmde neshe aktyor qatnasqan bolsa sonsha dublyaj aktyor shaqırıladı. Kastiń processinde personajlardın dawısı, xarakterine uyqas keletuǵın uqıplı dublyaj aktyorları tańlap alınadı. Tolıq sinxron dublyaj ushın uzaq waqıt talap etiledi.

Dublyajdın bul túrinde tolıq sinxron dublyajdan ayrıqsha túrde, shawqımlar, muzıkalar, aktyorlar dawısları, kadrlar bólek-bólek alınbay, tayın filmdi solayınsha jaǵdayında alınadı. Yarım sinxron dublyajǵa bir neshe aktyorlar toparı qatnasadı. Dublyaj processinde personajlar sóyleip atırǵan orginal track dawısı paseytirliip, ústinen dublyaj aktyorlarınıń dawısı xarakter berip jazıladı. Shawqımlı yamasa muzıkalıq dawısı kelgeninde dawıslardı qattıraq shıǵarıladı. Filmdegi aktyorlardın tákirarlanbas xarakterdegi kulkileri, jóteli hám basqa soǵan uqsas jaǵdaylardaǵı dawısları saqlanıp qolınadı. Tayın bolǵan yarım sinxron dublyaj filminde orginal dawıs ekinshi planda esitilip turadı. Ózbekstanda kóbinese yarım sinxron dublyajlardı gúzecek boladı.

Dublyajdın bul túrinde shet el filmn awdarma teksti bir aktyor tárepinen orginal dawıs ústinen bir waqıtta oqıladı. Bul dublyaj túrinde birden segizge deyin aktyorlar dawıs beriwi múmkin. Kadr

¹⁷ D. Nuraliev. “Dublyaj san’atida ovoz rejissyorligi mahorati” dissertatsiya. Toshkent 2018 29-bet

artınan dawıs beriw processinde aktyorlar tárepinen xarakterge, intonaciyáğa tolıq itibar beriw shárt emes.

Tamashagóyler bolsa usı filmniń orginal dawısın da awdarmalanǵan dawıstı da bir waqıtta esitedi. Kadr artınan dawıslastırıw dublyaj turning eń arzan forması esaplanadı. Kadr artınan awdarma (kadr artınan dawıslastırıw yamasa “voysover”, anglichan tilinen voice-over — “*sóz ústinen sóz*” yamasa “kadr arti” manisin ańlatadı). Kadr artınan dawıslastırıw eki túrli boladı :professional hám háwesker. Ayırım waqıtları háwesker awdarmanı “avtorlıq” awdarma dep aljasadı. Kadr artınan dawıslastırıwdıń túrleri:

VO (ingl. voiceover) — bir dawıslı kadr artınan awdarmalap dawıslastırıw.

DVO (ingl. Dual voiceover) — eki dawıslı kadr artınan awdarmalap dawıslastırıw.

MVO (ingl. Multi voiceover) — kóp dawıslı kadr artınan awdarmalap dawıslastırıw.

Lipsink-bul animacion filmlerdi dublyaj qılǵanda eń kóp isletiletuǵın sóylew túri bolıp, erinler háreketin dawısı menen sinxronlastırıwǵa háreket qılınadı. Kóbinese siz sóz dizbegin ózgertiwińiz kerek, onı aktyordıń júz kórinisinde qarap maslastırıladı. Bul process “Stacker” qánigeleri tárepinen ámelge asırıladı.

Subtitr. Subtitrdan dawıssız kinofilmlerdi jaratılǵan dáwrden baslap paydalanıladı. Subtitr dublyaji kinofestivallarda keń paydalanıladı. Sebebi filmniń dawıslastırıw processiniń sapasına baha beriledi. Sol sebepli kinofestivallarda subtitr dublyajınan paydalanıladı. Subtitr dublyajda film dialoklarınıń teksti kadrlardıń tómengi bólegine jaylastırıladı. Filmdi tamasha etken tamashagóy filmniń orginal dawısın esitedi. Ol usul hámmege de tuwı kelebermeydi, sebebi bir waqıt ishinde film kóriw hám subtitrlardı oqıw tamashagóylerdi sharshatadı. Bul usıl tek ǵana anglichan tilin biletuǵın adamlarǵa tuwrı keliwi múmkin.

Dublyaj bul kino shıǵarmanı ápiwayı awdarma qılıw degeni, biraq ózge tilde jaratılǵan shıǵarmanı tamashagóyge óz ana tilinde jetkeriw mánisinde dóretpe waqıyası, maqseti hám qáharmanlarınıń xarakterindegi ózine tánlik saqlap qalınadı. Ele texnika rawajlangan waqıtlarda, dublyaj quramalı jumıs processlerin talap eter edi. Sol sebepli onıń texnikalıq procesine úlken dóretiwshilik topar tayarlıq kórgen. Tamashagóy basqa tildegi filmdi jańa fonogramma arqalı, originalı menen birdey awdarma qılınǵan halda kóriw múmkinshiligine iye boldı.

Dublyajdıń ózine tán ayrıqsha qásiyetleri: dóretiwshilik hám texnikalıq. Olar bir-biri menen bekkem baylanıslı. Mısalı, gáplerdi maslastırıw bul texnikalıq jumıs bolıp tabıladı. Biraq jaqsı maslastırıw, yaǵnıy, barlıq sóz oynların saqlaw, stilistik tárepler, dialoglardıń tuwrı dúzilisi - bul dóretiwshilik jantasıw bolıp tabıladı.

Dublyaj processı bir neshe basqışlardan ibarat boladı:

Daslep kinofilmniń tekstin, orginal frazalar, sóz oynları, ushırmalar, sóz dizbekiler sheberlik penen awdarmalanadı. Tekst awdarmasında film basınan aqırına deyin awdarmashı tárepinen awdarmalangán, uzın gápler, kelte gápler hám sózler uyqas túrde redaktorlanadı. Usı basqış lipsing (ukladka) basqışshı dep aytıladı.

Awdarmanıń sapası – ádebiy stilistikalıq, dawıslastırıwǵa uyqas keliwi, aktyorlardıń tayarlıǵına bekkem baylanıslı bolıp tabıladı. Filmler awdarmasınıń wazıypası - filmdegi ayılǵan sózlerdi awdarmalawda emes, bálki ayılǵan gáplerdiń mánisin awdarmalawda bolıp tabıladı. Dilmash shet tilin jaqsı biliwi kerek, ana tilin bolsa odan da jaqsı biliwi zárúr.

Paradoks: shet elde uzaq waqıt dawamında jasap kelgen jerleslerimiz, shet tildi jaqsı bilsede, professional kóz qarasta kinofilmlerdi kórkem awdarmalawǵa ulıwma tuwrı kelmeydi. Sebebi olardıń pikirlewi ózgergen hám olar sózlerdi dúziwde, sáwbetlerdiń

mazmunin jetkiziwde aljasadı. Sol sebepli awdarmashı shet tilin jáne, awdarmalaw principlerin hám qağıydaların da biliwi zárúr¹⁸...

Filmdi súwretke algannan keyin oğan shawqımlardı taqlaw aktyor, aktrisalardıń dawısın jazıw jumısı processı “Ozvuchka” dawıslastırıw dep ataladı. Dublyaj processı bolsa shet elden kelgen filmnıń ana tilge awdarmalanıp dawısın jazıp alınğan filmdi dublyaj qılınğan film deymiz.

Paydalangan ádebiyatlar

1. *Amanmuradov Sh. Muzikal'noe i shumovoe oformleniye. Uchebnoe posobiye. Toshkent 2019.*
2. *F.Fayziyeva. Dublyaj san'ati asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018.*
3. *D. Nuraliev. “Dublyaj san'atida ovoz rejissyorligi mahorati” dissertatsiya. Toshkent 2018*
4. *M.Hojimatova. San'at ta'limi yilnoma IV jild. So'z san'ati va ijrochilik mahorati (O'zbek dublyaji misolida).*
5. *Sokolov A. Montaj. Televideniye, kino, video. Uchebnik. Chast 3 – M.,2003*
6. *Uyatt X., Emiyes T. Montaj zvuka v tele – i kinoproizvodstve. Znakomstvo s texnologiyami i priyomami. Uchebnoye posobiye. M.,2006.*

¹⁸ D. Nuraliev. Dublyaj san'atida ovoz rejissyorligi mahorati dissertatsiya. Toshkent. 2018-yil.

Azizova Omina

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
San'atshunoslik institutining mustaqil izlanuvchisi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

KADRDA FOLKLOR: SO'Z VA EKRAN MULOQOTI

Annotatsiya. Maqolada kinoijodkorlar tomonidan milliy qadriyatlar, *an'analar* va xalq og'zaki ijodiga, umuman olganda folklor merosiga murojaat masalasi tahlil etiladi. Shu bilan birga, folklor namunalarini ekranlashtirish jarayonida *e'tiborga* olinishi zarur bo'lgan omillar ham ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Xususan, ertaklarni ekranlashtirishda obrazlarning transformasiyaga uchrashi, ularning zamonaviy talqinlarida yangi badiiy yondashuvlarning ahamiyati va ijodiy interpretasiya jarayonida yuzaga keladigan xususiyatlar tahlil etilib, ilmiy xulosalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar. Badiiy film, obraz, kadr, ekran, folklor, qadriyat, *an'ana*, ijro, janr, interpretasiya.

Аннотация. В статье анализируются вопросы обращения кинематографистов к национальным ценностям, традициям и устному народному творчеству, а также к фольклорному наследию в целом. Вместе с тем, с научной точки зрения рассматриваются факторы, которые необходимо учитывать в процессе экранизации фольклорных образов. В частности, проанализированы трансформация образов при экранизации сказок, значение новых художественных подходов в их современных интерпретациях и особенности, возникающие в процессе творческой интерпретации, представлены научные выводы.

Ключевые слова. Художественный фильм, образ, кадр, экран, фольклор, ценность, традиция, исполнение, жанр, интерпретация.

Abstract. *The article analyzes the issue of filmmakers' engagement with national values, traditions, and oral folk art, as well as folklore heritage in general. At the same time, factors that must be taken into account in the process of adapting folklore samples are considered from a scientific point of view. In particular, the transformation of images in the adaptation of fairy tales, the significance of new artistic approaches in their modern interpretations, and the features arising in the process of creative interpretation were analyzed and scientific conclusions were presented.*

Keywords. *Feature film, image, frame, screen, folklore, value, tradition, performance, genre, interpretation.*

Folklor — xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi bo'lib, og'zaki ijod namunalari orqali xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasini ifodalaydi. Kino san'ati esa zamonaviy davrning eng ta'sirchan madaniy vositalaridan biri sifatida ijtimoiy ong va madaniy xotirani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, folklor bilan kinoning o'zaro aloqadorligi tabiiy jarayondir. Ushbu ta'sirlanuv jarayonida xalq og'zaki ijodi obrazlari, syujetlari va arxetiplari ekran orqali yangi qiyofa kasb etib, keng auditoriyaga yetib boradi. Kinoijodkorlar folklor mavzuga qo'l urish orqali asrlar osha toblanib, mukammal shaklga kelgan qadriyatlarni badiiy, hujjatli va animasion film formatida kelajak avlodlarga yetib borishida ham xizmat qiladi.

YE.Morevaning ta'kidlashicha xalq og'zaki ijodi, an'anaviy madaniyatlari kino san'atiga singib ketgan. Folklorning mazmun-mohiyati, donishmand hikmatlari shunchalik chuqurki, uni ekran orqali tomoshabinga yetkazish uchun ramzlardan, detallardan foydalanish kerak [1, B.428]. Zero folklor namunalarining ekranlashtirilishi bir tomondan, milliy merosni saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, filmlarga milliy ruh hamda tarixiy xotira yuklaydi. Shuning uchun ham folklor

motivlarining kino san'atiga kirib kelishi, ularning qayta ishlanishi va zamonaviy kino tili orqali talqini alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotning ushbu yo'nalishi dunyo olimlari tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Sababi, bugungi globallashuv darida xalqlar o'z qadriyatlarini saqlab qolishda kino va folklorning o'zaro aloqalari natijasida ishlangan media mahsulotlaridan foydalanmoqda.

Folklor — xalqning ma'naviy, madaniy tafakkuri, asrlar davomida saqlanib kelayotgan og'zaki ijod namunasidir. Kino esa XX asrda yuzaga kelib, jamiyatning ma'naviy hayotida eng ta'sirchan san'at turlaridan biriga aylandi [2, B.100]. Ushbu ikki yirik madaniy tizimning o'zaro bog'lanishi, ayniqsa, milliy merosning saqlanishi va zamonaviy shakllarda qayta yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois folklor va kino munosabatini o'rganish, uning badiiy hamda ma'naviy jihatlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Folklor va kino san'ati turlicha ifodalansa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy jihatlar talaygina. Ikkisi ham xalq ruhi va dunyoqarashini aks ettiradi, ijtimoiy xotirani saqlaydi hamda ularni avlodlarga yetkazadi. Farqi shundaki, folklor og'zaki an'anaga asoslansa, kino ekran vositalari orqali vizual tarzda ommaviy tarqaladi. Folklor va kinoning ta'sirlanuvi oqibati xalq ozg'aki ijodi yangi qiyofa kasb etib, zamonaviy ma'nolar bilan boyitiladi. Rejissyor Yusuf Roziqovning "Dilxiroj" filmi misolida masalaga munosabat bildirsak. Filmda o'zbekning boy qadriyatlari, marosimlari, o'ziga xos an'analari betakror syujet, dramatik holatlar, hissiyotga boy kechinmalar orqali ko'rsatilgan. Film avvalida sunnat to'yi marosimi ko'rsatiladi. Ushbu marosim orqali 5-6 yoshlardagi Toshtemir va Sanamning unashuvi, etak bog'lash voqea ham ulab yuboriladi. O'g'il va qiz bolani bolaligida ularning onalari tomonidan bir-biriga atab qo'yish odati bo'lgan. A.Jo'raboyevning ma'lumotiga ko'ra, Andijonda biror qizchani kelin qilmoqchi bo'lgan ayol qizaloq kiygan ko'ylakning etagini ozroq yirtib

qo'ygan. O'zbekistonning boshqa hududlarida shunga o'xshash marosim *etak bog'lash* deb yuritiladi. G.Toshevaning yozishicha, Qashqadaryo viloyatida ikkala go'dak kuylagining orqa etaklari birlashtirilib, uchi tugilgan va ana shu tugunni ota-onalar bolalar balog'atga yetguniga qadar saqlaganlar [3, B.14]. Filmning dastlabki epizodi ham mana shunday bir-biridan qiziqarli, rang-barang marosimlar bilan boshlanadi.

*Qora qoshli qora qizdan **Quloq tishlab**, qarz bo'lding.*

*Shugina xushro'y qizdan **Etak yirtib**, qarz bo'lding.*

Qarzingni bermasang-a, Guvohi bor, bolam-a!

Buni bo'yin olmasang, Gunohi bor, bolam-a!

Shuningdek, ertaklar, dostonlar, rivoyatlar va afsonalar kino ijodkorlari uchun boy ilhom manbaidir. Masalan, milliy filmlarda xalq qahramonlari, mifologik obrazlar va tarixiy shaxslar yangi estetik talqinda ekranga olib chiqiladi. Bu jarayonda folklorning syujet tuzilishi, dramatik tuzumi va arxetip qahramonlari kino tiliga moslashtiriladi. Buni rejissyor Ayub Shahobiddinov tomonidan suratga olingan "Parizod" filmi misolida ko'rish mumkin. Filmida sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan mifologik obraz – Pariga urg'u berilgan. Ma'shuqa timsolining ideallashgan shakli, go'zallik ramzi sanalgan Parizod dastlab "Avesto" da payrika shaklida uchraydi. Rivoyatlarga ko'ra, Parilar Ko'hi Qof tog'i yaqinidagi Egam bog'ida yashagan. O'z shohi va saltanatiga ega bo'lgan, ularni g'ayritabiiy kuchga ega devlar qo'riqlagan. Ertaklarda esa Pari nihoyatda go'zal, aqlli, donishmand, latofatli, nazokatli ta'riflanadi. U sehr qila olish xususiyati bilan, o'rni kelganda turli qiyofaga kira oluvchi donishmand qiz sifatida ta'riflanadi. O'zining adolati, to'g'ri so'zligi, qimmatli maslahatlari bilan atrofdagi qahramonlarga omad, tinchlik, muvaffaqiyat olib kelgan. "Oypari", "Guliqahqahpari", "Xurshid bilan Laylo", "Odilbek bilan Hurram" ertaklari yuqoridagi fikrimizni asoslaydi. Shuningdek, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida ham Pari vafodor ayol, do'st, maslahatgo'y, aql-farosatda, jasoratda erkaklardan ham qolishmaydigan obraz sifatida tasvirlangan. Ayub

Shahobiddinov ham filmida Zarina Nizomiddinova talqin qilgan Parizod obraziga ana shu vazifani yuklaydi. Parizod kirib borgan xonadoniga tinchlik, baxt, sarishtalik, osudalik hukm suradi. U atrofidagi insonlarga faqat yaxshilik ulashadi, baxt va sakinat beradi. Ammo uni qabul qilmaydilar. Sababi oddiy insonlar uni kimligini bilmaydi, tabiatini tushunmaydi, undagi pokiza qalbni his qila olmaydi. Yakunda esa rejissyor Parizodni bu olamning kishisi emasligini ko'rsatadi. U insonlar olamiga sig'maydi va oxir-oqibat g'oyib bo'ladi.

Kino faqat syujet emas, balki folklorning ramziy obrazlaridan ham foydalanadi. Masalan, marosimlar, milliy urf-odatlar, mifologik ishoralar filmga badiiy va estetik ruh bag'ishlaydi. Shu tariqa, kino orqali folklor zamonaviy sharoitda qayta tiriladi, yangi ma'nolar kasb etadi va auditoriya bilan muloqot qiladi. Bunga rejissyor Hilol Nasimovning "Meros" filmini misol tariqasida keltirish mumkin. Filmda beshikkerti marosimining jozibasi ajoyib epizodlar orqali ko'rsatilgan. Shuningdek, o'zbek va qozoq xalqining e'tiqod, an'analari, marosimlari Baxshillo va Oygulning munosabatlari orqali ko'rsatilgan.

Dunyo kinematografiyasida ham folklordan keng foydalanilgan. Masalan, Yaponiyada samuray afsonalari va mifologik obrazlar kinoning muhim yo'nalishiga aylangan. Gollivud mifologiya va bibliya syujetlarini zamonaviy tilda qayta ishlaydi. Yunonistonda esa mifologik qahramonlar kino san'atida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu misollar milliy va global madaniy jarayonlarni uyg'unlashtirish imkonini ko'rsatadi.

Folklor va kino o'rtasidagi aloqadorlik milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uning yangi qiyofada avlodlarga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega. Kino folklordan ilhom olib, uni estetik va badiiy jihatdan qayta tiklaydi. Folklor esa kino san'atiga chuqur ma'naviy mazmun va milliy ruh bag'ishlaydi. Shu bois, kelgusida folklor va kino munosabatini chuqur o'rganish, milliy va xalqaro

tajribani solishtirish ilmiy izlanishlar uchun muhim yoʻnalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moreva Yevgeniya Aleksandrovna. *Smisloobrazuyushaya funktsiya folklori v kinematographe*// Culture and Civilization. 2016, Vol.6, IS.5B.
2. De Heusch L. (1988) *The cinema and social science: a survey of ethnographic and sociological films. Visual anthropology*, 1 (2), pp. 99-156. doi: 10.1080/08949468.1988.9966467
3. Tosheva G.S. *XX asrda Qashqadaryo viloyati oʻzbeklarining nikoh toʻyi marosimlari. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. Toshkent, 2002.
4. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
5. Xalikulova G. E. *Aktyorning sahna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar.* – 2012.
6. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS* Uchrediteli: Premier publishing sro. – №. 2. – S. 116-119.
7. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
8. Jabborov B. I. O. G. L. *Qoʻgʻirchoq teatrida sahna nutqining oʻziga xos xususiyatlari //Science and Education.* – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
9. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts.* – 2023. – №. 4. – S. 20-23.

10. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O'RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.

11. Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.

12. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 186-194.

Bauetdinov Sharafatdin

ÓzMKÓMÍ NF “Texnogen kórkem óneri” kafedrası oqıtıwshısı

FILMLERDE SES EFFEKTI HÁM MUZIKANÍŇ DRAMALIQ TÁSIRI

Annotatsiya. *Bul maqala arqalı siz kino haqqında jaqınnan bilip alasız. Dawıs jazıw, dáslepki dawıs jazıw úskeneleri, ses rejıssyorı wazıypaları, tanıqlı ses rejıssyorları haqqında maǵlıwmat alasız.*

Gilt sózler: *Kino, auditoriya, kinomotografiya, konventsiya, mikrafon, mikrafon operatorı, ses rejıssyorı, dramaturg, dawıssız kino, dawıs jazıw túrleri, kinolenta.*

Аннотация: *Из этой статьи вы узнаете больше о фильме. Вы найдете информацию о звукозаписи, базовом звукозаписывающем оборудовании, вакансиях звукорежиссера, известных звукорежиссерах.*

Ключевые слова: *Кино, зрительный зал, кинематография, конгресс, микрофон, микрофонист, звукорежиссер, драматург, немое кино, виды звукозаписи, кино.*

Annotatsion: *Through this article, you will learn more about the movie. You will find information about sound recording, basic sound recording equipment, sound director jobs, famous sound directors.*

Key words: *Cinema, auditorium, cinematography, congress, microphone, microphone operator, sound engineer, playwright, silent film, types of sound recording, cinema.*

Kinonıń kórkem qural retinde payda bolıwı anıq belgilenbegen bolsa da, 1895-jıl 28 dekabırde Parijde aǵa-inili Lyumerlerdiń on dana qısqa metrajlı filmleriniń kommerciya, ǵalabalıq kórgeszbesin prognoz etilgen kinematografik kinofilmlerdiń jetiskenligi dep esaplaw múmkin. Bunnan aldın da kinomotografiyada bul sıyaqlı jumıslar bolǵan, mısál ushın aǵa-inili Skladanovkiylar sıyaqlı. Olar ózleri islep shıqqan Bioscop arqalı 1895-jıl 1-noyabrde Berlinda auditoriyaǵa pul ornına kinoshou usınǵan. Biraq olarda, finanslıq kómek shıdamlılıq yamasa Lyumerlar sıyaqlı kinomotografiya arqalı pútkil dunyada ataq alalmaǵanlıǵı, úlken ataqqá erisiw ushın áyne bir áwmet impulsın jarata almaǵanlıǵı sebeplide, óz jumısların epley almaǵan.

Keyinirek dúnya boylap kino óndiriwshi kompaniyalar hám studiyalar payda bola baslaydı. Kinomotografiya birinshi on jıllıqta jańalıq retinde tán alınǵan bolsa, keyinirek ol ǵalabalıq kewil ashar industriyaǵa aylandı. Eń áyemgi filmler aq-qara reńde bolıp, bir minutdan kemrek waqıt dawam etken, dawıs jazıp alınǵan hám turaqlı kameradan alınǵan bir kadrda ibarat bolǵan. Ulıwma kino tiliniń konventsiyaları jıllar dawamında redaktorlaw, kamera háreketi hám kino scenariyde rol atqaratuǵın basqa kinematografiya usılları menen birge rawajlanıp barǵan.

Dáslepki kinolar dawıssız bolǵanlıqtan, adamlar kóriwden zerigip basladı hám XIX-asırdıń 20-jıllarına kelip kino dawıs penen sinxron ráwishte túsiriliwge imkan beriwshi qurılmaǵa háreket qılǵan. Bunıń ushın T.Edison kinetefondı (AQSH, 1899-j) D.Gomonxronefondı (Franciya 1901-j) grammafon plastinkalarınan paydalanǵan.

Demek kino tarawında dawıstıń sapalı shıǵıwına kim juwap beredi? Kino tarawında ses rejissyori- dawıs bólimin basqaratuǵın, súwretke alıw toparınıń aǵzası. Ol dawıs jazıw menen shuǵıllanıp mikrafon operatorı menen jaqın baylanısta isleydi. Ses rejissyorınıń wazıypası scenariy jazıwshısı hám de rejissyordıń ideyalıq konsepsiyasına mas rawishte kinonıń dawısın, fanogramma, sauntreklerin jaratıw, ulıwma kinonıń dawıslı dizaynı jaratıwdan ibarat. Kinoda tabiiy hám jasalma sesler sıpatı ushın juwapker. Aktyorlardıń dawıs úlgilerin jazadı, sinxron jazıwdı, dubliyajdı, muzika hám shawqımdı jazıp alıw, kinonıń dawısın qayta jazıwdı ámelge asıradı.

Haqıyqatında da kino tarawına dawıs kirip keliwi menen tamashagóyler sapı elede keńeydi, kino mazmunın jetkerip beriwde jańasha usılın ashtı. Kino dáslep dawıssız bolǵan dáslepki waqıtlarda aktyorlar atqarıwı teatrdı esletip, tiykarınan atqarıw mimikası birinshi orında turǵan. Ses kinoǵa kirip tásirshenligi keńeytirip, arnawlı lentalarǵa jazıp alınǵan monolog, muzika, shawqım hám basqa dawıslar kadrlardı tilge kirgizdi. Dawıs rejissyori texnik jaqtan qansha kónlikpesi kóp bolsa ol sonshellı jetiskenlikke erisedi hám texnikalıq apparaturalarınan paydalanıw kónlikpesin rawajlandırıp baradı.

2017-jıl 7-aprel “Kino kórkem ónerin jańa basqıshqa alıp shıǵıw, tarawdı mámleket tárepinen qollap-quwatlaw dúzimin elede arttırıw haqqındaǵı” PP- 6202-sanlı pármanı qabıl qılındı. Oǵan tiykar “Ózbekkino” Milliy agentligi Ózbekstan Respublikası kinematagrafiya agentligi dep qayta ataldı.

Bul tarawda óz kásibiniń mamanları bolǵan: Joldas Abdikarimov, Karimjan Bóribaev, Senchilo, Roza Hakimovalardı atap ótsek boladı. Dúnya juzine belgili bolǵan Gollivudtıń belgili ses rejissyori Geri Burjuanı kópshilik tanıydi.

Ol 2018-jılda Ózbekkinoda elimizdiń usı taraw qaniygeleri menen birge islesti. Usı orında aytıp ótiw kerek Geri Burjua “Everestten shanada túsken adam” atlı hujjetli filmi “Oskar”ǵa

múnasip kórilgen. Basqada: “Eki qasaskor”, “Boriniń ústinligi”, “Fantastik tórtlik” hám basqada jüzlep kinolarda ses rejissyorı jumısın atqargan.

Mámleketimizde ses rejissyorlıgı kásibi rawajlanıp, dúnya juzlik standartlarına juwap beretuğın media ónimlerin jarata aladı degen úmittemiz.

PAYDALANILĞAN ÁDEBIYATLAR

1. Sh. Amanmuratov, D. Mirsaidova “Ses rejissyorlıgı sheberligi” Tashkent. 2019.

2. D. Azamov “Kino jetiskenlikleri” Tashkent 2016 3. P

1. Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.

2. Халикулова Г. Э. Актёрнинг сахна нутқи махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. – 2012.

3. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – C. 116-119.

4. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.

5. Jabborov B. I. O. G. L. Qo ‘g ‘irchoq teatrida sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.

6. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

7. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O ‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

8. *Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.*

9. *Xodjimatova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.*

Kurbaniyazov Rufat

ÓzMKÓMI Nókis filiali

“Texnogen kórkem óneri” kafedrası oqıtıwshısı

ZAMANAGÓY TEXNOLOGIYALAR HÁM SES REJISSYORÍNÍN JUMÍS USÍLÍ

Annotatsiya. *Maqalada ses rejissyorlarınıń filmlerdi dawıslastırıw, dublyaj qılıw processinde aktyorlar menen islesiw jolları, processtegi ushırasatúgın mashqalalar hám oǵan sheshim tabıw jolları haqqında soz etiledi.*

Tayanış sózler: *Film, dublyaj, mikrofon, kinematografiya, dawıs jazıw, aktyor, miksher pultleri.*

Аннотация. *В статье обсуждаются методы работы звукорежиссёров с актёрами в процессе озвучивания и дубляжа фильмов, проблемы, с которыми они сталкиваются в процессе, и пути их решения.*

Ключевые слова: *Фильм, дубляж, микрофон, кинематография, звукозапись, актер, пульты микшера.*

Abstract. *The article discusses the methods of sound engineers working with actors during dubbing and dubbing, the problems encountered in the process, and ways to solve them.*

Keywords: *Film, dubbing, microphone, cinematography, sound recording, actor, mixer consoles.*

Sestiń kinoga kirip keliwi - Ses jazıwı kinematograftan aldın payda bolıp, suwret hám sestı sinxronlawğa hárezet bolsa kino jaratılıwı menen bir waqıtta júzege kelgen. Tomas Edisonniń hammuallifi Uilyam Diksonniń aytiwinsha, ol 1889 jılda ses hám suwretti birge kórsetetuǵın aparat - “kinetofonograf”tı oylap tapqan. Lekin onıń sózlerin tastıyıqlaytuǵın hesh qanday dálil joq. XX ásirniń baslarına shekem fonograftı eń zárúrli oylap tabıw, dep júrgen Edison kinetioskoptı fonograf penen sinxronlaw hárezetlerin dawam ettirgen, biraq qolınan kelmegen soń, bul jumısqa bolǵan qızıǵıwshılıqı sónbegen.

Ózbekstan kino tariyxında birinshi dawıslı film 1937-jılda suwretke alınǵan bolıp, ol “Ant” filmi bolıp tabıladı (rejissyor Usolsev). Usı film menen bir qatarda, “Azamat”, “Pal” filmlerindegi ses sheshimi máselelerin K.Tımsalskiy hám jas tajribeli Saqıyjon Bóriboyev ses operatorı sıpatında sheshken. Uluwma ózbek dawıslı kinematografiyasın tiykarınan “Ózbekfilm”de jumıs alıp barǵan, óz qoljazbasına iye bolǵan, tájiriybeli ses operatorları - G.Senchilo, A. Kudryashov, Ye. Shatskiy, N. Shodiyev dóretiwshilgisiz oyda sawlelendirip bolmaydı. Olardıń dóretiwshilik izertlewleri hám jetiskenlikleri usı kórkem óner rawajlanıwına múnásip úles bolıp qosıldı.

Kino ses rejissyori - bul jóneliste ses rejissyori ssenariy avtorı hám film rejissyori menen tigiz baylanista jumıs aparıwı talap etiledi. Kinofilmniń súwretke alıw processlerinde aktiv qatnasıp, onda bolıp atırǵan dawıs jolin jazıp alıwı shárt. Onıń ushın bólek úlken arnawlı úskeneler shárt bolmaydı, ápiwayı portativ dawıs jazıw úskeneleri, diktofonlar bul úskeneler ornında biymálel xızmet ete aladı. Rasında, bul ne ushın kerek? degen soraw tuwiladi. Kino ses rejissyori jazıp alǵan materiallardı qayta esitip shıǵıp akterlar sesleriniń bir-birine sáykesligin olardıń xarakterlerin esapqa alǵan halda, dóretpe ssenariyasınan kelip shıǵıp, film rejissyorına qaysı orında qanday shawqımlar ol

yamasa bul obrazdi ashıp beriw ushın qanday muzıka sáykes keliwin sheshedi hám óz usınısların zárúr bolsa shıǵarma kompozitorına túsindiredi. Sol arqalı ol filmniń ses sheshimin unamlı sheshedi.

Kinofilmler júdá keń ayırıqshalıqlıǵına kóre dinamikalıq diapazonǵa iye. Ses rejissyori bul dinamikalıq diapazondı baqlaw ushın ózinde bar bolǵan texnikalıq úskenelerdi tusingen túrde, bilip isletiwı zárúr boladı. Álbette, onıń

ushın ses rejissyori áwele ses partiturasın dúzip alıwı shárt. Ol ses partiturasın film rejissyori menen másлахátlesken halda qollanıwı kerek. Kinonıń televideniyeden ayırmashılıǵı sonda, kinoda sestı jazıp alıp keyin studiyada ózgertiwge boladı, televidenie yamasa teatr zallarında bolsa ses rejissyoriniń qatege jol qoyıwına haqqı joq.

Dublyaj etilgen filmniń zárúrli elementlerinen biri ses jańlawınıń akustikalıq ortalıqqa sáykes keliwi bolıp tabıladı. Ses rejissyori hám operatorlar tárepinen kadr artındaǵı sóylewdi hám basqa shawqımlardı da bólek jazıp barıladı, kásiplik terminde bul “gur-gur” dep ataladı. Dawıslastırıw, film dublyaj processinde rejissyordan juwapkershilik talap etip, ondaǵı barlıq shawqım, qustıń qanat qaǵıwdan tartıp, mashina sesı yamasa poyezd taqır-tuqurına deyin óz ornına túsirip jazıp shıǵılıwı kerek. Bunda ayırım aktyorlar dawısı óz róline uyqas kelmewi yamasa dublyaj specifikasına maslaspaǵanlıǵı, mikrofondı sezine almawı sebepli erin háreketine túsire almaydı. Sonday jaǵdaylarda rejissyor ses rejissyori menen kelisken túrde basqa aktyorlardı shaqırıwǵa májbúr boladı.

Ses rejissyori menen rejissyor sheriklikte aktyorlar dawısları menen shawqımlardı qosıp jazadı. Shawqım degeninde filmde esitiletuǵın avtomobil sesı, samaldıń sesı, teńiz tolqını, qus hám haywanlar sesı, samolyot, vertolyot sesleri hám taǵı basqalar názerde tutıladı. Ses operatorları film akustikalıq múmkinshilikleri hám ses rawajlanıwın saxnaǵa maslastırıwı, muzıka, jańa dialog hám basqa shawqımlardı da rejissyor menen sheriklikte jazıp filmdi tayın halǵa

keltiredi. Aqır-aqıbetde hámme ses birge plyonkaga jazılıp, filmge jaylastırılǵannan keyin dublyaj tayın boladı.

Dialog awdarması anıq hám háreketlenip atırǵan shaxsda buwın artikulyaciyasiga proporcional bolıwı kerek bolǵan. Dublyaj kórkem óner ishindegi kórkem óner bolıp, ol da kinematograf sıyaqlı dóretiwshilik jámáát arqalı ámelge asırıladı. Bul dóretiwshiler rejissyor, ses operatori, montajshı awdarmashı, jańa tekst redaktori hám " ukladchik (lablestiriwshi) den ibarat.

Ses rejissyorınıń wazıypası - hár bir kadr (epizod) súwretke alıńǵan waqıtta dáslepki fonogrammanı da kórkem, de texnikalıq táreplerden sapalı etip jazıp alıwdan ibarat. Fonogrammanıń sapası sonday bolıwı kerek, film qayta kórsetiw etilgende sol dáslepki súwretke alıńǵan waqıttaǵı dáslepki sestıń tábiyiy sapası, shıńǵırı sira buzılmastan saqlanıwı kerek. Sonday eken, ses rejissyori - filmniń ses tárepten bezeliwi hám sestıń texnikalıq sazlıǵına juwapker qánige bolıp tabıladı.

Ses rejissyori filmge tayarlanıw processinde- aq syomka toparına kiritiledi; rejissyor ssenariysini, postanovka -kalendar rejesin, smetalarnı islep shıǵıwda qatnasıw etedi; ses eksplikaciyasını islep shıǵadı ; seslastırıw menen baylanıslı texnika hám texnikalıq ásbap -úskene, úskeneler ushın buyırtpa beredi; aktyorlardı tańlawda qatnasadı, olardıń ses hám aytılwın tekseredi; dekoraciyalarnı qurıw, jasandıırıw processinde olardıń akustika talaplarına qaysı dárejede juwap bere alıwı dárejesin tekserip turadı ; aldınan sestı jazıp alıw jumıslarınıń qanday baratırǵanın sınaqtan ótkeredi; film ushın kerekli bolatuǵın shawqımlar, seslardı fonotekadan tawıp, saralap aladı ; filmde isletiletuǵın muzıka hám shawqım (ses) larnı sinxron jazıp alıw, olardı filmde jay-jayına qoyıw (seslastırıw) hám qayta jazıw jumıslarına basshılıq etedi; filmniń qadaǵalaw nusqası ses bólegin tastıyıqdan ótkeredi; filmdi qabıl etip alıwshı texnikalıq komissiya jumısında qatnasadı. Ol kinoplyonka hám magnit lentalarınıń sarp etiw-ǵárezjeti ushın juwapker shaxs esaplanadı, syomka toparına biriktirilgen ses jazıw brigadasına basshılıq etedi.

Dialog awdarmasi aniq ham hareketlenip atirgan shaxsda buvin artikulyaciasiga proporcional boluvi kerek bolgan. Dublyaj korkem oner ishindeg i korkem oner bolip, ol da kinematograf siyaqli doretivshilik jamaat arqali amelge asiriladi. Bul doretivshiler rejissyor, sesoperatori, montajshi awdarmashi, jana tekst redaktori ham " ukladchik (lablashtiruvchi) den ibarat.

Ses rejissyorini waziyasi - har bir kadr (epizod) suwretke alingan waqitta daslepki fonogrammani da korkem, de texnikaliq tareplerden sapali etip jazip aliwidan ibarat. Fonogrammaning sapasi sonday boluvi kerek, film qayta korsetiw etilgende sol daslepki Suwretke alingan waqittagi daslepki sestin tabiy sapasi, shingiri sıra buzilmastan saqlanmogi kerek. Sonday eken, ses rejissyori (Ses rejissyori) - filmni ses tarepten bezalishi ham sestin texnikaliq sazligina juwapker qanige bolip tabiladi.

Paydalanilgan adbiyatlar

1. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.
2. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.
3. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro.* – №. 2. – C. 116-119.
4. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.
5. Jabborov B. I. O. G. L. *Qo ‘g ‘irchoq teatrida sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education.* – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.

6. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage* //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

7. Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O‘RNI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

8. Toxirov O. *MUSTAQIL TA‘LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI* //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

9. Xodjimatova M. et al. *TEATR SAN‘ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

10. John Purcell. *Dialogue Editing for Motion Pictures: A Guide to the Invisible Art.* // United Kingdom, Oxford, Taylor & Francis Ltd Focal Press, 2007

11. Amanmuradov Sh. *Muzikal’noe I shumovoe oformleniye. Uchebnoe posobiye.* Toshkent 2019.

Magdiyev Bahodir

O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasining dotsenti

TELE VA RADIO BOSHLOVCHILARINI TARBIYALASHDA SAHNA NUTQNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada tele va radio boshlovchilarini tarbiyalash jarayonida sahna nutqining o‘rni va ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Sahna nutqining professional faoliyatdagi roli, talaffuz, intonatsiya, ovoz va ifodaning ijtimoiy hamda estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlovchilar uchun sahna nutqi mashqlari va metodik yondashuvlarning amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: sahna nutqi, teleboshlovchi, radioboshlovchi, nutq madaniyati, diktsiya, intonatsiya, ovoz.

Аннотация. В статье с научной точки зрения рассматривается роль и значение сценической речи в процессе подготовки теле- и радиоведущих. Анализируется место сценической речи в профессиональной деятельности, её функции в аспектах произношения, интонации, голоса и выразительности, а также социальные и эстетические задачи. Кроме того, раскрывается практическая значимость упражнений по сценической речи и методических подходов для ведущих.

Ключевые слова: сценическая речь, телеведущий, радиоведущий, культура речи, дикция, интонация, голос.

Abstract. The article scientifically explores the role and significance of stage speech in the training of television and radio presenters. It examines the functions of stage speech in professional activity, focusing on pronunciation, intonation, voice, and expressiveness, as well as its social and aesthetic aspects. Furthermore, the study highlights the practical importance of stage speech exercises and methodological approaches for media presenters.

Keywords: stage speech, television presenter, radio presenter, speech culture, diction, intonation, voice.

Kirish. Boshqa sohalar kabi jadal surʼatlar bilan rivojlanib kelayotgan ommaviy axborot vositalarining jamoatchilikga taʼsiri tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tele va radioda faoliyat olib borayotgan boshlovchilar keng auditoriyaning badiiy-estetik qarashlarini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Ularning nutqi – birlamchi hisoblanib tinglovchi va tomoshabinga bevosita taʼsir qiluvchi omil xisoblanadi. Shuning uchun ularni tarbiya qilishda sahna nutqi faning vazifasi yuqori oʻrinda.

Asosiy qism. Sahna nutqi — bu aktyorlik sanʼati bilan chambarchas bogʻlangan holda notiqlik madaniyati va

tilshunoslikning tutash nuqtasida shakllangan, nutqni badiiy-estetik vosita sifatida o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. U nafaqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish yoki grammatik meyorlarga rioya etish, balki ovozi, tembri, nafas olish texnikasi, intonatsion rang-baranglik, urg'u va pauzalarni uyg'unlashtirish orqali tinglovchi yoki tomoshabinga so'zning ta'sir kuchini ma'lum ma'no va hissiyotni yetkazishni o'z ichiga oladi.

Ilmiy nuqtai nazardan sahna nutqi uch asosiy komponentdan tashkil topadi:

1. Fonetik-texnik jihat – nafasni boshqarish, artikulyatsiya aniqligi, tovushlarning tozaligi va ovoz kuchini nazorat qilish.

Sahna nutqining fonetik-texnik jihatini — bu nafas, ovoz va artikulyatsiya jarayonlarining uyg'unlashuviga asoslanadi. To'g'ri nafas olish ovozning barqaror chiqishini ta'minlaydi, artikulyatsiya esa so'zlarni aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Ovoz kuchi va jarangdorligi tinglovchining e'tiborini jalb etadi, diktsiya esa nutqning tiniqligini belgilaydi. Shunday qilib, fonetik-texnik tayyorgarlik sahna nutqining poydevori bo'lib, boshlovchining nutqini ravon, ta'sirchan va esda qolarli qiladi.

2. Lingvistik jihat – adabiy til meyorlariga rioya qilish, so'z boyligi, uslubiy aniqlik va mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'llash.

Sahna nutqining lingvistik jihatini — bu adabiy til meyorlariga rioya qilish, so'z boyligini to'g'ri qo'llash va mantiqiy urg'ularni aniq belgilashdir. Boshlovchi nutqida grammatik aniqlik, uslubiy soddalik va mantiqiy izchillik saqlanishi zarur. Lingvistik tayyorgarlik nutqni nafaqat ravon, balki tushunarli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

3. Estetik-psixologik jihat – nutq orqali emotsional ta'sir ko'rsatish, obraz yaratish va auditoriya bilan bevosita muloqot o'rnatish.

Sahna nutqining estetik-psixologik jihatini — bu nutq orqali hissiy ta'sir ko'rsatish va auditoriya bilan bevosita muloqot o'rnatish qobiliyatidir. Intonatsiya, pauza, urg'u va ovoz ohangi orqali

tinglovchida ma'lum kayfiyat hamda estetik zavq uyg'otiladi. Bu jihat boshlovchining shaxsiy xarizmasini kuchaytirib, nutqning tarbiyaviy va ta'sirchanlik darajasini oshiradi.

Sahna nutqi, bir tomondan, nutq madaniyatining amaliy ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, badiiy ifoda san'atining muhim vositasidir. Shuning uchun ham u aktyorlar, boshlovchilar, diktorlar va pedagoglar faoliyatida asosiy kasbiy ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Axborotning aniq yetkazilishi: Ravon nutq tinglovchi tomonidan xatolarsiz qabul qilinishini ta'minlaydi.

Yangiliklar axborot qaror va farmonlarni ommaga yetkazadigan boshlovchilar benuqson talaffuzga ega bo'lishi kerak. Unga berilgan matnni avvaldan ko'zdan kechirib tinish belgilari, lyuft va mantiqiy pauzalarni belgilab olgan holatda taqdim qilishi shart.

- Ijtimoiy-estetik ta'sir: Ovoz ohangi va ifodaviy vositalar auditoriyada hissiy rezonans uyg'otadi.

Tele va radio boshlovchining intonatsiyasi, ovoz tembri va ifodaviy vositalari tinglovchida emotsional rezonans uyg'otadi, ularning ma'naviy-estetik qarashlarini shakllantiradi. Shu bois sahna nutqi ijtimoiy-estetik ta'sirga ega bo'lib, jamiyatda nutq madaniyatini rivojlantirish va badiiy didni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlovchilarning adabiy til meyorlarida so'zlashi umumiy nutq madaniyatini oshiradi.

Tele va radio boshlovchilarning nutqi jamiyatda til madaniyatini targ'ib etishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning adabiy til meyorlariga rioya qilishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz etishi va nutqni ravon ifodalashi keng auditoriya uchun namuna bo'ladi. Shu orqali ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot yetkazadi, balki jamiyatda toza til muhitini shakllantirish, yoshlarning nutq madaniyatini rivojlantirish va adabiy tilni qadrlashga xizmat qiladi.

- Hurmat va e'tibor: Toza va ifodali nutq boshlovchining shaxsiy brendini mustahkamlaydi.

Turli tele va radio kanallarda shu nomga munosiblar quyidagilar:
TV: Nasiba Ibragimova, Nasiba Qambarova, Ra'no Jo'rayeva, Dilorom Umarova, Muslimbek Yo'ldoshev, Dildora Rustamova, Jamshid Umrzaqov, Iroda Nosirova, Nodirxon Muhammadxonov va boshqalar

Radio: Ernazar Yorbekov, Shokir Tursunov, Dilsora Boboxonova, Vahobiddin Ziyoy, Nasriddin Asriddinov, Ahror Qo'shmatov, Ra'no Alimova, Muzaffar Mirzabekov, Dilmurod G'ulomov, Nurmuhammad Isroilov, Bahodir Magdiyev va boshqalar...

Tele va radio boshlovchilarni tayyorlash jarayonida sahna nutqiga oid quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

- Nafas mashqlari – ovozning kuchi va davomiyligini ta'minlash uchun.
- Artikulyatsiya mashqlari – tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi.
- Intonatsion mashqlar – nutqni ohangdor qilish va hissiy ta'sirini oshirish uchun.
- Matn ustida ishlash – urg'u va pauzalarni mantiqan joylashtirish orqali ma'no aniqligini ta'minlash.
- Audio va video tahlil – boshlovchining nutqini eshitib, kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, sahna nutqi mashqlarini muntazam bajarib borgan boshlovchilar auditoriya bilan tezkor va samimiy aloqa o'rnatadi. Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi bu fan aktyorlik mahorati bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ko'rish eshitish his qilish kabi ifodaviy vositalar ham mukammal o'rganilishi kerak. Zero, boshlovchi olib borayotgan dastur rang barang va ta'sirchan chiqishi uchun tasavvur va fantaziyaning o'rni yuqori. Voqeani tamoshabin yoki tinglovchiga yetkazishda- fanda o'qitiladigan tasviriy – adabiy parchalar juda qo'l keladi. Boshlovchi kim bilan yoki nima haqida so'z borishini avvaldan tahlil qilgan holda e'fir olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Tele va radio boshlovchilarining kasbiy mahoratida sahna nutqi asosiy vosita kuchi bo'lganligi sababli yuqori ahamiyatga ega. Nafas, talaffuzi, ovoz jarangi, intonatsiyasi va nutq madaniyati, badihagoyligi –improvizatsiya auditoriya bilan samarali muloqotning kafolati xisoblanadi. Shu bois, OAV xodimlarini tayyorlashda sahna nutqi faniga alohida e'tibor berilishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlar tizimli ravishda olib borilishi, hali hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.
2. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутқи махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.
3. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro.* – №. 2. – C. 116-119.
4. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.
5. Jabborov B. I. O. G. L. *Qo 'g 'irchoq teatrida sahna nutqining o 'ziga xos xususiyatlari //Science and Education.* – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.
6. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts.* – 2023. – №. 4. – C. 20-23.
7. Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O 'RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi.* – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

8. *Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.*

9. *Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.*

10. *Qodirov R. Sahna nutqi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti nashriyoti, 2018.*

11. *4. Magdiev B. Taqdirim radioboshlovchilik. – Toshkent: Zamon polygraph 2021.*

Mirzaxmedova Laylo

O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchisi

RADIOBOSHLOVCHILIKDA SAHNA NUTQI FANINING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada radioboshlovchi nutqining badiiylik darajasini oshirishda sahna nutqi fanining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bugungi radioefirlarda uchrayotgan talaffuz, urg'u va intonatsion kamchiliklar tahlil etilib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan. Tadqiqot davomida sahna nutqi fanining radioboshlovchilar tayyorgarligidagi o'rni, ovoz va nafas texnikasi, intonatsiya, diktsiya kabi elementlarning amaliy samarasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: radioboshlovchi, sahna nutqi, intonatsiya, diktsiya, ovoz texnikasi, ifodalilik, radioefir, muloqot madaniyati.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение дисциплины «Сценическая речь» в повышении художественного уровня речи радиоведущего. Также анализируются ошибки произношения, ударения и интонации, встречающиеся в современных радиопередачах, и предлагаются пути их

устранения. В ходе исследования изучено значение дисциплины сценической речи в профессиональной подготовке радиоведущих, а также практическая эффективность таких элементов, как техника дыхания и голоса, интонация и дикция. Abstract

Ключевые слова: радиоведущий, сценическая речь, интонация, дикция, техника голоса, выразительность, радиэфир, культура общения.

Annotation. This article highlights the importance of the discipline “Stage Speech” in enhancing the artistic quality of a radio presenter’s speech. It also analyzes pronunciation, stress, and intonation errors observed in modern radio broadcasts and suggests ways to eliminate them. The study examines the role of the stage speech discipline in the professional training of radio presenters, as well as the practical effectiveness of such elements as breathing and voice techniques, intonation, and diction.

Keywords: radio presenter, stage speech, intonation, diction, voice technique, expressiveness, radio broadcasting, communication culture.

Bugungi kunda radio axborot, madaniyat va ma’naviyatni ommaga yetkazishda eng ta’sirchan vositalardan biri sanaladi. Radioboshlovchi tinglovchi bilan ko‘rishmaydi, biroq har bir so‘z, ohang va intonatsiya orqali u bilan hissiy aloqa o‘rnatadi. Shu sababli radioboshlovchi uchun nutq sifati, talaffuz aniqligi va ovoz tembri birlamchi kasbiy mezon hisoblanadi. Sahna nutqi fani aktyor, diktir va boshlovchilarning nutq madaniyatini shakllantiruvchi asosiy pedagogik yo‘nalishlardan biridir. Bu fan nafaqat so‘zlash texnikasini, balki so‘z orqali his-tuyg‘ularni ifodalash, ma’noni to‘g‘ri yetkazish, ovoz va nafasni boshqarish, diktsiyani ravonlashtirish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Radioboshlovchi uchun esa bu ko‘nikmalar efirda tabiiy, ishonchli efir olib borishni ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda radioefirlarda ayrim boshlovchilarning talaffuz, urg‘u va pauza qo‘llashdagi xatolari kuzatilmoqda. Bu esa sahna nutqi mashg‘ulotlarining yetarli darajada amaliyotga tatbiq etilmayotganidan dalolat beradi. Shu bois radioboshlovchilar nutqida sahna nutqi elementlarini tizimli o‘rgatish va amalda qo‘llash zarurati dolzarb masalaga aylangan. Radioboshlovchi tinglovchini ko‘rmaydi, lekin hisni ovoz orqali yetkazadi. Shu sababli har bir efir matni badiiy ifodalilik bilan o‘qilishi kerak.

“So‘z faqat his bilan aytilganda tinglovchi qalbiga yetib boradi.” Sahna nutqi o‘zining shakllanish tarixida “sahna nutqi”, “badiiy so‘z”, “adabiy o‘qish”, “ifodali o‘qish” kabi bir talay nomlar bilan atalib, anchagina boy nazariy va amaliy tajribalar bilan mustahkamlandi. Bu predmet teatr va so‘z bilan aloqador bo‘lgan ijrochilik san‘ati sohalarida yetakchi rol oynab keladi. Shubhasiz, bu mavqe istiqbolda ham o‘z qimmatini yo‘qotmaydi va mazkur fanning nazariy-amaliy taraqqiyoti bilan birga, emotsional, jonli so‘zning ta’sir doirasi yanada kengayib boradi”, deb yozgan edi o‘zining “Badiiy o‘qish asoslari” kitobida xassos olim S. Inomxo‘jayev.

Darhaqiqat keyingi vaqtlarda “Sahna nutqi” nomi bilan ataluvchi fan g‘oyat muhim va ahamiyatli o‘rinni egallab bormoqda. Sahna nutqi fani aktyorlar, diktorlar va boshlovchilarga: nutq texnikasi (artikulatsiya, diksiya, nafas, ovoz va to‘g‘ri talaffuz). “So‘z san‘ati” (so‘z ta’siri ichki texnikasi elementlarini egallash) kabi eng kerakli va dolzarb bo‘lgan jihatlarini o‘rgatadi.

Radioboshlovchi so‘zi orqali fikr, hissiyot va energiyani uzatadi. Uning nutqi: toza va ravon talaffuz, aniq diktsiya, intonatsion boylik, pauza va tempni his etishni talab qiladi.

Radioboshlovchi efirda jonli tinglovchi oldida emas, biroq u har so‘zini sahna ruhida ifoda etadi — ya’ni ovoz orqasida tasvir, hissiyot va ma’no bo‘ladi. Shu bois sahna nutqi bu kasb uchun ham tayanch fandır. Radioboshlovchilar nutqida sahna nutqi fanining yetarli darajada qo‘llanilmasligi asosiy muammolardan biri sanaladi. Ko‘p radioboshlovchilar sahna nutqi asoslarini (ovoz mashqlari,

artikulyatsiya, ifodali o‘qish, pauza texnikasi) yetarlicha egallamagan. Natijada: nutq bir ohangda eshitiladi, intonatsiya yetishmaydi, pauza va urg‘u xatolari tinglovchi diqqatini susaytiradi.

Radio efirida sahnaviy nutq madaniyati meyorlarining buzilishi. Ba’zi efirlarda: noto‘g‘ri urg‘ular, shevaga xos talaffuz, grammatik xatoliklar, so‘zning hissiy ohangi yetishmasligi uchraydi. Bu holat tinglovchi madaniy saviyasiga ham ta’sir qiladi. Quyidagi muammolarni bartaraf etish uchun radioboshlovchilar nutq sifatini oshirishda sahna nutqi fanini o‘qitishning samarali metodlaridan unumli foydalanishlari kerak. Radioboshlovchi nutqi — bu so‘z, ovoz va his-tuyg‘u uyg‘unligidan tashkil topgan san’at. Uning sifatini oshirish uchun sahna nutqi fanining o‘qitilish metodikasi zamonaviy, amaliy va tizimli bo‘lishi zarur. Quyida eng samarali metodlar keltirilgan: Radioboshlovchining nutqi toza va tiniq eshitilishi uchun to‘g‘ri nafas olish muhim. Diafragmal nafas mashqlari; “S, Sh, Z” tovushlarida nafasni ushlab turish mashqlari; Past ovozdan baland ohangga o‘tish bo‘yicha ovoz diapazoni mashqlari.

Radioefirmi badiiylashtirish — bu nafaqat mazmun, balki sahna nutqi elementlarini to‘g‘ri qo‘llash natijasidir. Radioboshlovchi: intonatsiya bilan his beradi, diktsiya bilan aniqlik kiritadi, pauza va temp bilan dramatik ritm yaratadi, ovoz texnikasi bilan tinglovchini charchatmaydi. Natijada efir so‘zi oddiy xabar emas, balki eshitiladigan san’at asariga aylanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Radioboshlovchilikda sahna nutqi fani – bu nutq madaniyatining amaliy laboratoriyasi bo‘lib, u boshlovchini aniq, ifodali va badiiy so‘zlashga o‘rgatadi. Sahna nutqi fani ko‘nikmalariga rioya etib olib borilgan efir o‘zgacha e’tibor va diqqat bilan tinglovchilar tomonidan tinglanadi va efir sifatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Shuningdek, ovoz va nafasni boshqarish, intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llash orqali- efir so‘zini eshitiladigan san’at darajasiga ko‘taradi. Istalgan jabhadadir bu fan

nafaqat jurnalist boshlovchilarga balki maorif tashkilotlarda faoliyat olib boradigan xodimlarga ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *S. Inomho 'jayev. Badiiy o 'qish asoslari. – Toshkent.: O 'qituvchi, 1973.*
2. *A. Nosirova. Sahna nutqi. – Toshkent.: Tafakkur bo 'stoni, 2013.*
3. *M. Chexov. Aktyor texnikasi – Toshkent.: Zamon poligraf, 2016.*

Umarova Sitora

O 'zDSMIning tayanch doktoranti

TELEVIDENIYE VA RADIODA SAHNA NUTQI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada televideniye va radiodagi sahnaga xos nutqiy vositalarning efirga moslashtirilishi jurnalistik faoliyatni estetik, ta'sirchan va yanada ishonarli qilishi, nutq madaniyati va nutq texnikalarining jurnalistika rivojida tutgan o 'rni borasida so 'z yuritilgan.*

Kalit so 'zlar: *televideniye, radio, sahna nutqi, nutq madaniyati, nutq texnikalari, estetik ta 'sir, jurnalistika.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о том, как адаптация сценических речевых средств на телевидении и радио к эфиру делает журналистскую деятельность более эстетичной, выразительной и убедительной, о роли культуры речи и речевых приемов в развитии журналистики.*

Ключевые слова: *телевидение, радио, сценическая речь, культура речи, речевые приемы, эстетическое воздействие, журналистика.*

Abstract. *This article discusses how the adaptation of stage speech means on television and radio to the air makes journalistic*

activity more aesthetic, expressive and convincing, about the role of speech culture and speech techniques in the development of journalism.

Keywords: *television, radio, stage speech, speech culture, speech techniques, aesthetic impact, journalism.*

Dunyoda zamonaviy televideniye – axboriy jamiyat rivojlanishi sharoitida ijtimoiylashuvning asosiy institutlaridan biri hisoblanmoqda. Sotsiologik tadqiqotlar dalolat beradiki: “Aynan televideniye – aholining aksariyat qismini shaxsiy axborot makonida katta hajmdagi vaqtini egallaydi”. Jamiyat hayotidagi bunday muhim rol jamoat va davlat manfaatlarini aks ettirishda dolzarb bo‘lib hisoblanmoqda.

Jahonda umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarning organik simbioziga asoslangan zamonaviy jamiyatning estetik ehtiyojlari televideniyeidagi obrazlilikka

bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimini kuchaytirish muhim vazifa ekanligi ta’kidlanmoqda.

Dunyo miqyosidagi televideniye tadqiqotlari metodologiyasida hozirgacha televizion obrazlarni tahlil qilishning aniq mezonlari, ularning xususiyatlarini ko‘rib chiqishga bo‘lgan ko‘plab urinishlar televizion obraz yaratish mexanizmida asosiy rol o‘ynaydigan ommaviy axborot vositasi sifatidagi televideniyeining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi. Bularning barchasi televizion obrazlarni yaratish va aks ettirishning barcha jihatlarini to‘liq o‘rganish imkonini beradigan uslubiy apparatga bo‘lgan ehtiyojni dolzarblashtiradi.

Ommaviy axborot vositalarining ta’sirchanligi ko‘p jihatdan jurnalist yoki boshlovchining nutqiy mahorati bilan belgilanadi. Televideniye va radio auditoriyasi uchun efirdagi nutq nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ma’lum bir estetik, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi omildir. Shu ma’noda sahna nutqi kategoriyasi teatr san’atidan ommaviy kommunikatsiya

maydoniga ko‘chib o‘tib, yangi sharoitda o‘ziga xos funksiyalarni bajarmoqda.

Sahna nutqi – bu shaxsning ovoz, talaffuz, intonatsiya va boshqa nutqiy vositalardan foydalangan holda tinglovchi va tomoshabin ongiga ta’sir ko‘rsatish mahorati. Nutqshunoslik va kommunikatsiya nazariyasida sahna nutqi ikki asosiy komponentdan tashkil topadi:

1. Texnik komponent – artikulyatsiya, diksiya, ovoz diapazoni, nafas olish texnikasi.

2. Ifodaviy komponent – intonatsiya, urg‘u, temp, pauza, emotsional ohang.

Ushbu ikki komponent uyg‘unligi efirdagi nutqning samaradorligini belgilaydi.

Televideniye kommunikatsiyaning audiovizual shakli bo‘lgani sababli, boshlovchi yoki jurnalist nutqiy faoliyatida nafaqat ovoz, balki mimika, imo-ishora va sahnadagi xatti-harakatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlarda televideniyedagi sahna nutqi quyidagi funksiyalar bilan tavsiflanadi:

Axborot funksiyasi – ma’lumotni aniq va tushunarli shaklda yetkazish.

Emotsional-estetik funksiya – ohang va intonatsiya orqali tomoshabinning hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatish.

Kommunikativ funksiya – auditoriya bilan bevosita muloqot hissini yaratish.

Tarbiyaviy funksiya – ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish.

Shuningdek, televideniyeda sahna nutqining samaradorligi kamera bilan ishlash madaniyati va vizual obraz bilan bevosita bog‘liqdir.

Radio eshitish vositasiga asoslangan kommunikatsiya turi bo‘lib, unda ovoz va nutq eng asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Radiodagi sahna nutqi ilmiy jihatdan quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Ovozning tembr va jarangdorligi – tinglovchida obrazli tasavvurlarni uyg‘otadi.

Nutqiy intonatsiya – axborotning semantik qatlamini kuchaytiradi.

Pauza va urg‘ular – tinglovchining diqqatini boshqaradi.

Ritmik va melodik qurilish – nutqning musiqiyligini ta’minlaydi.

Radio jurnalistining sahna nutqi tinglovchi ongida “virtual sahna” yaratadi. Shu bois bu sohada nutq estetikasi bilan bir qatorda psixolingvistik ta’sirchanlik ham muhim o‘rin tutadi.

Televideniye – jurnalistika bilan birlikda san’atning ham xususiyatlarini o‘zida mujassam etib, har bir ko‘rsatuv – ekran tilida real hayotning ko‘zgusi sifatida aks etadi.

Telejurnalist, televideniyeining muhim xususiyati bo‘lgan sintetikligidan foydalanib, har qanday mavzuni ekran orqali yoritib bera oladi. Obrazlilik –

telejurnalistikaning muhim va zaruriy jihatidir. Televideniye kontekstida tomoshabin obrazini badiiy iste’dod ila nozik his qilish jurnalistning kasb mahorati

sifatida hisobga olinishi lozim.

Televideniye va radio sahna nutqining o‘xshash jhati – bu intonatsion boylikka asoslangan kommunikativ ta’sirchanlikdir. Farqli jhati esa televideniyeida vizual qo‘shimchalar, radioda esa ovoziy estetik vositalar ustuvorlik qilishi bilan izohlanadi.

Nutq madaniyati va sahna nutqi nazariyasi jurnalistika ta’limida alohida metodik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. A.Akhmedova (2018), D.Rasulova (2019), shuningdek, L.Norman (2016) va R. McLeish (2005)larning tadqiqotlarida jurnalist nutqining professional standartlari belgilab berilgan. Bu tadqiqotlar televideniye va radioda sahna nutqini nafaqat texnik, balki madaniy va psixologik jarayon sifatida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Insoniyatning ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismiga kirib kelayotgan ekran va sahna san’ati bugungi yosh avlod ongi ostiga tez ta’sir etib, ularning qalbi hamda ongida ezgu hislar, ulug‘vor

qadriyatlar uygʻotadigan, maʼnaviy botinini boyitadigan sanʼat turlaridan biri boʻlib qoldi.

Televideniye va radioda sahna nutqi jurnalist kasbiy mahoratining ajralmas qismi boʻlib, u auditoriya bilan samarali muloqotni taʼminlaydi. Sahnaga xos nutqiy vositalarning efirga moslashtirilishi jurnalistik faoliyatni estetik, taʼsirchan va ishonarli qiladi. Shu bois mazkur sohada sahna nutqi madaniyati, nutq texnikasi va kommunikativ psixologiya elementlarini chuqur oʻrganish jurnalistikaning nazariy va amaliy rivojida muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. *Лесная Л.В., Соловьева С.С. Информационное поле и менталитет горожанина как предметная область социологического исследования// Глобализации и социальные изменения: материалы научной конференции 2006.*
<http://lib.socio.msu.ru/library>
2. Norman L. *Broadcast Announcing Worktext: A Media Performance Guide.*– Routledge, 2016.
3. Axmedova M. *Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018
4. Rahmonov S. *Televideniye va radio jurnalistikasi asoslari.* – Toshkent: Universitet, 2016
5. Umarova S. *Oʻzbekiston televideniyesi bolalar koʻrsatuvlarida badiiy mahorat//soʻz sanʼati xalqaro jurnali 2025.* №SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-SI-1>
6. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – С. 79-85.
7. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.
8. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM*

“ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учёба и наука: Premier publishing sro. – №. 2. – C. 116-119.

9. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.

10. Jabborov B. I. O. G. L. Qo‘g‘irchoq teatrida sahna nutqining o‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.

11. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

12. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

13. Toxirov O. MUSTAQIL TA‘LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

14. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN‘ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

Xoliqulova Go‘zal

*O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasi professori,
san’atshunoslik fanlari nomzodi,*

TELEVIDENIYE VA RADIODA NUTQNING O‘ZIGA XOSLIGI VA ADABIY TIL MEYORLARI MASALALARI

Annontasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasidagi yangi islohotlar, yangidan tashkil qilingan Jamoatchilik kengashi faoliyati haqida so‘z boradi. Suxandon, diktor va boshlovchilarning etikasi, madaniyati, adabiy til meyorlariga amal qilishi, kiyinish madaniyati kabi masalalardagi

kamchiliklar tilga olinadi. Televideniye nutqi va radio nutqining o'ziga xos xususiyatlari, mashhur diktorlar mahorati haqida qiziqarli tadqiqotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar. Suxandon, diktor, boshlovchi, efir nutqi mahorati, televideniye nutqi, radio nutqi, efir madaniyati, adabiy til me'rlari, nutq madaniyati, milliy qadriyat, to'g'ri talaffuz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые реформы в Национальной телерадиокомпании Узбекистана, а также деятельность недавно созданного Общественного совета. Отмечаются недостатки, связанные с профессиональной этикой, культурой поведения и соблюдением норм литературного языка со стороны ведущих, дикторов и телеведущих, а также вопросы культуры одежды. Приводятся интересные исследования, посвящённые особенностям телевизионной и радиоречи, а также мастерству известных дикторов.

Ключевые слова. Ведущий, диктор, телеведущий, мастерство эфирной речи, телевизионная речь, радио речь, культура эфира, нормы литературного языка, культура речи, национальные ценности, правильное произношение.

Abstract. This article discusses the recent reforms in the National Television and Radio Company of Uzbekistan, as well as the activities of the newly established Public Council. It highlights shortcomings related to the ethics, cultural behavior, adherence to literary language norms, and dress code among presenters, announcers, and hosts. The article also presents interesting studies on the specific features of television and radio speech, along with the skills of renowned announcers.

Keywords. presenter, announcer, host, broadcast speech skills, television speech, radio speech, broadcast culture, literary language norms, speech culture, national values, correct pronunciation.

“Tilni hurmat qilmaslik, unga bee’tibor bo‘lish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tarixga xolis ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, o‘zbek adabiy tili imlo qoidalarini yaratish bir qancha tarixiy davrlarni boshidan kechirgan. Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”!
SHAVKAT MIRZIYOYEV [1. B.170].

Bugun barcha sohalar kabi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida katta islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining mamlakatimiz mediamakonidagi o‘rnini yanada oshirish hamda faoliyatiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish to‘g‘risi”dagi PF-141-sonli farmoni bilan belgilangan bir qator ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida samarli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi farmonda tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq 2024 yil 19 dekabrda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 oktabrdagi 188-sonli bayoni bilan Jamoatchilik kengashi tarkibi ham tasdiqlandi va unga atoqli olimlar, ijodkor ziyolilar, faol jamoatchilik vakillari kiritildi.

Keyingi paytlarda “ijtimoiy tarmoqlar kuchayib borishi oqibatida radio va televideniye ehtiyoj butunlay yo‘qoladi” degan o‘ta tor ma’nodagi gaplar keng tarqalmoqda. Afsuski, bu gaplarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatishga yordam berayotganlar orasida oliy ta’limda faoliyat ko‘rsatadigan shaxslar ham bor.

Tarixga nazar salsak, XIX asr oxiri XX asr boshlarida matbuotning mavjud tasnifiga uning yangi turi radio (radio so‘zi yunoncha “radij” – *nur taratish* ma’nosini bildiradi) kirib keldi. Axborotlarni elektron texnika yordamida uzoq masofaga, keng hududga tarqatishda diktorga faoliyatiga ham asos solindi. XX asr

o‘rtalariga kelib esa katta yangilik, sifat o‘zgarishlari yuz berib, televideniye ixtiro qilindi. (Televideniye grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, *uzoqdan ko‘rish*, televizor so‘zi ham grekcha so‘z bo‘lib, televideniye orqali uzatiladigan signallarni *tasvir va ovoz tarzida qabul qilib ko‘rsatadigan va eshittiradigan apparat* hisoblanadi) [2. B.157] O‘sha davrlardan buyon radio va televideniye xalqimizga ma’naviyat, ma’rifat tarqatib keladi. Zero, ma’naviyat xalq manfaatini ko‘zlab tarqatilar ekan, radio ham televideniye ham hech qachon yopilmaydi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, yozuvchi Xayriddin Sultonov Jamoatchilik kengash yig‘ilishida radio, televideniye faoliyati haqida qimmatli fikrlarni bildirib shunday degan edi: “Bugungi kunda mediya olamida murakkab jarayonlar ketmoqda. Jamiyat hayotida ta’lim-tarbiya, odob-ahloq, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda ko‘zga tashlanib kelayotgan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Ushbu Jamoatchilik kengashi a‘zolari MTRK xodimlariga mavjud muammolarni hal qilish borasida soatlab mahorat darslari o‘tishga qodir ilg‘or ziyoli shaxslardir. Ammo bunday murakkab soha vakillarining ishlariga tanqidiy yo‘l bilan emas, qanday ishlarni amalga oshirsak yaxshi bo‘ladi, deb ularga ko‘mak berishimiz zarur. Biz aholining fikr-mulohazalari va takliflarini o‘rganishimiz, tomoshabinlarning talab-istaklari asosida mazmunli va qiziqarli teleradio dasturlar tayyorlashimiz, efirning badiiy saviyasi, mazmun-mohiyatini yanada boyitishimiz, xalqchil hamda ommabop ko‘rsatuv va eshittirishlarni ko‘paytirishimiz lozim” [3]. X.Sultonov Milliy teleradiokompaniyaning senzura va boshqa tushunchalardan holi ravishda nufuzli xorijiy BBC, CNN, “Al-Jazira”, NHK, Evro News [4] kabi ommaviy axborot vositalari bilan raqobatbardosh bo‘la olishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekaniga urg‘u berdi. Mamlakatimizning yangilangan Konstitusiyasi va qonunlarimizda belgilangan hayotiy prinsiplarni amalga oshirishda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi imkoniyatlardan yanada samarali

foydalanish, xususan, O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren, dunyoviy va ijtimoiy davlat ekani haqidagi normalarni yurtimiz va jahon jamoatchiligiga ta'sirchan tarzda yetkazish, milliy qadriyat va an'alarimizni himoya qilish va boyitish lozimligini ham ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, bugungi kunda MTRK faoliyatini chuqurroq o'rganish, sinchkovlik bilan kuzatish orqali muammolarni ko'ra olish va yechimini topish mutaxassislar oldida turgan dolzarb masaladir. Ayniqsa, efir madaniyati, kasb etikasi, estetik meyor, adabiy til meyorlari, nutq madaniyati, milliy qadriyat masalalari MTRKda faoliyat yuritayotgan suxandon (diktor, boshlovchi)larning bilimi, saviyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ularning ba'zi hollarda adabiy til meyorlariga amal qilmasligi, hayotiy bo'lsin deb adabiy tilni shevalar bilan aralashtirib so'zlashi, suhbatdosh bilan suhbatlashganda ortiqcha, sohta kulgilar, jestlar, tomoshabinga turli rangdagi soch turmaklarida ko'rinishga harakat qilishlar, yigitlarning esa kalta shim kiyib, paypoqsiz o'tirishi, bo'rttirilgan grim, ko'rsatuvlarga va suhbatlarga tayyorgarliksiz kelishi bularning hammasi bugungi kundagi ko'pchilik boshlovchilarda uchraydigan kamchiliklar sanaladi. Bunday kamchiliklarni oldini olish avvalo televideniye rejissyorlariga ham bog'liq. Ko'pchilik rejissyorlar boshlovchilarda erkinlik bo'lishi kerak degan biryoqlama fikr yuritish holatlari mavjud. Shuningdek, reytingni oshirish, qisqa qilib aytiladigan bo'lsa o'z tomoshabinlarini ko'paytirish aynan mana shu erkinlikka bog'liq deb qarash ham bor. To'g'ri, ko'rsatur olib boruvchilar uchun erkinlik juda muhim qobiliyat, ammo bu erkinlikni kim nima hoxlasa shuni qilish mumkin, deb qaramaslik kerak.

Masalaning ilmiy jihatlariga e'tibor qarataylik. Televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari uch turga bo'linadi, ya'ni uch uslubda olib boriladi. Bular, axboriy, ma'naviy-ma'rifiy va ko'ngilochar ko'rsatuv va eshittirishlardir. Bunday uslubdagi ko'rsatuv va eshittirishlardagi nutq oddiy nutqdan farq qiladi.

Tinglovchi-tomoshabin axborotni oson, ravon va qiziqib qabul qilishi uchun o'ziga xos talablari ham bor. Radiodagi nutq bilan televideniyaedagi nutqning o'ziga xos xususiyatlarga ega. **Riadiagi nutq** tiniq va ravon bo'lishi, obrazli va jonli so'zlashi, intonasiya va ritmni his qilishi, so'zlarning qisqaligiga, jummalarning oddiyligiga e'tibor berishi muhim. Radiotinglovchi tasvirni ko'rmaydi, hamma narsani nutq orqali eshitadi, ovoz orqali his qiladi. Shuning uchun suxandondan birinchi navbatda yaxshi diksiya talab qilinadi. **Televideniyaedagi nutq** esa qisqa va aniq, tabiiy, mimika va jestlardan unumli foydalanish, ko'z bilan muloqot qila olishni talab qiladi. Chunki matnni surat va kadrlar to'ldiradi, tomoshabin rasmiylikdan tez zerikkani uchun tabiiylik muhim hisoblanadi, nutqni kuchaytirish uchun mimika va jestlardan meyorda foydalanishni taqozo qiladi va kamera orqali tomoshabinga qarash muhim bo'ladi.

“Badiiy so'z san'ati sohasida teatr, kino, radio, yakka so'z ishrochiligi san'ati kabi barcha mavjud imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yagona sintetik vositadir. Bu xususiyat esa, teleimkoniyatlarning benihoya kengligi va rang-barangligidan dalolat beradi” [5. B.9]... “Radio so'z san'atiga tayanuvchi vositadir. Hech bir tarmoq radio kabi keng tinglovchilar ommasiga ega emas. Radio diktorlik va boshqa turdagi radio teatr ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlari bor. Radio ijrochilari qo'l harakati, imo-ishora, jussa holati, ko'z qarashi kabi boy ifoda imkoniyatlaridan mahrum. Ana shuning natijasida ijrochi zimmasiga yuklangan ichki va mantiqiy vazifalar kuchayadi. Radio ijrochisi o'sha ifoda komponentlari uchun chinakam kechinma va mantiq yo'lidan borishi va barcha ijodiy imkoniyatlarini ongli ravishda shu nuqtaga qaratishi lozim”. [6. B.9]

Umuman olganda suxandon (diktor, boshlovchi) so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, ortiqcha “m-m-m”, “e-e-e”, “a-a-a” kabi tovushlarni ishlatmasligi, tiniq ovoz va to'g'ri nafas olish texnikasidan foydalanishi, shuningdek, nutqni maqsadga qarab

ishlatish, ya'ni uslubni to'g'ri topish muhimdir. Uslub yuqorida tilga olingani kabi **axborot uchun nutq – rasmiy, ko'ngilochar uchun nutq – yengil va samimiy, ma'naviy-ma'rifiy uchun nutq esa ta'sirchan** bo'lishi kerak.

Adabiy til meyorlari masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, tilning barqaror va mustahkam bo'lishi avvalo matbuot, nashriyot, qolaversa, ta'lim muassasalariga bog'liq. Ammo eng muhimi madaniyat va san'at o'choqlarida xizmat qilayotgan xodimlariga ko'proq bog'liq. Chunki ular nutq madaniyati va til istiqboli uchun tinmay kurashadilar. Ma'naviyatimizning bosh mezon – bu davlat tili ekan, davlatning qay darajada mustaqilligi davlat tili bilan belgilanadi. Zero, tilda tilning ijodkori bo'lgan xalqning o'zligi, tarixi va madaniyati aks etadi. Ayni zamonda til ijtimoiy taraqqiyotda ham ulug'vor ahamiyatga ega.

1989 yil 21 oktabrda “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi, o'zbek tilining davlat tili deb e'lon qilinishi Vatanimiz tarixida o'chmas sahifalardan biri bo'lib qolgani hech kimga sir emas. Qonunda xalqimizning “Tilga e'tibor – elga e'tibor” degan ulug' hikmati amalda namoyon bo'lib, kamsitilgan, buzila boshlagan o'zbek tili iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda muhim vosita, adabiyot va san'atning taraqqiyotini belgilovchi omilga aylantirilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, “O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonun”ning 16-moddasida **“Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi,** deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu moddaning sharhini keltiradigan bo'lsak, birinchidan, O'zbek milliy madaniyatini televideniye va radio eshittirishlarida, davriy matbuotda targ'ib qilish, o'zbek tilida davra suhbatlari, savol-javob kechalari o'tkazish, xalq universitetlarida muntazam mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil etish va boshqalar davlat tilining obro'sini oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida televizion

ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari boshqa tillarda ham olib boriladi. Uchinchidan, davlat tilida filmlar, telespektakllar yaratish o'zbek milliy san'atining rivojlanishi va yuksalishida muhim ahamiyatga egadir. Xorijiy mamlakatlardan sotib olinayotgan kinofilmlarni davlat tiliga tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Zaruratga qarab va imkoniyat doirasida Respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olib, bunday kinofilmlar boshqa tillarga ham tarjima qilinishi mumkin. To'rtinchidan, xabarlar, taqrizlar, sharhlar, kinoteatr afishalari va repertuarlari, ssenariylar o'zbek tilida yozilmog'i lozim, zarur hollarda esa bir vaqtning o'zida boshqa tillarda ham yozilishi mumkin. Mazkur qoida radio va televideniye orqali beriladigan e'lonlarga ham tegishlidir [7. B.26].

Gap O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi suxandonlari, diktorlari va boshlovchilarning nutqiy mahorati haqida borar ekan, yuqorida til va nutqqa e'tibor bilan yondashishga asoslar keltirdik. Tomoshabin yoki televizorda diktorni ko'rishdan tashqari uning nutqini diqqat bilan eshitadi. Nutq aniq, ravon, ta'sirchan va jozibali bo'lsa unga qoyil qoladi. Bunga yorqin misol, 1970-1980 yillarda radio va televideniyeda faoliyat olib borgan diktorlarni nutqi, jozibasi, ohanglari hali hamon quloqlarimiz ostida jaranglab turadi. Mohir so'z ustasi, shoir, xalqimiz sevgan diktor, dosent Muslimbek Yo'ldoshevning "Silsila" nomli kitobini qayta-qayta o'qish davomida o'zbek tilini nufuzini, obro'sini ko'targan mashhur diktorlar haqidagi ajoyib, qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Muallif O'ktam Jobirov, Mirzohid Rahimov, Galina Melnikova, Nasiba Maqsudova, Farhod Musajonov, Dilorom Umarova, Abdumo'min O'tbosarov, Maqsud Yunusov, Sanjar Sa'dullayevlarning suxandonlik mahorati, mehnatsevarligi, tilga bo'lgan mas'uliyati, insoniy xislatlari haqida o'zi ko'rib guvoh bo'lgan voqealar tizimida aytib o'tadi. "O'ktam aka yigirma minutlik "Chorvador" ko'rsatuviga soatlab o'tirib tayyorlanardilar. Tekstlarning har bir belgisini chizib, imlolarini qo'yib, tuzatib chiqardilar. U kishiga tahrirdan chiqqan chiqqan matnkamdan-kam

berilardi. Nimaga O'ktam aka, shu ishning tamal-toshlarini qo'ygan odam shuncha tayyorlanadi-yu, nima uchun biz mas'uliyatsizlarcha, o'qib chiqmagan matnlarni olib, shunday efirga chiqib ketaveramiz?... Qaysi suxandon o'zi bilib gapirayotganini-yu, qaysi suxandon yodlab olib gapirayotganini tomoshabinjuda yaxshi biladi. U (tomoshabin demoqchi) nihoyatda talabchan" [8. B.175] deya qayg'urib yozgan sahifalariga ko'zimiz tushadi.

Tilga olingan diktorlar qatorida mashhur diktorlar Qodir Mahsumov, Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva, Nasiba Qambarova, Davron Zunnunov, Ne'matjon Egamberdiyev, Huri Safarova, Rahmatilla Mirzayev, Ra'no Ashrapova, Klara Xalilova, Abdulla Matnazarov, Ahmadjon Mirzayev, Davlat Turdialiyev, Shuxrat Qayumov, shuningdek, Rustam Xotamov, Nosirjon Dehqonov, Gulsara Ibrohimova, Muhammadjon Xo'jayev, Ma'murjon Abdiyev, Ernazar Yorbekov, Difuza Yusupova, Shokir Yusupov, Bahodir Ma'diyevlarning nutqi doimo tinglovchi-tomoshabinlarga yoqimli, til va nutq borasida namunali hisoblanadi. Jamshid Umrzoqov, G'olibnazar Qurbonov, Xulkar Bo'riyeva, Islom Qoraboyev kabi yosh diktorlarning nutqi ustoz diktorlarning yo'lini davom ettirayotgan kelajagi porloq diktorlar sanaladi. Ularning samimiyligi, adabiy tilda ravon gapirish, kiyinish madaniyati, efir madaniyati, yuzidagi xushmuomalalik ifodasi, tabassumi tomoshabinga xush yoqadi.

Diktorlarning nutqi boshqalardan kuchli bilimi, nutq madaniyatiga bo'lgan yuksak munosabati, adabiy til meyorlarini chuqur anglaydigan, ravon nutqqa ega bo'lishi kerak. Ularning efir orqali muloqotining muvaffaqiyatli bo'lishi o'zlarining shaxs sifatida shakllangan fazilatlarining yuksakligidadir. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalilik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot ham yaxshi bo'ladi. Chunki eshittirish va ko'rsatuvlarni tinglovchi-tomoshabin yaxshi tushunishlari uchun, muloqot ham

muvaffaqiyatli bo'lishi lozim, buning uchun esa samimiy bo'lish kerak.

Suxandon (diktor, boshlovchi) o'zining sifatlariga va kasb mahoratiga ham ega bo'lishi lozim. Sahna nutqi (nutq texnikasi va badiiy o'qish) hamda aktyorlik mahorati bo'yicha yuqori bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda nutqiy nuqsonlar bo'lmasligi, ko'rsatuvlar janriga xos bo'lgan his-tuyg'ularni yetkaza olishi kerak. Professor Mahkam Muhammedov ta'kidlanidek, "Albatta, jarangdor so'z san'ati asosini badiiy adabiyot tashkil etadi. Badiiy asarni o'zi uchun o'qish mumkin, suhbatdosh uchun, eshituvchi muxlislar uchun o'qish mumkin, har bir holatda ham o'z ifoda vositalari bor: to'rtinchi devor yo'qligi, oraliq masofa yaqinligi so'zlash, gapirib berish uslublarini keltirib chiqaradi. Sahnada zalda o'tirgan tomoshabinga, televideniya bir kishiga va shu bilan barobar million kishiga murojaat qilish mumkin. Ikkala holatda ham ijrochidan katta mas'uliyat talab qilinadi. Tomoshabin bilan muloqotda bo'lgan ijrochi-gapiruvchi qiyofa, hikoya qiluvchi shaxs kimning nomidan gapirishiga ko'p narsa bog'liq. Notiq muallif nomidan gapirishi mumkin yoki butun matnni o'z vujudidan o'tkazib ijrochi nuqtai nazaridan gapirishi mumkin. Bunday holatda gapiruvchi mohir, ijrogina bo'lib qolmay, fikr doirasi, dunyoqarashi keng, aql-idroki, tafakkuri teran, yetuk insoniy shaxs ham bo'lishi kerak" [9. B.36].

Hozirgi kunda boshlovchilarga nisbatan bilimsiz, dunyoqarashi nochor, nutqi maishiy nutqdan farqi yo'q, shevani aralashtirib gapira degan tanbehlar ko'p aytilyapti, ammo ularga yordam berish haqida shu paytgacha hech kim o'ylamadi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan farmon tufayli ularga ko'mak berish harakatlari boshlandi. Bugungi kunda poytaxtdan uzatilayotgan davlat kanallarida 241 nafar suxandon (diktor, boshlovchi) lar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga ko'maklashish maqsadida nutq madaniyati, adabiy til meyorlariga amal qilish, sahna nutqi qonun-qoidalarini o'zlashtirish, nutq texnikasi, matnlarni to'g'ri o'qish

bo'yicha MTRK va O'zDSMI hamkorligida asosiy talablar ishlab chiqildi va har bir suxandon va diktora, boshlovchiga tarqatildi. Unga ko'ra **efir madaniyati** - boshlovchi efirda o'z madaniyatini har tomonlama ijobiy tomondan ko'rsatishi, efirda tilga olingan har bir so'zning o'z o'rnida umuminsoniy axloq normalari va qoidalari, milliy an'analar, qadriyatlar, milliy mentalitetga mosligini ta'minlagan holda ifodalash kerakligi ta'kidlab o'tildi. **Kasb etikasi** – boshlovchining teletomoshabin yoki radiotinglovchiga o'rnak bo'ladigan darajadagi lutfga ega bo'lishi, jurnalist kasbiga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarga amal qilish, efirda yaxshi xislatlarini namoyon eta olish hamda o'zini tuta bilish, to'g'ridan-to'g'ri efirda ishlay olish belgilab qo'yildi. Shuningdek, **estetik meyor** – tashqi ko'rinishi (kiyinishi, soch-soqoli, grimi yoki pardozi) meyorida bo'lishi, tashqi ko'rinish (imij) uchun foydalanilgan har bir detalning o'z o'rnida, tabiiy, mukammal va mutanosib ahamiyat kasb etganligiga e'tibor berish eng muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. **Adabiy til meyorlari** – dasturda so'zlarni buzib talaffuz qilmaslik, shevada gapirmaslik, nutqi davomida so'zlarning talaffuzi va ifodasiga e'tibor berish, **nutq madaniyati** – nutqining ravon bo'lishi, so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llash, adabiy til qoidalariga rioya etish, talaffuzi qiyin va notanish so'zlarni (atamalar, nomlar va boshqalar) to'g'ri talaffuz qilish va urg'uni to'g'ri qo'yish (diksiyasi) kabi talablar ham kiritildi. Eng muhim bo'lgan **milliy qadriyatlar** – xalqimizning tarixi, milliy an'analari, urf-odatlar, mentaliteti kabi millatimiz uchun qadrlil bo'lgan jihatlarga hurmatni shakllantirish, bugungi amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ib qilish hamda ichki va tashqi siyosatga xalqimiz ishonchini mustahkamlashga hissa qo'shish zarurligi ham alohida sahifalardan o'rin oldi.

Shu maqsadni amalga oshirish yo'lida ularga ikki oylik o'qish tashkil qilinib, seminar-trening, "Mahorat darslari" o'tildi. Ko'pchilikda teatr ta'limi, sahna nutqi ko'nikmalari bo'lmagani bois bu jarayonlar o'ta jiddiy tashkil qilindi va o'z navbatida yaxshi ko'mak vazifasini o'tadi. Har bir kanal ijodkorlari bilan til qoidalari,

adabiy til me'rlariga qat'iy amal qilish, efir madaniyati bo'yicha jiddiy suhbatlar ham o'tkazildi. Natija yomon bo'lmadi. Hozirgi davlat kanallarida yaxshi o'zgarishlar sezilyapti. Bu quvonarli hol albatatta.

“Hozirgi kunda efirda ishlayotgan diktor va boshlovchilarning ovozlari mikrofonga tushish, tushmasligini ko'proq televideniye va radio muxlislar aniq bilishadi. Bunda mikrofon orqali chiqayotgan ovoz nihoyatda go'zal va har bir tovush aniq ifodalanishi lozim. Tabiiyki, sheva unsurlarini qorishtirish, ayrim tovushlarni yamlash, so'zlarni chaynash kabi qusurlardan holi bo'lgan nutq, go'zal, yoqimli va eshitimlidir. Bularning hammasi tabiiylik mezon doirasida bo'lishi kerak. Mikrofon oldida ovozni atayin yo'g'onlashtirish yoki ingichkalashtirish tabiiy ovozni buzib qo'yadi” [10. B.22]. Shuning uchun hozirda faoliyat olib borayotgan diktorlar, boshlovchilar maxsus tuzilgan komissiya tomonidan suhbatdan o'tkazilib, kerakli maslahatlar berilishi rejalashtirildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, MTRK qoshida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi suxandon (diktor, boshlovchi)larning rivojlanishiga, ko'rsatuvlarning saviyasini ko'tarishga juda katta ko'mak berilishiga turtki bo'ldi. Mavjud muammolar aniqlanib, uni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda. Bugun o'zbek tilini davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilganini, kanal rahbarlari tomonidan boshlovchilarga, suxandonlarga qattiq talab qo'yilgani o'zining natijalarini bermoqda.

Takliflarga keladigan bo'lsak, telekanallarda namoyish etilayotgan serial rejissyorlari bilan jiddiy gaplashib, suhbat tarzida, do'stona fikr almashib olish zarur. Qo'pincha rejissyorlar, operatorlar serial olish jarayonida vaqtni tejash nuqtai nazardan tez ishlaydi-yu, ammo aktyorlar ijrosi, ekranda sahna nutqi, shevaga xos bo'lgan so'zlardan o'rnida foydalanish, adabiy til meyorlariga rioya qilish masalalari chetda qolib ketadi.

Televideniye boshlovchilari yoki suxandonlari avvallari o‘z tajribalarini radioda oshirganlar. Shu sabab bu tajribani hozirda ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

“Madaniyat va ma’rifat” telekanalida “G‘azal bo‘stoni” ko‘rsatuvini tiklash o‘ta muhim masala. Chunki yoshlarning ma’naviy shakllanishida, nutqining ravon bo‘lib o‘sishida ushbu ko‘rsatuvning ahamiyati katta.

“Yoshlar” telekanalida “Talabaman”, “Yoshlar shijoati” ko‘rsatuvlarining tomoshabinini yana ko‘paytirish uchun O‘zDSMIda sahnalashtirilayotgan diplom spektakllarini, suratga olingan qisqa metrajli filmlarni ham namoyish qilish ayni muddao. Bu tarixda sinalgan va yaxshi natijalar bergan. Masalan, buning natijasida hali aktyor bo‘lib yetishmagan yoshlar-talabalar o‘ynagan rollari orqali barcha teatr rahbarlari nazariga tushadi; institutga kelayotgan abituriyentlarda mas’uliyati ham oshadi; yosh tomoshabinlarda zamonaviy, klassik asarlar haqida ko‘proq bilimlarga ega bo‘ladi; nafaqat yoshlar, balki talabalarni ham ota-onalari, qarindosh-urug‘lari, sinfdoshlari kabi tomoshabinlari soni ko‘payib boradi.

Televideniye ko‘rsatuvlarining boshlovchilari va suxandonlarining nutqi ularning saviyasini oshirishga qaratilgan “Ustozlar maslahati” davra suhbatini tashkil etilsa a’lo ish bo‘lar edi. Faqat bu “Munosabat” ko‘rsatuvidan farqi bo‘lishi lozim. Bunda nafaqat boshlovchilar, suxandonlar, balki buyuk aktyorlar nutqi ham, adabiyga bo‘lgan hurmati ham yodga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. *Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.* –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020.
2. *O‘zbek tili izohli lug‘ati.* 2-tom. –Moskva: “Rus tili”, 1981.
3. *O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2025 yil 19 dekabrda o‘tkazilgan ilk majlisi bayonnomasi.*

4. Ushbu qisqartmalar xalqaro telekanallar hisoblanadi. 1. VVS – British Broadcasting Corporation – Britaniya teleradioeshittirish korporasiyasi. Buyuk Britaniyaning milliy jamoatchilik teleradioeshittirish tashkiloti (1922 yilda tashkil etilgan). 2. CNN - Cable News Network – «Kabelli yangiliklar tarmogʻi». Amerikadagi 24 soatlik yangiliklar telekanali (1980 yilda Ted Tyorner tomonidan tashkil etilgan). 3. Al Jazeera (Al-Jazira / Al-Djazira) arabcha: الجزيرة — «Orol». Qatarning xalqaro yangiliklar telekanali, 1996 yilda ishga tushirilgan. 4. NHK - Nippon Hōsō Kyōkai (日本放送協会) – «Yaponiya teleradioeshittirish korporasiyasi». Yaponiyaning milliy jamoatchilik teleradioeshittirish teleradioeshittirish tashkiloti (1926 yilda tashkil etilgan). 5. Euronews — Yevropa va butun dunyo mavzularini yorituvchi xalqaro axborot telekanali. Starti: Kanal 1 yanvar 1993 yilda Yevropa Efir Beruvchilar Ittifoqi tashabbusi bilan faoliyatini boshlagan. Bosh daftarxonasi va joyi: Fransiya, Lion shahrida. Qancha tilda efirga chiqadi: hozirgi kunda Euronews 10-dan ortiq tilda materiallar beradi, shu jumladan ingliz, fransuz, ispan, rus, nemis, italyan, arab, iqbol qilinayotgan turkiy tillar va h.k. Taʼsiri va auditoriyasi: Dunyo boʻyicha temir uzluksiz axborot berish bilan shugʻullanadi, 150 dan ortiq mamlakatlarda koʻrinadi.

5. Inomxoʻjayev S. Badiiy oʻqish asoslari. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1973.

6. Oʻsha manba.

7. Qarang: Abdumajidov Gʻ. “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonunga sharhlar. –Toshkent: “Adolat”, 1999.

8. Yoʻldoshev M. Silsila. –Toshkent: “Adib” nashriyoti, 2013.

9. Muhammedov M. Nigoh. –Toshkent: OʻzDSI, 2010.

10. Yusupov SH. Boshlovchilik –Toshkent: OʻzDSMI, 2014.

11. Xidirova R. Televideniya sanʼat mavzusining yoritilishi/ Sanʼat taʼlimi yilnomasi 4-jild. –Toshkent: OʻzDSI, 2009.

12. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalarining vujudga kelish asoslari/ *San'at ta'limi yilnomasi* 4-jild. –Toshkent: O'zDSI, 2009.

13. Vvedenskaya L.A. Slovar udareniy dlya diktorov radio i televideniY. –Moskva: Izdatelskiy sentr “MarT”, 2006.

Худойназарова Шахзода

Заведующая отделом Государственной академии хореографии Узбекистана, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

ПОЭЗИЯ НА ЯЗЫКЕ ТАХСА

Аннотация. В статье исследуются художественные особенности хореографических спектаклей о выдающихся узбекских поэтессах в постановке заслуженного деятеля искусств Узбекистана Юлдуз Исмамовой.

Ключевые слова: спектакль, драматургия, синтез, традиция, режиссёр, музыка, фольклор, этнография, персонаж, либретто.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Yulduz Ismatova sahnalashtirgan atoqli o'zbek shoiralari haqidagi xoreografik spektakllarning badiiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: spektakl, dramaturgiya, sintez, an'ana, rejissyor, musiqa, folklor, etnografiya, personaj, libretto.

Annotation. The article examines the artistic features of choreographic performances about outstanding Uzbek poetesses, directed by Honored Artist of Uzbekistan Yulduz Ismatova.

Key words: performance, dramaturgy, synthesis, tradition, director, music, folklore, ethnography, character, libretto.

Творчество заслуженного деятеля искусств Узбекистана Юлдуз Исмамовой занимает особое место в истории узбекского

тансёвального искусства. Поставленные ею на театральной и концертной сцене хореографические композиции и тансёвальные номера стали заметным событием в истории узбекского сценического искусства Узбекистана.

За период работы в Театре имени Мукими в качестве сначала тансовщицы, затем – актрисы, балетмейстера-постановщика, режиссера-постановщика, Юлдуз Исматова в совершенстве овладела особенностями соединения танса с музыкально-драматическим действием. Мечта создать “узбекский балет” увлекла её ещё в 1980-х годах. Но это должен был быть балет не в привычном понимании этого слова, а именно по-настоящему национальный балет. Творческие поиски Юлдуз Исматовой способствовали возникновению принципиально нового направления в истории хореографического искусства Узбекистана.

Создав и возглавив театр танса «Тановар», она сумела органически соединит “традиции национальной тансёвальной школы с классическим балетом” [1, с. 186]. В результате их синтеза возник ряд спектаклей, основанных на народном фольклорно – этнографическом творчестве, исторических событиях, творческой деятельности выдающихся представителей узбекского народа. В каждом из спектаклей творческий коллектив театра посредством тансёвальных движений и актёрского мастерства сумел передать весь мир внутренних переживаний и чувств героев.

Особое место в репертуаре театра занимали спектакли, посвященные женщинам Востока. Один из первых в творческой биографии театра танса “Тановар” является драматический балет “Надира”, поставленный в 1992 году. По своей форме и содержанию он был подлинно узбекским национальным балетом. В этом спектакле Юлдуз Исматова проявила себя не только как режиссёр-постановщик, но и как автор либретто. Одновременное возникновение музыки, либретто и

сценического воплощения способствует тому, что спектакль становится более впечатляющим и зрелищным.

Таким спектаклем стал балет “Надира”, ставший примером гармоничного содружества либреттиста-балетмейстера Юлдуз Исматовой и известного композитора Мустафы Бафоева. Одной из особенностей спектакля было то, что оригинальное, непривычное танцевальное действие сливалось со стихами, произнесёнными без музыкального фона. Музыка танса стала мелодичност и ритмика самой поэзии, а замедленные тансы приобрели особую пластичность. Как отмечает Л.Авдеева, “Тансовщицы часто “несут” позу – движутся только ноги – они замирают в позе смятении либо в позе мучительного раздумья, в позе трагического предчувствия либо в позе благостного умиротворения.

Танес героев выстроен в той же стилистике, дуэты героя и героин не касательны, это дуэты-диалоги, дуэты-вариации” [2, с. 45]. Судьба Надиры, великой поэтессы, создавшей при дворе кокандского хана своеобразную школу поэзии, организовавшей праздники поэзии потрясала своей драматичностью.

В спектакле было три основных персонажа – две великие узбекские поэтессы Надира и Увайси, жившие в Коканде в первой половине XIX века, а также Омар-хан. Юлдуз Исматова сумела воплотит в этом балете яркий, запоминающийся образ выдающейся поэтессы Нодир, рассказать средствами хореографической выразительности о её трагической судьбе. По сюжету, Надира знала, чувствовала, что погибнет и только Увайси, незаурядная поэтесса, могла отвлечь её от горьких раздумий.

Не менее важную роль играли тансовщицы, исполнявшие массовые тансы, а также народные комедианты – масхарабозы. Их пластические, мимические и ритмические действия отражали душевное настроение и внутренние переживания героев, насыщали хореографический спектакль эмоциональным

содержанием и драматизмом. “Движения тансовщиц и масхарабозов заполняли собой всё пространство сцены, они служили своеобразным живым фоном, создавая разнообразные пластические и хореографические комбинации, плавные перестроения, соответствующие динамике и драматизму событий, изображаемых главными героями” [3, с. 219].

Спектакль «Зебуннисо», поставленный в 1998 году, (либретто и хореография Юлдуз Исматовой, постановка Н.Юсуповой) был посвящен трагической судьбе великой узбекской поэтессы, жившей в XVII веке. Основной темой поэтического творчества Зебуннисы является положение восточной женщины, её внутренние переживания и душевное благородство.

Описываемые в спектакле события происходят в саду могольского шаха Аурангзеба. Принсесса Зебуннисо читает подругам свои поэтические сочинения – газели. Они слушают её, как замороженные, некоторые от восторга кружатся в тансе. Неожиданно одна из служанок приносит поэтессе письмо от её возлюбленного Акил-хана, в котором он просил о свидании.

Когда Зебуннисо и Акил-хан встречаются и объясняются в любви, неожиданно появляется её отец – шах Аурангзеб. Он приказывает отправить Акил-хана в тюрьму. Зебуннисо бросается в ноги к отцу и просит о помиловании возлюбленного, но жестокий шах отказывает дочери. Роль Зебуннисо исполняла Наима Юсупова, Акил-хана – Эркин Каххаров, шаха Аурангзеба – Таджиддин Абдувахидов.

Творческий коллектив театра «Тановар» посредством танцевальных движений и пластики прекрасно передал все внутренние переживания и чувства героев, их отношения друг к другу. Это было в центре внимания и создателей спектакля, и тансоров. Поэтому постановки состояли не только из танцевальных номеров, но и из связывающих их мизансцен, передающих события, настроения, состояние души героев, что

и придавало спектаклям необычный колорит, сделало их более зрелищными и интересными.

Театр танса «Тановар», открывший, как мы отмечали выше, новую страницу в истории узбекского хореографического искусства, завоевал любовь миллионов зрителей. Творческий коллектив под руководством Ю.Исмаевой от простого фольклорно-этнографического ансамбля вырос до большого театра с собственным арсеналом тансевальных и сценических приёмов, мимики и пластики движений. Тематика тансевальных спектаклей была непосредственно связана с историей родного края – знаменательными историческими событиями, жизнью и творчеством выдающихся личностей, народными традициями и обрядами, родившимися в глубине веков.

Традиции создания театра танса, заложенные Юлдуз Исмаевой, продолжили её ученицы и последовательницы, которые в наши дни осуществляют постановки новых концертных программ, используя творческий опыт своей наставницы.

Использованной литературы:

1.Авдеева Л.А. *Из истории узбекской национальной хореографии.* – Ташкент: Узбекракс, 2001. – .288 с.

2.Авдеева Л.А., Кадыров М.Х., Исмаева Ю.А. *Тансы «Тановар».* – Ташкент: Изд-во им. Г.Гуляма, 2002. – 96 с.

3.Кадыров М.Х. *Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана.* – Ташкент: Санъат, 2010. – 320 с.

Yuldashev Izzat Ikramovich

*O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**O‘ZBEK MUSIQIY FOLKLORIDA NUTQIY
IFODALARNING
KUY-OHANG TUZILMALARIGA UYG‘UNLASHUVI**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek musiqiy folkloriga xos nutqiy ifodalarning, ohangdor she’r va so‘z-talaffuzning kuy-ohang tuzilmalariga uyg‘unlashuvi asoslab berilgan bo‘lib, unda kuy-ohanglar va nutqiy ifodalarning badiiy-estetik yaxlitlashuvi, marosimiy, ritual va ijro holatiga ko‘ra sinkretizatsion va estetizatsion namoyon bo‘lishi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiq, ohang, nutq, so‘z.*

Аннотация. *В данной статье обосновывается интеграция речевых средств, мелодической поэзии и словопроизношения в мелодические структуры, характерные для узбекского музыкального фольклора, раскрывается художественно-эстетическая интеграция мелодий и речевых средств, их синкретизация и эстетизация в зависимости от обрядовой, ритуальной и исполнительской ситуации.*

Ключевые слова: *музыка, мелодия, речь, слово.*

Annotation. *This article substantiates the integration of speech expressions, melodic poetry and word-pronunciation into melodic structures, typical of Uzbek musical folklore, and reveals the artistic and aesthetic integration of melodies and speech expressions, their syncretization and aestheticization depending on the ceremonial, ritual and performance situation.*

Keywords: *music, melody, speech, word.*

Qadimgi davr shomon va baxshilari rituallar, marosimlar va yig‘inlarga xos aytiladigan so‘zlarni kuy-ohanglar asosida

ifodalashgan. Baxshilar qadimdan jo'shqin kayfiyatga xos nutq-talaffuzni "nutqdosh" kuy-ohanglarga, qayg'uli mazmundagi so'zlarni "yig'i" ohanglarga moslashtirib kelishgan. Hozirgi baxshilar amaliyotidan qadimgi davr baxshilari marosimining sinkretizatsion holati orasida katta farqlar mavjud. Ammo, aytish kerakki, hozirgi baxshilarning epos ijodida musiqiy ohang tuzilmalarining asar mazmunidagi holat bilan bog'liqligi so'z matnlarining kuy-ohang tuzilmalari bilan yaxlitlanishini yuzaga keltiradi. Bu holat baxshichilik san'atiga xos arxaik belgilarining bir shakldan boshqa shaklga o'tib kelganini, metafora darajasida saqlanib kelinganini, ohang va so'z-talaffuzlar bilan mustahkamlanganini ifodalaydi.

Qayd etish kerakki, insonning qayg'uli, tushkun kayfiyatini ifodalaydigan so'z va nutqiy ifodalar "yig'i", "yor-yor", "quyi oqim" nomli kuy-ohang tuzilmalarida ijro etilgan. Musiqashunoslar tadqiqoticha, eng qadimgi insonlarning kuy hamda aytim-ohanglari ketma-ketligi quyi oqim harakatiga asoslanadi [1.64-65 b; 3.33-34 b; 2. 10-22 b.]. O.Ibrohimov ta'biricha, quyi oqimli kuy-ohanglar turli xalqlarning an'anaviy tarzda ijro etib kelinayotgan marosim musiqa namunalarida o'z kuchini saqlagan holda, ular eng quyida joylashgan tayanch tovushiga nisbatan ma'lum balandlikdan (tersiya, kvarta, kvinta va hokazo yuqori pog'onalardan) boshlanib, quyilikka qarab harakatlanadi [3.33-33 b.]. O'zbek xalq musiqasida ham mungli "yig'i" (quyi oqim) ohanglarning qayg'uli, g'amnok, izritobli mazmundagi so'z-ifodalari, nutqiy-intonatsion belgilari uyg'unlashib kelgan. Tadqiqotchilar ta'kidicha, insondagi tabiiy yig'iga xos g'amnok ohanglarning erkin va badihaviy tarzda aytilishi undagi kuy-ohanglar quyi sirg'anma harakatlarga muvofiqligini ifodalaydi [1.66-80 b; 3.32-33 b.]. Ta'kidlash lozimki, o'zbek etnofolkloriga ko'ra, yig'i ohang tuzilmalarini so'z va musiqa uyg'unligidagi badihaviy ijro etish asosida nutqiy-ifodaviy imkoniyatlar kengayishi yuzaga keladi. Bunday holatni hozirgi baxshichilik, yallachilik va xalfachilik san'atida kuzatish mumkin.

O‘zbek xalq aytimlarining “yor-yor” ohanglari ham quyi oqim harakatlari sifatida namoyon bo‘lib, ko‘pincha ularning so‘zlari bilan kuy-ohanglari uyg‘unligi yig‘i holati bo‘layotganiga ishora etadi [5.101 b.].

Etnomusiqashunoslar tadqiqotlaricha, inson tomonidan so‘z, talaffuz ifoda etilishining musiqadagi in‘ikosi bo‘lib kelgan katta sekunda nisbati xuddi shu miqdorda yana bir pog‘ona ko‘tarilib, ayni katta sekunda yana bir katta sekunda (nutq-talaffuz) orqali unga kelib qo‘shilishi natijasida nutqdosh yoki so‘zdosh ohanglar yuzaga kelar ekan [4.15 b; 5.107 b.]. Nutqdosh kuy-ohang tuzilmalari xalq ijodi bilan bog‘liq tomoshaviy-nutqiy faoliyat bilan muvofiqlashadi. Ta’kidlash lozimki, baxshilar, xalfalar, laparchi va yallachilar folkloriy aytimlarni aytish paytida nutqdosh ohanglar ijrosidan keyin biroz musiqadan chekinish qilib, bironta xazilnamo she’r yoki biror so‘zlarni badihaviy tarzda nutqiy-ifodaviy mahoratlarini amalga oshirishgan. O‘zbek xalq aytimlarida nutqdosh ohanglar katta sekunda bilan birga kelgan holda, katta tersiya hajmli major tuzugi uyg‘unlashuvi orqali kvarta va kvinta doirasida amal qiladi [4.15 b; 5.107-109 b.]. Alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek musiqiy folklorida nutqdosh ohanglar so‘z badiiyyatini kuchaytirishga ta’sir etishi sababli she’r va nasrni aytilishida nutqiy ifodalar nutqdosh ohang tuzilmalariga uyg‘unlashuvi amal qiladi. Buning natijasida, xalq tomosha san’atida tinglovchi va tomoshabinlarga badiiy-estetik ta’sirchanlik kuchayadi, unikallik ta’minlanadi.

Xalq o‘yinlarida, sayillarida, mehnat jarayonlarida insonning o‘yinqaroq, sho‘x-shodon, ko‘tarinki kayfiyati va so‘z-talaffuzi bir-biriga uyg‘unlashib borgani (sinkretlashgani) sababli, xalq aytim hamda kuylarida nutqdosh ohanglar yuzaga chiqib kelavergan. Xalq o‘yinlarida, sayillarida, mehnat jarayonlarida insonning o‘yinqaroq, sho‘x-shodon, ko‘tarinki kayfiyati va so‘z-talaffuzi bir-biriga uyg‘unlashib borgani (sinkretlashgani) sababli, xalq aytim hamda kuylarida nutqdosh ohanglar yuzaga chiqib kelavergan. Qayd etish kerakki, o‘zbek etnomusiqiy madaniyatida nutqdosh ohanglar

arxetip va etnoartefakt bo'lib xalq aytim hamda kuylarida yaxshi saqlanib qolingan. Xalq aytimlaridagi kuy-ohanglarning badiiy-estetik yaxlitligini ta'minlanishida nutqdosh ohanglarning o'rni o'ziga xosdir.

Etnomusiqashunoslar ta'kidicha, insoniy ichki his-tuyg'ularning, shaxsiy kechinmalarning samimiy ifodalanishi orqali, nutqdosh hamda mungli quyi oqimdagi ohanglar uyg'unligi, ya'ni "dil yozdi" (qorishma) ohanglar yuzaga kelgan [4.16 b; 5.111 b.]. Eng qadimgi davrdan to ayni zamonga qadar insonlarning o'yinqaroq, sho'xchan hamda ko'tarinki kayfiyati bilan ularning g'amnok va yig'iga yo'g'rilgan kechinma va holatlari birin-ketin o'rin almashib kelishi tufayli quyi oqim va nutq-talaffuz ohanglar uyg'unlashib ketishi amal qilib kelingan.

Qorishma ohanglarda insonning ichki dunyosi g'amginligi, sho'x-shodon va ko'tarinki kayfiyati musiqiy-badiiy ifodalar asosida tizimga, tartib hamda yaxlitlikka keltirilgan. Marosimlardagi kayfiyatdan, ruhiy-ma'naviy holatdan ijodkorlar ta'sirlanishadi, ichidan o'tkazishadi. Marosimiy aytimlarning marosim kayfiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi kuy-ohanglarning badiiy-estetik tarzda uyg'unlashib kelishini ta'minlaydi. O'zbek xalq aytimlaridagi so'zlarning kuy-ohanglarga ifodaviy hamda semantik jihatdan uyg'unlashib kelishi kuzatiladi. Shu sababli ham, xalq aytimlaridagi kuy-ohang, ritm va so'zlar yaxlitligi marosimning kayfiyatidan, ruhiy holatidan ajralmasdan keladi.

Ta'kidlash lozimki, quyi (yig'i), nutqdosh (so'zdosh) va qorishma ohanglar hozirda estrada musiqa san'atida ko'p qo'llanilayotgani sababli tomoshalarda nutqiy ta'sirchanlikni oshirishda ushbu ohang tuzilmalariga tayanib badihaviy tarzda amalga oshirish mumkin. Bu borada, musiqiy folklor va xalq musiqa ijodi namunalaridan andoza sifatida keng foydalanish lozim. Ayniqsa, 1990-yillar turkiy xalqlar estrada san'atida kuy-ohanglar yangrayotgan vaqtda erkin va badihaviy nutqiy-ifodaviy tarzda biror g'oya va maqsadni yetkazib berishi kuzatilib kelingan. Qadimdan

beri turkiy xalqlarda bu jihatlar folklor ijrochiligida, etnomusiqiy ijodida mustahkam o‘rin olib kelgan.

San’atshunoslik fanlari doktori, professor O.Ibrohimov “Kuy-ohang va she’r ritmlari umumiy bo‘lgan sinkretik aytimlar” – deya ta’kidlagan edi [4.16 b.]. O‘zbek etnomusiqiy tafakkurida ritm – she’r bilan kuy-ohanglar va so‘z-ifodalar yaxlitligini ta’minlaydi, ammo she’r va so‘z-ifodalar bo‘g‘inlariga ham tayanadi. So‘z yoki matnning ritmda tushishi so‘z bo‘g‘inlarining kuy-ohang tuzilmalariga qay darajada uyg‘unlashib kelishiga ham bog‘liq. Usul va ritm tomoshabin va tinglovchiga kuy-ohanglarning badiiy-estetik ta’sirini ham ta’minlaydi. Xalq aytimlaridagi ritm so‘z-bo‘g‘inlarning eshitilishida ohanglar ketma-ketligi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham, xalq aytimlarida ritmning ifodalanilishi so‘z-bo‘g‘in va ohanglar uyg‘unligiga asoslanishi bilan amal qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, nutq madaniyatini rivojlantirishda o‘zbek xalq musiqa ijodidagi kuy-ohang tuzilmalarining so‘z-ifodalar, nutqiy-badiiy xususiyatlar bilan mutanosiblik qoliplarini jiddiy ilmiy-nazariy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda, dolzarblashmoqda. Ta’kidlash kerakki, har qanday xalq o‘z nutqiy ifodaviylik texnologiyalarini rivojlantirishda nafaqat adabiyot, tilshunoslik, teatr va kino san’ati badiiy-estetik texnologiyalaridan foydalanish, balki musiqa san’ati yo‘nalishlari (musiqiy folklor, etnomusiqqa) tajribalaridan ham keng foydalanish lozim. Milliy estrada va boshqa badiiy-estetik tomoshalarda boshlovchi, xonanda va turli san’at ustalari o‘zbekona nutqiy madaniyatni namoyon etishida folklor va xalq tomosha san’ati ustalari ijod namunalari, tajriba va bilim-ko‘nikmalaridan foydalanishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Алексеев Э. Раннефольклорное интонирование. Монография. – Москва: Советский композитор, 1986. – С. 64-65;*

2. Грубер Р. Всеобщая история музыки. Част 1. Монография. – Москва: Музгиз, 1960. – С. 10-22;

3. Иброҳимов О. Мақомлар семантикаси: Сан. фан. док. дисс. – Тошкент: ЎзБА СИТИ, 1996. – 33-34 betlar;

4. Иброҳимов О. А. Ўзбек халқ мусиқа ижоди (методик қўлланма). I қисм. – Тошкент: Республика ўқув-методика маркази, 1994. – 15 б.;

5. Тоштемуров Н.Б. Жиззах вилояти ўзбек халқ қўшиқчилиги: Сан. фан. ном. дисс. – Тошкент: СИТИ, 1993. – 101 б.

Zaretdinov Karamatdin

O'zDSMI Nukus filiali dotsenti

AXBOROT DASTURLARIDA OVOZLI NUTQNI BOSHQARISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada televizion va radioeshittirishlarda ovozli nutqni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi. Nutq texnikasi, diktsiya, intonatsiya, tembr, pauza va emotsional ifoda kabi elementlarning media orqali axborot yetkazishda tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, professional boshlovchilarning ovozli nutqni boshqarish bo'yicha qo'llaydigan usullari va texnologiyalarning tahlili keltiriladi.

Kalit so'zlar: Ovozli nutq, televividenie, texnologiya, radio, diksiya, intonatsiya, kommunikatsiya, jurnalistika, boshlovchilik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты управления голосовой речью в телевизионных и радиопередачах. Освещается роль таких элементов, как техника речи, диксия, интонация, тембр, пауза и эмоциональное выражение в передаче информации через средства массовой информации. Также представлен анализ методов и технологий, используемых профессиональными ведущими для управления голосовой речью.

Ключевые слова: *Голосовая речь, телевидение, технологии, радио, дикция, интонация, коммуникация, журналистика, вещание.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of voice control in television and radio broadcasts. The role of elements such as speech technique, diction, intonation, timbre, pause, and emotional expression in conveying information through mass media is illuminated. An analysis of the methods and technologies used by professional presenters to control vocal speech is also presented*

Keywords: *Voice speech, television, technology, radio, diction, intonation, communication, journalism, broadcasting.*

XXI asr mo'jizasi, televideniye va radioning hayotimizda tutgan o'rni beqiyos. Ommaviy axborot vositalari ichida gazeta, jurnal va boshqa axborot turlariga nisbatan juda katta mavqega ega. Unga "To'rtinchi hokimiyat" deb nisbat berilishi ham bejiz emas. Televideniye va radio juda qisqa fursat ichida boshqa san'at turlariga qaraganda texnik imkoniyatlari jihatidan, ijodiy izlanishlar ko'lam jihatidan juda katta keng, ommaviy, tezkor va jonli san'at vositasi ekanligini namoyish etdi. Televideniye va radio hayot muommalari yechimini topishda, xalq dardini oshkoro etishda, inson qalbi va tafakkurining kamol topishida yangidan yangi uslub ifoda vositalarini o'zida kashf etdi. Bugungi axborot texnologiyalari asrida ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Xususan, yuqorida aytib o'tganimizdek televideniye va radio orqali aholiga tez, aniq va ta'sirli tarzda ma'lumot yetkazish zamonaviy jamiyat ehtiyojiga aylangan. Ular orqali aholiga yangiliklar, ma'lumotlar, madaniy va ma'rifiy dasturlar yetkaziladi. Bu jarayonda ovoz va nutq asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, radio efirlarida vizual obraz mavjud emasligi sababli tinglovchiga faqatgina ovoz orqali ta'sir etish mumkin. Shuning uchun ham jurnalist, boshlovchi yoki diktorning ovozi, talaffuzi, nutq ohangi,

tezligi va boshqa nutqiy elementlari eng muhim omillar qatoriga kiradi. Bunda eng muhim vositalardan biri — ovozli nutqdir.

Ovozli nutq — bu inson nutqining ogʻzaki shakli boʻlib, u eshitiladigan va efir orqali tinglovchiga yetkaziladigan asosiy kommunikatsion vositadir. Shu sababli, televideniye va radioda ovozli nutqni boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida eʼtiborni talab qiladi.

Ovozli nutqni boshqarish — bu insonning oʻz nutqining turli komponentlarini (intonatsiya, diktsiya, pauza, temp, urgʻu, ovoz balandligi) ongli ravishda nazorat qilish jarayonidir. OAV xodimi, ayniqsa, efirga chiqayotgan shaxs har doim oʻz ovozin boshqara olishi, uni kerakli tarzda moslashtira olishi zarur. Ovozli nutq tinglovchiga axborotni nafaqat yetkazadi, balki uni tushunishga, anglashga va muhim nuqtalarga eʼtibor qaratishga yordam beradi.

Radioda obraz faqat ovoz orqali yaratiladi. Shuning uchun ovozga, ohangga, ritmga, pauzalarga, talaffuzga alohida eʼtibor qaratiladi. Televideniya esa vizual obraz mavjud boʻlgani sababli nutq va mimika uygʻun boʻlishi kerak. Har ikki holatda ham ovoz — asosiy axborot tashuvchi vosita hisoblanadi. Televizion va radio efirda nutq quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- **Diktsiya:** Soʻzlarning toʻgʻri va aniq talaffuz qilinishi. Ayniqsa radio efirda bu muhim, chunki tinglovchi faqat eshitish orqali axborotni qabul qiladi.

- **Intonatsiya:** Gapdagi ohang, ohangdorlik. Emotsional taʼsir intonatsiya orqali kuchayadi.

- **Tembr:** Ovozni eshitishda hosil boʻladigan xususiy tovush ohangi. Har bir boshlovchining oʻziga xos tembr uni boshqalardan ajratib turadi.

- **Pauza:** Nutq davomida maʼlumotni singdirish yoki urgʻu berish uchun ishlatiladigan tanaffuslar.

- **Tezlik:** Nutqning tezligi tinglovchiga qulay boʻlishi kerak. Juda tez yoki juda sekin nutq tinglovchini charchatadi.

Hozirgi kunda ovozli nutqni boshqarishda turli texnik va dasturiy vositalar qo'llaniladi:

1. Mikrofon texnologiyasi: Ovozning sifatli yozib olinishi va uzatilishini ta'minlaydi.

2. Ovoz yozish dasturlari (Adobe Audition, Audacity va b.): Ovoz tahriri va sozlanmasi uchun ishlatiladi.

3. Ovozli analiz vositalari: Tembr, ton, tezlik va boshqa ko'rsatkichlarni baholashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, televideniye va radioda ovozli nutqni boshqarish — bu maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan kasbiy mahoratdir. Professional jurnalist yoki boshlovchi ovozi orqali tinglovchining e'tiborini torta oladi, u bilan muloqot o'rnatadi, fikrni ravon va tushunarli yetkazadi. Bu esa nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki axborotni to'g'ri yetkazish, jamiyat bilan sog'lom axborot aloqasini yo'lga qo'yish uchun ham muhimdir. Shuning uchun, OAV xodimlari nutq ustida doimiy ishlashi, ovoz imkoniyatlarini to'g'ri boshqarishni o'rganishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Muhammedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayeva. *Televideniye asoslari.* - Toshkent: 2009

2. Axmedova M. R. *Jurnalist nutq madaniyati.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

3. Tursunov B. T. *Ovoz ustida ishlash asoslari.* – Toshkent: O'qituvchi, 2009

4. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.

5. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.

6. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM "ALPOMISH"*

//EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – C. 116-119.

7. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.

8. Jabborov B. I. O. G. L. Qo 'g 'irchoq teatrida sahna nutqining o 'ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.

9. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

10. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O 'RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

11. Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

12. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

IV SHO‘BA.
SAN‘AT VA MADANIYAT SOHASIDA MALAKALI
KADRLAR TAYYORLASHDA SAHNA NUTQI
METODIKASIDAGI YANGI IZLANISHLAR,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Imomova Shahribonu

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniyat
meros ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*

O‘ZBEK TEATR SAHNASIDA OILAVIY QADRIYATLAR
TALQINI

Annotatsiya. Maqola teatr sahnasida oilaviy qadriyatlarning nazariy o‘rganilishi mavzusida bo‘lib, teatrlarimizda sahnalashtirilgan “Checha”, “Jaydari kelin” kabi spektakllar misolida yoritiladi. O‘zbek teatr sahnasida milliy urf-odatlar, qadriyatlar, a‘analar qay tariqa talqin etilayotgani maqolada atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, sahna, spektakl, aktyor, obraz, milliy qadriyatlar, an‘ana, urf-odat, milliy kuy-qo‘shiqlar.

Аннотация. Статья посвящена теоретическому исследованию семейных ценностей на театральной сцене и проиллюстрирована на примере спектаклей «Чеча» и «Жайдари келин» поставленных в наших театрах. Рассматривается театральная интерпретация национальных обычаев, ценностей и традиций на узбекской театральной сцене.

Ключевые слова: семья, сцена, пьеса, актёр, образ, национальные ценности, традиция, обычай, национальные мелодии, песни

Annotation. The article is related to the theoretical study of family values on the stage of the theater and is illustrated by examples of such plays as “Checha”, “Jaydari kelin” staged in our

theaters. On the stage of the Uzbek theater they talk about the scenic interpretation of national customs, values and traditions.

Key words: *family, stage, performance, actor, image, national values, tradition, custom, national folk songs.*

Oilaviy munosabatlar – ota-onalik, farzand tarbiyasi jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki jamiyat millionlab oilalarni birlashtiradi. Ilmiy-nazariy talqinlarga ko‘ra, oila bu — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh bo‘lib, uning a‘zolari ro‘zg‘or birligi, bir-biriga ko‘rsatadigan o‘zaro yordami va ma‘naviy mas‘uliyati bilan bitta makon va muhitda birikadi. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi nimada? Azaliy, dunyoviy, diniy haqiqat shundaki, inson zoti o‘z naslini davom ettirishi, farzand ko‘rishi, ularni tarbiyalashi, kelajakka munosib avlod qilib voyaga yetkazishi zarur. Garchand oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy g‘oyalar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi.

Oilaviy munosabatlar badiiy yechimlarida asosan, milliy qadriyatlar va diniy-madaniy mezonlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sabr, tavoze, mas‘uliyat, itoatgo‘ylik, ota-onaga hurmat, kichikka izzat, mehr-oqibat, kechirimlilik tushunchalari oilaviy muhitning asosiy ma‘naviy negizini tashkil etadi. Bir jihatdan qaralganda, dramaturg oilani nafaqat sosiologik birlik, balki ruhiy maktab sifatida tasvirlaydi. U sahna orqali inson qalbiga murojat qiladi, tomoshabinni chuqur va falsafiy fikrlashga undaydi.

Oilaviy munosabatlar globallashgan jamiyatda yana ham murakkablashib bormoqda. Demak, bu o‘zbek teatr san’atining eng dolzarb va chuqur mavzularidan biri bo‘lgan oilaviy munosabatlarda nafaqat mavjud muammolar yoritiladi, balki badiiy, ma‘naviy va psixologik yechim ham taklif qilinishi kerak. Dramatik asarlar oilaviy qadriyatlarni qadrlash, bir-biriga nisbatan sadoqat, hurmat ko‘rsatish, bag‘rikenglik va vijdon mezonlariga amal qilishga chaqiradi. Oila mavzusi dramaturgiyada shunchaki voqea emas,

balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy holatini ko'rsatib beruvchi oynadir. Obrazlar kurashi orqali hayotning qaysi yo'l bilan barqaror va osoyishta bo'lishi mumkinligini ko'rsatuvchi badiiy harita bo'lib xizmat qiladi.

Spektaklda Checha chanqovuz chalarkan, sozga qo'shilib, o'zi ham nola qilayotgandek, ko'zlarida yosh qalqqandek ko'rinadi. Yoshlar o'rtasida mehr- oqibat tuyg'ulari yemirilib borayotganini ko'rgan Checha buning oldini olishga qat'iy kirishadi. Jiyani Jumavoy shaharda faqat o'z qobig'iga o'ralib, shaxsiy tashvishlariga ko'milib yashayotganni ko'rgan Checha unga qarata: "O'z tilingni, millatingni, diningni unutsang, shuytib ketasan", degangapi orqali butun xalqqa qarata murojaat qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, Checha spektaklda ilk bor paydo bo'lishidan to sahnani tark etishiga qadar tomoshabinni o'z olamiga olib kiradi. Aktrisa o'z qahramoni ichki dunyosini yana ham boyitish maqsadida imo-ishora, so'zlash ohangini aniq-tiniq ijro etishga muvaffaq bo'lgan.

Chaqaloq tug'ilganida aytiladigan milliy qo'shiq bilan spektakl boshlanadi. Voqealar oilaviy qadriyatlar, urf-odatlarini o'zida jamlagan sahna ko'rinishlarida namoyan bo'la boradi.

Chechaning Jumavoyga bergan tanbehlari, ota-bobolarini eslatib, kimligini anglatishi tom ma'nodagi o'zbekona qadriyatdir. Sahna asarida "Yo'l bo'lsin", "Omon yor" kabi xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanilgan.

Bu kabi milliyligimiz aks etgan sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasida ko'plab topiladi va ularning aksariyati tomoshabin ma'naviy mulkiga aylanib ulgurdi. Qalbdan qalbga yetib boruvchi ushbu asarlari hech bir muxlisni befarq qoldirmaydi, unda ajib taassurot uyg'otadi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan N.Abbosxonning "Jaydari kelin" komediyasi ham oilaviy munosabatlar talqiniga bag'ishlangan. Pyesa aslida "Bog'" deb nomlangan. Teatr ijodiy jamoasi uni "Jaydari kelin" nomi bilan sahnalashtirishga qaror qildi. Jaydari kelin

o‘zi kim, degan savol tug‘iladi. Soddagina, mehnatkash, samimiy bir dehqon qizi. Asarda ko‘tarilgan masala oddiy: ona kenja o‘g‘lini uylantirmoqchi. Qanaqasiga deng? Dehqon qizga, g‘irt jaydarisiga. Boshqa o‘g‘illari o‘qimishli qizga uylanib, alohida chiqib ketgan ulardan umidi yo‘q. Uy-ro‘zg‘or, bog‘-rog‘, hovliga qarash ona zimmasida. Kuchdan qolayotgan onaizorga bu holat malollik tug‘dirishi tabiiy. Unga uyim-joyim deydigan, qo‘li kosov, sochi supurgi kelin kerak. Biroq aspirant o‘g‘li bunaqa qizga rozi bo‘lmaydi. Ammo ona bo‘sh kelmasdi, qaysarlik qilib, “o‘qimagan” qizga uylanasan, deb qat‘iy talab qo‘yadi, hattoki meni aytganim bo‘lmasa, “oq qilaman” deyishgacha boradi. Bu gapdan so‘ng o‘g‘li Baxtiyor ko‘nishga majbur bo‘ladi. O‘g‘il uylanadi. Ana tomosha, mana tomosha, kelin xurрак otarkan! Butun oila a‘zolarining tinchini buzadigan holat! Ammo qaynona uning tarafini oladi. O‘g‘il bu qiz bilan yashamayman deb, har kuni janjal qiladi, xotinini uyiga haydab solgudek vajohatga kiradi. Biroq Mehrida ham g‘urur, or bor ekan! Qo‘pol ovozi va xatti-harakatlari bilan chiqqan qizning uyiga qaytishi isnod ekanligini aytadi. Bu bilan dramaturg o‘zbek qizlarining ota-onasi sha‘ni, obro‘yi o‘z g‘ururidan ancha ustun turishini ifodalab bera olgan. Mehri nima qilsa hamki, eriga yoqmaydi. Chunki, Baxtiyor o‘qimishli, nozikta‘b, madaniyatli qizlar bilan muloqot qilib o‘rgangan, xotinini ular bilan solishtiradi. Ammo Mehri erini yoqtirib qoladi. Eri uni uydan necha bor haydab chiqmoqchi bo‘lsa-da, qizning fikri o‘zgarmaydi. Baxtiyor “Ket, teng-tengi bilan, sen ham o‘zinga mosini top”, deganida, Mehrining dili qattiq ozor chekadi va tugunchasini ko‘tarib yo‘lga chiqadi. Sovchilikka borgan tog‘asi, opasining qiyin-qistovga olishi bilan kelinni qaytarib keladi. Bundan kuyov bexabar. Qaynona rosa bosh qotiradi: qanday qilib kelinini o‘g‘liga yoqadigan qilsa bo‘ladi? U kelinni o‘g‘li xohlagandek nozik ohangda gapirigai, chiroyli yurishga o‘rgatadi. Maqsad oilani saqlab qolish, o‘g‘li va kelini o‘rtasida mehr-muhabbat rishtasini tiklash. Qaynona bunga jiddiy kirishadi. U har kuni kelini bilan mashq qiladi. Kelin ham qo‘ni-

qo'shni, ota-onasi oldida yuzi shuvut bo'lib yana uyiga qaytib borishni xohlamagani va erini yaxshi ko'rgani uchun ham qaynonasining har bir sabog'ini erinmay o'zlashtiradi.

Asarda har bir tasvir hajv, kulguli xatti-harakatlar orqali ifodalanadi. Biroq bu kulguning ostida dunyocha mazmun, ulkan badiiy g'oya mujassam. Ayniqsa, uchinchi shaxs – qaynona va qaynota aralashuvi bilan ko'plab oilalar buzilib ketayotgan bir paytda, dramaturg ko'targan mavzu har jihatdan dolzarb hisoblanadi. Asarda bosh qahramoni – Mehri to'pori, o'qimagan, dehqon qiz bo'lsa ham, oilaning muqaddasligini yaxshi angelaydi. Bu esa yillab ilm bilan shug'ullangan, fan doktori, hatto professor bo'la turib ham oilaning u singari qadrlay olmagan yoshlar, xoh u qiz bo'lsin, xohi yigit bo'lsin, har jihatdan o'rnakdir. Fikrimiz isboti – dramaturg yaratgan Baxtiyor hamda Mehri obrazlari emasmi? Baxtiyor ilmiy yigit bo'la turib, o'z oilasi buzilishidan zarracha tashvish chekmaydi, xotini didiga mos emasligini aytib, unga past nazar bilan qaraydi, ayolidan osongina qutulmoqchi bo'ladi. Ko'rinadiki, u ota-onasini ham mensimaydi, nikohning muqaddas ekanligini anglamaydi.

Pyesa mavzusi o'zbek oilasida kelinning o'rni, yangi muhitga moslashish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. An'anaga ko'ra, kelin kamtar, itoatkor va uy yumushlarini eplaydigan inson bo'lishi kerak. Biroq, "Jaydari kelin" obrazida tasvirlangan ayol bunga zid sifat egasi bo'lib, o'z fikrini ochiq bildiradi, erkin va mustaqil shaxs sifatida namoyon gavdalanadi. Pyesada avlodlar o'rtasidagi qarashlar farqi yaqqol ko'rinib turadi, bu azal-azaldan dunyoning barcha davlatlarida kuzatiladigan hodisa hisoblanadi.

Asar kompozitsiyasi an'anaviy tuzilishda bo'lib, voqealar zanjiri mantiqiy tarzda rivojlanadi. Dastlab asar qahramonlari bilan tanishsak, keyin ularning oilaviy muhitiga kirib boramiz. So'ngra kelin obrazining "jaydari" deb atalishiga sabab bo'luvchi holatlar yuzaga chiqadi. Oila a'zolari va kelin o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bu voqealar rivojlanib, o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi. Pyesaning yakuniy qismida muallif jamiyatning

qadriyatlarga bo'lgan munosabatini aks ettirib, muammoga yechim izlaydi.

Asarni tomosha qilgan muxlislar albatta, o'z oilaviy muhitini spektakl voqeligi bilan qiyoslaydi. Oila, urf-odatlar va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni topish lozim, degan xulosa paydo bo'ladi. Ushbu pyesa orqali teatr san'atida milliy qadriyatlar qanday o'zgarayotganini va zamonaviy talqinda qanday namoyon bo'layotganini chuqur anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b;
2. Yusupov E. *Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati.* – T.: ToshDU, 1994; *Mustaqillik va ma'naviyat.* – T.: O'zbekiston, 2001. – 175 b.
3. "Teatr" adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnalining 2021 yil, 4-soni.
4. Yakubov B. *Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991-2016 yy.)* – Toshkent: 2019.
5. www.youtube.com/@ozbekteatrlari ijtimoiy tarmog'i.

Jumanov Rinat

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti
Nókis filialı "Aktyorlıq sheberligi" kafedrası 2-kurs magistrantı*

QARAQALPAQ TILINDE DAWISLI SESLERDİŇ ARTIKULYACIYALIQ SÍPATLAMASI

Annotatsiya. *Bul maqalada qaraqalpaq tilindeki dawıslı seslerdiń artikulyaciyalıq ózgeshelikleri, olardıń fonetikalıq sistemadaǵı ornı hám áhmieti ilimiy tiykarda tallanadı. Dawıslı hám dawıssız sesler arasındadıǵı ayırmashılıqlar, hawa aǵımınıń baǵıtı, sóylew aǵzalarınıń háreketi hám dawıslı seslerdiń qalıplesiwindegi*

rezonans hám formantlardıń roli kórsetilgen. Sonday-aq, sóylew seslerin úyreniwde awızeki xalıq ádebiyatı úlğilerinen paydalanıwdıń ámeliy áhmieti kórsetip ótıledi. Maqala fonetika, diksiyanı rawajlandırıw, oqıtıwshılıq hám logopediya tarawları ushın paydalı ilimiy dárek bolıp xızmet etedi.

Gilt sózler: Dawıslı sesler, artikulyaciya, fonetikalıq tallaw, qaraqalpaq tili, sóylew aǵzaları, formantlar hám rezonans.

Аннотация. В данной статье рассматриваются артикуляционные особенности гласных звуков в каракалпакском языке, их роль и значение в фонетической системе. Анализируются различия между гласными и согласными звуками, движение воздушного потока, участие речевых органов, а также роль резонанса и формантов в формировании гласных. Особое внимание уделяется использованию образцов устного народного творчества для формирования правильного произношения. Статья представляет собой полезный научный ресурс для специалистов в области фонетики, логопедии, преподавания и развития дикции.

Ключевые слова: Гласные звуки, артикуляция, фонетический анализ, каракалпакский язык, речевые органы, форманты и резонанс.

Annotation. This article analyzes the articulatory characteristics of vowel sounds in the Karakalpak language and their phonetic significance. It explores the differences between vowels and consonants, the role of airflow, the function of speech organs, and the impact of resonance and formants in vowel production. The practical use of oral folk literature samples in speech training is also highlighted. The article serves as a valuable scientific resource for professionals in phonetics, speech therapy, teaching, and diction development.

Key words: Vowel sounds, articulation, phonetic analysis, karakalpak language, speech organs, formants and resonance.

Tildegı sesler haqqında aytqanda, dáslep seslerdiń artikulyaciyalıq xarakteristikasını biliwimiz shárt. Artikulyaciyası jaǵınan hár qıylı bolǵanı ushın sesler hár qıylı akustikalıq xarakteristikaga iye boladı, nátiyjede hár qıylı seslerdi esitemiz. Solay etip, seslerdiń parıqlanıwı artikulyaciyalıq parıqlanıwdan kelip shıǵadı. Til seslerin hám olardıń aytıluwın túsiniw ushın sóylew aǵzalarınıń orınlaytuǵın wazıypasın, olardıń sóylew apparatında qalay jaylasqanlıǵın, háreketke keliw múmkinshiligin biliwimiz kerek. Usı qollanbada usınıs etilgen shinigiwları ámelge asırıwda xalıq awızeki ádebiyatı úlgeri jaqsı járdem beredi.¹⁹

Barlıq tillerde seslerdi dawıslılar hám dawıssızlarga ajratıw áyemnen dástúrge aylangan. Bunday ajratıwda seslerdiń tildegı funkciyası, olardıń artikulyaciyalıq xarakteristikası esapqa alınadı. Seslerdi dawıslı hám dawıssızǵa bóliwde olardıń buwın dúze alıw yaqı dúze almaw mánisine qaraladı. Buwın qura alatuǵın sesler dawıslı sesler, buwın kura almaytuǵın sesler dawıssız sesler dep ataladı.²⁰

Dawıslı hám dawıssız sesler artikulyaciyalıq jaqtan da ayırmashılıqlarǵa iye boladı. Artikulyaciyalıq jaqtan dawıslılardıń dawıssızlardan tiykarǵı ayırmashılıǵı tómendegilerden ibarat.

Birinshiden: dawıslılardı aytqanda ókpeden shıqqan hawa aǵımı sóylew organları tárepinen tosqınlıqqa ushıramaydı. Al, sessizlerdi aytqanda hawa aǵımı sóylew organlarınıń bir jerinde tosqınlıqqa ushıraydı. Bul tosıq hár túrli formada payda bolıwı múmkin, aktiv sóylew aǵzasına tiyiwi hám jaqınlasıwı arqalı.

Ekinshiden: dawıslılardı aytqanda ókpeden shıqqan hawa aǵımınıń kúshi kishi, ótkir bolsa, dawıssızlardı aytqanda hawa aǵımınıń kúshli bolıwı onlıqlardıń jasalıwında sóylew organlarınıń aktiv qatnasıwı menen baylanıslı. Usınıń menen dawıssız seslerge tán bolǵan shawqım payda etiledi.

¹⁹ "Saxna sózi" Maryash Ismailova Xojambergenovna – Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2018.

²⁰ Ye. Berdimuratov, A. Dawletov "Házirgi qaraqalpaq tili" Qaraqalpaqstan – 1973.

Úshinshiden: dawıslılardı aytqanda pútkilley barlıq sóylew agzalarına kúsh túsip, onlardın bulshıq etleri tartılıp, taranglasıp turadı hám energiya kóp sarıplanadı. Dauıssızlardı aytqanda sóylew organlarınıń bir jerinde tosıq payda bolıp, tek sol tosıq payda bolǵan jerdegi sóylew organlarına kúsh túsip, sol jerdegi bulshıq etler tartılıp turadı, basqa sóylew organlarına kúsh túspey bulshıq etler ápiuayı bosasqan halda turadı hám energiya az jumsaladı.

Dawıslı hám dawıssızlardın ózine tán artikulyaciyalıq ózgeshelikleri olardıń akustikasınıń hár qıylılıǵın keltirip shıǵaradı.

Dawıssızlarga ses, dawıslılarga bolsa dawıs (muzikalıq ton) xarakterli boladı. Akustikalıq belgilerine qaray seslerdi dawıslılar hám dawıssızlar dep ajratıw biraz qıyın. Dauıssızlardın ózleri akustikalıq jaqtan birgelikte emes. Dauıssızlar qatarına kiretuǵın sonarlar - "shıǵıwshı" sestin qatnası jaǵınan dawıssızlarǵa qaraǵanda dawıslılardı jaqınaraq. Dawıslı seslerdi aytqanda sháwmek penen birge dauıs qatnasadı. Al, únsizlerde tek shawmıqpan islenedi.

Tilde sesler tiykargı buwın wazıypasın atqarıp, sózlerdin qalıplesiwi hám mánisin ańlatıw imkaniyatın beredi. Hár qanday til sesler sistemasına iye bolıp, olar artikulyaciyalıq hám akustikalıq ózgesheliklerine qaray dawıslı hám dawıssız seslerge bólinedi. Bul ajratıw tek forma jaǵınan emes, al funkcional hám strukturalıq jaqtan da úlken áhmiyetke iye.²¹

Fonetikada sesler buwin quriw qásiyeti boyınsha eki túrge bólinedi:

Dawıslı sesler - buwin payda ete aladı;

Dawıssız sesler - buwin payda ete almaydı.

Dawıslılardıń tiykargı artikulyaciyalıq belgisi - olardıń aytılwında hawa aǵımı hesh qanday tosqınlıqqa ushıramaydı. Sóylew agzaları, ásirese til, erin hám jumsaq tańlay sestin qalıplesiwinde áhmiyetli rol oynaydı.²²

²¹ Nazarov Q. Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Oqituvchi, 1994.

²² Qoraqalpoq tili grammatikasi. II j. "Fonetika". Nukus: Qaraqalpaqstan, 1983.

Dawıslı seslerdiń aytıluwı tómendegi tiykarǵı belgiler menen dawıssızlardan parıqlanadı:

Dawıslılardı aytıwda hawa aǵımı ókpeden shıǵıp, sóylew jolları arqalı hesh qanday tosqınlıqsız ótedi. Dawıssızlarda bolsa hawa aǵımı belgili bir orında tosqınlıqqa ushıraydı - bul tosqınlıq til, erin yamasa basqa sóylew aǵzaları arqalı payda etiledi.

Dawıslı seslerdi payda etiwde derlik barlıq sóylew aǵzaları belsene qatnasadı. Bunda bulshıq etler tartıladı, boslıqlar keńeyedi yamasa tarayadı. Energiya jumsalıwı joqarı boladı. Dawıssızlarda bolsa tek tosıq payda etip atırǵan jerdegi aǵzalar hárekette boladı.

Dawıslılar muzika tonına iye bolgan sesli sesler bolıp tabıladı. Dawıssızlar bolsa kóbinese shawqımlı bolıp, olardıń ayırımlarında ses bolıwı múmkin (mısalı, sonarlar), biraq báribir tiykarǵı komponent shawqım bolıp tabıladı.

Dawıslı sesler ses perdede payda bolgan terbelislerdiń awız, murin hám jutqınshaq boslıqlarındaǵı rezonansı arqalı qalıplesedi. Bul rezonanslar nátiyjesinde jańǵırıq payda boladı hám ses gerekli tembr hám bálentlikte shıǵadı.

Hárbir dawıslı ses formantlar dep atalıwshı belgili jiyilikler arqalı anıqlanadı. Formantlar - bul sestıń ózine tánligin, tanıp bolıw imkanın beretuǵın rezonans jiyilikleri.

Máselen, [a], [o], [i] sıyaqlı dawıslılar hár qıylı formantlarǵa ie bolıp, awız boslıǵınıń forması, kólemi, til hám erinlerdiń jaǵdayına baylanıslı júzege keledi.

Til-eń aktiv háreketleniwshi sóylew aǵzası esaplanadı. Dawıslı seslerdi payda etiwde tildiń jaǵdayı hám háreket baǵıtı úlken áhmietke iye.²³

Til aldı dawıslıların aytqanda til aldıǵa jıljıydı, jutqınshaq penen boslıq keńeyedi;

Til arqa dawıslıların aytıwda bolsa til artqa tartıladı hám boslıq tarayadı;

²³ Qoraqalpoq tili grammatikası. II j. "Fonetika". Nukus: Qaraqalpaqstan, 1983.

Tildin vertikal hareketi (joqariga yoki tomenga koteriliwi) sestin ashikliqi yoki jabikliqin belgileydi.

Qaraqalpaq tilinde dawisli seslerdin artikulyaciyalıq sıpatlaması olardin fiziologiyalıq, akustikalıq hám fonetikalıq ózgeshelikleri menen tıgız baylanisli. Dawislilar aytiliwında sóylew aǵzaları keń qatnasadı, olar ózine tán rezonans qásiyetlerine iye bolıp, hárbir dawisli ses formantlar arqalı ajıralıp turadı. Til, erin, jumsaq tańlay sıyaqlı belsendi aǵzalardin poziciyası dawisli seslerdin qalıplesiwin belgileydi. Bul bilimler tek ǵana fonetikalıq tallaw ushın emes, al durıs sóylew, diksiyanı rawajlandırıw, oqıtıwshılıq hám logopediya tarawları ushın da ayrıqsha áhmietke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. *“Saxna sózi” Maryash Ismailova Xojambergenovna – Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2018.*
2. *Ye.Berdimuratov, A. Dawletov “Házirgi qaraqalpaq tili” Qaraqalpaqstan – 1973.*
3. *Nazarov Q. Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Oqituvchi, 1994.*
4. *Qoraqalpoq tili grammatikasi. II j. "Fonetika". Nukus: Qaraqalpaqstan, 1983*
5. *Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.*
6. *Халикулова Г. Э. Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. – 2012.*
7. *YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – C. 116-119.*
8. *Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.*

9. Jabborov B. I. O. G. L. Qo 'g 'irchoq teatrida sahna nutqining o 'ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.

10. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20-23.

11. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O 'RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 286-291.

12. Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

13. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

Paxrudinova Karomat
O'ZDXA 1-kurs tayanch doktoranti

MASHARABOZLIK SAN'ATI: SAHNA NUTQI VA XOREOGRAFIYA UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada masharabozlik san 'ati xaqida, sahna nutqi va xoreografiyaning masharabozlik san 'atidagi o 'rni hamda ularning o 'zaro uyg 'unligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: masxarabozlik, nutq san 'ati, xalq og 'zaki ijodi, improvizasiya, sahna, xoreografiya, xalq raqslari, pantomima, sahna san 'ati, yumor, intonasiya, komik obraz, milliy an 'analar, pantomima, mimika.

Аннотация. В данной статье рассматривается искусство масхарабозов, анализируются роль сценической речи и

хореографии в этом жанре, а также их взаимное взаимодействие.

Ключевые слова: *масхарабоз, ораторское искусство, устное народное творчество, импровизация, сцена, хореография, народные танцы, пантомима, сценическое искусство, юмор, интонация, комический образ, национальные традиции, мимика.*

Annotation. *This article analyzes the art of clowning, focusing on the role of stage speech and choreography in clown performances and their mutual harmony.*

Keywords: *clowning, art of speech, folk oral creativity, improvisation, stage, choreography, folk dances, pantomime, stage art, humor, intonation, comic image, national traditions, mimicry.*

Sahna san'ati — insoniyat madaniy hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u jonli ijro, badiiy ta'sir va sinkretlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning shakllanish tarixi qadimiy marosimiy raqslardan, dramatik sahna ko'rinishlaridan to hozirgi zamonaviy ommaviy tomoshalargacha uzluksiz rivojlanib kelgan. Sahna san'ati turlari orqali jamiyatning ma'naviy, estetik va ijtimoiy ehtiyojlari qondiriladi. O'zbek xalq san'ati tarixi boy va rang-barang bo'lib, unda masxarabozlik alohida o'rin tutadi.

Masxarabozlik — bu xalq orasida kulgi va hazil orqali hayotiy voqealarni ifodalovchi, ijtimoiy fikrni targ'ib etuvchi an'anaviy sahna san'ati turi hisoblanadi. Unda qo'shiq, she'r, raqs, akrobatika va turli plastik harakatlar uyg'unlikda qo'llanadi. Masxarabozlikdagi kulgi vositalari tomoshabinni zavqlantirish bilan birga, xalqning turmush tarzi, ma'naviy olami va dunyoqarashini ham ifoda etadi.

Masxarabozlik san'ati o'zbek xalqining boy madaniy merosi tarkibiy qismi hisoblanib, u asrlar davomida xalq orasida nafaqat tomosha, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham yashab kelmoqda. Masxaraboz sahnada harakat, raqs, plastika bilan bir qatorda nutq orqali ham tomoshabinga ta'sir ko'rsatadi. Nutq masxarabozlikning

asosiy san'atliy qurollaridan biri sifatida obraz yaratish, kulish va o'ylantirish vazifasini bajaradi Masharabozlik (yoki klounada, mazaxkorlik) asrlar davomida xalq tomoshalarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. U xalqning hayoti, turmush tarzi va estetik qarashlarini ifoda etuvchi muhim sahnaviy yo'nalish sifatida shakllangan. Masharabozlikda **so'z** va **harakat** bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Shu bois masxaraboz san'atida sahna nutqi va xoreografiyaning o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Masxaraboz va qiziqchilik — kulgi va hajv, tanqid va muqallid, dramatik hikoya va quvnoq raqsni jamlagan san'atdir. Bu asrlar davomida mehnat ahli manfaatlarini himoya qilib kelgan og'zaki an'anaviy professional teatr, ajoyib xalq san'atidir.

XIX asrda masxarabozlarning to'y, bayram, sayil munosabati bilan o'tkaziladigan namoyishkorona yurishlari O'zbekistonda odat tusida bo'lgan. Bu yurishlar har joyda har xil uyushtirilgan bo'lsa-da, ularda quyidagi umumiy elementlar mavjudligini ko'rish mumkin: gullar bilan bezatilgan «muqaddas» daraxt, Rustam va xotinining qiyofasi, ajdar qiyofasi, bir guruh «kemachi» o'yinchilar, yog'och otlarga minib olgan bir to'da masxarabozlar²⁴.

Masxarabozlik san'ati — o'zbek xalqining boy ma'naviy merosida muhim o'rin tutadigan sahnaiy ko'rinishlardan biri bo'lib, u hazil-mutoyiba, majoz, qo'shiq, qo'lyozma harakatlar, sahnaiy improvizasiya va raqs elementlarini o'zida mujassam etgan.

“Masxarabozlik nafaqat tomoshabinni kuldirish, balki hayotiy voqea va holatlarni obrazli yo'sinda namoyon qilish, ijtimoiy-axloqiy fikrlarni yumor orqali ifoda etishda ham ahamiyatga ega”²⁵.

Masxaraboz sahnada nafaqat so'z va hazil orqali, balki harakatlar orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Xoreografiya masxarabozlik san'atida asosiy ifodaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Masxarabozlik san'ati

²⁴ Кодиров М. “Масхарабоз кизикчилар санъати(Фарғона анъанавий тетри)”. Тошкент: 1971 Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти

²⁵ Ғаниева Ш. Ўзбек масхарабозлик санъати тарихи. — Тошкент: Фан, 1990.

xalq raqslari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, kutilmagan kulgili yiqilishlari, og‘ir-qiyin qadam tashlashlari yoki beandoza harakatlari raqs elementlari bilan uyg‘unlashib, sahnada kuchli ta’sir quvvati hosil qiladi yoki turli jismlar bilan o‘yinlar (qop, tayoq, sopol idish va h.k.) xoreografik elementlar bilan boyitilib, sahnaviy kulgi ta’sirini oshiradi. Bu harakatlarda xalq raqslariga xos ritm va plastika yaqqol ko‘rinadi.

Muxsin Qodirovning yozishicha XIX asrda “Tomoshalar ma’lum tartib va navbat bilan o‘tgan. Qeng maydonlarda uyushtiriladigan kunduzgi tomoshalar odatda uloq chopish bilan boshlangan. Ko‘pkori qosh qorayguncha davom etgan. Keyin davra kichraytirilib kurash o‘tkazilgan, sozanda va raqqoslarning chiqishlari bo‘lgan, shuning kabi masxarabozlarning ayrim harakatchan, yirik muqallid o‘yinlari namoyish qilingan. Kechki va tungi tomoshalar navbat bilan o‘tkaziladigan raqqoslarning o‘yini, ashula, sozandalarning mashqlari, cho‘poyoq na‘malari, nayrangbozlarning chiqishlari, masxarabozlarning hajvlari, mushakbozlik va turli ermak o‘yinlardan iborat bo‘lgan”²⁶.

Masxarabozlikda xoreografiya ko‘p hollarda mimika va pantomima bilan uyg‘unlashadi. Yuz ifodasi, qo‘l-oyoq xarakatlari, raqs improvizasiyasi birgalikda sahnada obrazning to‘liq namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Masxaraboz qo‘l, oyoq, yuz ifodalari va qo‘llanadigan plastika orqali obrazni yaratadi. Masalan, bir obrazni kulgili yo‘sinda yugurish, yuz ifodasi bilan qo‘llab-quvvatlash sahnaviy ta’sirni ikki karra oshiradi.

Masxarabozlik san’atidagi xoreografik elementlar xalq estetikasiga asoslanadi. Raqs va harakatlar milliy urf-odatlar, bayram marosimlari, xalqona kulish madaniyati bilan bog‘langan.

Tarbiyaviy va estetik ahamiyat xaqida fikr yuritadigan bo‘lsak, masharabozlik orqali xalq o‘z turmushidagi kamchiliklarni hazil orqali ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Sahna nutqi orqali ijtimoiy

²⁶ Қодиров М. “Масхарабоз қизиқчилар санъати(Фарғона анъанавий тетри)”. Тошкент: 1971 Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти

tanqid ifodalansa, xoreografiya va harakat orqali uning ta'siri kuchayadi. Shu yo'l bilan masxarabozlik: tomoshabinda kulgi orqali o'ylanish va xulosa chiqarish qobiliyatini uyg'otadi, milliy raqs harakatlari va badiiy plastika vositasida xalq estetikasini asrab qoladi. Tomoshabin bilan muloqotda improvizasiyaga asoslangan raqs ko'pincha so'z murojaatini ham o'z ichiga oladi. Notiq mahorati (so'zni tez topish, ovoz tembrini va pauzani boshqarish) improvizasiya ta'sirini kuchaytiradi.

Nutq san'atida ham masxaraboz ko'pincha improvizasiyaga asoslanadi. Ssenariy doirasidagi tayyor so'zlar bilan cheklanib qolmay, vaziyat va tomoshabinning munosabatiga qarab yangi kulgili javoblar, qo'shimchalar yaratiladi. Bunda masxaraboz dialog orqali sahnani jonlantiradi va nutq san'ati improvizasiya xarakteriga ega bo'ladi.

Nutq san'atida ovozning balandligi, pauza, temp va intonasiya katta ahamiyatga ega. Masxaraboz ba'zan qichqiriq ovoz bilan kulgi uyg'otsa, ba'zan esa past, cho'zib gapirish orqali vaziyatga boshqa ma'no beradi. Intonasiya va temp nutqning ta'sirchanligini oshirib, sahnada obrazning kuchli namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Masxaraboz nutqi har doim harakat va plastika bilan uyg'unlashadi. Masalan, hazil aytilganda bir vaqtning o'zida qo'l harakatlari, yuz ifodasi va raqs qadamlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Obrazning ta'sirchanligini kuchaytirish ijrochining nutqi xarakati orqali ma'noli ifodalanishiga bog'liq. Shu yo'sinda nutq va harakat bir-birini to'ldirib, sahnada to'liq dramaturgik ta'sir hosil qiladi.

Masxaraboz nutqi orqali hayotdagi salbiy holatlar masxara qilinadi, xalqni o'ylantiradigan ijtimoiy muammolar ko'tariladi. Shu bilan birga, mehr-oqibat, samimiylik, odob-axloq kabi qadriyatlar yumor va hazil orqali targ'ib qilinadi. Shu jihatdan nutq san'ati nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Xulosa. Sahna san'ati — turli san'at turlarini uyg'unlashtirgan holda inson ma'naviy dunyosiga ta'sir etuvchi qudratli vosita hisoblanadi. Teatr, opera, balet, raqs, konsert, sirk va ommaviy

tomoshalar orqali jamiyatning estetik ehtiyojlari qondiriladi, madaniy meros saqlanib, yangi avlodga yetkaziladi. Milliy va zamonaviy tendensiyalar uygʻunligi esa sahna sanʼatining uzluksiz rivojlanishini taʼminlaydi. Masharabozlik sanʼatida sahna nutqi va xoreografiya ajralmas birlikni tashkil qiladi. Nutq – mazmun va gʻoyani yetkazish vositasi boʻlsa, harakat va raqs – uning taʼsirchanligini kuchaytiradi. Shu uygʻunlik masharabozlikni xalq sanʼatining boy va oʻziga xos koʻrinishi sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi.

Masxarabozlik sanʼatida xoreografiya markaziy oʻrinni egallaydi. U nafaqat sahnaviy kulgi yaratish vositasi, balki milliy raqs elementlari, improvizasiya va plastika uygʻunligida xalqning estetik dunyoqarashini namoyon etuvchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Xoreografiya orqali masxarabozlik sanʼati milliy merosni saqlaydi, tomoshabinga taʼsir qiladi va ijtimoiy-axloqiy gʻoyalarni yetkazadi. Anʼanaviy madaniyat va xalq udumlarini raqs xarakatlari orqali ifoda eta oladi. Qahramonlarining obrazini taʼsirchanligini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Gʻaniyeva SH. Oʻzbek masxarabozlik sanʼati tarixi.* – Toshkent: Fan, 1990.
2. *Qodirov M. “Masxaraboz qiziqchilar sanʼati(Fargʻona anʼanaviy tetri)”.* Toshkent: 1971 *Oʻzbekiston SSR «Fan» nashriyoti*
3. *Rahmonov A. Sahna nutqi asoslari.* – Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.
4. *Karimova D. Uzbek Folk Theatre and Clowning Traditions.* – Samarkand: SamSU Press, 2018.
5. *Xalqaro maqolalar toʻplami: Traditional Performing Arts of Central Asia.* – UNESCO, 2019.
6. *Burxonov, SH. Oʻzbek sahna sanʼati tarixi.* – Toshkent: Sharq, 2012.

EFIRDA NOTIQLIK SAN'ATI VA NUTQ MADANIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada efirda ovoz bilan ishlashda nimalarga etibor berish kerak va televizion yoki radiodasturlarning ovozli yechimi bo'yicha masalalar ilimiy jihatdan ko'rib shiqiladi.*

Kalit so'zlar: *san'at, televideniye, maxsus effektlar, musiqa, ovoz bezagi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы, на которые следует обратить внимание при работе со звуком в эфире, и вопросы звукового решения телевизионных или радиопрограмм с научной точки зрения.*

Ключевые слова: *искусство, телевидение, спецэффекты, музыка, звуковое оформление*

Annotatsion. *This article discusses the following issues things to look out for in rabot with sound on the air, and the issues of sound reproduction of television or radio programs from a scientific point of view.*

Key words: *Art, television, special effects, music, sound decoration.*

Efir ishini baholash bo'yicha muvaffaqiyatli ish ko'p jihatdan ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Televideniye va radioeshittirishda dasturlarning ikki turi mavjud - operativ va operativ bo'lmagan. Operativ bularga juda qisqa vaqt ichida yaratilgan yoki deyarli hech qanday tayyorgarliksiz jonli efirga uzatiladigan dasturlar kiradi (bu asosan axborot dasturlariga tegishli). Dastlabki tayyorgarlik davri bo'lgan dasturlar chaqiriladi operativ bo'lmagan(filmlar, televidenie yoki radio ko'rsatuvlari va boshqalar), agar dasturning barcha kerakli qismlarini, shu jumladan uning ovozli yozuvini oldindan o'ylab ko'rish va tayyorlash mumkin

bo'lganda. Televizion yoki radiodasturlarning ovozli yechimi bo'yicha ishlarni to'rt bosqichda olib borish maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich. Bu siz litani olgan paytdan boshlab boshlanishi kerak ajoyib stsenariy, shunda ijodiy jamoaning har bir a'zosi qodir bo'ladi shuni "ko'rish" va "eshitish" haqidagi o'z tushunchangizni yarating. Shunday qilib, har bir kishi darhol "materialga" botib, faol ijodiy jarayonga jalb qilinadi. Ijodiy jamoaning har bir a'zosi o'z irodasini ko'r-ko'rona bajaruvchi emas, balki rejissyorning sherigi bo'ladi. Tabiiyki, asosiy va hal qiluvchi pozitsiya hali ham muallifning rejissyor pozitsiyasidir, lekin ijodiy sherik (u operator bo'lsin, ovoz rejissyori yoki musiqa muharriri) rejissyorga o'ziga xos harakatni aytib berishi, u bilmagan narsani maslahat berishi mumkin. Bu yondashuv oxir-oqibatda eshittirishni yanada qiziqarli va original qilishga yordam beradi.

2-bosqich. Bu bosqichda rejissyor o'z g'oyasini musiqachilarga (ovoz rejissyori, musiqa muharriri, bastakor) malakali va aniq tushuntirishi kerak. Siz yaratilgan tasvir yoki harakatning hissiy mohiyatidan chiqib ketishingiz kerak, so'zlarni ishlatib: qahramonlik, kulgili, fojiali, fantastik, parodiya, istehzoli, lirik va boshqalar. Rejissyor ovozning asar muhitini shakllantirishdagi, qahramon xarakterini yaratishdagi rolini va hokazolarni aniq tushuntirishi kerak. Xuddi shu bosqichda tovush ballining turi aniqlanadi.

3- bosqich. Ovoz rejissyori tomonidan tanlangan yoki bastakor tomonidan taqdim etilgan barcha musiqiy materiallar va shovqinlarni tinglash, shuningdek, butun ovoz shirasini yakuniy sozlash.

4- bosqich. AMFda ovoz berish. Ovozning barcha komponentlari (va televizorda ham tasvirlar) bilan intonatsion-ritmik uyg'unlikka erishish uchun birinchi navbatda barcha musiqa va shovqin alohida trekka yozib olinadi, so'ngra diktor yoki aktyor diktor matnini o'qish va bir vaqtning o'zida eshitish uchun taklif qilinadi. naushniklarda dasturning barcha musiqalari. Bunday holda, musiqaning o'zi hatto tajribasiz ma'ruzachi uchun ham nutqning kerakli tempi va

intonatsiyasini boshqaradi. Shundan keyingina barcha audio (va televizorda, vizual) materiallarni "aralashtirish" jarayoni amalga oshiriladi.

Eshittirish ishi uchun ovozli ball yaratishda ovoz rejissyorining asosiy vazifasi tomoshabinlarda tovush noqulaylik hissi paydo bo'lishining oldini olishdir. Eshitishdagi noqulaylikning eng keng tarqalgan sabablari orasida quyidagilar mavjud:

1. Musiqa matnni idrok etishga xalaqit beradi, uni bo'g'adi. Odatda bu tuyg'u matn va musiqa o'rtasidagi ovoz balandligidagi noto'g'ri tanlangan muvozanat (musiqa-shovqin va nutq fonogrammalarini aralashtirishda) tufayli yuzaga keladi.

2. Eshittirish ishining ovozi musiqa bilan "ortiqcha yuklangan". Bu hodisa televidenie yoki radio asarlarining ovozli reytingida shovqinni kam baholaganligi sababli yuzaga keladi.

Musiqiy parchalarning keskin uzilishi. Bu ikki sababga ko'ra sodir bo'ladi:

- ovoz rejissyorining eshitish qobiliyati etarli darajada rivojlanmagan bo'lsa (buning natijasida u musiqiy iboralarning oxirini his qilmasa);

- Agar musiqali fonogramma magnit fonogramma (AMP) apparat xonasida ovozni keyinchalik moslashtirmasdan bevosita efirga uzatilayotgan materialni tahrirlash vaqtida televidenie yoki radiodastur kontekstiga kiritilsa.

3. Efir asarini baholash uchun musiqiy parchalarni tanlashda uslubiy xatolar. Bunday xatoliklar yaratilish vaqti, musiqa uslubi, musiqiy fonogramma xarakteri personajning zarur emotsional holatiga (televidenieda - vizual serial) mos kelmasa sodir bo'ladi.

4. Monotonallik, "sarkma" ovozi. Musiqiy parchalarning tempi va asbobsozlik monotonligi tufayli yuzaga keladi, bu esa tomoshabinlarni zerikish va charchoqqa olib keladi. Natijada, umuman dasturga qiziqish kamayadi.

5. "Ikki ma'lumot" Odatda, bu ikki holatda sodir bo'ladi:

- ijro etilayotgan qo‘shiq matni bir xil tildagi diktor matni ustiga qo‘yilganda;

- televizordagi matn ko'paytirilmagan, ishlaydigan chiziq matni bilan sinxronlashtirilgandaqulayth, lekin butunlay boshqa matn ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

6. Dastur matn bilan haddan tashqari yuklangan, idrok etishni qiyinlashtiradi va shuning uchun jamoatchilik qiziqish uyg'otadi.

Bu, ayniqsa, televizion dasturlar uchun to'g'ri keladi. Gap shundaki, asar tanasida tovush va tasvir tasvir, matn, musiqa va shovqindan iborat. Agar ular bir vaqtning o'zida katta vaqt oralig'ida ishlatilsa, audiovizual ma'lumotlarning teksturasi muqarrar ravishda haddan tashqari yuklanadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun barcha tarkibiy qismlarni quyidagicha tarqatish kifoya:

TASVIR	TASVIR	TASVIR
MATN	MATN	—
MUSIQA	Shovqin	MUSIQA

Radioda tinglovchining obrazi uning tasavvuriga almashtiriladi, bunga ovoz rejissyori tomonidan yaratilgan harakatning ovozli muhiti yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu amallarga har bir ijodkor amal qilsa, yuqorida aytib o'tilganidek musiqa va shovqinning roli kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Н.Н. Ефимова Звук в эфире. Москва 2015 89-б.*
2. *Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "Кино—тарбия воситаси." Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.*
3. *Nukusbayevich, T. Q. (2023). Main factors of the history and development of "karakalpakfilm" film studio. World Bulletin of Social Sciences, 27, 169-171.*
4. *Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.*

5. Халикулова Г. Э. Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. – 2012.

6. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – С. 116-119.

7. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 119-129.

8. Jabborov B. I. O. G. L. Qo ‘g ‘irchoq teatrida sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – С. 193-200.

9. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – С. 20-23.

10. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O ‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 286-291.

11. Toxirov O. MUSTAQIL TA ‘LIM MASHG ‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – С. 421-426.

12. Xodjimatoва M. et al. TEATR SAN‘ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 186-194.

YOSH PEDAGOGLARNING BADIY VA KASBIY SHAKLLANISHIDA MA'NAVIY POYDEVORNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi davrda sahna san'ati sohasi bo'yicha ta'lim berayotgan yosh pedagoglarning badiiy-estetik tafakkuri, kasbiy shakllanishi va ma'naviy o'sishida ustozlar maktabining roli yoritiladi. Xususan, Musiqali teatr san'ati yo'nalishidagi pedagogik tajriba, tarixiy shakllanishi va zamonaviy faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada ustoz-shogird an'anasi, amaliy mashg'ulotlarda milliy teatr maktabining uslublari va ularning yosh mutaxassislar uchun zarur jihatlari misollar bilan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Sahna san'ati, yosh pedagoglar, ustoz-shogird an'anasi, musiqali teatr, badiiy-estetik tarbiya, kasbiy shakllanish, ma'naviy poydevor.

Аннотация. В данной статье освещается рол школы мастеров в формировании художественно-эстетического мышления, профессионального становления и духовного роста молодых педагогов, преподающих сценическое искусство. В частности, анализируется педагогический опыт, историческое развитие и современная деятельность кафедры музыкального театрального искусства. В статье раскрываются особенности традиции наставничества, методы национальной театральной школы, применяемые на практических занятиях, а также их значимость для молодых специалистов на примерах из реальной педагогической практики.

Ключевые слова: Сценическое искусство, молодые педагоги, традиция наставничества, музыкальный театр, художественно-эстетическое воспитание, профессиональное становление, духовная основа.

Annotation. *This article explores the role of the school of masters in shaping the artistic-aesthetic thinking, professional development, and spiritual growth of young educators currently teaching stage art. Specifically, it analyzes the pedagogical experience, historical evolution, and contemporary activities of the Musical Theater Art Department. The article highlights the significance of the mentor-apprentice tradition and the methods of the national theater school used in practical training, illustrating their value for emerging professionals through real-life examples.*

Key words: *Performing arts, young educators, mentorship tradition, musical theatre, artistic and aesthetic development, professional formation, spiritual foundation.*

Zamonaviy ta'lim tizimida san'at sohasida faoliyat yuritayotgan yosh pedagoglarning kasbiy va badiiy shakllanishi masalasi nafaqat bugunning dolzarb muammolaridan biridir, balki kelajak avlodning estetik tafakkuri va madaniy olamining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, teatr san'ati-o'zining chuqur ma'naviy mohiyati, badiiy umumlashtirish qudrati va tomoshabinga bevosita ta'sirchanlik salohiyati bilan pedagogik faoliyatda alohida yondashuvni talab qiladi. Shu bois, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarning shakllanishi jarayonida ustozlar maktabining, ya'ni milliy teatr pedagogikasi an'alarining roli beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim faqat bilim uzatish jarayoni emas, balki ma'naviy-mafkuraviy, estetik va kasbiy mezonlarni uyg'unlashtirgan holda shaxsni tarbiyalash san'atidir. Bu ayniqsa teatr va musiqa singari hissiy-estetik ta'sir kuchiga ega san'at turlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Sahna san'ati pedagogikasi esa-o'z navbatida, nafaqat aktyorlik mahorati, balki inson qalbini tushunish, milliy tafakkurni estetik ifoda vositalari bilan yoritish, hayot falsafasini badiiy talqinda yetkazish madaniyatidir. Bu madaniyat esa avvalo ustozlar tajribasi,

ularning hayotiy saboqlari, uslubiy yondashuvlari va shaxsiy namunasi orqali yoshlarga o'tadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda musiqa va teatr sohasida barpo etilgan kuchli ustozlar maktabi- bugungi yosh pedagoglar uchun mustahkam ma'naviy poydevor, kasbiy mezon va estetik mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Musiqali teatr san'ati kafedrası misolida bu jarayonni chuqur tahlil qilish mumkin. U yerda faoliyat ko'rsatgan san'at arboblari, xalq artistlari, pedagog-rejissyorlar bir necha avlod sahna ustalari ijod etib o'tgan, va bu an'ana bugun ham davom etmoqda.

San'at ta'limi-bu shunchaki mahorat o'rgatish emas, balki qalblarga nur taratish, estetik ong va milliy o'zlikni uyg'otish jarayonidir. Ayniqsa, teatr san'ati tomoshabinni hayajonga soluvchi, inson qalbining eng nozik torlarini chertuvchi bir makon sifatida pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda yosh pedagoglar nafaqat sahna mahoratini o'rgatadilar, balki hayotga, jamiyatga, milliy qadriyatlarga badiiy nigoh bilan boqishga da'vat etuvchi badiiyat tarqatuvchilariga aylanadilar.

Yosh pedagoglarning shakllanishida ularni ilmiy-uslubiy, estetik-ma'naviy jihatdan yo'naltira oladigan ustozlar maktabining o'rni beqiyosdir. Bu-avlodlar bog'liqligining, an'ana va tajriba uzviyligining hayotiy namunasidir. Aynan shu uzviylikni asrash orqali teatr san'atining milliy maktabi davom etadi, yangilanadi va boyiydi.

Musiqali teatr san'ati-bu sahna, so'z va ohang uyg'unligi orqali tomoshabinning qalbiga yetib boradigan nozik badiiy shakldir. Bu yo'nalishda pedagogik jarayon yanada murakkab va sermazmun bo'lib, o'qituvchidan chuqur bilim, ijodiy yondashuv va malakali tajriba talab etiladi. Ana shunday murakkab, lekin sharaflı mas'uliyatni yelkasiga olgan bugungi yosh pedagoglar, kechagi ustozlarning fidokorona mehnatining samarasi, ertangi teatr san'atining poydevorchilaridir.

Bugungi yosh pedagoglar ijodiy-estetik qarashlarini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish barobarida, ustozlardan meros bo'lib kelgan teatr o'qituvchilik maktabini davom ettiradilar. Ular nafaqat o'quv dasturlariga tayangan holda ishlaydi, balki mashg'ulotlarda teatr san'atining nozik did, ichki intuitsiya, hissiy tajriba va madaniy xotirani talab qiluvchi metodlarini qo'llaydilar. Ayniqsa, musiqali teatr san'ati yo'nalishidagi saboqlar jarayonida aktyorlik, xonandalik, harakat va nutq madaniyatini yagona sahnaviy obrazga birlashtirish zarurati pedagogdan chuqur badiiy sezgi va mahoratni talab qiladi.

Bu borada yosh o'qituvchilar sahnadagi jonli ijroning qudratini tushunib, talabalarda obrazga kirish, emotsional holatni ushlab turish, vokal ijrosi va sahna harakati uyg'unligini shakllantirish yo'lida yangidan-yangi uslubiy izlanishlar olib boradilar. Ayniqsa, ular ustozlar tomonidan sahnalashtirilgan spektakllarni tahlil qilish, o'rganish, ularning estetik yondashuvini zamonaviy shaklda rivojlantirishga harakat qiladilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Musiqali teatr san'ati" kafedrası o'zbek sahna madaniyati rivojida muhim poydevorlardan biri bo'lib, uning shakllanishi va taraqqiyotida bir qator yirik sahna ustozlari beqiyos xizmat ko'rsatgan. Ayniqsa, 1958-yilda kafedra tashkil topgan ilk yillardan boshlab, bu yerda respublikaning san'at dargohlari orasida alohida o'rin tutuvchi ijodkorlar faoliyat olib borgan. Jumladan, O'zbekiston xalq artistlari R. Hamrayev, Sh. Ma'zumova, R. Sayfuddinov, O. Abdurazzoqov, S. Po'latov, M. Uzoqov, B. Ixtiyorov, U. Zufarov kabi sahna fidoyilari, shuningdek, V. N. Sundukova, V. P. Volodchenko, G. Muxammedova B.Nazarov. N.Qobilov kabi o'z ishining ustalari bu kafedrada yosh avlodni tarbiyalashga bel bog'laganlar.

Ular sahnada o'z davrining yetakchi obrazlarini yaratish bilan birga, o'zbek musiqali teatrining didaktik asoslarini shakllantirish, aktyorlik va vokal mahoratini uzviy uyg'unlikda o'rgatish,

milliylilikni sahna madaniyati bilan uyg'unlashtirish yo'lida katta ijodiy-pedagogik tajriba qoldirishgan.

Ushbu boy an'analar, ilmiy-metodik yondashuvlar va sahnaviy tajribalar, yillar davomida shakllangan ustozlar maktabining noyob merosi sifatida, bugungi teatr ta'limi tizimida o'z amaliy davomiyligini topmoqda.

Endilikda bu ilmiy-ma'naviy zamin ustida o'sib kelayotgan yosh pedagoglar, nafaqat sahna san'ati sir-asrorlarini o'rganmoqdalar, balki san'atning chinakam tarbiyaviy va estetik mohiyatini o'z faoliyatlarida aks ettirishga intilmoqdalar.

Shunday qilib, ustozlar maktabi-bu nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy teatr ta'limining barqaror tayanchi bo'lib xizmat qilayotgan ilmiy-estetik tizimdir. Bugungi yosh teatr pedagoglari bu maktabni chin dildan anglab, o'zining har bir darsida bu ruhi va mahoratni yangi avlodga singdirishga intilmoqda. Shu yo'l bilan ular nafaqat kasbiy barkamollikka erishadilar, balki sahna san'atining ertangi kunini ham barpo qiladilar.

Yosh teatr pedagogining shakllanishi-bu faqat mahorat orttirish emas, balki ichki olam, estetik tafakkur, ma'naviy poklik va fidoyilik orqali o'zini san'atga bag'ishlash jarayonidir. Ayniqsa, musiqali teatr san'ati yo'nalishida ta'lim berayotgan pedagog shunchaki o'qituvchi emas, balki aktyor, rejissyor, vokal murabbiy va sahna ruhiyatining bilimdoni sifatida harakat qiladi. Bunday ko'p qirrali faoliyat esa ustozlar maktabidan oziqlangan holda, ularning metodik tajribasi, sahna tamoyillari, estetik didi va insoniy fazilatlaridan saboq olish orqali mukammal shakllanadi.

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi "Musiqali teatr san'ati" kafedrasi faoliyati bunday merosni saqlab qolish va uni zamon talablari bilan uyg'un holda davom ettirish borasida noyob tajriba maktabidir. Kafedrada faoliyat olib borayotgan ustozlar va ularning izidan borayotgan yosh pedagoglar o'rtasidagi uzviy aloqadorlik teatr ta'limi rivojining hal qiluvchi omillaridandir.

Xulosa qilib aytganda, yosh teatr pedagoglarining badiiy va kasbiy shakllanishida ustozlar maktabining oʻrni beqiyosdir. Bu maktab ilmiy asoslangan, amaliy tajribaga tayanilgan, ruhiy sabr va fidoyilik bilan yoʻgʻrilgan noyob anʼanadir. Ushbu anʼanani davom ettirish, boyitish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi yosh pedagoglarning sharaflı burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.
2. Халикулова Г. Э. *Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар.* – 2012.
3. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro.* – №. 2. – C. 116-119.
4. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 119-129.
5. Jabborov B. I. O. G. L. *Qoʻgʻirchoq teatrida sahna nutqining oʻziga xos xususiyatlari //Science and Education.* – 2024. – T. 5. – №. 9. – C. 193-200.
6. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts.* – 2023. – №. 4. – C. 20-23.
7. Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING OʻRNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi.* – 2025. – №. 2. – C. 286-291.
8. Toxirov O. *MUSTAQIL TAʼLIM MASHGʻULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture.* – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 421-426.

9. Xodjimatova M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 186-194.

Xakimova Nigina Olimjon

*O'zDSMIning 2-kurs tayanch doktoranti,
O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri rejissyor yordamchisi*

QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORI FAOLIYATIDA NUTQNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo'g'irchoq teatri aktyori faoliyatida nutqning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Nutqning sahna ifodasidagi badiiy, estetik va pedagogik vazifalari tahlil qilinadi. Aktyorning ovoz madaniyati, diksiyasi, intonatsiyasi, ritm va temp kabi texnik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, nutqning obraz yaratish jarayonidagi roli va zamonaviy texnologiyalar ta'siri asosida nutq ifodasining ahamiyati ochib beriladi. Maqola qo'g'irchoq teatri aktyorlari uchun nutq madaniyatini rivojlantirish, sahna nutqining asosiy talablarini o'zlashtirish zarurligini ilmiy asosda yoritadi.*

Kalit so'zlar: *qo'g'irchoq teatri, aktyor, nutq madaniyati, sahna nutqi, ovoz, intonatsiya, diksiya, badiiy ifoda, obraz, estetik ta'sir, pedagogik ahamiyat.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается значение и роль речи в профессиональной деятельности актёра кукольного театра. Анализируются художественные, эстетические и педагогические функции сценической речи. Рассматриваются такие аспекты, как культура речи актёра, диксия, интонация, ритм и темп. Также освещается значение речи в процессе создания сценического образа и влияние современных технологий на выразительность речи. Статья подчёркивает необходимость совершенствования речевой культуры актёров*

кукольного театра и овладения основными требованиями сценической речи.

Ключевые слова: *кукольный театр, актёр, культура речи, сценическая речь, голос, интонация, диксия, художественная выразительность, образ, эстетическое воздействие, педагогическое значение.*

Abstract. *This article explores the significance and role of speech in the professional activity of a puppet theatre actor. The artistic, aesthetic, and pedagogical functions of stage speech are analyzed. The study examines aspects such as speech culture, diction, intonation, rhythm, and tempo. It also highlights the importance of speech in the process of creating a character and the impact of modern technologies on expressive speech. The article emphasizes the necessity for puppet theatre actors to develop their speech culture and master the essential elements of stage speech.*

Keywords: *puppet theatre, actor, speech culture, stage speech, voice, intonation, diction, artistic expression, character, aesthetic influence, pedagogical significance.*

Kirish. *Qo'g'irchoq teatri san'ati insoniyat madaniy merosining qadimiy tarmoqlaridan biridir. Bu teatr turi ko'plab xalqlarda qadimdan shakllanib, xalq og'zaki ijodiyoti, mifologik qarashlar va sahna an'analari asosida rivojlangan. Qo'g'irchoq teatri tomoshabinga so'z, harakat, musiqiy ifoda va tasviriy vositalar orqali ma'naviy va estetik g'oyalarni yetkazadi. Bu jarayonda nutq markaziy o'rinni egallaydi, chunki u qo'g'irchoq obraziga jon baxsh etadi, uning ruhiy holatini, kayfiyatini ifodalaydi va tomoshabinga g'oyaviy mazmunni yetkazadi. Shu sababdan qo'g'irchoq teatrida nutqning o'rni, uning badiiy va texnik imkoniyatlari, aktyor nutqi madaniyati masalalari doimiy ilmiy va amaliy izlanishlarni talab etadi.*

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida ovoz va so'zning uyg'unligi, obraz bilan nutqning mosligi, nutq texnikasi, diksiyaning aniqligi,

intonatsion ifoda kabi jihatlar teatr estetikasi va pedagogik samaradorlikning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Qo‘g‘irchoq teatri — teatr san’atining o‘ziga xos, obrazli, ramziy ifoda vositalariga boy janridir. Bu teatrda inson aktyor bevosita sahnada ko‘rinmaydi, ammo uning ovozi, nutqi, ifodasi orqali obrazlar jonlanadi. Shuning uchun qo‘g‘irchoq teatri aktyorining asosiy ijodiy quroli — bu **nutq** va **ovoziy ifodadir**. Nutq aktyorning sahnadagi hissiyotlarini ifoda etish, obrazning xarakterini ochish, tomoshabinga g‘oyaviy-estetik mazmunni yetkazishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham nutq masalalari qo‘g‘irchoq teatri aktyorining kasbiy tayyorgarligi, sahna madaniyati va badiiy mahoratining ajralmas qismidir.

Asosiy qism. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori sahnada obrazni bevosita ko‘rsatmaydi, balki uni ovoz orqali jonlantiradi. Shu bois aktyorning ovozi, diksiyasi, intonatsiyasi va talaffuzi obrazni to‘liq ifodalovchi kuch sifatida xizmat qiladi. Nutq orqali obrazning xarakteri, ruhiy holati ochiladi, tomoshabinga g‘oya va mazmun yetkaziladi, sahnadagi emotsional ta’sir kuchayadi.

Agar aktyor nutqni to‘g‘ri boshqara olsa, u ovoz orqali qo‘g‘irchoqqa haqiqiy jon baxsh eta oladi. Shu sababli nutq ustida ishlash, ovoz mashqlari, diksiyani tozalash, nafasni boshqarish — aktyorning kundalik ijodiy faoliyatining ajralmas qismidir.

Nutq madaniyati — bu adabiy til meyorlariga amal qilish, so‘zlarni aniq, ravon, ifodali talaffuz etish, urg‘ularni to‘g‘ri qo‘yish, nutq tempini boshqarish demakdir. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari uchun nutq madaniyati quyidagi jihatlarda muhim:

- **Diksiya** – so‘zlarni aniq talaffuz etish;
- **Intonatsiya** – hissiy ohang orqali obrazni ochish;
- **Ritm va temp** – nutq tezligi va ohangdorlikni boshqarish;
- **Ovoz diapazoni** – turli obrazlarga mos ovozlar yaratish.

Ayniqsa, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan spektakllarda nutqning aniqligi, ravonligi va musiqiyligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar ko'proq ovoz, ohang va intonatsiya orqali obrazni qabul qiladilar.

Qo'g'irchoq obrazining tashqi shakli, harakati va ovozi o'zaro uyg'un bo'lishi kerak. Ovoz — bu obrazning jonidir. Shu bois aktyor har bir obraz uchun alohida nutq uslubini tanlaydi:

- quvnoq, shod obrazlar uchun – **baland, tez, musiqiy ohang;**
- salbiy qahramonlar uchun – **yo'g'on, sust, cho'ziq ovoz;**
- donishmand yoki qahramonlar uchun – **sokin, chuqur, ishonchli ohang.**

Bu jarayonda rejissor va aktyorning hamkorligi muhimdir. Nutq obrazga xizmat qilishi, sahna holatiga mos bo'lishi lozim.

Mavzuni O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri aktyori Otabek Isoqovning ijodiy faoliyati orqali ochib beradigan bo'lsak, aktyor ko'plab spektakllarda o'z mahorati bilan turfa xil obrazlarga mualliflik qiladi. Aktyor uzoq yillik faoliyati davomida bir spektaklda ikki yoki uch nafar turli yoshdagi yoki xarakterdagi qahramonlarni jonlantirib kelmoqda. Masalan, "O'jar quyoncha" spektaklida aktyor bir vaqtning o'zida ayiqpolvon va bo'ri obrazlarini yaratar ekan, ovoz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalangan xolda ikki obrazni ham sahnada to'laqonli gavdalantira oladi. Jahon klassik asari bo'lmish "Hamlet" tragediyasida aktyor O.Isakovning qari yoshdagi Poloniy obrazida bosiqlik, o'z qiroliga sadoqatlilik tuyg'ulari va keksalik belgilari bo'g'iq ovoz orqali ifodalab berilgan bo'lsa, Fortinbras obrazida esa yosh shahzodaga xos xarakter mahorat va ovoz yordamida ko'rsatib beriladi. Shu sababli ham qo'g'irchoq teatri aktyorida nutq madaniyati va ovoz mahorati yuqori darajada rivojlangan bo'lmog'i lozim.

Shu bilan birga, qo'g'irchoq teatri asosan bolalar auditoriyasiga mo'ljallangani sababli, aktyorning nutqi estetik va tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Chunki spektakl davomida ravon adabiy nutq bolalarda til madaniyatini rivojlantiradi, ifodali nutq esa estetik didni

shakllantiradi, soʻz boyligi bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Demak, qoʻgʻirchoq teatri aktyorining nutqi faqat badiiy vosita emas, balki taʼlimiy va tarbiyaviy kuchga ham ega.

Bugungi kunda ovoz texnologiyalari, mikrofonlar, audio-effektlar sahnada keng qoʻllanilmoqda. Ammo ularning vazifasi — aktyorning jonli nutqini toʻldirish, balki uni almashtirish emas. Chunki aktyorning tirik ovozi va tabiiy nutqi sahnaviy ishonchlilikni taʼminlaydi. Shu bois aktyorlar nutq ustida ishlashni hech qachon toʻxtatmasliklari, doimiy mashq qilishlari, ovozlarini asrashlari kerak.

Xulosa. Qoʻgʻirchoq teatri aktyori uchun nutq — bu ijodning yuragi. Ovoz va nutq orqali obrazga hayot baxsh etiladi, tomoshabinga gʻoya yetkaziladi, sahnada hissiy muhit yaratiladi. Shuning uchun har bir aktyor nutq madaniyatini mukammal egallashi, sahna nutqining texnik jihatlarini chuqur oʻzlashtirishi zarur.

Nutq madaniyati va mahorati — bu qoʻgʻirchoq teatri aktyorining kasbiy saviyasi, sanʼatdagi muvaffaqiyati va tomoshabinga taʼsir kuchini belgilovchi asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. *Sahna nutqi asoslari*. – Toshkent: OʻzMU nashriyoti, 2020.

2. Xudoyberdiyeva N. *Teatr sanʼatida ifoda vositalari*. – Toshkent: Sanʼat, 2019.

3. Gʻulomova M. *Bolalar teatrida badiiy nutq va pedagogik taʼsir*. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. *Qoʻgʻirchoq teatri faoliyati toʻgʻrisidagi nizom*, 2022.

5. www.theatre.uz – Oʻzbekiston teatr sanʼati portali.

6. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*. – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 79-85.

7. Халикулова Г. Э. Актёрнинг сахна нутки махоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. – 2012.

8. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учредители: Premier publishing sro. – №. 2. – С. 116-119.

9. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 119-129.

10. Jabborov B. I. O. G. L. Qo ‘g ‘irchoq teatrda sahna nutqining o ‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – С. 193-200.

11. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – С. 20-23.

12. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O ‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 286-291.

13. Toxirov O. MUSTAQIL TA ‘LIM MASHG ‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – С. 421-426.

14. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN‘ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – С. 186-194.

ADABIY ASAR TAHLILI VA TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada san'at va madaniyat sohasida ta'lim olayotgan talabalarning so'z ustida ishlashi bo'yicha amaliy tavsiyalar haqida so'z boradi. Talabalarning adabiy matn tanlashi, uning ijrosi, tahlili va talqini borasidagi izlanishlari uchun kerakli bo'lgan amaliy ko'rsatmalar maqola mazmunida aks etgan.*

Kalit so'zlar: *teatr, sahna nutqi, so'z, adabiy asar, matn, nutq texnikasi, san'at, san'atkor, aktyor, adabiy parcha, tasavvur, fikr.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются практические рекомендации по работе студентов, обучающихся в сфере искусства и культуры, над словом. В содержании статьи отражены необходимые практические указания для выбора литературного текста, его исполнения, анализа и интерпретации, что способствует исследовательским изысканиям студентов.*

Ключевые слова: *театр, сценическая речь, слово, литературное произведение, текст, техника речи, искусство, артист, актёр, литературный отрывок, воображение, мисл.*

Abstract. *This article discusses practical recommendations for students of art and culture in their work with the spoken word. The content of the article presents essential methodological guidelines for selecting a literary text, its performance, analysis, and interpretation, which serve as a foundation for students' research and creative exploration.*

Keywords: *theatre, stage speech, word, literary work, text, speech technique, art, artist, actor, literary excerpt, imagination, thought.*

Bo'lajak san'atkorlarda, jumladan aktyor va rejissyorlarda nutq texnikasi va so'z ustida ishlashni hamda uni rivojlantirish, shakllanib

borish bosqichlarini o'rgatuvchi, tadqiq va tadbiq etuvchi, talabanning nutqi ustida ishlab, uni barcha nuqsonlarini bartaraf yetib, ravon holga keltirishga va ta'sirchan ijroga erishishda xizmat qiluvchi "Sahna nutqi" fani bir qancha bo'lim va bir qancha ijodiy bosqichlardan tashkil topgan. Sahnaviy nutqning badiiy yetukligini ta'minlovchi bir qancha muhim omillar mavjud bo'lib, adabiy asarlardan olingan parchalar yoki tugallangan hikoyalar bevosita mazkur badiiy yetuklikni ta'minlovchi va takomillashtiruvchi manbaadir.

Adabiy asarlar talabanning fikr va tasavvuri asosida tizimli jonlangan so'z ta'sirchanligida uning fikrlash salohiyati, intellekti, diqqati, xoxishi, intilishi, qiziqishlari, yetuklik darajasi, e'tibori, irodasi, maqsadlari, madaniyati, ma'naviyati, aql-salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan to'liq yoki qisman olingan parcha asosidagi adabiy tarbiyaviy manbaadir.

Adabiy asarlar talabanning iqtidorini belgilovchi ijodiy imkoniyatlarining ko'zgusidir. U ijro mahoratidagi o'ziga xos jarayon bo'lib, so'z san'atining qirrali, foydali va katta vazifalari bilan birga, jamiyat taraqqiyotining xarakatlantiruvchi, uni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi kuch hamdir. Hayotdagi turli voqea va hodisalar, taraqqiyot yoki tanazzul va ziddiyatlarda inson omilining ta'sirini inkor qila olmaymiz. Aksincha, inson bu narsalarga dahldor va unga dahldorligini o'z tabiati, xislati, iste'dodi, irodasi, maqsadi, e'tiqodi yoki munosabatini so'z bilan ifodalashi yoki targ'ib qilishi sabab o'z faoliyatida turli davrlarda muomala, muloqot jarayonlarida so'zning qudrati va ta'sirchan kuchiga tayanadi.

Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari fikr va jonli so'z ifodaviyligi har bir insonda mukammal shakllanishi uchun qunt, iroda, sabot, vaqt va mehr zarur. So'zdagi har bir ma'no, muddaoni his etishga va anglashga bo'lgan doimiy ehtiyojni talab qiladi. "Asar mazmunini estetik qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan taassurotli ko'rish va assosiasiyalar tizmasini yaratish ishi asar mazmunini qayta hikoyalash orqali qo'lga kiritiladi. Binobarin, adabiy-badiiy

materialni birinchi bor o‘qib chiqilgandan keyingi o‘tkaziladigan suhbat-munozara usuli qanchalik mavqega ega bo‘lsa, o‘quvchilarning ko‘rish, baholash va o‘qilganni boshqa bir kishiga yetkazish qobiliyatini aniqlashda, rivojlantirishda asar mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoyalatish metodi ham shunchalik muhim” – deydi A.Sayfuddinov o‘z ilmiy izlanishlarida [1. B-18]. Bu o‘rinda ham so‘zning asl ma‘nosi uning zamiridagi mazmun, fikr muddaoni ocha bilish va tinglovchiga yetkaza olish alohida qunt talab qiladigan jarayondir. Bu hamisha oson va erkin kechavermaydi. Asar mazmunini o‘rganib, g‘oyasini aniqlab olib, avval ifodali o‘qish qoidalariga monand o‘qib, keyin bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lakning maqsadini aniqlab olish o‘quvchidan fikr jamlashni, so‘zamollikni, faollikni oshirish mahoratini talab etadi.

So‘zda ta’sirchanlikka erishishga intilgan har bir talaba o‘zining so‘z xazinasini boyitishi, turli mavzular, voqealar, tafsilotlar, tasvirlar bilan o‘z so‘zining kuchini va rang-barangligini mustahkamlab borishi kerak. Ijro uchun tanlangan matn hajmiga qarab uning vazifalari ortib borar ekan, ijrochining shaxsiy yon daftariga shu material talqini bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha unsurlar borki, ularni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish, ijrochidan diqqatni charxlashni talab etadi. Tabiiyki bu jarayonning eng kichik bir ko‘rinishi hisoblangan tasviriy adabiy parchadagi belgilangan yuk bir voqeali parchada bir martalik o‘tish ya’ni “perexod” bo‘lsa, shu bilan ijro tugasa, keyinchalik ikki voqeali va ko‘p voqeali parchalarda, tugallangan asar, to‘liq asarlarda katta mas’uliyat borki, endi ijrochi voqealar tizimini yo‘qotmasligi, izchillikda asardagi ko‘rinish undagi personajlar ularning xatti-harakati bilan bog‘liq har bir detalni nazardan qochirmaslik, kichik pauzalar yondosh holatlarda o‘rta pauzalar voqea rivojiga yaqin joyda va katta pauzalar aynan kulminasiya vaqtida ishlatilishini aytish mumkinki, “aktyor fikr xaritasida” saqlashi va uni kerak paytda, meyorida ishlata bilishi lozim. Tabiiyki, bu o‘rinda ijrochining nafas meyorlariga amal qilishi, uning mustahkamligi, maqsadga bo‘ysintirilganlik vazifasida

xarakat va munosabat, tempo-ritm faolligini nazarda tutgan holda ijro etilishi, ijro davomida nazorat qilinishi badiiy asar tili hamda soʻzning asosi boʻlgan fikr va unga monand munosabatning taʼsir kuchini belgilaydi.

Yuqorida aytganimizdek, asarni talqin etish davomida nutq texnikasining tarkibiy qismi va uning barcha unsurlari benuqson, ravon holda boʻlishi shart. Chunki badiiy soʻz ijrosi keyingi bosqichga oʻtganda nutqiy kamchiliklar ustida ishlashning mavridi boʻlmaydi. Nutq texnikasini oʻzlashtirish paytidagi mashqlardan toʻgʻri va unumli, ham mustaqil ravishda muntazam shugʻullanib borganda talabada koʻnikma paydo boʻlishi, kelgusida soʻz ustida ishlashning turli janrida ham toʻlaqonli talqin qila olishi, soʻz sanʼatining masʼuliyatini his etishi demakdir. Bu masʼuliyatga masʼullik, sodiqlik keyinchalik professional teatr sahnalarida spektakllarda mohirlik bilan qoʻllash va tomoshabinlarga manzur boʻladigan sahna asarlari yuzaga kelishi va uzoq yillar saqlanib qolishiga zamin boʻladi.

Teatr sanʼati talabasining aktyorlik mahoratini egallab, uni shakllantirib borishida bevosita badiiy adabiyot oʻqishi zarurligi, uning fantaziyasi, bilim intellekti, dunyoqarashining kengligi, olamda kechayotgan voqea xodisalardan xabardor boʻlishi unga oʻzining munosabatini bildirga olishi, insonlar xarakteri bilan bogʻliq boʻlgan va oʻsha jarayonda kechadigan ezgulik yoki qabixlik holatlarini aktyor ijodiy xazinasiga joylab olishi, kelgusida u ijro etayotgan roldagi soʻzning salmogʻini oshiradi, boyitadi va ijrochining oʻzigagina xos boʻlgan tassavvur bilan yukintiradi. Tassavur esa badiiy tafakkurni boyitadi. Bunga albatta badiiy adabiyot oʻqish orqali erishiladi. Oʻzbekiston xalq artisti, teatr sanʼatining yirik namoyondasi, mohir rejissyor Bahodir Yoʻldoshev shunday deydi, “Har bir kitob bu koinot, yaxshi kitob bu koinot, agar men sizga shu kitobni tushintirib berolsam men koinotni tushingan boʻlaman. Aktyor doimo charxlanib tafakkurini boyitib borishi kerak deb oʻylayman. U nafaqat badiiy adabiyot, balki boshqa soha egalarini

hayotini, ulardagi xarakter chizgilarini o'rganish maqsadida ham, ilmiy va boshqa janrdagi adabiyotlar o'qishi kerak. Aktyorning o'z hayot tarzi bo'lishi kerak, xuddi boshqa kasb egalari kabi. Misol uchun sportchiga mana bu narsa mumkin yoki mumkin emas, va xokazo. O'z o'rnida rejissyorning ham... Aktyor tomoshabindan bir pog'ona baland bo'lishi kerak, shuning uchun sahna tomosha zalidan balandroq turadi". [4.]

O'zbekiston Respublikasi prezidentining tashabbusi va maxsus qarori bilan tashkil etilgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Xalima Xudoyberdiyeva kabi yurtimizning zabardast qalam ahli nomi bilan yaratilgan ijod maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar ham adabiyotga, she'riyatga, san'atga bo'lgan qiziqish va mehlari bois ko'plab tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqdalar. Bu xayrli ishning samarasi ham manfaatli bo'lishiga ishonamiz. Ushbu maktab o'quvchilari orasidan ham teatr san'atiga ixlosmandlar chiqishiga, ularning adabiyotdagi teran fikrlari sahna san'ati ijrosi bilan uyg'un bo'lishiga, milliy san'atimizda ham ziyoli, ham iqtidorli aktyorlar, ijodkorlar salmog'i oshishiga va an'ananing davom yetishiga ishonamiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har qanday adabiy asarning to'laqonli talqini kelgusida katta spektakllar yaratilishiga zamin bo'la oladi. Adabiy parchalarning ilk bosqisidan boshlab to tugallangan katta hajmdagi badiiy asar bo'lmasin, uni ijrochi bir o'zi talqin qiladi. Asar muhitini o'rganish, matnni o'zlashtirish, yodlash mobaynida asar voqealari, undagi ziddiyatlar, ikki yoki undan ortiq personajlar, ba'zan faqat muallifning so'zi orqali yetkaziladigan asarlar borki, uni tushinib, voqealarga munosabat bildirish o'rnini ham to'g'ri tahlil qilish kabi ko'p vazifalar mavjud. Bular albatta sahna nutqi pedagoglarining talaba bilan tahliliy jarayonlar turlicha va rang-barang kechishi hammamizga ma'lum. Teatr arbobi Bahodir Yo'ldoshev aytib o'tganidek, agar shu asarni yaxshi tushintirib, maqsadlar aniq belgilansa, talabaning o'zi ham bevosita shu ishga bog'lanib, har bir mashg'ulotga yangilik qo'shib kelishi, yaxshi ijro

bo'lishiga ishonishi va unga intilayotganidan darak beradi. Yana shuni aytib o'tish lozimki, ba'zan talaba asarni yoqtirmay qoladi. Asar tahlilidan zerikishi mumkin, uni turli misollar bilan qiziqtirib olib kirs bo'ladi. O'zi yoqtirmagan ish bilan ijroga majburlab bo'lmaydi (bu pedagoglarimizga tanish holat deb o'ylayman).

Xullas talabaga adabiy asar tanlash ham uzoq vaqt talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Ba'zan o'qituvchining to'g'ri tanlovi bilan ijro muvaffaqiyatli chiqadi. Ba'zida esa talaba adabiy asar so'zini mag'z- mazmuniga tushinmaslik yoki turli bahonalar bilan paysalga soladi. Pedagogning asar yuzasidan keltirgan hayotiy misollari, ko'rgan filmlari tufayli tassavur va ishtiyoq paydo bo'ladi. Shundan keyin muntazam ravishda mustaqil ishlashi talab etiladi. Ifodali, mantiqiy va badiiy o'qish usullarini tushinib mustahkamlagandan so'ng, ijrochi zimmasidagi bajarishi lozim bo'lgan so'z ustidagi bo'liminig barcha unsurlari bilan ishlashni nazardan qochirmaslik kerak. Yana shuni ta'kidlash kerakki, tahliliy jarayon har gal turlicha kechadi. Chunki jonli so'z ijrochisi bo'lgan talabada hali ko'nikmalar to'liq shakllanib ulgurmagan. Bu albatta yosh bilan hayotiy tajriba, kuzatuvlar bilan keladigan hamda so'z ijrochisining individualligiga, qobiliyatiga bog'liqligini hisobga olmoq zarur.

Teatr san'atida dramatik asar g'oyasini ochish sahna nutqining asosiy vazifasi hisoblanar ekan, so'z ohangida paydo bo'ladigan muddaoning badiiy shaklda ifodalanishi sahna nutqinig oliy maqsadidir. Bu maqsad jonli so'z ta'sirchanligini oshirib, unga estetik zavq berishga yo'naltiriladi. Tomosha mobaynida ta'sirli, badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan so'z va unga monand ko'z, qiyofa, ya'ni ruhiy va jismoniy uyg'unlini ko'ramiz. Bunga erishish uchun adabiy asardagi muallif g'oyasini, undagi eng oliy insoniy yuksak xisssiyotlarni, asar personajlarining maqsad-muddaolarini to'la o'rganish lozim.

Ta'sirchan so'z orqali taqdim etiladigan sahna asarlarida ijrochi yuqori saviyaga, bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Shundagina

ma'nan yetuk, mazmunan boy va zamon bilan hamnafas sahna asarlari, ijod mahsullarini yaratilishida, teatr ijodkorlari, badiiy so'z ijrochilarining muqaddas sahnaga bo'lgan qalb da'vati va ijod mas'uliyatidan mamnun bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfiddinov A. *Adabiy asar va ijrochilik mahorati*. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1980.
2. Tursunov T. *Sahna va zamon*. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.
3. Xodjimatrova M. *Sahna nutqi*. / Darslik. – Toshkent: “Zamon poligraf” nashriyoti, 2020.
4. Yo'ldoshev B. *Men bilgan haqiqatlar*. / Teleloyiha. *Madaniyat va ma'rifat telekanali*.
5. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*. – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
6. Xalikulova G. E. *Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar*. – 2012.
7. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS* Uchrediteli: Premier publishing sro. – №. 2. – S. 116-119.
8. Jumanova D. *MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture*. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
9. Jabborov B. I. O. G. L. *Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlari //Science and Education*. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
10. Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts*. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.

11. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O‘RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.

12. Toxirov O. MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.

13. Xodjimatrova M. et al. TEATR SAN’ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 186-194.

Xudoyberdiyeva Shaxnoza

*Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada
va sirk texnikumi sirk san’ati bo‘limi
aktyorlik mahorati fani o‘qituvchisi*

SAHNA NUTQI: MOHIYATI, AHAMIYATI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada sirk san’ati bo‘limi aktyorlarida sahna nutqi fanining o‘rni, uning mohiyati haqida so‘z boradi. Chunki sahna nutqi orqali asarning g‘oyasi, obrazning ichki dunyosi va muallif fikri tinglovchi hamda tomoshabinga yetkaziladi. Sahna nutqi nafaqat aktyorning, balki barcha ijodkorning ruhiy va ma’naviy dunyoqarashini namoyon etadi. Shu bois bu sohaning ilmiy asoslari, amaliy qoidalari va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati tobora organi keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sahna nutqi, sahna, obraz, xarakter, ravon, teatr, aktyor, talaffuz, orfoepiya, rejissyor, xalq og‘izaki ijodi, g‘oya.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение дисциплины «сценическая речь» для актёров циркового искусства, её сущность и особенности. Вед именно через сценическую речь до зрителей и слушательей доносится идея

произведения, внутренний мир образа и мисл автора. Сценическая реч отражает не толко духовний и нравственный мир актёра, но и вцех творсов искусства. Поэтому научние основы, практические правила, а также образовательное и воспитательное значение данной области освешаются всё более широко.

Ключевие слова: *сценическая реч, сцена, образ, характер, виразителност, театр, актёр, произношение, орфоэпия, режиссёр, народное устное творчество, идея.*

Annotation: *This article discusses the significance of the discipline stage speech for actors in the field of circus art, its essence and characteristics. Through stage speech, the idea of a work, the inner world of a character, and the author's message are conveyed to the audience and listeners. Stage speech reflects not only the spiritual and moral worldview of the actor, but also that of all creative artists. Therefore, the scientific foundations, practical principles, as well as the educational and moral importance of this field are being increasingly highlighted.*

Keywords: *stage speech, stage, image, character, fluency, theatre, actor, pronunciation, orthoepy, director, folk oral creativity, idea.*

San'at olamida nutq madaniyati, ayniqsa sahna nutqi o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki sahna nutqi orqali asarning g'oyasi, obrazning ichki dunyosi va muallif fikri tinglovchi hamda tomoshabinga yetkaziladi. Sahna nutqi nafaqat aktyorning, balki barcha ijodkorning ruhiy va ma'naviy dunyoqarashini namoyon etadi. Shu bois bu sohaning ilmiy asoslari, amaliy qoidalari va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Sahna nutqi – bu sahnada tinglovchiga ta'sirchan, ravon va obrazli tarzda murojaat qilish san'ati. U quyidagi vazifalarni bajaradi: Asar g'oyasi va muallif fikrini tomoshabinga to'la yetkazish; Obrazning xarakterini nutq orqali ochish; Tinglovchini

hissiyotga chorlash va ruhiy ta'sir o'tkazish; Milliy tilning boy imkoniyatlarini namoyon qilish.

Sahna nutqi nazariyasi va amaliyoti jahon va milliy san'at arboblari tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, K.S. Stanislavskiy, V.I. Nemirovich-Danchenko kabi rus teatrshunoslarining ishlari, shuningdek, o'zbek teatrining yirik arboblari Abdulla Qahhor, Muhammadjon Qori-Niyoziy va boshqalarning fikrlari bu sohaning nazariy va amaliy poydevori hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda sahna nutqi sohasini rivojlantirish maqsadida qator keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda: Teatr va drama studiyalarida sahna nutqi fanini zamonaviy uslubda o'qitish; Aktyor va rejissyorlar uchun maxsus nutq texnikasi kurslarini tashkil etish; Oliy ta'lim muassasalarida nutq madaniyati va sahna nutqiga bag'ishlangan fanlar sonini ko'paytirish; Milliy sahna san'atida davlat til qonunchiligi va uning meyorlariga qat'iy rioya qilish; Radio, televideniye va ommaviy axborot vositalarida diktorlar nutqini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda; Yosh aktyor va ijodkorlar ishtirokida nutq mahorati bo'yicha respublika miqyosida turli tanlovlar va festivallar tashkil etilmoqda.

Bu jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalari va internet platformalaridan samarali foydalanish, nutqni tinglovchiga yanada ta'sirchan va ta'sirli yetkazish imkonini bermiqda.

Sahna nutqi bo'yicha zamonaviy darsliklar va metodik qo'llanmalar yaratish zarur.

Teatr, radio va televideniye xodimlari uchun doimiy ravishda nutq madaniyati seminarlarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Yoshlar orasida nutq madaniyati, to'g'ri talaffuz va orfoepiya bo'yicha turli ko'rik-tanlovlarni kengaytirish lozim.

Milliy sahna nutqini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy dramaturgiya namunalaridan keng foydalanish kerak.

Sahna nutqi – bu faqatgina aktyorlik mahoratining bir qismi emas, balki millat ma’naviyati va madaniyatining muhim ko‘rsatkichidir. U orqali tilning salohiyati, xalqning dunyoqarashi va ijodiy ruhi namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, madaniy-ma’rifiy dasturlar va ta’limiy islohotlar sahna nutqining yanada yuksalishiga zamin yaratmoqda. Demak, sahna nutqini takomillashtirish – kelajak avlod ma’naviyatini yuksaltirish, milliy madaniyatning taraqqiyoti uchun muhim vazifadir.

Ilm bilan san’at bir biri bilan o‘pka va yurak kabi uzviy bog‘langanligi, ulardan biri buzilgan bo‘lsa ikkinchisi ham ishlamaydi, deb yozgan edi L.N. Tolstoy. K.S. Stanislavskiy tizimining sahna nutqini o‘qitish metodikasi ham buyuk yozuvchi obrazli qilib aytganidek, ilm bilan san’atning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga asoslanadi. Sirk san’ati bo‘limida ham shu yo‘l asosida sahna nutqi fani o‘tiladi. Sahna nutqi nafaqat sahnada, balki biz yashayotgan jamiyatimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turabovich K. R. *The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.* – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
2. Xalikulova G. E. *Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar.* – 2012.
3. YUSUPOV S. H. *CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Uchrediteli: Premier publishing sro.* – №. 2. – S. 116-119.

4. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
5. Jabborov B. I. O. G. L. Qo 'g 'irchoq teatrda sahna nutqining o 'ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.
6. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.
7. Ibragimova U. et al. MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O 'RNI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.
8. Toxirov O. MUSTAQIL TA'LIM MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.
9. Xodjimatoeva M. et al. TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION-IJODIY HAMKORLIGI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 186-194.

IFODALI O'QISH, BADIY O'QISH VA BADIY SO'Z MUSHTARAKLIGI

Annotatsiya. Maqolada sahna nutqi fanining uch asosiy komponenti - ifodali o'qish, badiiy o'qish va badiiy so'zning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishlarning umumiy va farqli jihatlari qiyosiy usulda tahlil qilingan. Saxna nutqi ta'limida uch komponentning o'zaro aloqasi va ularning teatr pedagogikasidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sahna nutqi, ifodali o'qish, badiiy o'qish, badiiy so'z, aktyorlik mahorati, teatr pedagogikasi, intonasiya, ovoz texnikasi.

Аннотация. В статье исследуются теоретико-методологические основы трех основных компонентов сценической речи - выразительного чтения, художественного чтения и художественного слова. Общие и различительные аспекты данных направлений анализируются сравнительным методом. Раскрывается взаимосвязь трех компонентов в обучении сценической речи и их роль в театральной педагогике.

Ключевые слова: сценическая речь, выразительное чтение, художественное чтение, художественное слово, актерское мастерство, театральная педагогика, интонация, техника голоса.

Annotatsion. The article examines the theoretical and methodological foundations of three main components of stage speech - expressive reading, artistic reading and artistic word. The general and distinctive aspects of these areas are analyzed using a comparative method. The interrelation of the three components in stage speech education and their role in theatrical pedagogy is revealed.

Keywords: *stage speech, expressive reading, artistic reading, artistic word, acting skills, theater pedagogy, intonation, voice technique.*

Zamonaviy teatr ta'limida sahna nutqi fanining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalasi alohida muhimlik kasb yetmoqda. Aktyorlik ta'limining asosiy qismlari - ifodali o'qish usullari, badiiy o'qish metodikasi va badiiy so'z tizimi orasidagi tuzilmaviy bog'liqlik va farqli xususiyatlarni aniqlash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb yetadi.

Tadqiqotning maqsadi sahna nutqining uchli tuzilishini qiyoslash usulida o'rganish, qismlarning umumiy va alohida belgilarini tartibga solish orqali teatr ta'limida yangicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi zamon sahna san'atida, kino va ommaviy axborot vositalari sohasida kadr tayyorlash jarayonida sahna nutqi elementlarining nazariy tushunchasi yetarli darajada ilmiy asoslanmagan. Ifodali o'qish, badiiy o'qish va badiiy so'zning o'zaro fanlararo munosabatlarini ilmiy asoslash ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Ifodali o'qish sahna nutqining dastlabki bosqichi hisoblanib, unda ikki qutbli tuzilma mavjud: talaffuz usullari va hissiy ifodalilik¹. K.S.Stanislavskiy tizimida ifodali o'qish aktyorning matn bilan o'zaro ta'sirining boshlang'ich bosqichi bo'lib, personajning ruhiy olamini ochishga asos yaratadi².

Ifodali o'qishning imkoniyatlari shundan iboratki, u talabalarda muloqot qobiliyatini shakllantirishning asosiy mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu jarayonda intonasion, vaqtincha, to'xtov va urg'u ko'rsatgichlari majmuasi ishga tushiriladi.

Badiiy o'qish estrada ijodiyotining bir bo'limi bo'lib, ifodali o'qishdan miqdor va sifat jihatdan kengroq diapazonga ega. U nafaqat matnni to'g'ri takrorlashni, balki tomoshabinlar bilan

o‘zaro ta’sirli muloqotni ham o‘z ichiga oladi⁴. Badiiy o‘qishning turli ko‘rinishlari quyidagi asosiy guruhlarini o‘z ichiga oladi:

Bir aktyor teatri sahnada faqat bitta aktyor ishtirok etadigan teatr shakli bo‘lib, unda ijrochi yolg‘iz o‘zi turli obrazlarni namoyish etadi va voqealarni hikoya qiladi. Bunday ijroda aktyor spektaklni yolg‘iz o‘zi boshqaradi, barcha qahramonlarning rollarini ifodalaydi. Bir aktyorli spektaklda deyarli bezak ishlatilmaydi, barcha e’tibor ijrochi-aktyorga qaratiladi.

Ifodali o‘qish usuli esa, matnni hissiy ta’sir, intonasiya, sur’at va pauzalarni to‘g‘ri qo‘llab, tomoshabinlarga mazmunni chuqur yetkazish texnologiyasidir. Bu metodika nafaqat adabiy asarlarni tushunishda, balki muloqot madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek badiiy o‘qish an’analari Qosimqul Do‘stmurod, Hamrobibi Umarali qizi singari xalq ijodkorlari faoliyati bilan shakllangan. Ular asarning tiliga, iboralarning qisqa, sodda, tushunarli va obrazli tuzilmalarining o‘zgartirishga e’tibor qaratish bilan birga ijro jarayonida tovushning o‘zgarishidan, nutqiy tasniflashdan, taqlid texnikasidan, yuz ifodalari va ishora-imolaridan, tezlashuvdan mahorat bilan foydalanganlar. Zamonaviy davrda A.Hidoyatov, SH.Burhonov, O.Xo‘jayev kabi teatr ustalari ushbu an’ananing davomchilari bo‘lganlar⁵.

Badiiy so‘z adabiy asarlardagi obrazli, hissiy va estetik jihatdan tayyorlangan til tizimi bo‘lib, aktyor faoliyatida asosiy ishchi vosita hisoblanadi⁶. U odatdagi kundalik so‘zlashuvdan farqli ravishda maxsus badiiy vositalar orqali kuchli ta’sir yaratishga yo‘naltirilgan. Badiiy so‘zning asosiy xususiyatlarini batafsilrok ko‘rib chiqishda quyidagi qismlar ajralib turadi. Bular obrazlilik, hissiylik va ritmli tashkillash.

Obrazlilik metafora, epitet kabi uslubiy vositalar orqali oddiy tushunchalarni san’at asari darajasiga ko‘tarish qobiliyati xisoblanib, bu xususiyat aktyorga mavhum g‘oyalarni aniq ko‘rinishli obrazlarga aylantirish imkoniyatini beradi. Hissiylik - matnning

hissiy zaryadi va uning tomoshabinlarda hamdardlik tuygʻusi uygʻotish imkoniyatlari xisoblanib, talaba aktyor hissiy qism orqali personajning ruhiy holatini asl koʻrinishda ifodalaydi. Ritmli tashkillash degan ibora xam borki, bu soʻzlarning vaqtincha tartib va uygʻun tuzilishi, bu aktyorga nafasni nazorat qilish va gaplarni musiqiy tuzilmada taqdim etish imkoniyatini beradi. Va nixoyat musiqiy tuzilma. Bu intonasion shakl va ovozning akustik darajasi orqali soʻzga musiqiylik bagʻishlash. Har bir toʻldiruvchi, pauza va intonasiya maʼno yukiga ega boʻladi.

Aktyor badiiy soʻz vositasi orqali personajning ichki haqiqatini namoyish yetadi. Masalan, Shekspirning "Hamlet" asaridagi "Yashamoq yo oʻlmoq" monologini ijro etganda aktyor nafaqat matnli mazmunni, balki bosh qahramonning falsafiy muammosi va ikkilanishlarini ham yetkazishi lozim. Uning aqliy, falsafiy mulohaza xarakteri namoyon boʻlishi kerak. Monologdagi chuqur falsafiy fikrlar aktyorning nafaqat maʼnoviy mazmunni, balki Hamletning ichki kurashi, ikkilanishlari va azoblarini ham ochib koʻrsatishini talab yetadi⁷.

Uch turlarning oʻxshash jihatlarini batafsil tahlil qilganda quyidagi murakkab tuzilmalar ajralib turadi. Bu turlar barcha sohalarda nafas nazorati, til tozaligi va talaffuz mashqlari muhim oʻrin tutadi. Bu qism nafas boshqarish metodikasi, ovozni qoʻyish texnikalari va talaffuz apparatini mashq qilishni oʻz ichiga oladi. Aktyor oʻz ovozini uzoq vaqt saqlab qolish, turli personajlarning ovozlarini farqlash va intonasiyani oʻzgartirish mahoratini egallashi lozim. Matn bilan ishlashda adabiy asar mazmunini chuqur tushunish va tomoshabinlarga yetkazish barcha turlarda talab qilinadi. Bu nafaqat yuzaki maʼnoviy izohni, balki soʻzlar ostida yashirin mavjud nozik maʼnolarni, belgilarni va obrazlarni ochishni ham talab etadi. Aktyor personajning har bir soʻzini tahlil qilib, uning ichki mantigʻini topishi kerak boʻladi.

Ruhiy-hissiy holatlarni chin koʻrinishda ifodalash va tomoshabinlarni hamdardlik reaksiyasiga olib kelish umumiy

maqsaddir. Qo‘rquv, xursandchilik, g‘azab, qayg‘u kabi tuyg‘ularning barchasi til vositasi orqali namoyon bo‘ladi. Bunda aktyorning har bir jumlasini ehtiyotlik bilan strategik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Tovushning balandligi, vaqtincha ritm va o‘lchamni boshqarish barcha turlarda zarurdir⁸. Bir xil matn turli intonasiya shakli bilan aytilganda mutlaqo boshqacha ma‘noviy fikr kasb etishi mumkin. Bu xolatda talaba aktyor so‘zlarning musiqiyligini, to‘xtov va urg‘u tuzilmalarini to‘g‘ri joylashtirishni bilishi zarur.

Ifodali o‘qish o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu metodika asosan akademik muhitda pedagoglik maqsadlari uchun ishlatiladi. Talabalarning muloqot qobiliyatini shakllantirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Ijrochi matnni kitobga qarab o‘qiydi, bu jarayonda asosiy e‘tibor matnning to‘g‘ri izohiga qaratiladi. Nutq madaniyatini shakllantirish, adabiy asarlarni tushunish va estetik qabul qilishni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Badiiy o‘qishda quydagi jarayonlar farqlanadi. Estrada san‘at turini ifodalash - bu kasbiy ijro turini namoyish yetadi, unda ijrochi tomoshabinlar bilan bevosita muloqotga kirishadi. Xalq oldida mustaqil ko‘rsatish shaklida amalga oshiriladi. Tomoshabinlar oldida mustaqil taqdimotda ijrochi tomoshabinlar bilan bevosita muloqot o‘rnatadi, bu spektaklning ta‘sirini kuchaytirish uchun hissa qo‘shadi. Kasbiy tayyorgarlik talabi yuqori darajadagi ovoz texnikasi, sahna mahorati va tomoshabinlar bilan ruhiy aloqa o‘rnatish qobiliyatlari talab etadi. Saxnada bezak va rekvizit elementlarini kamaytirilib, barcha e‘tibor ijrochi-aktyorga qaratiladi.

Dastlabki bosqichda talabalar nafas nazorati, til tozaligi va talaffuz aniqligini egallaydilar. Nafas boshqarish texnikasi, ovozni qo‘yish metodikasi va asosiy intonasiya tuzilmalari bilan ishlash qobiliyati shakllanadi. Matnning ma‘noviy mazmunini tushunish va uni tomoshabinlar uchun tushunarli shaklda taqdim etish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu bosqichda asosiy e‘tibor talaffuz texnikasi va hissiy ifodalilikning boshlang‘ich darajalarini

egallashga qaratiladi. Badiiy o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichda talabalar estrada ijrosining murakkab jihatlarini o‘zlashtiradilar. Tomoshabinlar bilan ruhiy aloqa o‘rnatish, turli janrlar - bir aktyor teatri, musiqiy she‘r va ifodali o‘qish usullarini alohida ravishda qo‘llash mahoratini egallaydilar. Tanlangan ijro va moslashish qobiliyatlari rivojlantiriladi, turli tomoshabin turlariga moslashish usullari egallanadi. Kasbiy sahna taqdimoti texnikalari va mustaqil ijro qilish qobiliyatlari shakllanadi. Ikki bosqichni o‘tab bo‘lganimizdan so‘ng yuqori bosqich - badiiy so‘z mahoratini takomillashtirishga o‘tamiz. Eng murakkab bosqichda talabalar aktyorlik san’atining eng nozik jihatlariga kiradilar. Personaj yaratish, xarakter qurish va ruhiy motivlarni so‘z orqali namoyish etish mahoratini egallaydilar. Turli uslublar - klassik fojia, komediya, zamonaviy drama kontekstida badiiy so‘zni qo‘llash texnikalarini turlantiradilar. Izohlovchi ijodkorlik va shaxsiy san’atkorlik uslubini shakllantirish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Teatr spektakli va kino loyihalarida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha qobiliyatlar birlashtiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida sanab o‘tgan turlar ifodali o‘qish, badiiy o‘qish va badiiy so‘z o‘rtasida chuqur dialektik bog‘liqlik mavjud. Ularning umumiyligi ovoz texnikasi tizimi, matn bilan ishlash qobiliyati va hissiy ta’sir yaratish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Farqlilik jihatlar qo‘llanish sohasi, strategik maqsadlar va ijro usullarida ko‘zga tashlanadi. Ifodali o‘qish ta’lim bosqichi, badiiy o‘qish estrada san’at turi, badiiy so‘z esa aktyorlik kasbining asosiy vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy teatr ta’limida ushbu uch qismning o‘zaro aloqador xususiyatlarini hisobga olgan holda birlashtirilgan tizim sifatida o‘qitish aktyor kadrlarining sifatli tayyorlanishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijasi sifatida o‘qitish jarayonida uch qismning tartibli birlashishi aktyor mahoratining bir yo‘lda rivojlanishini rag‘batlantiradi degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov M. *Badiiy soʻz maysterligi*. – T.: *Sanʼat*, 1995. – B. 89.
2. Hidoyatov A. *Oʻzbek teatri sanʼati*. – T.: *Gʻafur Gʻulom* nomidagi nashriyot, 1976. – B. 156.
3. Rahimov N. *Sahna nutqi asoslari*. – T.: *Oʻqituvchi*, 1994. – B. 67.
4. Burhonov SH. *Estrada ijodi tarixi*. – T.: *Adabiyot va sanʼat*, 1987. – B. 134.
5. Xoʻjayev O. *Xalq teatri anʼanalari*. – T.: *Fan*, 1990. – B. 78.
6. Abduqodirov M. *Badiiy soʻz maysterligi*. – T.: *Sanʼat*, 1995. – B. 123.
7. Shekspir V. *Tanlangan dramalar*. – T.: *Sharq*, 2000. – B. 201.
8. Komilov E. *Teatr pedagogikasi asoslari*. – T.: *Oʻzbekiston*, 2002. – B. 145.
10. Turabovich K. R. The founders of the science of uzbek stage speech //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 4. – №. 40. – S. 79-85.
11. Xalikulova G. E. Aktyorning saxna nutki maxoratini egallashda nafasni takomillashtiruvchi yangi uslubiy izlanishlar. – 2012.
12. YUSUPOV S. H. CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE. ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM “ALPOMISH” //EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Uchrediteli: Premier publishing sro. – №. 2. – S. 116-119.
13. Jumanova D. MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 119-129.
14. Jabborov B. I. O. G. L. Qoʻgʻirchoq teatrida sahna nutqining oʻziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 9. – S. 193-200.

15.Navruzovna I. U. *A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage* //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – S. 20-23.

16.Ibragimova U. et al. *MASAL JANRI USTIDA ISHLASHDA SAHNA NUTQNING O 'RNI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 286-291.

17.Toxirov O. *MUSTAQIL TA'LIM MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI* //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – S. 421-426.

18.Xodjimato va M. et al. *TEATR SAN'ATI PEDAGOGLARINING PROFESSIONAL AKTYOR TARBIYASIDAGI INNOVATSION–IJODIY HAMKORLIGI* //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – S. 186-194.

MUNDARIJA

Mundarija

So‘zboshi..... 3

I SHO‘BA. SAHNA NUTQI TARIXINI TIZIMLI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI

Ergasheva Zilola.

LINGUISTIC FEATURES OF IDIOMS IN DEVELOPING ORAL
SPEECH OF ART AND CULTURE STUDENTS 5

Ismoilov Xamdam.

TIL VA ADABIYOT TARAQQIYOTI – NUTQ MADANIYATI
TARAQQIYOTI 11

Jabborov Bobirjon.

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI: KAMTARLIKDAN
MO‘JIZAGACHA 18

Muxamedova Madinaxon.

YETTI GO‘ZALNING BIRI-RA‘NO 24

Muxamedova O‘g‘iloy. MILLIY RAQS SAN‘ATINI
RIVOJLANTIRISHDA AYOL
SAN‘ATKORLARNING O‘RNI 30

Tashkenbayev Po‘latjon.

МАГИЯ ЭСТРАДНОГО СЛОВА..... 37

Urayev O‘lmas.

“ART HAUSE HAMSA” TEATR STUDIYASIDA PREMYERA
..... 44

Hamidova Shoir.

MEHRIBON USTOZ EDI..... 49

Xushvaqtov Eldor.

O‘ZBEK KINEMATOGRAFIYASINING SHAKLLANISHIDA
TEATR AKTYORLARINING HISSASI 54

Yuldasheva Dinara.

ОСОБЕННОСТИ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ТЕАТРЕ КУКОЛ
(Проблемы и их решение 63

Yunusova Dilbar.

“BAHOR” ANSAMBLI FAOLIYATINING YANGI
SAHIFALARI 68

**II SHO‘BA. AKTYOR MAHORATI VA SAHNA NUTQI
FANLARINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI: NAZARIY VA
AMALIY MASALALARI, MUAMMOLARI, YECHIMLARI**
Bakhiyeva Bibinaz.

SAXNA SÓZI PÁNINE MEDICINALÍQ KÓZQARAS 75

Djumanov Isaktay.

ESTRADA AKTYORINI TARBIYALASHDA MURAKKAB
SO‘Z BIRIKMALARI VA SO‘ZAMOLLIK MAHORATI..... 79

Ibragimova Umida.

MUSIQALI KOMEDIYADA NUTQIY XARAKTER YARATISH
..... 88

Ismailov Ajiniyaz.

SIRLI QUDUQNING SIRINI OCHGAN SPEKTAKL 99

Jumanova Dilrabo.

YAKKA DARS – SIFATLI TA’LIMGA ERISHISH OMILI .. 103

Maxmudova Xamida.

AKTYORLIK SAN’ATIDA SO‘Z XATTI-HARAKATI..... 113

Qobilov Xabibullo.

TARIXIY ASARLAR DISKURSIDA UMUMINSONIY
QADRIYATLARNING AKS ETISHI: QIYOSIY-
GERMENEVTIK TAHLIL 121

Qodirov Ramz.

TALABA-AKTYORLARNING KASBIY MAHORATINI
SHAKLLANTIRISHDA ARUZ TALQINI..... 125

Shodmonova Munira.

NUTQ MADANIYATI VA TIL ME’YORLARI MUVOZANATI
..... 132

Toxirov Oybek.

BADIIY ASARNING SAHNALASHTIRILISHIDA
LINGVOTRANSFORMATSION JARAYONLAR TADQIQI 143

III SHO‘BA. TEATR, KINO, TELEVIDENIYE VA RADIODA SAHNA NUTQI: DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Abdireyimov Manas.

SES REJISSYORI HÁM AKTYOR BIRGE ISLEWINDE
DUBLYAJ KÓRKEM ÓNERI TÚRLERI..... 150

Azizova Omina.

KADRDA FOLKLOR: SO‘Z VA EKRAN MULOQOTI 155

Bauetdinov Sharafatdin.

FILMLERDE SES EFFEKTI HÁM MUZIKANIN DRAMALIQ
TÁSIRI 161

Kurbaniyazov Rufat. ZAMANAGÓY TEXNOLOGIYALAR
HÁM SES REJISSYORININ JUMIS USIL 165

Magdiyev Bahodir.

TELE VA RADIO BOSHLUVCHILARINI TARBIYALASHDA
SAHNA NUTQINING AHAMIYATI 170

Mirzaxmedova Laylo. RADIOBOSHLOVCHILIKDA SAHNA
NUTQI FANINING O‘RNI 176

Umarova Sitara. TELEVIDENIYE VA RADIODA SAHNA
NUTQI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR 180

Xoliqulova Go‘zal.

TELEVIDENIYE VA RADIODA NUTQNING O‘ZIGA XOSLIGI
VA ADABIY TIL MEYORLARI MASALALARI 185

Xudoynazarova Shaxzoda.

ПОЭЗИЯ НА ЯЗЫКЕ ТАТЦА 179

Yuldashev Izzat.

O‘ZBEK MUSIQIY FOLKLORIDA NUTQIY IFODALARNING
KUY-OHANG TUZILMALARIGA UYG‘UNLASHUVI 204

Zaretdinov Karamatdin.

AXBOROT DASTURLARIDA OVOZLI NUTQNI
BOSHQARISHNING LINGVISTIK ASOSLARI209

IV SHO‘BA. SAN‘AT VA MADANIYAT SOHASIDA
MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA SAHNA NUTQI
METODIKASIDAGI YANGI IZLANISHLAR, MUAMMOLAR
VA YECHIMLAR

Imomova Shahribonu.

O‘ZBEK TEATR SAHNASIDA OILAVIY QADRIYATLAR
TALQINI.....214

Jumanov Rinat.

QARAQALPAQ TILINDE DAUSLI SESLERDIN
ARTIKULYACIYALIQ SÍPATLAMASI219

Paxruddinova Karomat.

MASHARABOZLIK SAN‘ATI: SAHNA NUTQI VA
XOREOGRAFIYA UYG‘UNLIGI225

Tilepov Quatbay.

EFIRDA NOTIQLIK SAN‘ATI VA NUTQ MADANIYATI ..231

Turg‘unboyev Fayoz.

YOSH PEDAGOGLARNING BADIY VA KASBIY
SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIY POYDEVORNING O‘RNI236

Xakimova Nigina.

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORI FAOLIYATIDA
NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI242

Xodjimatova Maxsuma.

ADABIY ASAR TAHLILI VA TALQINI248

Xudoyberdiyeva Shaxnoza.

SAHNA NUTQI: MOHIYATI, AHAMIYATI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI255

Yusupov Shokir.

IFODALI O‘QISH, BADIY O‘QISH VA BADIY SO‘Z
MUSHTARAKLIGI260

SAHNA NUTQI MASALALARI: MUOMMO VA YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

Mas'ul muharrir:

U.Ibragimova – “Sahna nutqi” kafedrası dotsenti

Muharrirlar:

G.Xalikulova – san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

R.Qodirov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),
professor v.b

M.Xodjimatova – professor

X.Djuldikarayeva – professor v.b



Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022

Bosishga ruxsat etildi: 17.06.2024 Ofset qog'oz.

Qog'oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturası. Shartli bosma tobog'i
14.6 Nashr hisob tobog'i 13,6. Adadi 500

«ZAMON POLIGRAF» OK

bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bobodehqon mahallasi, 45 uy.